

# PEDAGOGIKA



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov,  
I.Sh. Alqarov, N.O'.Usmanov

# PEDAGOGIKA

*O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rtā maxsus ta'lim  
vazirligi tomonidan 100000–o'qituvchilar tayyorlash  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida  
tavsiya etilgan*

«NOSHIR»  
TOSHKENT  
2011

УДК: 371 (075)

74.03

P29

**Pedagogika (pedagogika nazariyasi va tarixi).** Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. J.Hasanboyev va boshqalar. O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. –Toshkent: «Noshir», 2011. 456 b.

I. Hasanboyev J. va boshqalar.

BBK 74.03я73

Mazkur darslik pedagogika nazariyasi kursining maqsad va vazifalari, fanning umumiy asoslari, pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari, tarbiya va ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillari, turlari, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy merosdan foydalanish yo'llari, shakllari va vositalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, ta'lim oluvchilar bilimlarini tashkil etish, korreksion pedagogika haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Darslik pedagogika oliy o'quv yurtlarining mutaxassis fakultetlari talabalarini, pedagogika kollejlarining o'quvchilari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur darslik oliy o'quv yurtlari talabalarini, magistrlar va aspirantlar, shuningdek, pedagog-mutaxassislarga mo'ljallab tayyorlandi.

Ushbu darslik «Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari»ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish mavzusiga oid fundamental hamda «Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining kasbiy, pedagogik va ma'naviy-ma'rifiy sohalari bo'yicha bosqichma-bosqich malaka oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy tadqiqot doirasida ishlab chiqildi.

*Taqrizchilar:*

**N.Shodiyev, pedagogika fanlari doktori, professor,  
Q.Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor**

ISBN 978-9943-353-59-6

© «Noshir», 2011.

## KIRISH

Insonni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo'lib, ajdodlarimiz ma'rifat, ma'naviyat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rgatish ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun-qoidalarini muttasil izlaganlar. Bu esa **pedagogika** fanining maydonga kelishiga sabab bo'lgan. Chunki, insonning ma'rifatli bo'lishi va ma'naviy komillikka erishishi **pedagogika** fanining yetakchiligida amalga oshiriladi.

Ma'lumki, mamlakatimiz taraqqiyoti va kelajagi ta'lim-tarbiya sohasidagi sifat o'zgarishlari qilib yuqori samaradorlikka erishishga, ularning jahon ta'limi talablari bilan mosligi va amaliy hayotdagi o'rnini qay darajada topayotganligiga bog'liq.

Ta'lim-tarbiyadagi sifat o'zgarishlar va yuqori samaradorlik ko'proq milliy pedagogikamizning tarixiy ildizlari va zamonaviy yutuqlarini talabalar ongiga singdirishni qay darajada olib borilganligiga bog'liq bo'lib, u barkamol avlod tarbiyasida mustahkam asos bo'ladi. Shunday asoslarda ta'lim-tarbiya berish bo'lajak mutaxassislarini yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi innovatsion jarayon bo'lib, oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyalarini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bu talablarni bajarish ta'lim-tarbiya jarayonini ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida, zamon talablarini hisobga olgan holda tashkil etish muammosi mavjudligini ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta'limi andozalari talablarlariga mos keluvchi «Davlat ta'lim standartlari»da davr bilan hamnafas, ya'ni «Intellectual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko'zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma'noda ta'lim-tarbiya

va ularning rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar bilan bog'langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayonni o'zida mujassamlashtiradi.

«Barkamol shaxs tarbiyasi» degan tushuncha tasodifan paydo bo'lgan emas. Bu inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar asosida shakllana boshladi va hozirgacha jamiyat taraqqiyotiga mos holda takomillashib kelmoqda. Ular, asosan, qissalar, pandnomalar, qadriyatnomalar, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida va boshqa shu kabi manbalarda asoslab berilib, avlod-dan avlodga o'tkazildi va keyinchalik mustaqil fan sifatida shakllanib o'z mavqeyini mustahkamladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta'lim – fan – amaliyot» integratsiyasining ta'lim tizimidagi samarasiga alohida e'tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me'yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.

Shu ma'noda bo'lajak o'qituvchilar zimmasiga qo'yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy pedagogika fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi. shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasidagi pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan pedagogika fani o'qituvchilik kasbiga tayyorlash tizimida alohida ahamiyat kasb etadi va ixtisoslikka yo'naltiruvchi fan hisoblanadi. Mazkur o'quv fani o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf-odat, marosim va an'analari hamda xalq pedagogikasi aqidalariga asoslanib, bo'lajak o'qituvchini milliy mustaqillik sharoitida yosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berish, shaxsni kamol toptirish, e'tiqod va maslaktarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy yuksaltirish jarayo-

niga olib kiradi. Pedagogika fanining boshqa fanlar orasidagi tutgan muhim o'rnini ham ana shundadir.

Pedagogika fani ijtimoiy fanlar tizimiga kirib, u o'zining nazariy, milliy va amaliy asoslariga ega.

**Pedagogika fanining nazariy asoslari:** pedagogika fanining nazariy asoslari inson aqliy kamolotini yuksaltirishga qaratilgan, xalqimiz tomonidan yaratilgan boy tajriba, ilmiy-tadqiqotlarga doir nazariy va metodik manbalarga. O'rta Osiyo va jahon ma'rifatparvar, mutaffakkir olimlarning asarlariga suyangan holda barkamol shaxsni tarbiyalash, o'qitishning qoida va umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

**Pedagogika fanining milliy asoslari:** pedagogika fanining milliy asosi ta'lim muassasalarini har bir millatning milliy merosi bilan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni bog'lagan holda amalga oshirishdir. Har bir millatning o'ziga xos meros va qadriyatlarga suyangan holda tarbiyashunoslik masalalarini milliy asosda yosh avlodga yetkazishning mazmuni, shakli, metod va tamoyillarini milliy lashtirishdir.

Mualliflar ushbu darslikni tayyorlashda 2009-yil «Fan» nashriyoti tomonidan chop etilgan J.Hasanboyev, H.Sariboyev, G.Niyozov, O.Hasanboyeva, M.Usmonboyevalar tomonidan tayyorlangan «Pedagogika» o'quv qo'llanmasidan ijodiy foydalanishdi.

Ushbu darslik haqidagi fikr va mulohazalarni mualliflar mamnu-niyat bilan qabul qiladilar.

Bizga bitiruvchilar emas, balki maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan bilimli kadrlar kerak.

*Islom Karimov*

---

---

## **1-MAVZU: KADRLAR TAYYORLASH MILLIY MODEL. HOZIRGI JAMIYATDA PEDAGOGLIK KASBI VA UNING ASOSIY VAZIFALARI**

### **Reja:**

1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish.

2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli pädagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asosi.

3. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

### **Mavzuning maqsadi:**

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish orqali o'qituvchi kadrlar tayyorlashning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yoritish, fan, texnika, texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan foydalangan holda o'qituvchilarni qayta tayyorlash, o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar haqida ilmiy tushuncha berish.

### **Mavzuning vazifalari:**

- kadrlar tayyorlash milliy modelining mazmunini tushuntirish;
- demokratik jamiyatda pedagoglik kasbining rolini ko'rsatish;
- o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablarni ochib berish.

**Tayanch ibora va atamalar:** «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy modeli: (shaxs, davlat, jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish), pedagogika, mutaxassis, raqobatbardosh kadr, o'qituvchi, o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

## **1. 1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish**

1997-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi-ning IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Qonunlarga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimida-gi, jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahora-tiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Bizda 221 ming nafar kishini qamrab olgan 442 ta o'quv yurti, shu jumla-dan, 209 ta kasb-hunar maktabi, 180 ta kasb-hunar litseyi va 53 ta biz-nes maktab faoliyat ko'rsatdi.

Boshlang'ich kasb-hunar ta'lim o'quv yurtlarida qariyb 20 ming o'quvchi va malakali mutaxassislar o'quvchilarga kasb-hunar sirlari-ni o'rgatib bormoqdalar.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida ham islohotlar amalga oshirilib, bu borada 23 ta institut, 16 ta fakultet, 4 ta markaz va 14 ta malaka oshirish kurslari pedagog kadrlar malaka-sini oshirish, ularni fan va texnika yutuqlari, ta'lim-tarbiya sohasidagi yangiliklardan boxabar etib bordi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar yo'lga qo'yildi hamda bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritildi.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgarishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talabla-riga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmadi.

Mutaxassislar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya tizimi jamiyat-da olib borilayotgan islohotlar, yangilanish jarayoni talablari bilan bog'lanadi.

Majburiy to'qqiz yillik ta'limga asoslangan o'n bir yillik o'rta ta'lim mazmuni ilmiy jihatdan to'laqonli asoslanmadi, o'quvchilarni



kasbga yo'naltirish hamda mustaqil fikr yuritish, mehnat faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlay olmadi.

Har yili tayanch maktablarini 100 ming nafarga yaqin bitiruvchisi ishlab chiqarish sohasi yoki kasb-hunar ta'limini davom ettirish jara-yoniga jalb etilmay qolaverdi.

Hunar-texnika bilim yurtlaridan yangi tipdagi ta'lim muassasa-lariga o'tish ko'proq og'izda bo'lib, amalda esa ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmadi. Ularda ta'lim eskirib qolgan moddiy-texnika va o'quv-uslubiy baza negizida tashkil etildi.

Mazkur o'quv yurtlarida pedagog kadrlar safi tegishli qayta tay-yorgarlikdan o'tmagan o'qituvchilar bilan to'ldirilib borildi. Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarning o'rtacha yoshi ulg'ayib bordi. Respublika oliy o'quv yurtlarida 40ga to'lmagan fan doktorlari bu boradagi umu-miy ko'rsatkichning 0, 9 foizi, 50 va undan katta yoshdagilar esa 79 foizni tashkil etishi aniqlandi.

Fan doktori ilmiy darajasida tasdiqlanganlarning o'rtacha yoshi 50da bo'lsa, fan nomzodlarining o'rtacha yoshi 36da ekanligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish «Kadrlar tayyorlash mil-liy dasturi»ning maqsadi qilib belgilandi. Ya'ni, ta'lim sohasini tub-dan isloh qilish uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqit-lardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malaka-li kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

## **1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli – pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asosi**

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

**1. Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekt va obyekt.** ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish soha-

lari bilan tanishadi. shuningdek. o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi. Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy-axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z-o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo, uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

«Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tishni kafolatlaydi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi».

**2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.**

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarning yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon etadi olishi uchun

yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolat beradi:

– fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga;

– majburiy-umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

– davlat grantlari yoki pulli – shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

– davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

– ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

– ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga;

– sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.

**3/Uzluksiz ta'lim** malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy bosh shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadal tayyorlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi.

Jumladan:

– ta'limning ustuvorligi;

– ta'limning demokratlashuvi;

- ta’limning insonparvarlashuvi;
- ta’limning ijtimoiylashuvi;
- ta’limning milliy yo’naltirilganligi;
- ta’lim va tarbiyaning uzviy bog’liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo’naltirilganligi:
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

**Uzluksiz ta’lim** quyidagi ta’lim turlarini o’z ichiga oladi:

- maktabgacha ta’lim;
- umumiy o’rta ta’lim;
- o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;
- oliy ta’lim;
- oliy o’quv yurtidan keyingi ta’lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta’lim.

**Maktabgacha ta’lim** bolaning sog’lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta’minlaydi, uning o’qishga intilish hissini uyg’otadi, muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta’lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta’lim muassasalarining yangi tarmog’i shakllanib bormoqda. Bu o’rinda «Xonadon bog’chasi» hamda «Bolalar bog’chasi – boshlang’ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga tasviriy san’at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o’rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qiladi.

**Umumiy o’rta ta’lim** to’qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limidan iborat. Umumiy o’rta ta’lim boshlang’ich ta’limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o’quvchilarning fanlar asoslari bo’yicha muntazam

bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ota-onalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan – akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

**Akademik litsey** o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq, o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik litseylar, asosan, oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

**Kasb-hunar kolleji** o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

**Oliy ta'lim** o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asoslanib, ikki bosqichda (bakalavriyat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

**Bakalavriyat** – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

**Magistratura** aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizidagi ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib,

ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi:

**Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish.** shaxsning ijodiy ta'lim, kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida aspirantura, adyunktura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nomzodlik yoki doktorlik dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki daraja (aspirantura, doktorantura)da ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

**Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash** jarayonida asosiy e'tibor mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratiladi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ana shu yo'nalishda faoliyat yurituvchi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Bu muassasa tinglovchilari o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvohnoma yoki sertifikatga ega bo'ladilar.

**Maktabdan tashqari ta'lim** – maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida davlat organlari, jamoat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yilib, bolalar hamda o'smirlarning ta'limiga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish maqsadida olib boriladi.

**4. Fan yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chi-**

qaruvchi bo'lib, kadrlar tayyorlash milliy tizimida tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari to'g'risidagi yangi fundamental va amaliy bilimlardan foydalanishni, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tarkibini shakllantirishni, ulardan ta'lim tizimida umumli foydalanishni, shuningdek, kadrlar tayyorlash jarayonining ilmiy-tadqiqotlar infrastrukturasi yaratish, ta'limning axborot tarmoqlarida foydalanish uchun bilimning turli sohalarida bo'yicha axborot bazasini shakllantirishni hamda ilmiy-tadqiqotlar darajasiga yangicha qarashlar zaminida yosh olimlarning, ilmiy-pedagogik xodimlarning ijtimoiy mavqeyi va obro'sini oshirishni va shu kabilarni qamrab oladi».

Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri sifatida fan: «ta'lim mazmunini tubdan yangilashda: ta'lim standartlari, ta'lim dasturlari, o'quv darsliklari va qo'llanmalar tayyorlashda, ilmiy-metodik ta'minotni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ishtirok etadi».

**5. Ishlab chiqarish** – kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachisi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

«Ishlab chiqarishning talab-ehtiyojlari kadrlar tayyorlash tizimining yo'nalishi, darajasi va miqyoslarini shakllantiradi, kasb tayyorgarligining maqsadi, vazifalari va mazmunini belgilaydi, malaka talablarini ilgari suradi, ta'limning zamonaviy texnologiyalari va shakllarini tanlashni taqozo etadi. Ishlab chiqarish pirovard natijasida kadrlarning sifati va raqobatbardoshligiga baho beradi».

«Ishlab chiqarish muassis, homiy va boshqa sifatlarda alohida mutaxassislarni tayyorlashni, guruhlarni va o'quv yurtlarini moliyalash jarayonida ishtirok etib, mutaxassislarning kasbiy rivojlanishi va shaxsiy faolligini rag'batlantiradi, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda bevosita ishtirok etadi».

Avvallari ishlab chiqarish tayyor kadrlar kuchi va salohiyatidan foydalanuvchi is'temolchi sifatidagina faoliyat olib borgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu faoliyatning mazmuni tubdan o'zgaradi. Endi-



likda ishlab chiqarish kadrlarni tayyorlash sifati va saviyasiga nisbatan o'z talablarini qo'ya oladi. Shu bilan birga sifatli hamda yuksak saviyali mutaxassisni tayyorlab, yetishtirish yo'lida uzluksiz ta'lim hamda fan tarmoqlarining moliyaviy, moddiy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Shu asosida kadrlar tayyorlash tizimining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o'zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy an'analari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan «ma'rifatli inson» tushunchasi qo'llanib kelingan bo'lib, u o'zida keng ma'noni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma'rifatli bo'lish o'zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o'rin tutuvchi omil sanaladi. Ma'rifatchilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo'lish emas, ayni paytda chuqur ma'naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo'ladi.

Shuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

### 1.3. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni qayd etadi: «Tarbiyachi-ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro sifatida yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak».

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan bugungi kun o'qituvchisi shaxsiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni anglashiladi. Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur?

O'qituvchi (pedagog) pedagogik, psixologik va mutaxassislik yo'nalishlari bo'yicha maxsus ma'lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuk-

sak axloqiy fazilatlariga ega hamda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatuvchi shaxs sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-moddasi 3-bandiga muvofiq ta'lim muassasalarida sudlangan shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishlariga yo'l qo'yilmaydi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

1. O'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

3. O'qituvchi o'z mutaxassisligi bo'yicha chuqur, puxta bilimga ega bo'lishi, o'z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O'qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lmog'i lozim.

6. O'qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

7. O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomima, jest) qoidalarini chuqur o'zlashtirib olishga erishishlari lozim.

8. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqning to'g'riligi;

b) nutqning aniqligi;

d) nutqning ifodaviyligi;

e) nutqning sofligi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kash yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millatda bayon etila-

yotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlardan xoli bo'lishi, o'qituvchining nutqi sodda va tushunarli bo'lishi;

f) nutqning ravonligi;

g) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar va ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish).

9. O'qituvchi kiyinish madaniyati (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli xil bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto, soch rangi va turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o'zlashtirishga erishi shi lozim.

10. O'qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o'rnak bo'la olishi lozim.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining mazmuni nimadan iborat?*
2. *«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» necha bosqichda amalga oshiriladi.*
3. *Kadrlar tayyorlash milliy modeli nima?*
4. *Uzluksiz ta'lim tizimi qanday bosqichlardan iborat?*
5. *Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining farqi nimada?*
6. *Oliy ta'lim qaysi bosqichlarda amalga oshiriladi?*
7. *Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim nima?*
8. *O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?*
9. *O'qituvchining nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?*

### **Test savollari**

1. **Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi IX sessiyasida (1997) so'zlagan «Barkamol avlod – O'zbekiston**

**taraqqiyotining poydevori» nutqida tarbiyaning maqsadi qanday ifodalanadi?**

- A) Tadbirkor shaxsni tarbiyalash
- B) Umumiy va ilmiy ruhdagi shaxsni tarbiyalash
- D) Barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash
- E) Mehnatsevar shaxsni tarbiyalash

**2. I.A.Karimovning: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak» – degan iborasi qayd etilgan asarni aniqlang.**

- A) Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori
- B) Barkamol avlod orzusi
- D) Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik
- E) O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat

**3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilingan?**

- A) 1992 yil
- B) 1995 yil
- D) 1994 yil
- E) 1997 yil

**4. I.A.Karimov qaysi asarida «Kadrlar tanlashda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'usi bugun juda katta ahamiyatga ega-dir» deb yozgan?**

- A) Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik
- B) Istiqlol va ma'naviyat
- D) O'zbekiston XXI asrga intilmoqda
- E) Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir

**5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimini isloh qilishning bosqichlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) 1997–2000
- B) 2001–200
- D) 2004–2005
- E) 1997–2000, 2003–2005, 2005 va undan keyingi yillar

**6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida ta'lim olishining tekin va majburiyligi ko'rsatilgan?**

- A) 40-modda
- B) 41- modda
- D) 42- modda
- E) 43- modda

7. I.A.Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusi-da so‘zlagan nutqi mamlakatimizdagi qaysi sohani isloh qilishga qaratilgan?

- A) Tarbiya sohasini  
D) Ta’lim-tarbiya sohasini
- B) Ijtimoiy sohani  
E) Iqtisodiy sohani

8. O‘zbekistonda majburiy, ixtiyoriy ta’lim necha yil qilib belgilangan?

- A) 10 yil  
B) 11 yil  
D) 12 yil  
E) 13 yil

9. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning maqsadni toping.

- A) Fuqarolarga ta’lim-tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatish  
B) Fuqarolarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash  
D) Fuqarolarda ko‘nikma, malakani boyitish  
E) Fuqarolar bilimini boyitish

10. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunning qaysi moddasida «Kasb-hunar kollej o‘quvchilarining kasb-hunarga moyilligini mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlagan kasblari bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan 3 yillik kasb-hunar o‘quv yurtlari» deb ta’kidlangan?

- A) 40-moddada  
D) 42- moddada
- B) 41- moddada  
E) 43- moddada

11. «Tarbiyachi ustoz bo‘lishi uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar kabi buyuk fazilatlarini shakllantira olishga ega bo‘lishi kerak» degan fikrning muallifini aniqlang.

- A) Abdulla Avloniy  
D) Ushinskiy
- B) I.A.Karimov  
E) Komenskiy

12. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda nimalarga e’tibor qaratish lozim?

- A) Ota-ona xohishiga  
D) Bilim va kasbiy qiziqishga
- B) O‘quvchilarning bilimiga  
E) Jamoa fikriga

Haq yo'linda kim sanga bir harf o'qitmish ranj ila.  
Aylamoq bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

*Alisher Navoiy*

## 2-MAVZU: PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA. PEDAGOGIKANING ILMIY TADQIQOT METODLARI

### Reja:

1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot).
2. Pedagogika fanining metodologik asoslari.
3. Pedagogika fanining tarmoqlari. Fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati.
4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.

### Mavzuning maqsadi:

Pedagogika fanining maqsad va vazifalari, kategoriyalari, metodologik asoslari, tarmoqlari va uning ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot berish hamda pedagogika faniga qiziqishni uyg'otish.

### Mavzuning vazifalari:

- pedagogika fanining ijtimoiy ahamiyati, maqsadini yoritish;
- pedagogika fanining metodologik asoslarini ko'rsatish;
- pedagogika fanining va boshqa fanlar bilan aloqalarini asoslash;
- pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlarining vazifalarini belgilash va hokazo.

**Tayanch ibora va atamalar:** pedagogika, tarbiya, ta'lim, ma'rifat, ma'naviyat, madaniyat, ta'limning milliy modeli, ma'lumot berish, o'qitish, bilim, pedagogikaning asosiy funksiyasi, didaktika, xususiy didaktika, pedagogika tarixi, pedagogika nazariyasi, maktabshunoslik, oila pedagogikasi, maktab ta'limi pedagogikasi, umumiy pedagogika, maxsus pedagogika, oliy ta'lim pedagogikasi, xususiy pedagogika, defektologiya, qiyosiy pedagogika, milliy pedagogika.

## 2.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot)

**Pedagogika** – tarbiyaning umumiy qonuniyatlari haqidagi fan-dir. **Pedagogika** – yunoncha, **pais** – bola, **agogos** – yetaklash – bola yetaklovchi ma'nosini anglatadi. Insonlarning ma'rifiy va ma'naviy barkamollikka munosabatlarining o'zgarib borishi natijasida pedagogika (**bolani to'g'ri hayotga boshlash san'ati**) fani xalq orasida o'z mavqeyiga ega bo'ldi. Shu tariqa insonni tarbiyalovchi fan sifatida **pedagogika dunyoviy fanlar** tizimi qatoridan alohida o'rin egalladi. Uning bosh muammosi **tarbiyadir**.

Inson tarbiyasi haqidagi fikrlar, g'oyalar, qarashlar, qoidalar, qonunlar dastlab qissalarda, pandnomalarda, qadriyatnomalarda, yozma yodgorliklarda, xalq og'zaki ijodida, ilohiy va muqaddas kitoblarda asoslab berilgan bo'lsa, keyinchalik mustaqil fan tarzida o'z mavqeyini mustahkamladi.

Pedagogika fani ta'riflari to'g'risida har xil qarashlar mavjud.


«**Pedagogika** – tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya insonni shakllantirishga qaratilgan muayyan tizimli faoliyat hamda ta'lim-tarbiyaning mazmuni, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika tarbiya va ta'lim sohasiga tegishli bilimlar yig'indisi»:

Unda yosh avlodni va kattalarni tarbiyalash haqida bahs yotadi. Ta'riflarni umumlashtirib, pedagogika tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin (2.1.1-shaklga qarang).

Ta'riflarda keltirilgan tarbiya, ta'lim va ma'lumotlar berish terminlari haqida qisqacha ma'lumotni keltiramiz:

1. Pedagogika fani tarbiya jarayonining qonuniyatlari tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi.

«**Tarbiya** – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi».



2.1.1-shakl. «Pedagogika»da ta'lim-tarbiya va ma'lumot hosil qilinishi.

Demak, tarbiya – ijtimoiy hodisa bo‘lib, insonning shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma’naviy qadriyatdir. Tarbiya insoniyat bilan birga paydo bo‘lib, usiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham faoliyat ko‘rsata olmaydi. Chunki, tarbiya inson va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyat bo‘lib, u avloddan avlodga o‘tib boraveradi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma’naviy jihatlarini qaror toptirish ko‘zda tutiladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ezgulik, go‘zallik, yaxshilik, adolatga nisbatan qarash va ko‘nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamida amalga oshiriladi.

2. Ta’lim – ta’lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko‘nikma hamda malakalar-



ni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

**Ta'limning** boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga u oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi.

**O'qitish tushunchasi** insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

**O'qitish natijasida** shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi.

2.1. «**Ta'limning milliy modeli** – O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo'yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy pedagogik yondashuvlar majmuyi. Ta'limning milliy modelida ma'naviy intellektual jihatdan barkamol shaxsning o'z ijodiy qobiliyatini to'la namoyon etishini ta'minlash ko'zda tutiladi».

3. **Ma'lumot berish** – bu o'rganilayotgan obyekt (ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim-tarbiya oluvchi va h.k.)ning muhim xususiyatlari va xossalari haqidagi ma'lumotlarni ifodalash jarayoni bo'lib, unda obyekt to'g'risida sonli va sifatli ma'lumotlar aks ettirilgan bo'ladi.

Ma'lumot berish – bunda nafaqat o'qitish, balki o'ziga mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar ta'sirida bo'lish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ko'zda tutiladi.

**Ma'lumot** – ta'lim-tarbiya natijasida olingan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarashlar majmuyi.

**Bilimlar** – odamlarning ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida to'plangan va umumlashgan tajribasi. Ilmiy bilimlar obyektiv olamni ancha to'g'ri aks ettiradi. Ilmiy bilimlar doimiy emas, ular hammasi o'zgarib, takomillashib boradi.

Bilimlar asosida o'quvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi. ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

**Pedagogika fani** tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamo-yillari, ularni tashkil etish shakllari, usullari hamda yo'nalishlarini belgilab beradi.

Pedagogika fanining **asosiy tushunchasi** barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Pedagogika fanining **asosiy faoliyati** oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi harakatlar (jarayonlar) majmuyi.

Tarbiyalash va o'qitish jarayoni (natijasi)da, odamda muayyan shaxs sifatleri shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy intellektual **sifatlar**ga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning intellektual salohiyatli bo'lib yuksalishiga olib keladi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida **PEDAGOGIKA** fani – falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, pediatriya, matematika, informatika, sinergetika, mantiq, sun'iy tafakkur va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq fan sifatida faoliyat olib boradi.

**Pedagogika** fani nazariyasi va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalaniladi.

## 2.2. Pedagogika fanining metodologik asoslari

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo'lib, u turli fanlar bilan uyg'un holda qadim-qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Alloh yeru osmonni, butun borliqni inson uchun yaratib, unga aql gavharini, tafakkur qilish qobiliyatini ber-

di. O'zining mavjudligi, har bir ishga qodirligini, ilmda tengsizligini, mehr-muruvvatda beqiyosligini bildirdi.

Islomda ham dunyoviy ilmlarning barchasi Qur'oni Karim ta'limoti bilan bog'liq va uyg'un holda berilgan.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Arastu, Aflotunlar g'oya-ga asoslangan, o'zlarining inson kamoloti va tarbiya masalalarining falsafiy negizini yaratgan. Arastu «Iskandarga nasihatlari»da (U Iskandar Zulqarnaynning ustози bo'lgan va Iskandar ham o'z navbatida Arastuni o'z otasidan ustun qo'ygan) insonni eng yuksak fazilati taqvodorlik, iymonli ilmi bo'lishligini ta'kidlagan edi, ya'ni: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikru andisha soyasida hosil bo'ladi», degan edi.

Ilmda xosiyat ko'p, chunki u, taraqqiyot kaliti, insonning qalb ko'zidir. Bunda ilm aqldan quvvat olganligi sababli, aql ma'naviy haqiqatlari bilan insoniyat jamiyatining dunyoviy ishlarida intizom yaratadi. Bu haqda ulug' matematik va faylasuf olim Pifagorning quyidagi fikrlari fikrimizning isbotidir. Ular:

- «Donishmandlik nima?

Tartib-intizomlilik. Donishmand bo'lay desang hamma narsani joy-joyiga qo'y. O'tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishida-gi tartib a'loroq».

Yetuk shaxslarning (olimlar, donishmandlar, faylasuflar, yozuvchilar, shoirlar, qahramonlar, davlat arboblari va shu kabilar) hayoti va faoliyati ulug' ibrat, tarbiya sabog'idir.

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san'at, falsafa va boshqa sohalarda ijod qilganlarning ismi shariflarini yo'qlash, qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini yengil qilganliklari ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Shu sababli ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, olim-mutafakkirlarimiz olamga mashhur bo'lganlar. Ulardan ayrimlarining fikrlarini keltiramiz. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Arifmetika» asari boshlanishidagi fikrni keltiramiz: «Rahimli va mehribon Tangriga loyiq maqtovlar aytaylik, unga minnatdorchiligimizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqtovini oshiray-

lik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizni adolat sari boshlab, haqiqat yoʻlidan olib borish va bizga 9 ta raqamdan iborat hind hisobi haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin». Yaʼni, «Arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini oʻz ichiga oluvchi «Al-jabr va al-Juqobala hisobi haqida qisqacha xitob»ni taʼklif qildim, chunki meros taqdim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer oʻlchash, kanallar oʻtkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga oʻxshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

Abu Ali ibn Sino – «Shayx ur-raisi», yaʼni «Olimlar boshligʻi», «Tabiblar podshohi» nomlariga sazovor boʻlgan olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrni oʻqishimiz mumkin: «Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda oʻrtacha taʼrifni topa olmasam, jomeʼ masjidiga borardim va namoz oʻqib, Yaratguvchiga yolborardim, natijada qorongʻu narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi».

Abu Ali ibn Sino oʻzining quyidagi asarlari bilan maʼrifatimiz, madaniyatimiz va maʼnaviyatimiz tarixiga katta hissa qoʻshdi:

- Falsafa, tibbiyot va tabiatshunoslik sohalariga oid «Kitob al-qonun fit-t-tibb» («Tib ilmlari qonuni»); «Kitob ash-shifo» («Jonni saqlash kitobi»); «Kitob an-najot» («Najot kitobi»); «Kitob an-insof» («Insof kitobi») va shu kabi asarlar.

- Axloqqa va maʼrifatga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»); «Risola fi fazilat an-nafs» («Nafsni pokiza tutish haqida risola»); «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»); «Kitob an-insof» («Adolat haqida kitob») va shunga oʻxshash taʼlim-tarbiyaga oid boy asarlardan iborat maʼnaviy merosni kelajak avlodga qoldirdi.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va oʻz davri taʼlim tizimining bosh islohotchisi, maʼrifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulugʻbekning hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar oʻqitilishiga katta eʼtibor berilgan.

Ulugʻbek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasadxonada amaliy mashgʻulotlar oʻtkazishni talab etib, bu ishlarga bevosita oʻzi rahbarlik qilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;
- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'llarini kashf etib borish lozim;
- ta'lim berishda mashg'ulotlarni ko'rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga, tushunib harakat qilishni, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor bergan va u, «barcha illatlarning asosini **bilimsizlik** tashkil etadi», degan fikrda qat'iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifatli bo'lishi;
- ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiya;
- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lishi.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida o'rta asrlardagi qomusiy olimlar bilan birga, keyinchalik chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveytsariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalotssi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiylar katta hissa qo'shganlar.

Hozirgi kunda barkamol shaxs tushunchasi fuqarolik jamiyatini qurish, «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratish» uchun fidoyi farzand bo'lish tushunchalari bilan bog'lanib ketdi. Biz endi alohida-alohida yetuk shaxslargina emas, balki **barkamol avlodni**

shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz lozim. Ana shundagina barkamol avlodlardan, intellektual salohiyatli shaxslardan iborat jamiyatga ega bo'lamiz. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muxbiri bilan suhbatida quyidagi qimmatli va ko'rsatmali fikrni aytganlar: «Endi oldimizda nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandlikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir».

Demak, hozirda pedagogika fanining metodologik asosi tadqiqot metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa bir qator muammolar yangicha yondashuv, ya'ni milliy mafkura asosida yaratilishini taqozo etmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov o'z risola, nutq va suhbatlarida ilgari surgan fikrlar, g'oyalar, ana shu fikr va qarashlar asosida yaratilgan «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamo-yillari» ham pedagogika fanining metodologik asosi sanaladi.

Shu bilan birga pedagogika fanining ham o'z ildizlari, sarchashmalari mavjud. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, moziyda ham bosh masala – Inson, uni barkamol etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo sifatida namoyon bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlab, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini bir pedagogik darslik, desak yangilishmagan bo'lamiz. Biz ana shu asarlarga tayangan holda tadqiqot ishlarini olib borgan taqdirdagina, pedagogikaning ilmiy asoslarini boyitgan bo'lamiz.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada shunday degan edi: «O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik».

O‘zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog‘langan holda, har bir pedagogik masalaga ijodiy, rivojlantiruvchi nuqtai nazardan yondashish zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan pedagogika – inson ruhiyatiga ta‘sir etuvchi zamonaviy metodlar va texnologiyalar hosil bo‘lgandagina haqiqiy milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar.

Bu borada Respublikamiz Prezidentining quyidagi vazifaviy (ko‘rsatmali) fikri ahamiyatlidir: «O‘z-o‘zidan ayonki, yangi davlat harpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo‘lidagi murakkab va keng ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega».

### **2.3. Pedagogika fanining tarmoqlari. Fanlar tizimida pedagogikaning o‘rni va ahamiyati**

Pedagogikada ta‘lim va tarbiya jarayonlarining turli jihatlarini o‘rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo‘limlar mavjud. Ular:

**I. Didaktika** – bu o‘qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug‘ullanadigan soha. Didaktika pedagogikaning ta‘lim jarayonidagi umumiy qonuniyatlarini o‘rganuvchi qismidir. **Didaktika** yunoncha so‘z bo‘lib, «didasko» – o‘qitish, «didaskol» – o‘rgatuvchi, degan so‘zlardan kelib chiqqan.

Muayyan bir fanga tadbiiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o‘sha

o'quv predmetining umumiy jihatlarini muayyanlashtiradi va ularda o'qitishning umumiy jihatlarini namoyon bo'ladi.

**2. Pedagogikada tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i** – bunda shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarining yechimini qaraladi.

**3. Pedagogika tarixi** – bu jahon yoki milliy tarbiya nazariyasi, didaktika fani va amaliyotining jamiyat taraqqiyoti turli davrlarida qanday mazmun-mohiyatga egaligi, ularning qanday shaklda ifodalanishligi, qaysi usul, vosita, uslubiyat va shakllardan foydalanib faoliyat ko'rsatganligi, qanday natijalarga erishganligi kabi masalalarni o'rganadi.

**4. Pedagogikaning maktabshunoslik sohasi** – bunda ta'lim-tarbiyani tashkil qilish, uyushtirish va uni boshqarishga oid bo'lgan tashkiliy-pedagogik qonuniyatlar o'rganiladi va ularga mos qonuniyatlar tadqiq etiladi.

Mazkur soha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, albat, ta'lim oluvchilar va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bu, shuningdek, muammo yechimidagi natijalarning hayotiylikini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab muayyan yoshdagi ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilarning hayotiy faoliyati (turmush tarzi) turlichaligidir.

**5. Defektologiya** – bu jismoniy yoki ruhiy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining ruhiy-jismoniy xususiyatlarini, ularni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirishdagi o'ziga xosliklarni hisobga olib ish ko'radigan pedagogika fani tarmog'i.

Defektologiya bolaning qanday jismoniy nuqsonga egaligi va ularga beriladigan ta'lim-tarbiya mazmuniga qarab quyidagi yo'nalishlarga bo'linadi:

- tiflopedagogika;
- surdopedagogika;
- oligofrenopedagogika.

Shu sababli ham pedagogika quyidagicha turlardan iborat:

- oila pedagogikasi;
- maktab ta'limi pedagogikasi;



- umumiy pedagogika;
- pedagogika tarixi;
- maxsus (surdo, tiflo, oligrofreno) pedagogikalar;
- oliy ta’lim pedagogikasi;
- xususiy metodika;
- qiyosiy pedagogika.

Fan-texnikaning jadal rivojlanishi natijasida soha pedagogikalari rivojlanib, bir qator pedagogika sohalari vujudga kelmoqda. Masalan, ishlab chiqarish pedagogikasi, sport pedagogikasi, harbiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika va hokazo.

Ta’limning sinf-dars tizimi ham pedagogikaning maktabshunoslik sohasiga tegishli bo’lib, maktabda ta’lim jarayonini tashkil etish tizimidan iborat. Ushbu tizimda o’quvchilarni yoshlariga va o’qish mudatlariga qarab muayyan sinflarga ajratiladi. Bunda ham DTS talablari asosda ta’lim o’quv rejasi va dasturiga muvofiq sinf-dars tizimida mashg’ulotlar olib boriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan pedagogik ta’limning asosiy maqsadlaridan biri tarbiyaga barkamol shaxs ma’naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida qarashidir.

Yosh avlodni kelgusi hayotga barkamol qilib shakllantirish ruhiy va ma’naviy jarayonlarga bog’liq. Pedagogika fanining asosiy maqsadi – bo’lajak tarbiyachi-o’qituvchilarning ongli faoliyatida maqsadli tarzda o’z ustida ishlash, intilish, muntazam ravishdagi izlanish, tanlangan vosita va metodlardan foydalangan holdagi tarbiyachilik san’atini o’rgatishdir.

Bu mazmun quyidagilarda o’z ifodasini topadi:

- kadrlar tayyorlash milliy modelini hayotga joriy qilishdagi bosh muddao barkamol shaxsni shakllantirishning bir butun holatidagi muammolarni hal etish;

- ta’lim-tarbiya samaradorligini muntazam ravishda oshirib borish hisobiga uni jahon talablari darajasiga olib chiqish masalalarini hal qilishga ijodiy yondashuvni amalga oshirish;

- umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyatning asoslarini e’tiborga olib, ta’lim-tarbiya mazmunini, milliy mafkurani shakllantirib borishga imkoniyat yaratish;

- pedagogika-tarbiyashunoslik qoidalarini, qonunlarini ilg'or pedagogik tajribalar asosida boyitib borish, yangi metodlarni izlab topish va qo'llashga doir tadbirlar ishlab chiqish;

- bo'lajak o'qituvchi va tarbiyachilarni kasbiy va ixtisoslik tayyorgarliklarini talab darajasiga yetkazish masalalariga e'tibor qaratish;

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish muammolarini hal etish.

### **PEDAGOGIKA fanining dolzarb muammolari:**

1. Pedagogika fanini milliy pedagogika sifatida tarkib toptirish va uni jahon fanlari tizimida yuqori darajaga ko'tarish.

2. Pedagogika fani milliy mafkura, kadrlar tayyorlash milliy modeli, taraqqiyotning «o'zbek modeli» talablari va ilg'or rivojlangan davlatlar ta'lim standartlari asosida innovatsion yondashuvlar bilan o'z metodologiyasi va yo'nalishlarini tubdan isloh qilish.

3. Pedagogika fanidagi tadqiqot saviyasi va uning metodologiyasiga innovatsion tus berish, ulardagi sifat o'zgarishlari va samaradorlikni muntazam ravishda baholab borishga erishish.

4. Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda boshqa fanlarning ilg'or yutuqlaridan foydalanishga erishish, shaxsni bir butunlikda o'rganish va uni shakllantirish metodologiyasini yaratish.

5. «Pedagogika fanlari tizim va tarkibini takomillashtirish, ijtimoiy pedagogika sohasida oila pedagogikasi, ma'naviyat-ma'rifat pedagogikasi alohida fan sifatida tarkib topishi. Professional pedagogikada iqtidorli bolalarni tanlash va ularni o'qitish, maktab, litsey, kollej, malaka oshirish, oliy va xususiy o'quv yurtlari ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish nazariyasi va amaliyotini takomillashtirish.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotining o'zaro bog'liqligi, pedagoglar ommasining erkin ijodkorligiga sharoit yaratish tajribalarini o'rganish va ommalashtirish tizimini tarkib toptirish».

6. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ta'limni texnologiyalashtirish: pedagogik texnologiya, ta'lim texnologiyasi, tarbiya texnologiyasi, innovatsion ta'lim texnologiyasi va shu kabilarni alohida o'rganish, ular asosida innovatsion pedagogik texnologiya, zamonaviy pedagogik texnologiya va zamonaviy axborot texnologiyalarni ishlab chiqish orqali ta'limni hamda

pedagogik tadqiqotlarni kompyuterlashtirishga erishish, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyasining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish.

7. Uzluksiz ta'lim tizimida bola tarbiyasi rivojining uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash konsepsiyasini ishlab chiqish hamda barkamol avlodni shakllantirishga zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga erishish. Bunda mustaqillik mafkurasini insonlar ongiga singdirish usullari, shakllari, yo'llari, vositalari va ularning axborotli ta'minotlarini ishlab chiqib, hayotga joriy etish orqali yoshlarda o'zligini bilishi, o'z-o'zini boshqara bilishi, o'z-o'zini tarbiyalay olishi kabi xislatlarni takomillashtirish.

8. Pedagogik diagnostika va prognozika yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlarini davr talabiga mos rivojlantirish. Bunda ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan samarali foydalanishga erishish.

9. Ta'lim-tarbiya tizimida modeli, modulli ta'lim texnologiyalariga keng o'rin ajratish va ular asosida kompyuter uchun muloqotli ishchi dasturlar tayyorlab, kompyuterli tizimlar yaratishga erishish va ulardan ta'lim-tarbiyaning innovatsion xususiyatlarini vujudga keltirishda keng foydalanish.

10. Ta'lim-tarbiya jarayonida reyting-nazorat tizimiga katta e'tibor berish va bu jarayonlarni boshqarishni zamonaviy kompyuterlar zimmasiga yuklashga harakat qilish.

11. Uzluksiz ta'lim tizimidagi ta'lim-tarbiya tizimining maqsadi, vazifasi va mazmunini zamonaviy davr talablari asosida tubdan isloh qilishga erishish.

12. Ta'lim-tarbiya tizimi metodologiyasini tubdan isloh qilish konsepsiyasini, komil inson modelini ishlab chiqish texnologiyasini yaratish.

13. Ta'lim-tarbiya jarayoniga bir butunlikda qarab, unga «tizimiy yondashuv» tadqiqot usulini qo'llashga erishish.

14. Tarbiyaning umumiy metodlarini takomillashtirish, sharq xalqlarining tarbiya borasidagi tajribalarini qo'llash metodikasini yaratish, tarbiya mazmuni va metodini insoniy lashtirish;

– istiqlol mafkurasi asosida yoshlarning milliy dunyoqarashini shakllantirish, o'quv fanlarining aqliy kamolot imkoniyatini oshirish, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarining o'quvchilar dunyoqarashini tarkib toptirish darajasini oshirish;

– ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmunini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan boyitish. Axloqiy tarbiyada sharqona namuna metodini qo'llash texnologiyasini yaratish».

15. Kasbiy va mehnat tarbiyasining jamiyat, ishlab chiqarish, ilm-fan, texnika-texnologiyalar asosida rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.

16. Iqtisodiy va ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishga erishish va bunda ilm-fan yutuqlaridan muntazam foydalanib borish mexanizmini yaratish.

17. Ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yanada jonlantirish va yoshlarimiz g'oyaviy ongida bo'shliq hosil bo'lishga yo'l qo'ymaslik metodologiyasini yaratish.

18. Aqidaparastlik va terrorizm ta'siridan yoshlarimizni asrashda kasbiy-kompyuterli o'yinlardan keng foydalanishga erishish, ayniqsa, kiberterrorizmdan yoshlarimizni asrash mexanizmini barpo 'tishga keng imkoniyatlar yaratish.

19. Ijtimoiy va kasbiy pedagogikaning barcha sohalarini muntazam ravishda davr bilan mos holda takomillashtirib borishga erishish.

20. Ta'lim-tarbiya sohasidagi barcha xatti-harakatlarimizni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa shu kabi davlat me'yoriy hujjatlari asosida olib borishga erishish va hokazo.

Ushbu muammolar qatorini yana davom ettirish mumkin.

Ta'limning, o'qitishning vazifasi, yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijobiy qobiliyatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlashi, uni mukammal egallab, shu sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy-didaktik shart-sharoit yaratish-

dan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichlarining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Ushbu ma'noda pedagogika fanining vazifalari quyidagilardir:

- Sharq va G'arb xalqlari yaratgan, xalq og'zaki ijodiyotiga asoslangan pedagogikani, mutafakkir, ma'rifatparvar, pedagog va olimlarning tarbiyashunoslikka doir ilg'or g'oyalarini o'rganib, tahlil qilib, barkamol shaxsni shakllantirishning qonun-qoidalari va zaruriy sifatlarini aniqlash:

- Pedagogika – tarbiyashunoslikdagi ta'lim-tarbiya nazariyasini hozirgi davr xususiy metodikasi bilan uzviylik muammosini ishlab chiqish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar talablariga amal qilish:

- ta'lim-tarbiya nazariyasidagi qoida, qonun, tamoyil, metod va uslublarni maktab amaliy hayoti bilan bog'lab bo'lajak o'qituvchilarga o'rgatish;

- xalq ta'limini boshqarish va unga rahbarlik masalalarini chuqur o'rganib, bo'lajak o'qituvchilarni qanday tayyorlash muammolarini hal etish.

Ma'lumki, inson kamoloti, uning yashash davridagi muhit va tarbiyaga hamda o'sha davrlardagi ongli faoliyatiga bog'liq holda rivojlanadi. Bolalar juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi va asta-sekinlik bilan bu faoliyat ularning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir etib, shaxs sifatida shakllanib boradi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri va maqsadga muvofiq qilib uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama bo'ladi yoki salbiy rivojlanishga olib kelishi mumkin.

### **Fanlar tizimida pedagogikaning o'rni va ahamiyati**

Pedagogika fani tarbiya nazariyasi va dialektikaning uyg'unligi asosida insonda bozor munosabatlarini shakllantirish, milliy-ma'naviy meros, an'analar, urf-odatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarining

boy manbalari bo'lgan tarbiya va ta'lim berish haqidagi tushuncha, bilim, ko'nikma va malaka hosil qilishda boshqa fanlar qatori o'z o'rnini va aloqadorligi bor. Pedagogika falsafa, psixologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, sinergetika va informatika kabi fanlar bilan mushtarak holda rivojlanib kelgan.

Bugungi kunda bir qator umumiy masalalar ishlab chiqilganki, bu masala falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir. Bular jumlasiga tabiat bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o'zaro aloqalar: dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayonining mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan gnoseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi. Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sotsiologiya, etika (axloq-odob), estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Insonning aqliy rivojlanish qirralarini, jihatlari o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda pedagogika fani ko'p tarmoqli fan sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari tizimiga etnopedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, kasbiy ta'lim pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi, jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, maxsus pedagogika: kar-soqovlar (surdo) pedagogikasi, ko'rlar (tiflo) pedagogikasi, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligofreno) pedagogika, logopedagogika, pedagogik mahorat kiradi.

**Pedagogik fanlarning boshqa fanlar bilan aloqasi.** Pedagogika fani inson tarbiyasi bilan shug'ullanganligi sababli, unga hamma fanlar ko'maklashishi tabiiydir. Inson tarbiyasining qaysi sohasini olib ko'rsangiz, u qaysidir fan bilan aloqadorlikda amalga oshiriladi, o'sha fanning qonun-qoidalariga suyanadi. Pedagogikaning metodologik asosi bilan nazariyasi va tarbiyadagi qonun-qoidalari bevosita falsafa fanining ta'sirida amalga oshiriladi. Abu Nasr Forobiy «Talxisu navomisi Aflotun» (Aflotun qonunlarining mohiyati) asarida inson kamolotining falsafa fanining ta'sirida rivojlanishini shunday

ko'rsatgan edi: «Yaxshi fazilatga ega bo'lgan shahar aholisi eng baxtiyor odam bo'lishi, qonunlarga ixtiyoriy bo'ysunishini ta'minlash uchun qonunlarni takomillashtirish, ulardagi qoidalarni mustahkamlash zarurdir». Pedagogika psixologiya, mantiq, huquq va tibbiyot fanlaridagi qonun-qoidalarga bevosita bog'lanadi. Pedagogika fanidan bolalarni davrlarga bo'lish tizimini asoslashda anatomiya, fiziologiya, maktab gigiyenasi fanlarining ham o'rni katta. Pedagogika ilmiy-tadqiqot metodlarini takomillashtirishda matematika, fizika, informatik fanlari bilan bog'lanadi.

Mustaqil O'zbekistonda milliy pedagogika fani bevosita iqtisod fani bilan bog'lanib, bozor iqtisodiyotiga o'tish muammolarini, iqtisodiy tarbiya masalalarini uzviylik bilan amalga oshiradi.

YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlardagi mehnat bilan band bo'lgan aholining yarmidan ko'proq qismi ma'lumotlar yig'ish, ishlab chiqish, qayta ishlash va tarqatish (uzatish) bilan shug'ullanmoqda. Bunday muhim asosni fanlarning pedagogika fani bilan o'zaro integratsiyasi, ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalarisiz va innovatsion yondashuvlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni va uni olib borish uchun yaratiladigan axborot texnologiyalari va tizimlarining yaratilishida intellektual salohiyatli barkamol avlodning ijodiy mehnati, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi, yangilikka qiziquvchanligi va shu kabi innovatsion jarayonlarga kirib borish qobiliyati e'tiborga olinadi va bu jarayon rejalashtirilgan natijani qo'lga kiritgunga qadar davom etadi. Bu biron ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilayotgan turli maqsadlardagi bilim berishning ilmiy-uslubiy yo'llari bo'lib, bilim olishning chegarasini va ilmiy tafakkurni kengaytiradi, fazoviy fikrlashni, ijodkorlikni va sezuvchanlikni (sinchkovlikni) rivojlantiradi.

## **2.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari.**

### **Metod haqida tushuncha**

Metod (lotincha *metodas* – yo'l so'zidan) – tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod»

soʻzi keng maʼnoda muayyan maqsadga erishish yoʻlini, tor maʼnoda tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari va qonuniyatlarini bilish maqsadida qandaydir vazifani hal etish usulini bildiradi. Obyektiv dunyoni bilish, nazariyada nimani oʻrganish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud boʻlib, ular oʻzaro uzviy bogʻliqdir.

Pedagogika fani oʻz mazmun-mohiyatini boyitishda, yangilashda mavjud pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan usullar bilan oʻrganadi. Umuman, pedagogika amaliyotida, oʻqitish usullari va metodlarining katta boyligi toʻplangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, oʻqitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi.

Ushbu ilmning ilmiy-tadqiqot usullari deganda yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish va oʻqitishning real jarayonlariga xos boʻlgan ichki yoʻllari, uslublari va vositalari majmuyi tushuniladi. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik toʻgʻri tanlansa, taʼlim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Ammo shuni taʼkidlamoz lozimki, ilmiy-tadqiqot metodlari tizimi hozirgacha fanda toʻla yaratilmagan, hal etilmagan.

Mavjud metod (usul)lar asosan quyidagilardir:

- adabiyotlarni oʻrganish metodi;
- kuzatish metodi;
- suhbat metodi;
- bolalar ijodini oʻrganish usuli;
- maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi;
- eksperiment – tajriba, sinov usuli;
- test sinovlari metodi;
- statistik maʼlumotlarni tahlil qilish usuli;
- matematik va kibernetik usullar;
- sotsiologik tadqiqot metodi.

«Oʻqitish metodi oʻqituvchi va oʻquvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining taʼlimiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yoʻldir», – deydi professor R.A.Mavlonova. U oʻqitish metodlariga quyidagi muayyan talablarni qoʻyadi:

1. Oʻquv materialini oʻrganishning oʻqituvchi tavsiya etgan yoʻli.



fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlarga, iroda-viy xususiyatlar va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtai nazaridan, metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lmasligini bila oladi.

3. O'qitishning tizimliligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunariligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosliligiga e'tibor.

7. O'qitish metodikasida nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Bir so'z bilan aytganda, o'qituvchi va o'quvchilarning xatti-harakatlariga asoslangan pedagogik metod natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyoqarashini, tafakkurini va ma'naviyatini yuk-saltirishga erishadilar.

Ta'lim-tarbiyaga taalluqli xatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib tahlil qilish pedagogika va didaktikada yagona usul hisoblanadi.

Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika», K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarlarida masalaga shunday yondashishni ko'rish mumkin.

O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosa chiqarish uchun mun-tazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan emperik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur.

**Adabiyotlarni o'rganish metodi** – pedagogik adabiyotlarni o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni aks ettiruv-

chi. mutafakkir va ma'rifatparvar pedagog olimlarning asarlari, mustaqil O'zbekistonning iqtisodiyotiga, mafkurasiga va ma'naviyatiga doir adabiyotlar, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov asarlari, tadqiqot mavzusiga doir darsliklar, monografiyalar, risolalar va maqolalar, tadqiqot mavzusiga doir pedagogik-psixologik tadqiqotlar, dissertatsiyalar o'rganiladi, umumlashtiriladi, xulosa chiqariladi.

**Kuzatish metodlari** – kuzatish adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. Kuzatishni tadqiqotchi biror maqsadni ko'zda tutib tashkil etadi. Kuzatish rejalashtiriladi, uning dasturi tuziladi. Bunda kuzatish tezligi, soni, manzili, vaqti, vaziyatni kuzatish, materiallarni qayd qilish muddati belgilanadi. Kuzatish, muddatiga ko'ra, ikki turga ajraladi: qisqa va uzoq muddatli kuzatish. Qisqa kuzatish – obyektning kundalik faoliyatidagi o'zgarishlaridan ma'lum xulosaga kelish. Uzoq muddatli kuzatishda qo'yilgan maqsad, reja va dastur asosida olib borilib, ma'lum ilmiy, yakuniy xulosaga kelinadi. Kuzatishni yakuniy qayd qilishda kinosyomka, videoyozuvi, televideniye va boshqa texnik vositalardan foydalanish mumkin. Kuzatish metodidan to'g'ri foydalanish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshiradi, yangi ijodiy faoliyatga boshlaydi.

**Suhbat metodi** – tadqiqot mavzusining biror tomoni yoki hodisalari haqida bilib olish maqsadida maxsus shaxslar bilan og'zaki savollar berilib, ulardan axborot olish jarayonidir. So'roqlar mavzu doirasida mantiqan mazmunli, tartibli, aniq ifodaga ega bo'lishi lozim va uni to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab, tuzib, natijasi aniqlanadi. Suhbat metodi jarayonida intervyu olish ham mumkin. O'rinli, mantiqan yuksak javoblar yoki noaniq javoblar magnit lentalariga yozib boriladi va tahlil etiladi.

**Pedagogik eksperiment** – har qanday pedagogik tadqiqotning asosidir. Pedagogik eksperiment yordamida ilmiy farazlarning ishonchligi tekshiriladi, pedagogik jarayonlarning ayrim elementlari o'rtasidagi bog'liqlik va munosabatlar aniqlanadi. Pedagogik eksperiment ikki turga bo'linadi: qayd qiluvchi va shakllantiruvchi. Qayd qiluvchi eksperiment orqali ta'lim yoki tarbiya jarayonidagi mavjud muammolar aniqlanadi. Shakllantiruvchi eksperimentda esa zaruriy ma'lumotlar o'quvchilarda shakllantiriladi. Pedagogik jarayonni

aniqroq o'rganish maqsadida eksperimentator o'zi tashkil etgan jarayonni kuzatadi. U pedagogik jarayonga aralashadi, tarbiyalanuvchilar bilan tarbiyachi faoliyatining muayyan sharoitlarini yaratadi. Pedagogik eksperiment dastlabki ma'lumotlarni, aniq sharoitlarni va o'qitish usullarini yoki tadqiq qilinadigan materiallarni aniq belgilashni, shuningdek, eksperiment natijalarini har tomonlama hisobga olishni talab etadi. Quyidagilar pedagogik eksperimentning bosqichlari hisoblana-di: eksperiment o'tkazish va natijalarni sharhlash, rejalashtirish, eksperiment maqsadi va vazifasini belgilash, eksperiment natijasiga ta'sir etuvchi omillar va ular darajasining miqdorini aniqlash, kerakli kuza-tishlar soni, eksperiment o'tkazish tartibi, olingan natijalarni tekshi-rish metodlarini qo'llash. Eksperimentni tashkil etish va o'tkazish bel-gilangan rejaga qat'iy amal qilgan holda olib borilishi kerak. Sharh-lash bosqichida ma'lumotlar yig'iladi va qayta ishlanadi. Eksperiment o'tkazish ishonchlilik tamoyiliga javob berishi uchun quyidagi shart-larga rioya qilish kerak, ya'ni:

1. Tekshiruvchilar soni va tajribalar miqdorining aniq bo'lishi.
2. Tadqiqot medodlarining ishonchliligi.
3. Farqlarning statistik jihatdan ahamiyatlilikini hisobga olish.

Turli metodlarning o'zaro qo'shib olib borilishi pedagogik tadqi-qotlarning samaradorligini va sifatini oshirishga imkon beradi. Bun-ga matematik metodlarning hamda hisoblash-yechish qurilmalari yordamidagi eksperiment natijalarining pedagogikaga kirib kelishi ham yordam beradi. Odatda, o'rtacha arifmetik miqdor, modda, meri-dian, dispensiya, tanlab olinadigan to'plam majmuyining o'rtacha kvadratik chetga chiqishi, o'rtacha olingan qiymat xatosi, belgilar-ni tuzatish koeffitsiyentlari hisoblab chiqariladi. Ilmiy-tadqiqot nati-jalari amalda qo'llaniladi. Tugallangan tadqiqotda eng muhim nar-sa uning natijalari amalda qo'llanilishidir. Mustaqil O'zbekiston sharoitida yangi ilmiy bilimlar juda tez to'planib bormoqda. Biroq, ularni amaliy ishga joriy etish yo'lida qiyinchiliklar borligi ko'zga tashlanmoqda.

Bu qiyinchiliklar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish haqi-dagi bilimlarning ortib borishi bilan ulardan foydalanishning faol imkoniyatlari o'rtasidagi nomuvofqlikdan iboratdir. Shunday bo'lsa-

da, bu ularni joriy etish yuzasidan maqsadga muvofiq ishlar olib borishni istisno etmaydi. Joriy etish jarayoni pedagogik tajribani takomillashtirishga qaratilgan faoliyat deb qaraladi. Shu sababli joriy qilinishi lozim bo'lgan tavsiyalarga yuqori talablar qo'yiladi. Talablarining ilmiy asoslanganlik darajasi, ular mazmunining aniqligi pedagoglar bilan o'quvchilarning mo'ljallangan kuch-g'ayrati mezonini to'g'ri baholashni nazarda tutadi. Joriy etish butun tadbirlar kompleksi bo'lib, u olingan xulosalar haqida pedagogik jamoatchilikni habardor qilishni, yangi o'quv va metodik qo'llanmalar yaratishni, metodik yo'l-yo'riq va metodik tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

**Maktab hujjatlarini tahlil qilish metodi** – pedagogik hodisalar va faktlarni tekshirishda maktab hujjatlarini mukammal va chuqur o'rganmoq lozim. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda ta'lim qonuniga amal qilinmog'i kerak. Maktab hujjatlarini tahlil qilishda, o'quvchilarning ijodiy faolligi va mustaqilligini, uning iqtidorini hamda ilg'or pedagogik tajribalarning umumlashtirilishi va joriy etilishini ko'rsatgan taqdirdagina to'liq qiymatga ega bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning umumiy miqdori, uning o'sishi yoki kamayishiga sabablari tavsifi, o'quvchilarning fanlar bo'yicha o'zlashtirish darajasiga, sinfdan qolishning oldini olish, rag'batlantirish va jazolash choralarini turlariga, maktabning moddiy bazasiga e'tibor beriladi.

**Bolalar ijodini o'rganish metodi** – maktab o'quvchilari ijodini hamda ularning turli-tuman ishlarini o'rganish va tahlil qilish pedagogik tadqiqotning samarali metodlaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar aqliy qobiliyatlari, olijanob axloqiy qiyofalari, estetik didlari, sinchkovliklari va qiziquvchanliklari bilan ajralib turadi. Pedagogika fani bolalar ijodining manbalari va omillarini chuqur bilishga hamda ularni yanada taraqqiy ettirish va takomillashtirishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib berishga qaratilgan.

**Statistik ma'lumotlarni analiz va sintez qilish metodi** – pedagogik tadqiqotning kerakli statistik ma'lumotlarini ma'lum bir maqsad bilan tizimli o'rganish, mustaqil O'zbekistonda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shadi.

Xalq ta'limi sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag'larning doi-

miy o'sib borishi, darslik va o'quv qo'llanmalari, ko'rgazmali qurolar, o'qituvchi kadrlar tayyorlash, maktab qurilishi, xo'jalik shartnomalari va ulardan tushadigan mablag'lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

**Anketalar metodi** – o'quvchilardan so'rash usuli bo'lib, u o'quvchilar jamoasining bilimlari to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni olish, ularning fikrlari va qarashlarini aniqlash hamda kasbga yo'llashni belgilash uchun maxsus shaklda ishlangan bo'lmog'i lozim. Anketada ko'zlangan maqsadga muvofiq savollar bo'lib, ularning javoblaridan pedagogik natijalar kelib chiqishi ko'zda tutiladi.

Yozma javoblarni ommaviy ravishda yig'ib olish metodi anketa metodi deb ataladi. Anketalar ishlab chiqarish – murakkab ilmiy jarayon. Tadqiqot natijalarining ishonchiligi anketalar mazmuniga, berilgan savollar shakliga, to'ldirilgan anketalar soniga bog'liq bo'ladi. Odatda, anketalar anketa ma'lumotlarini EHMni qo'llab, matematik-statistik metodlar bilan ishlashga imkon beradigan qilib tuziladi. Hujjatlarning yetarli darajada aniqlik bilan shunday tahlil qilinishi pedagogik jamoalarning real faoliyatidagi bog'lanishlar va bog'liqliklarni aniqlashga yordam beradi.

**Hisoblash matematikasi va kibernetika metodlari** – hozirgi zamon ishlab chiqarishi, fan va texnikasining talab hamda manfaatlari turmushda sinalgan texnika vositalari, hisoblash matematikasi va kibernetika usullari maktab ishida va pedagogikada qo'llanishini talab qiladi. Pedagogik-kibernetika shakli bilim berish jarayonini o'qitish, bilim berish jarayonini boshqarishning alohida shakli sifatida o'ziga xos xususiyatga ega. Shuning uchun pedagogik jarayon bilan ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish o'rtasida katta farq bor.

Pedagogik tadqiqotlarda kino, ovoz texnikasi, foto, televideniye singari texnika vositalaridan keng foydalaniladi. Ular o'quvchilarning bilish jarayonini faollashtirishga yordam beradi. Bolalar uchun qo'shimcha rag'batlantirish omillarini hosil qiladi. Ko'rsatilgan vositalarning har biri bolalarning yoshini hisobga olgan holda o'quv fani va pedagogik jarayonni mukammallashtiradi.

**Sotsiologik tadqiqot metodi** – anketa savollari kiritiladi. Bundan maqsad talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo'lgan munosabat-

larini, talabalar orasidagi do'stlik munosabatlarini aniqlash, o'zi ta'lim-tarbiya olayotgan oliy o'quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, yoshlar orasidagi munosabatlarni, dinga (xususan, tasavvufga) bo'lgan qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma'naviy sifatlari darajasini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ilmiy va kasbiy mahoratlarni oshirishdagi mashg'ulotlar turi, stepindiyalar miqdori, ota-onalarning moddiy yordami, ufarning ma'lumoti, ish joyi, talabalarning yashash joyi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ta'sir etuvchi omillar, ularning onglik darajasi jarayoni, ma'naviy sifatlari, komillikka erishish uchun tezroq qutilish kerak bo'lgan salbiy sifatlarni aniqlashdir.

Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uni ro'yobga chiqarish bosqichlarida yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifati, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanish kafolatlarining ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish kabi masalalar pedagogik tadqiqotning asosini tashkil etadi.

Ma'lumki, har qanday ilmiy-tadqiqot ishida, avvalo, soha, yo'nalish aniqlanishi va undagi muammo shakllanmog'i lozim.

**Muammo** – bu ilmiy-tadqiqot ishida yechimi talab qilinadigan nazariy yoki amaliy masala bo'lib, u mavzuning dolzarbligi asosida ifoda qilinadi. Ular ilmiy, ilmiy-uslubiy, ilmiy-metodologik jihatdan tadqiq etiladigan masaladan iborat bo'ladi.

Ilmiy-tadqiqot ishida muammo shunday jarayonki, u mavzu dolzarbligi va ishchi gipoteza asosida ifodalanadi va oxirgi yechimga yetib bormaguncha u haqda to'liq bilimga ega bo'la olmaymiz, ammo shuni bilamizki, u ilm-fan rivoji va jamiyat talabi bilan paydo bo'ladi. Bu haqda Abu Rayhon Beruniy: «Ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydo bo'ladi», degan qimmatli fikrini aytgan edi. Demak, ilmiy muammo sababsiz paydo bo'lmaydi, ular doimo mavjud ilmiy salohiyat va ilmiy ishlanmalar asosida paydo bo'ladi hamda muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib boradi.

Ilmiy-tadqiqot ishi davomida muammoni to'g'ri qo'yish va unga mos tadqiqot maqsadini aniqlash muhim bosqich hisoblanadi. Muammo qo'yilishida mavjud bilimlar asosida maqsadga erisha

olmaslik bo'lib, unda ilgari bilimlar asosida tubdan yangicha yondashuv, ya'ni yangi qonuniyatni ochish imkoni bilan bog'liq ishchi farazni to'g'ri ifodalay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda, bu yangi bilim amalda jamiyatga zarur ekanligi faraz qilinadi.

Muammo qo'yilishida quyidagicha bosqichlarga e'tibor berish lozim:

- muammoni izlash;
- xususiy muammoni qo'yish (muammo yechimiga erishish uchun maqsadlar ketma-ketligini ifodalash);
- muammoni yechish.

**Muammoni izlash.** Ma'lumki, ilm-fan sohalari hamda tarmoqlari ko'p, ularga mos muammolar ham yetarli. Ko'pincha, ilmiy, ilmiy-metodologik, texnologik va texnikaviy muammolar ilmiy xodimlar va mutaxassislariga yaqqol sezilib turadi. Shu sababli ular muammoni izlashga katta mehnat sarf qilmaydilar.

Muammoni izlash va tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

– qo'yilgan muammoni yechmasdan, belgilangan yo'nalishda metodni, metodologiyani, texnologiyani va texnikani yanada rivojlantirish va takomillashtirish mumkinligiga ishchi farazni shakllantirish olishlik;

– rejalashtirilgan tadqiqot ilm-fanga va ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga muayyan nima berishini aniqlash;

– rejalashtirilgan tadqiqot natijalari asosida olinadigan yangi qonuniyat nimasi bilan usul, vosita va ilm-fan hamda texnika-texnologiyalardagi oldin mavjudlaridan yangi va ko'proq amaliy bahoga ega ekanligini aniqlash.

**Xususiy muammolarni qo'yish.** Yuqorida qayd etilganidek, muammoni to'g'ri va aniq qo'yish, tadqiqot maqsadi va vazifalarni to'g'ri aniqlash, tadqiqot ko'lamini belgilash va ular asosida tadqiqot manbayini aniqlash ilmiy-tadqiqot ishining muhim bosqichlaridir. Bunda, ayniqsa, bosh muammoni to'liq ifodalashga imkon beruvchi xususiy muammolar va ular ketma-ketligini hamda aloqadorlik qonuniyatlarini ilmiy talqin qila bilish ham ilmiy-tadqiqot ishini olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunda quyidagi bosqichlarni, ya'ni xususiy muammolar va ular yechimlarini, bosh muammo yechimini topishdagi bosqichlarini qayd etish maqsadga muvofiq:

– tadqiqot manbayi faoliyat ko'rsatishiga tegishli ko'rsatkichlar, omillarni o'rganib chiqish va ular orasidagi mavjud aloqadorlik qonunlarini o'rganish hamda ko'rsatkichlar ierarxiyasiga e'tibor berish va nihoyat ma'lumni noma'lumdan ajratish;

– muammoni qo'yish uchun o'sha sohadagi ilm-fan, ta'lim-tarbiya, texnika-texnologiyalarning yutuqlarini tadqiqotchi mukammal o'zlashtirgan bo'limgo'i lozim, aks holda yechilgan muammoni va hattoki, undan saviyasi pastroq muammoning yechimini topishga ortiqcha vaqt sarf qilinishi mumkin;

– noma'lumlarni cheklash: tadqiqot manbayini aks ettiruvchi (ifodalovchi) ko'rsatkichlar tabiatini o'rganish va asosiylarini olib qolish, ikkinchi darajalilarni tashlab yuborish;

– noma'lumlarning aniqlanish va o'zgarish sohalarini aniqlash;

– muammo yechimining aniq shartlarini belgilab olish va shuning bilan birga muammo turini asoslash;

– butun tadqiqotning umumiy metodologiyasini asoslash, o'lcham va baholash mezonlarini aniqlash;

– tadqiqot yechimi variantlarining mavjud yechimlardan yangiligi hamda istiqbolli ekanligini asoslash.

**Muammoni yoyish.** Bir qarashda ilmiy, metodologik, ilmiy-texnikaviy muammolar bir qirrali muammaday bo'lib ko'rinadi. Aslida muammoning yechimini topish jarayonida, uning keng qamrovli ekanligi yoki ko'pqirraliligi aniqlanadi. Muammoning yechimi, ko'pincha, uning yoyilishi bilan mos keladi, ya'ni xususiy muammolar yechimlarini topishga to'g'ri keladi. Ular har qanday xususiy muammolarni bog'lovchi, aniqlovchi, to'g'rilovchi xususiyatga ega bo'lgan bosh muammo atrofida jamlanadi. Bunday xususiy muammolarni yechish tadqiqotchini bosh muammo yechimiga javob izlashda ma'lumotlar, axborotlar va dalillar bilan ta'minlaydi.

Xususiy muammolar ma'lum darajada asosiy muammoning rejalarga o'xshash bo'ladi. Bunda tadqiqot manbayini yangi aloqadorlik-



lar bilan o'rganish, yangi manba bilan yoki manbani yangi sharoitda o'rganishga tenglash mumkin.

Ilmiy-tadqiqot ishining markaziy muammosi – muammo har xil turdagi (nazariy, nazariy-amaliy, amaliy) jihatlardan iborat ekanligi va ular orasidagi bog'lanishning xilma-xilligidir. Ular ba'zi hollarda alohida tadqiqot mavzusi sifatida ham ko'rinishi mumkin va hatto, alohida kichik muammo yoki mustaqil muammo sifatida ham qaraladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagicha fikrlarni keltirish mumkin:

– biror-bir muammo (xususiy muammo bosh muammoga yoki boshqa bir yo'nalishdagi muammoga) o'sib, o'rganilib, takomillash-tirilib, tadqiqot maqsadiga ozgina o'zgartirish kiritilib, boshqachasiga aylantirilishi mumkin;

– biror-bir muammoni o'rganish davomida, yangi fikr va yangi savollar (muammolar) yuzaga chiqadi, bosh muammoning muhim jihatlari ko'payadi (kengayadi);

– biror-bir muammo yechimini topishda, boshqa muammo-ni tug'ilishi bosh muammoning kattagina ko'lamda yoyilishini tug'diradi.

Bugungi ta'lim tizimi, uning maqsadi va vazifalari, respublikamiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan muammo yechimiga mos kelishi kerak. Jahon miqyosida hukm surayotgan fan-texnika taraqqiyoti mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini boshqarish va uning kelajagini belgilab borishdagi kishilar intellektual salohiyati haqidagi axborotning muhimligini ko'rsatmoqda.

Jamiyatning intellektual salohiyatiga mos bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalash ham bu boradigi muhim muammolardan iborat bo'lib, ularning yechimini topish esa, «XXI asr – intellektual asr»ning faol ishtirokchisini tarbiyalash kabi istiqbolli natijalarni qo'lga kiritishni taqozo etadi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab ko'p qirrali, ko'p holatli, o'ziga hos dinamik tizimdir. Shu sababli uni optimal boshqarish variantlarini topish tadqiqotchilardan katta ilmiy salohiyatni talab etadi. Bugungi kunda ta'lim metodlari, usullari va texnologi-

yalari zamon talabi asosida kengayib bormoqda. Bir vaqtning o'zida ta'lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarini qamrab oluvchi kompleks bilimga ega bo'lishga har qanday xalq ta'limi tizimi xodimining qobiliyati yetarli bo'lavermaydi. Bunday hollarda albatta, ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumotlar, ma'lumotlar ombori, axborotlar, axborotlar banki, axborotlashtirish texnologiyalari haqidagi bilimlar banki katta imkoniyatlarni qo'lga kiritishga keng sharoitlar yaratib beradi.

Kelajakda nafaqat bilimlar banki, balki ta'lim tizimini egallash kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka ham jahon ta'limi talablari-ga javob beradigan bo'lishi lozim. Shu sababli xalq ta'limi tizimi oldi-ga qo'yilayotgan qator vazifalar davlat siyosati darajasiga aylantiril-gan. Shuning bilan birga samarali ta'lim texnologiyalarini ishlab chi-qarish va ularni amaliyotda joriy etish bugungi kundagi ilmiy-tadqiqot ishimiz diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Bunda ilmiy-tadqiqot ishining ilmiy-nazariy asoslarini e'tiborga olgan holda ta'lim texnologiyalarini yaratishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

– rejalashtirilgan ta'lim texnologiyasiga ijtimoiy-pedagogik asos-lar nimalardan iborat ekanligini aniqlash;

– ta'lim texnologiyasining jarayon sifatida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ierarxik qat'iy ketma-ketligi mavjudligini aniq-lash va ularning funksional tuzilmasi nimalardan iboratligini bel-gilash;

– mavjud texnologiya bugungi kun talabi va jahon ta'limi talabla-riga mos kelishligini o'rganib chiqish;

– agar qaralayotgan ta'lim texnologiyasi yaxlit tizim sifatida qaralsa, uning tuzilmasi tashkiliy-funksional qism tizimlar (element-lar) bo'yicha ifodalash mumkinligini o'rganish;

– ta'lim texnologiyasining maqsadini o'rganilayotgan o'quv pred-meti (muayyan tarbiya jarayoni) maqsadlari bilan mos keltirish.

**Ta'lim texnologiyasi** – aniq bir o'quv predmetini o'qitishning ilmiy asoslangan qonun-qoida, metod va usullaridan iborat bo'lib, u ta'limda ko'zlagan maqsadga erishish bosqichlarini o'zida aks ettir-gan va ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq boshqarishga erishish imkonini beruvchi jarayondir.

Pedagogik tadqiqotlarni olib borishda, ayniqsa, pedagogik samalar beradigan ilmiy-uslubiy ishlanmalar yaratishda nazariy xulosa va umumlashtirishlarga tayanadigan ham nazariy, ham amaliy fikrlash tadqiqotchida rivojlangan bo'lishi kerak. Bu borada tadqiqotchi ilmiy fikrlash uchun quyidagilarga e'tibor berishi kerak:

- tadqiqot maqsadini aniq ifodalay bilishi kerak;
- ilgari bajarilgan nazariy yoki tajribaviy (eksperimental) tadqiqotlarga tayanadigan farqni ishlab chiqqan bo'lishi zarur;
- tadqiqot metodologiyasini shakllantirgan bo'lishi lozim;
- tadqiqot bosqichlarini aniqlab chiqa olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak;

– ishlab chiqilgan uslubiyat va rejaga mos qo'shimcha xususiy tadqiqotlar ham o'tkaza olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur;

- olingan natijalarni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qila olishi kerak;
- xulosalarni ifodalashning tavsifli ekanligini yodda tutishi lozim.

Pedagogik tadqiqot yo'nalishi bo'yicha ilm-fan tarixidagi dalillar misolida ilmiy izlanishning mantiqiy ketma-ketligi haqida ilmiy fikrlar tadqiqotchida shakllangan bo'ladi. Bunda olimlarning u yoki bu nazariy yoki eksperimental kashfiyotlarga qanday erishganliklari tahlili haqidagi ma'lumotlar muhim rol o'ynaydi. Qanday muammolar olimlarni tadqiqotlar bilan shug'ullanishga undaganligini, nima sababdan fan rivojlanishi bosqichida ushbu muammo hal etilganligini, bu tadqiqot texnika va iqtisodiyotning rivojlanishi bilan qanday bog'langanligini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiqotchida dialektik fikrlash usulining shakllanishida zarur omil bo'lib hisoblanadi. Bularni e'tiborga olib pedagogik tadqiqotlar olib borishda muayyan yo'nalish bo'yicha bilimlar tizimini ishlab chiqish kerakki, ularni bajarish davomida tadqiqotchi deduksiya usulidan foydalanib, ilmiy-uslubiy ishlanmalar haqida xulosalar chiqara olishga erishsinlar.

Ma'lumki, har bir tadqiqotchi oldida insoniyat yaratgan jamiyki boylklarni o'rganish, o'zlashtirish va rivojlantirish vazifasi turaadi. Inson kamoloti va jamiyat taraqqiyotini shularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun ta'lim tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, yosh avlodni ilm-fan

asoslari bilan chuqur qurollantirish lozim. Zero, ilm olish va uni takomillashtirish yo'lidagi izlanish hamda zahmatlar insonning e'tiqodi va dunyoqarashini shakllantirib, uni ma'naviy-axloqiy kamolot sari yetaklaydi. Bu borada olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlar amaliy ahamiyatining roli beqiyos.

Shu sababli pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari bilan, ularning amaliy ahamiyati ham e'tiborga olinadi. Amaliy ahamiyatini ilmiy asoslanganligini baholashda, bu boradagi ilmiy-nazariy ishlanmalarni nechog'lik amaliyotga foydasi tegishini tajriba-sinov ishlari natijalaridan ko'rish mumkin.

Olingan natijalar tahliliga asoslanib, ta'lim oluvchilar va beruvchilardagi bu bilimlar, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bilan belgilangan milliy yo'naltirish tamoyillarini to'liq amalga oshirish imkoni yetarliligi aniqlanadi. Bunda, asosan tajriba-sinov ishini amalga oshirish xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'lim oluvchini tegishli axborotlar bilan ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish shakllari, usullari, vositalari va mazmuni ishlab chiqiladi.

Pedagogik tadqiqotlar xususiy o'qitish metodikasiga tegishli bo'lganda, asosan, natijalarni miqdoriy taqqoslash mezonlari va ularning geometrik interpretatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda, asosan, yaratilgan ta'lim texnologiyasi bo'yicha sifat ko'rsatkichlari bilan nazorat guruhidagi sifat ko'rsatkichlari taqqoslanadi va ularga miqdoriy tavsiyanomalar berilib, shular asosida uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalar ishlab chiqiladi.

Ilmiy-tadqiqot ishining keyingi bosqichida belgilangan pedagogik samaradorlik mezoni asosida tajriba-sinov ishi natijalarini baholashda ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyasini amaliyotga qo'llashdagi tajriba-sinov ishi natijalari bo'yicha muammo qilib qo'yilgan maqsadga erishganlik tashxis qilinadi. Bu jarayon ham o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari va ularning samaradorligi kelajakda shug'ullanilayotgan yo'nalish taraqqiyotiga mazkur ishlanmalar ta'siri salmog'ini baholay bilishdan iboratdir. Keyin tadqiqot natijasining mos sohasini takomillashtirish va rivojlantirish shu tariqa bashorat qilinadi.

Shakllangan tashxis va bashorat orqali ilmiy-tadqiqot ishiga xulosa chiqarilib, umumlashtirilib, erishilgan maqsad aniqlanadi va undan tadqiqotning nazariy hamda amaliy ahamiyati hisobga olinib, yaratilgan ishlanmalarni amaliyotga qo‘llashga yo‘riqnoma va ko‘rsatmalar tayyorlanadi.

Ilmiy-tadqiqot ishining qayd etilgan amaliy ahamiyatining bahosi rasmiylashtiriladi va lozim topilganda ulardan ommaviy foydalanish uchun risolalar tayyorlanadi.

Ilmiy-tadqiqot ishining qayd etilgan ketma-ketligini joriy qilishda, o‘z navbatida, tadqiqotchidan dastlabki ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlashdan tortib, ta‘lim modullari yoki modellarni tuzish uchun ilmiy-tadqiqot ishini yuqori saviyada olib borishni talab etadi. Tabiiyki, bu bilan ishlab chiqilgan ta‘lim texnologiyalarining hayotiyligi oshadi va pedagogik samaradorlikni ta‘minlash kafolatlanadi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Pedagogika fani nima haqida bahs yuritadi?*
- 2. Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan aloqasini aytib bering.*
- 3. Pedagogika fanining bo‘limlari deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Pedagogika fanining dolzarb muammolarini aytib bering.*
- 5. Pedagogika fanining vazifalari nimadan iborat?*
- 6. Pedagogikaning metodologik asosini nima tashkil etadi?*
- 7. Intellektual avlod tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?*
- 8. Pedagogika fanining rivojiga hissa qo‘shgan Sharq va O‘rta Osiyo olimlaridan kimlarni bilasiz?*
- 9. Komil inson tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?*
- 10. Pedagogikaning shug‘ullamuvchi sohasi maqsadi va vazifalarini ifodalovchi shaklni tushuntiring.*
- 11. Ilmiy-tadqiqot ishi haqida tushuncha bering.*
- 12. Ta‘lim texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?*
- 13. Pedagogik tadqiqot olib borishda nimalarga e‘tibor qaratish kerak?*

14. *Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari deganda nimani tushunasiz?*
15. *Kuzatish metodini tushuntirib bering.*
16. *Pedagogik eksperiment va uning turlarini izohlab bering.*
17. *Anketa metodi deganda nimani tushunasiz?*
18. *Ilmiy-tadqiqot jarayonining uzluksizligi deganda nimani tushunasiz?*
19. *Test sinovlari metodining vazifasi nimadan iborat?*
20. *Pedagogik ilmiy xodimlar tayyorlash jarayonining uzluksizligi nima?*

### Test savollari

1. **Inson tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi fan bu ...**
  - A) Psixologiya
  - B) Pedagogika
  - D) Tarixiydagogigika
  - E) Filosofiya
2. **Pedagogik fanining ilmiy-tadqiqot usullari ...**
  - A) Kuzatish usuli, suhbat usuli
  - B) Hikoya usuli, suhbat usuli, ma'ruza
  - D) Induktiv usuli, deduktiv usuli
  - E) Illustrativ uslubi, demonstrativ uslub
3. **«Pedagogika» atamasining ma'nosi nimani anglatadi?**
  - A) Bolani o'qitaman
  - B) Bolani yetaklayman
  - D) Bolani tarbiyalayman
  - E) Bolani tarbiyalayman va o'qitaman
4. **Pedagogika fanlari tizimi qaysi variant javobida to'g'ri ko'ratilgan?**
  - A) Umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb ta'lim
  - B) Maktabgacha ta'lim pedagogikasi metodikasi, pedagogika tarixi, ta'limni boshqarish va boshqalar
  - D) Umumiy pedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogikasi va logopediya
  - E) Pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika, pedagogika tarixi

**5. Pedagogika fani konsepsiyasining asosiy mazmun-mohiyati nimadan iborat?**

- A) Pedagogika faninig rivojlanish istiqbollarini belgilashdan
- B) Pedagogika fanining yangi yo'nalishlarini belgilashdan
- D) Pedagogika fani erishgan yutuqlarni targ'ib qilishdan
- E) Pedagogika fani erishgan yutuqlarni amaliyotda qo'llashdan

**6. Qaysi olimning asarida pedagogika alohida fan maqomiga ega bo'ldi?**

- A) Abu Ali Ibn Sinoning «Donishnoma» asarida
- B) Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asarida
- D) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida
- E) Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika» asarida

**7. Pedagogikaning bosh masalasi ...**

- A) Tarbiya
- B) Barkamol inson
- D) Ta'lim
- E) Ta'lim-tarbiya

**8. Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?**

- A) Matematik-statistik, evristik, innavatsion tajriba
- B) Tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajribi ishi
- D) Bolalarni ijodini o'rganish, statistika va boshqalar
- E) Laboratoriya tajribasi, amaliy tajriba, anketa-sinov tajribasi

**9. Pedagogika tarixi qanday fan?**

- A) Siyosiy
- B) Huquqiy
- D) Ijtimoiy
- E) Didaktik

**10. «Pedagogiya, ya'ni bola tarbiyasining fani, demakdir», pedagogikaga bu ta'rif kim tomonidan berilgan?**

- A) Shakuriy
- B) Hamza
- D) Avloniy
- E) Ayniy

**11. Pedagogika olamiga «evristik» savol-javob suhbatning metodini olib kirgan faylasuf kim?**

- A) Aflotun
- B) Suqrot
- D) Arastu
- E) Demokrit

**12. Pedagogika fanining predmeti nimadan iborat?**

- A) Ta'lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari va mazmunidan
- B) Ta'lim-tarbiyaning usullari va vositalaridan
- D) Dunyoning moddiy va ma'naviy rivojida shaxs kamoloti uyg'unligidan
- E) Hamma javoblar to'g'ri

**13. Pedagogika fanining asosiy ilmiy-tadqiqot metodlari nechta?**

- A) 10 ta                      B) 11 ta                      D) 12 ta                      E) 13 ta

**14. Pedagogika qanday fan?**

- A) Shaxs haqidagi fan                      B) O'quvchilar haqidagi fan  
D) O'qitish haqidagi fan                      E) Tarbiya haqidagi fan

**15. Pedagogika tizimining maqsadi nima?**

- A) Barkamol insonni tarbiyalash  
B) Insonni ma'rifatli va ma'lumotli qilish  
D) Bilimni oshirish  
E) Pedagogik faoliyatni o'stirish

**16. Pedagogik nazokatning mag'zi bu ...**

- A) Tarbiyalanuvchilarning muomalasi  
B) Tarbiyalanuvchilarning shaxsga bo'lgan hurmati  
D) Tarbiyalanuvchilarning xatti-harakati  
E) Tarbiyalanuvchilarning xushfe'lligi

**17. Inson bu ...**

- A) Tirik biologik mavjudot  
B) Ijtimoiy mavjudot  
D) A va B javob to'g'ri  
E) Muayyan jamiyatning a'zosi

**18. Zamonaviy pedagogika faniga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?**

- A) Tabiatning oliy mahsuli  
B) Insonning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lib shakllanishiga, uning shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladigan fan  
D) Barkamol shaxs bo'lib yetishishdagi qonuniyatlarni o'rganuvchi fan  
E) Barcha javoblar to'g'ri

**19. Pedagogikaning bosh masalasi nima?**

- A) Tarbiya                      B) Bilim  
D) Odob-axloq                      E) Malaka



Insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa – tarbiyadir.

*Demokrit*

### 3-MAVZU: SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOYILASHUVI

#### **Reja:**

1. Pedagogik antropologiya. Individ va shaxs haqida tushuncha. Shaxs tarbiya obyekti va subyekti sifatida.

2. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi.

3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.

4. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Shaxs kamolotining yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati.

#### **Mavzuning maqsadi:**

Shaxs, individ, barkamol shaxs, o'quvchilarning yosh davrlari to'g'risida ma'lumot berish hamda ularda dunyoqarash, axloq, intizomni shakllantirish.

#### **Mavzuning vazifalari:**

– shaxs va individ tarbiya jarayonini obyekti va subyekti ekanligi, shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlarini yoritish;

– shaxsni kamol toptirishda ta'sir etuvchi omillarning rolini ko'rsatish;

– shaxs shakllanishini yosh xususiyatlariga ko'ra davrlarga bo'lish;

– barkamol shaxs tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy asoslarini ko'rsatish.

**Tayanch ibora va atamalar:** shaxs tushunchasi, individ, inson, ruh, aql, bosh miya, rivojlanish, salomatlik, ta'lim-tarbiya, shaxsning rivojlanishi, shaxsni rivojlantiruvchi omillar, ta'lim-tarbiya, biologik.

ijtimoiy omillar, irsiyat, muhit, oila muhiti. ijtimoiy muhit, mahalla, maktab, tarbiya, shaxsning kamol topishida tarbiya va faoliyatning bog'liqligi, go'daklik davri, yangi davr, maktabgacha tarbiya yoshi, kichik maktab yoshi, o'smirlik davri, o'spirinlik davri, jismoniy va ruhiy kamolot, barkamol shaxs.

### **3.1. Indivud va shaxs haqida tushuncha.**

#### **Shaxs – tarbiya obyektini va subyektini sifatida.**

#### **Shaxsni shakllantiruvchi asosiy omillar**

Dunyoga kelgan go'dak ma'lum yoshga qadar individ hisoblanadi. «Individ» lotincha «individuum» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «bo'linmas», «alohida», «yagona» ma'nolarini anglatadi. Individ biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudotdir.

Shaxsning shakllanishida harakat o'ziga xos omil sanaladi. Go'dak (chaqaloq) ham turli harakatlarni bajaradi. Biroq, bu harakatlar keyinchalik reflekslar bo'lib, ongli ravishda emas, balki shartsiz va shartli qo'zg'atuvchilarga javob tarzida yuz beradi. Go'dakda nutqning hosil bo'lishi, shuningdek, uning tomonidan tashkil etilayotgan harakatlar ongli ravishda sodir bo'la boshlashi va albatta, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtirokining ro'y berishi shaxs shakllanishining dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Shaxs deganda, muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam (inson individi) shaxsga aylanmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyati va sifatleri bilan farq qilishi lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xususiyati, qiziqishi, qobiliyati, aqliy jihatdan rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji, mehnat faoliyatiga munosabati bilan boshqalardan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, mazkur xususiyatlar rivojlanib, ma'lum bir bosqichga yetsagina, u kamol topgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida qaror topadi.

Shaxsning rivojlanishi, avvalo, uning shaxsiy xislatlarining shakllanishidan boshlanadi.

Shaxs nomini olish uchun nimalar kerak? – degan savolning tug'ilishi tabiiydir. Odam ijtimoiy mavjudot sifatidan shaxsga aylana

nishi uchun unga ijtimoiy-iqtisodiy hayot sharoitlari, muhit va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular hamda shaxsning nasliy xususiyatlarining takomillashib borishi odamning rivojlanishi, shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishini, uning har tomonlama kamolga yetishi uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta'sir etadigan omillarni, rivojlanish jarayoniga aloqador bosqichlarni aniqlashi kerak. Shuningdek, bola shaxsning rivojlanishida faoliyatining o'rni va ahamiyatini ham o'rganishi lozim.

Biz yuqorida «**rivojlanish**» tushunchasini ishlatdik. Endi ushbu tushunchaga atroflicha yondashib, ta'rif berishga harakat qilaylik. **Rivojlanish** – shaxsning jismoniy, aqliy va boshqa xislatlarning takomillashuvini namoyon etadigan jarayon bo'lib, bunday xislatlar tug'ma, ba'zilar keyinchalik erishilgan bo'ladi. Odam biologik mavjudot sanaladi, tabiiy, biologik va ijtimoiy qonuniyatlarga bevosita bo'ysinadi. Boshqacha qilib aytganda, shaxs tirik organizmdir, shu sababli uning hayoti biologiyaning umumiy qonunlariga, yoshlar anatomiyasi fiziologiyasining maxsus qonunlariga bo'ysinadi. Bulardan tashqari odamning barkamol inson bo'lib shakllanishida aniq maqsad asosida tashkil etilgan xatti-harakat, iroda sifatlarining kamol topishi asoslarida ayrim nuqsonlarning bartaraf etilishi, qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishonch ham muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, inson hayoti davomida jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Lekin bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi, bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida, bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Anatomik va fiziologik xarakterdagi o'zgarishlar jismoniy rivojlanishiga taalluqlidir. Odam bo'yining o'sishi, gavda og'irligining ortib borishi, gavda tuzilishining o'zgarishi, qon bosimi, o'pka sig'imi, tayanch-harakat a'zolarining holati va boshqalar jismoniy rivojlanish

ko'rsatkichlaridir. Bunga hikmatlarda ham e'tibor qaratilgan. Xususan, ulardan birida «Salomatlik – bu bebaho boylik. Shu bois, u inson uchun berilgan birinchi baxtdir». – deb qayd etiladi.


Ruhij jarayonlar va bola ruhiyatidagi o'zgarishlar, chunonchi, diqqat va xotira darajasi, tafakkur xususiyatlari, so'z boyligi hamda nutqning rivojlanganlik darajasi va boshqa ruhiy rivojlanishga taalluqlidir.

Shaxs rivojlanishida, u yoki bu faoliyat turlari (o'yin, o'qish, mehnat va boshqalar)ning turli yoshdagi faoliyat mazmuni (maqсадga yo'naltirilganlik, harakatning ongli, rejali bo'lishi, ularning samaradorligi va h.k), shuningdek, aloqa, muomala hamda kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ijtimoiy burchni anglash, unga nisbatan mas'ullik kabi xususiyatlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shaxsning shakllanishida shaxsiy xislat va sifatlarning rivojlanib, taraqqiy etib borishi muhim o'rin tutadi. Shaxs sifatlarini to'g'ri aniqlash uchun turli munosabatlar jarayonida uni o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlodi tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir soha sifatida namoyon bo'layotgan ekan, shaxs ta'rifi ham birmuncha oydinlashadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismiga kirgan «shaxs» quyidagicha ta'riflanadi:

**Shaxs** – kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchisi. Demak, shaxs – ijtimoiy munosabatlar mahsuli bo'lib, ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatda o'z o'rnini bor. Shaxsning rivojlanishi esa barcha tug'ma va hosil qilingan xususiyatlar: organizmning anatomik tuzilishi, faoliyat va xatti-harakatlarning miqdoriy va sifat o'zgarishi jarayonidir.

Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi shaklda aks ettirilgan (3.1.1-shakl).



**Irsiyat** – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo‘lgan biologik xususiyat va o‘xshashliklarning nasl (bola)ga o‘tish jarayoni.

Nasldan naslga o‘tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi: anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi), organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko‘zlarning rangi. Shuningdek, nutq, tafakkur, ixtiyoriy harakat va amallar, vertikal holatda yurish, mehnat, ijod qilish qobiliyati va boshqa iste’dod alomatlari ham nasldan naslga o‘tadi. Iste’dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo‘naltirilgan emas. Iste’dod alomatlari muayyan faoliyatga moyilligini aks ettiradi, xolos. Ma’lum oilada tarbiyalanayotgan bolada ajdodlariga xos iste’dod nishonasi aks etganda, aynan shu iste’dodning shakllanishida muhim rol o‘ynagan, uning rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar-ga oila muhitini nazoratdan chetda qoldirmaslik lozim.

Fiziologiya va psixologiya fanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror-bir qobiliyatning ro‘yobga chiqishi va rivojlanishi uchun manba bo‘lgan layoqat bilan tug‘iladi. Layoqat go‘yo «mud-roq» holatda bo‘lib, uning «uyg‘onishi» – rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishini talab qiladi.

Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma’naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog‘liq.

**Muhit** – bu shaxsning shakllanishiga taʼsir etuvchi tashqi voqea-hodisalar majmuyi. «Muhit» tushunchasi oʻziga geografik-hududiy, ijtimoiy va mikromuhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi.

Mikromuhit oʻzida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chogʻda nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi boʻlib, oila, maktab, doʻstlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni oʻz ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola oʻz tugʻma layoqatiga mos sharoitda oʻsib, zarur faoliyat bilan shugʻullansa, erta koʻrinib rivojlanishi. aksincha, bunday muhit boʻlmasa, yoʻq boʻlishi yoki «mudroq»ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatleri faqat muhit va tarbiyaning oʻzaro taʼsiri asosida vujudga keladi. Pedagogika va psixologiya fanlari ijtimoiy muhit, unda shaxsning shakllanish jarayoniga, taʼsiri rolga alohida eʼtibor beradi. Ijtimoiy voqea va hodisalarning shaxs rivojiga taʼsiri gʻoyat muhim ekanligini taʼkidlagan holda, ular ijtimoiy muhit abadiy emas, u ijtimoiy-tarixiy qonuniyatlar taʼsiri ostida oʻzgarib boradi, deya taʼkidlaydilar.

**Oila muhiti** – mikromuhit ham oʻziga xos muhim tarbiyaviy taʼsirga ega. Shu bois mustaqillikka erishilgandan soʻng, oʻtgan davr mobaynida oila muhitining shaxs kamolotida tutgan oʻrni va ahamiyati masalalari chuqur tahlil etilmoqda. Shu maqsadda tashkil etilgan «Oila» ilmiy markazi oilaning bu boradagi imkoniyatlarini ochib berish borasida samarali faoliyat olib bormoqda.

Mavjud ijtimoiy muhit insonning oʻsib borayotgan ongiga taʼsir etadi. Ijtimoiy tuzim darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, uning shaxsga nisbatan ongli taʼsiri ham shunchalik yuqori boʻladi. Ushbu taʼsir ijtimoiy jamiyatdagi mavjud tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy taʼsirlarning barchasi bilan bogʻliq holda, shaxs rivojlanishiga taʼsir etadi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy taʼsirlarning kuchini maʼlum darajada kamaytiradi. Muhitning taʼsiri stixiyali, tarbiyaning taʼsiri esa maqsadga muvofiq olib boriladi.

Tarbiya jarayonida quyidagi holatlar vujudga keladi:

1. Tarbiya jarayonida kishi ongining o'sishi sodir bo'ladi. Masalan, bola o'z ona tilini, atrofini o'rab turgan muhitning ta'sirida o'rganib olishi mumkin. Lekin o'qish va yozishni ta'lim olish yo'li bilan o'rganadi. Ma'lum bilim ko'nikma va malakalar faqat tarbiya jarayonida egallanadi.

2. Tarbiya yordamida kishining tug'ma kamchiliklarini ham kerakli tomonga o'zgartirish mumkin. Chunonchi, ba'zi bir bolalar ayrim kamchilik (kar. ko'r, soqov va h.k) bilan tug'iladi. Lekin maxsus tashkil etilgan tarbiya yordamida, ularning aqliy qobiliyatlari taraqqiy qiladi, sog'lom kishilar bilan barobar faoliyatda bo'lishi mumkin.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'siri natijasida yuz bergan kamchilik (bolalarning qarta, qimor o'ynashi, chekishi, ichishi va narkotik moddalarga o'rganishi kabi)larni ham tugatish mumkin.

4. Tarbiya – istiqboldagi maqsadni belgilaydi. Shu bois, shaxs kamolotini ta'minlashda ilg'or rol o'ynaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'liqdir. Shuni yodda tutish kerakki, bola mavjud bo'lgan mikro-muhit mazmunini, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi kishilar va ular bilan o'rnatilgan aloqa mohiyati belgilaydi. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'quvchi, o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilari bilan munosabatda bo'ladi. Ushbu munosabatlar bolaning rivojlanishida g'oyat muhim rol o'ynaydi. Bolaga ularning ta'siri o'zaro muomala-munosabatida bo'ladi. Ana shu aloqa asosida bola ajdodlar tajribasini o'zlashtiradi, o'zi uchun andoza tanlaydi.

Ijtimoiy munosabatlar jarayonida nutq rivojlanadi. Chunki jamiyatda bola kattalar, tengdoshlar, tarbiyachilar va turli jamoalar qurshovida bo'ladi, u savollar beradi, kuzatadi, mulohaza qiladi. Hayotiy voqea-hodisalarni tushunishga, yaxshini yomondan ajratib olishga, o'z harakatlarini davr talabiga moslashtirishga urinadi. Har bir ijtimoiy jamiyatda tarbiyaning maqsad va vazifalari, axloq me'yorlari, madaniy boyliklar, jamiyat a'zolarining didi, axloqiy qarashlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari o'zgarib boradi va ular tarbiya vosi-

tasida bolalar ongiga singdirib boriladi. Bola shaxsining rivojlanishi uchun faol kunlik harakat zarur. Faoliyat yordamida bola atrof-muhit bilan munosabatda bo'ladi. shu orqali uning bilish qobiliyati rivojlanadi, tafakkur qilish darajasi yuksaladi, xarakter sifatleri takomillashib, kamol topadi.

### 3.2. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi

Shaxsning kamol topishida tarbiya muhim rol o'ynaydi. Uning shakllanishi faoliyatdan tashqarida bo'lmaydi. Shu sababli odam faoliyati uning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat – o'yin, mehnat, o'qish, sport va boshqalar shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Insonning kamol topish jarayonini faqat irsiyat, muhit va ta'lim-tarbiyaga bog'lab o'rganish, talqin qilish ham haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki, ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning o'zi ham faol ishtirok etadi. Aytish mumkinki, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya shaxsning o'zi faol ishtirok etgandagina, uning tug'ma layoqatini uyg'otadi, iste'dod qobiliyatlarini o'stira oladi. Agar kishi o'z ishini sevsa, uning shu sohadagi iste'dodi tezroq va kuchliroq ro'yobga chiqq boshlaydi.

#### Tarbiyalash jarayoni

Tug'ilganda, hamma chaqaloqlar bir xil yig'laydi. Ammo ular katta bo'lganlarida, turli mavqega ega bo'ladi. Nima uchun?

Bola o'z onasidan tug'ilishi bilan uni **tashqi muhit asosida** tarbiyalash boshlanadi, chunki, odatda, u **ichki muhit asosida** ona qorinida tarbiya oladi.

Tarbiya insonning o'z oilasi, jamoasi, jamiyatida muhim asos hisoblanadi, chunki hech kim o'z onasidan «yomon» bo'lib tug'ilmaydi. Tug'ilgandan keyin ham hech bir ota-ona o'z bolasini yomon bo'lishini xohlamaydi, balki uni ardoqlab o'stiradi.

Har qanday yomonlik, gunoh ishlar tarbiyasiz (bilimsiz, ma'naviy qashshoq)likdan kelib chiqadi.



Shaxs kamolotida tarbiyaning oʻmi haqida Demokritning quyidagi fikri qimmatlidir: **«Insonni inson qilib oʻstiruvchi narsa bu tarbiyadir».**

Shaxs faoliyatida taʼlim-tarbiya va ilm muhim rol oʻynaydi. Shu tufayli inson buyuk shaxs boʻlib yetishadi. Ulardan ayrimlarini ibrat-namuna sifatida keltiramiz.

**Alisher Navoiy** – sheʼriyat mulkining sultoni, uning adolatli jamiyat qurish haqidagi taʼlimoti maʼlum va mashhur. U 4–5 yoshlarida-yoq sheʼr yozishni mashq qilgan. Vatanimizda bir necha joylar: oʻquv yurtlari, viloyatlar va tumanlar, xoʻjaliklar, koʻcha va xiyobonlar, teatrlar, metro beketlariga buyuk bobokalonimiz nomlari bilan ataladi hamda haykallar oʻrnatilgan. Bulardan tashqari Moskva va Tokio (Yaponiya) shaharlarida uning haykallari bor. Navoiy uning taxallusi boʻlib, «navo» – bu kuy degan maʼnoni, «navoiy» soʻzi esa «kuy egasi», «kuylovchi» maʼnolarini anglatadi.

Demak, toʻgʻri tarbiya insonni ilmi, bilimli, ongli, madaniyatli, maʼrifatli qiladi va hattoki, **komil inson** darajasigacha yuksaltiradi.

Inson tarbiya orqali komillik sari «koʻkka boʻy choʻzadi» va unda eng yaxshi «yoʻldosh» hayotda olinadigan ibrat-namuna va kitob mutolaa qilish orqali bilimli-maʼrifatli boʻladi.

Qobiliyat va isteʼdodning roʻyobga chiqishida insonning muayyan faoliyatiga qiziqishi bilan bir qatorda uning oʻz ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Isteʼdodli kishilar iqtidor kuchini toʻla roʻyobga chiqarish uchun oʻz ustlarida tinmay ishlashlari, mehnat qilishlari shart. Masalan, mashhur yunon notigʻi Demosfen (eramizdan oldingi IV asr) omma orasida gapirgan nutqlari dastlab muvaffaqiyatsizlikka uchragan. Demosfen duduq, ovozi qaltiroq, qisqa-qisqa nafas oladigan kishi edi. Uning bir yelkasi oldinga turtib chiqib turar edi. Demosfen kamchiliklarini tuzatish uchun oʻzi ustida tinimsiz ishladi: u ogʻziga mayda toshlar va sopol parchalarini solib olib, soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishni oʻrgandi, dengiz boʻyida toʻlqinlar shovqinida nutq soʻzladi, qoyalarga chiqib baland ovoz bilan sheʼrlar oʻqidi, ovozini charxladi, oyna oldida turib yuz harakatlarini bir maromga keltirdi. Uy shiftiga qilichni osib qoʻydi, u odati boʻyicha yelkasi har gal

oldga chiqqanda, qilich yelkasiga sanchilar edi. Demosfen shu tariqa haftalab uydan chiqmasdan notiqlikni o'rganish uchun mashq qildi. Oxir-oqibat o'zi ko'zlagan maqsadga erishdi va atoqli notiq sifatida shuhrat qozondi.

Mashhur kishilar hayotini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning ijodiy faoliyatlaridan asosiy narsa – uzluksiz izlana bilish, o'z oldiga qo'yilgan maqsad uchun intilish, kurashish, unga yetishish yo'llarini izlash omilidir. Shuning uchun har bir o'qituvchi o'zining pedagogik faoliyati davrida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularga fan asoslarini chuqur singdirib borishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi va uni ro'yobga chiqarish uchun tinmay izlanishi, mehnat qila olish qobiliyatini, kuchli iroda va qat'iy xarakterni tarbiyalab borishi lozim.

O'qituvchilar orasida bolalar tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi omillar va ularning ahamiyatini tushunmaydiganlari ham uchrab turadi. Masalan, ayrim o'qituvchilar ulgurmovchi, o'qishdan orqada qoluvchi o'quvchilardan qutilish yo'llarini qidiradilar. Ularni yo sinfda qoldirish yoki boshqa maktabga o'tkazish yo'llarini izlaydi va bunga erishadi ham. Bu kabi choralarni qo'llash bilan biz o'quvchilar tarbiyasini tashkil etishda ko'zlagan maqsadga erisha olmaymiz.

Fanlardan o'zlashtira olmagan o'quvchilarni qobiliyatsiz deyish xato, o'qituvchining birinchi galdagi vazifasi, har bir o'quvchining yoshini va psixologik xususiyatini chuqur o'rganishi, uning qiziqishi va istaklarini aniqlashi, ularni hisobga olgan holda pedagogik choratadbirlarni qo'llashdir. Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy hamda irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Xulosa qilib aytganda, rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'kidlaganidek, pedagogika fanining eng muhim vazifasi – shaxs rivojlanishini har jihatdan o'rganishdir va o'qituvchining ishda muvaffaqiyat qozonish sharti – o'z o'quvchilarining xislat va xususiyatalarini bilish.

### 3.3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari


Shaxsning shakllanishida unga berilayotgan ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metodlari va vositalari bolaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi muhim sanaladi. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy xususiyatlarini bilishi, ma'lum yoshdagi o'quvchilarning diqqat, xotira, tafakkur layoqatlarini inobatga olishi asosida faoliyat tashkil etishi lozim. Shaxsning aqliy va jismoniy kamolotida doimo ilgariga qarab rivojlanish ro'y beradi. Bolaning jismoniy va ruhiy kamoloti qaror topib borar ekan, bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi.

Shaxsning rivojlanib, kamol topishi, hayotning hamma bosqichida bir xil bo'lmay, balki yosh xususiyatlari va hayot tajribalariga qarab har xil bo'ladi. Tarbiya jarayonida o'sayotgan yosh avlod o'ziga xos xususiyatlarini bilishi juda zarur. Ma'lumki, bir xil yoshdagi bolalarning, o'quvchi – tarbiyalanuvchilarning har birining o'ziga xos xususiyatlari, psixik jarayonlari mavjud.

Bu o'ziga xoslik rivojlanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Yosh xususiyatlarni hisobga olish, bola xususiyatiga moslashish emas, balki shu yosh davrida bola imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishlarini tashkil etish demakdir. Shundagina shaxs rivojlanishiga tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi.

Tibbiyot, odam anatomiyasi, yosh fiziologiyasi va maktab gigiyenasi va psixologiyasi hamda pedagogika fanlari asoslariga ko'ra, bolaning yosh davrlarini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin (3.3.1-shakl).

3.3.1-shakl



Yosh davrlari shartli ravishda guruhlanadi. Unda muayyan yosh davrining guruhlanishi bolaning rivojlanish xususiyatlaridagi o'zgarishlarga qarab ajratiladi. Quyida yosh davrlariga qisqacha to'xtalamiz.

**Go'daklik davri.** Yangi tug'ilgan bolada barcha sezgi turlari mavjud bo'ladi. Ushbu sezgilar murakkab bo'lmay, oddiy holatdadir. Chaloq bir holat faol bo'lib, bu faollik, avvalo, qo'l va oyoqlarning refleks yo'li bilan harakatlanib turishida ko'rinadi. Xuddi shunday refleks harakatchanlik bolaning chinqiriqlarida ham namoyon bo'ladi. Bolada vujudga keladigan shartli reflekslar 5–6 haftalarda yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Masalan, u onasining ovozi taniydi, uni eshita, tinchlanadi. Begona odamlarni «yoqtirmay» bezovtalanadi.

Go'daklik davrida bola birmuncha tajriba to'plashi bilan uning idrok va tasavvurlari tarkib topa boshlaydi. Odatda, besh – olti oylik bola o'tiradigan bo'ladi, so'ngra emaklab, tik yurishga harakat qila boshlaydi, 1–2 yoshda qadam qo'yib, yura boshlaydi.

Bola yarim yoshdan oshgach, «g'uldirab» so'zlaydi hamda atrof-dagilarning gaplarini tushuna boshlaydi va unda asta-sekin passiv nutq o'sadi, ikki yoshga qadam qo'ygach, faol nutqni o'zlashtirib, gapira boshlaydi. Nutq va tafakkurning o'sishi bilan bolaning atrof-dagi kishilarga munosabati murakkablashib, o'ziga xos mazmunga ega bo'la boshlaydi. Ushbu holat bola ruhiyatining o'sishiga yordam beradi. Yasli davriga qadar bola aniq gapiradigan va o'zi mustaqil yura oladigan bo'ladi. Shuningdek, bolaning harakatchanligi, tafakkur va nutqi zo'r berib taraqqiy etadi. Bu davrdagi bola tafakkuri «predmet tafakkuri» bo'lib, u o'zi idrok qilgan, ko'rgan narsalar haqida fikr yuritadi. Uning tafakkuri predmetlarga munosabatida ko'rinadi.

So'z yuritilayotgan davrda, bolaning hissiy kechinmalari yuzaga kela boshlaydi. Dastlab ta'm bilish hamda teri sezgilari orqali qabul qilishlarga nisbatan organik hislar namoyon bo'ladi. Keyinchalik ehtiyoj, erkalanish va yaqinlariga mehribonlik sezgilari, g'azablanish, qo'rqish hamda zavqlanish kabi sezgilar namoyon bo'ladi.

**Maktabgacha tarbiya davri.** Ushbu yoshdagi bolaning emotionalligi (hissiy beriluvchanligi) uning faolligida, harakatchanligida ko'rinadi. Bu yosh davrida bolalar hayotida o'yin o'ziga xos o'rin

tutadi, o'yinlar, asosan, katta yoshdagi kishilar yoki bolalarning harakatlariga nisbatan taqliddan iborat bo'ladi. Bolani o'yinning mazmuniidan ko'ra o'ynalayotgan buyumlar (o'yinchoq va qo'g'irchoqlar) hamda o'zining harakatlari ko'proq zavqlantiradi.

Mazkur yosh davrida, bola faoliyatida ixtiyorsiz faollik bilan bir qatorda, ixtiyoriy diqqat ham o'sa boshlaydi. Bu davr bola «men»ligining vujudga kelishi bilan ham xarakterlidir. U tevarakatrofdagi bolalar bilan o'zini solishtiradi, o'zining ulardan ustun jihatlarni qidira boshlaydi. Bunday holatlar uning «men, o'zim» so'zini keng qo'llashda seziladi.

Olti yoshga qadar bola dunyoni, ijtimoiy borliqni to'laligicha idrok etadi. Uning atrofdagilar bilan munosabat doirasi kengayib boradi. Bu esa uning nutqi va tafakkurini yanada o'stiradi. Munosabatlar doirasining kengayib borishi, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini oshiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning tafakkuri aniq tafakkur bo'lib, u nimalarni idrok etsa yoki tasavvur qilsa, o'sha narsalar haqida fikr yuritadi. Shu bois bola uchun mavhum voqea-hodisalarga qiyoslab, tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Atrofdagilar bilan muomalada bo'lish asosida bolada ma'naviy qarash shakllanadi, endilikda u turli harakatlarni «yaxshi», «yomon» deya baholab boradi. Bu davrda bola hayotda o'yin bilan birga faoliyatning boshqa turlari ham ahamiyatli bo'lib boradi, dastlabki mehnat ko'nikmalari hosil bo'ladi: rasm chizadi, loydan, qumdan shakllar yasaydi. Shuningdek, ular kattalar tomonidan berilgan oddiy topshiriqni bajarib boradilar. Ularni kuchlari etadigan ishlarga jalb qilish yaxshi samara beradi.

**Kichik maktab yoshi.** 7 yoshga to'lgan bola (ushbu yosh qator mutafakkirlar tomonidan dastlabki «yetuklik yoshi» sifatida e'tirof etilgan) jismoniy va ruhiy xususiyatlarga ko'ra maktabga, ta'lim olishga to'la tayyor bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq respublikamizdagi bolalarning barchasi 6–7 yoshdan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil ola boshlaydi. Shu davrga qadar bola hayotida muhim o'rin tutgan o'yin faoliyati o'z o'rnini tizimli, uzluksiz ravishda amalga oshiriladigan va majburiy vaqt aso-

sida tashkil qilinadigan o'qish faoliyatiga bo'shatib beradi. Yosh bola uchun bunday «mas'uliyatli mehnat»ga o'tish qiyin kechsa-da, u asta-sekin bunday sharoitga ko'nika boradi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilari ijtimoiy borliq haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsalar ham ro'y berayotgan voqea-hodisalarning mohiyatini bilishga qiziqadi. Maktabda tashkil etilayotgan ta'lim jarayoni bolaning aqliy faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarining tarkib topishini ta'minlaydi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar jismoniy jihatdan bir maromda o'sadi, o'g'il va qizlar gavda tuzilishi jihatdan bir-birlaridan deyarli farq qilmaydi. Ularning bo'yi o'rtacha 120 sm. og'irligi 22 kg atrofida bo'ladi. Suyaklarda tog'aylik holati o'sadi. Naysimon ilik suyaklari, asosan, eniga o'sadi, tuzilishi takomillashib boradi va 12 yoshda bu suyaklar kattalarnikiday qiyofaga ega bo'ladi. Lekin bo'g'inlar, umurtqa pog'onasi, tos suyaklari hali elastik holatda bo'ladi. Ko'krak qafasi va umurtqa pog'onasi suyaklari yetarlicha qotmaganligi tufayli ular tez shikastlanishi mumkin. Ularda muskul paylari va bo'g'inlar tez rivojlanadi. Muskul kuchining ortib borishi tufayli bu davrda o'quvchilar g'oyat harakatchan bo'ladi.

Kichik maktab o'quvchilarining bosh miyasi o'sib borib, uning tuzilishida o'zgarishlar ro'y beradi. Ularda o'pka rivojlangan, lekin nafas yo'li hamda diafragma bo'sh rivojlangan bo'ladi. Shu tufayli kichik yoshdagi o'quvchilar ko'p vaqt harakatsiz qolsalar organizmning kislorod bilan ta'minlanishi yomonlashadi.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning yuragi, qon aylanish tizimi va nafas olish organlari o'sishda davom etadi. Ularning yuragi kattalarnikiga nisbatan ikki marta ko'p qon ishlab chiqaradi. Shu bois ularning yurak urishi tez bo'lib, har daqiqa 90–92 martaga yetadi. Qonning tarkibida oq qon tanachalari ko'p bo'ladi. Jismoniy o'sishning bu kabi xususiyatlari kichik yoshdagi o'quvchilarga nisbatan o'qituvchilar tomonidan ehtiyotkorona yondashuvni talab qiladi. Ularni asabiy-lashishdan saqlash lozim. Bu yoshdagi o'quvchilar ko'proq harakat qilishi, ochiq havoda bo'lishi, yetarli darajada dam olishi, uxlashi ta'lab etiladi. Atrofdagilar buning uchun g'amxo'rlik qilishlari lozim. Ularning stol atrofida, partada to'g'ri o'tirishiga, o'mida tekis (o'rin

yumshoq bo'lmagani ma'qul) yotishiga, qomatlarini tik tutib yurishiga e'tiborli bo'lish kerak. O'yin vaqtida, qaltis harakat qilishdan ularni saqlash zarur.

Kichik maktab o'quvchilarida ixtiyoriy diqqat, xotira va idrok, tafakkur, ixtiyoriy idrok qilish, nutq, his-tuyg'u, iroda kabi ruhiy jarayonlar rivojlanadi. Shu bois ular bilim olishga va o'rganishga intiluvchan bo'ladi. Atrofdagi ro'y berayotgan voqea-hodisalarning barchasi ularni qiziqtiradi. O'qituvchi ularning qiziqishlarini qondirishga harakat qilishi va shu asosda qiziqishlarini rivojlantirib boriishi kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun eng ideal shaxs — o'qituvchi bo'lib, bolalar uning talablarini dildan bajarishga urinadi. Ular orasida o'qituvchining obro'si o'z ota-onasidan ham baland bo'ladi.

Kichik maktab yoshi o'quvchilarining fikrlashi obrazli bo'ladi. Shu bois, ularga kinoya, kesatik hamda qochirliq gaplarni gapirish samara bermaydi. O'qitish ko'rgazmali qurollar, vositalar yordamida tashkil etilishi kerak. Materialni tushuntirishda uning obrazli, ifodaliligi bo'lishiga erishish lozim. Ularning kayfiyatiga o'qishdagi yutuqlari, olgan baholari, shuningdek, amalga oshirgan ijobiy ishlari ta'sir qiladi. Shu bois o'qituvchi tomonidan unga berilayotgan e'tibor alohida qiymatga ega. Bolaning har bir harakati o'qituvchining e'tiroziga sababchi bo'lsa, unda o'qish istagi yo'qoladi, maktab ta'limidan ko'ngli soviydi. O'qituvchidan qo'rqanidan yolg'on gapira boshlaydi. Bu hol doimiy takrorlanaversa, qo'rqoqlik va yolg'onchilik uning asosiy xislati bo'lib qoladi. O'qituvchi tanbehi oqilona bo'lib, bola sha'nini yerga urmasligi, shaxsini kamsitmasligi kerak.

**O'smirlik davri.** Kichik maktab yoshidan o'tgach, o'smirlik davri boshlanadi. Bunda bola shaxsi rivojlanishining murakkab davri boshlanib, bu «o'tish davri» deb ataladi. O'tish davri bolalikdan balog'at davriga o'tishni ifodalaydi. O'smirlik yoshining murakkabligi uning anatomik-fiziologik va psixologik xususiyatida ro'y berayotgan kuchli o'zgarishlar bilan bog'liq.

O'smirlik yoshida jismoniy jihatdan sekin o'sish davri tugaydi. Jismoniy o'sish tezlashadi. O'smirlar 3–4 yil ichida 20–25 sm o'sadilar

(qizlarning o'sishi 18–25, o'g'il bolalar 25–30 sm ni tashkil etadi). Bo'yiga o'sish, ilik suyaklarining uzayishi va umurtqa suyagining kattalashishi hisobiga ro'y beradi, ammo ilik suyaklarining oxirgi qismlarida ham tog'aylik holati ustun bo'lib turadi. Shu sababli, ularga jismoniy topshiriqlar berishda bu holat inobatga olinishi kerak. Ushbu holat tufayli o'smirning qaddi-basti beso'naqay bo'lib ko'rinadi. O'z navbatida suyakning tez o'sishi, muskullar rivojining ortda qolishi sababli, o'smir baland, oyoq-qo'li uzun, ozg'inday ko'rinadi. Bu esa uning yurishiga, gavdasini tutishiga ta'sir etadi.

O'smirning ko'krak qafasi ham bo'yiga nisbatan sekin o'sadi. Shu sababli ko'pchilik o'smirlarning ko'krak qafasi tor bo'ladi. Bu holat organizmning kislorod bilan to'yinishiga to'sqinlik qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur holatni inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Qon aylanishida ham katta o'zgarishlar yuz berib, yurak hajmi ortadi, ammo qon tomirlarining rivoji bir oz ortda qoladi. O'smirlik yoshida jinsiy yetilish davri boshlanadi. Ularda ayollik va erkaklikning tashqi belgilari (ovozning do'rillashi, mo'ylovining sabza urishi, ko'krak qafasi va ko'krak bezlarining, o'g'il va qiz bolaning nafas olishidagi tafovut) paydo bo'la boshlaydi. O'zgarishlar ta'sirida ro'y bergan erotik sezgilar ularni tashvishga soladi. Bularning barchasi ichki va tashqi tafovutlarni kuchaytiradi. Organizmdagi o'zgarishlar o'smirning atrofdagilar bilan munosabati mazmuniga ta'sir etadi. O'smir tabiati tundlasha boradi, kayfiyati tez o'zgaradi. Uyda, oila a'zolari davrasidagina o'zini erkin sezadi. Shu bois, ko'proq ular bilan bo'lishni istaydi.

O'smirning faoliyatida o'qish muhim o'rin tutadi. O'qish ishga aylanib qolgani uchun talablarning ortib borayotganligiga o'smir befarq munosabatda bo'ladi. Fanlarni o'zlashtirishda qisman «pastlashish» holati kuzatiladi. Ammo mustaqil topshiriqlarni bajarishda faol bo'ladi. O'smir intizomida salbiy holatlar ko'rina boshlaydi, bu hol uning mustaqil bo'lishga intilishi asosida yuzaga keladi. Agar o'qituvchi o'quvchi xususiyatini yaxshi bilmasa, qo'yilayotgan talablarda birlik, yaqinlik bo'lmasa hamda ular asoslab berilmasa, o'smir xulqida kattalarga bo'ysinmaslik kabi salbiy xususiyatlar qaror topadi va uning xatti-harakatida bu xususiyatlar ko'rinadi.



O'smir o'quvchining e'tiborini o'qishdan tashqari ishlarni ham o'ziga jalb qiladi. O'smir muayyan yo'nalishga ega harakatli o'yinlar qiziqish uyg'otadi. Bu xildagi ishlarda u o'zining shaxsiy sifatlarini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladi.

Jamoat ishlariga o'smirlarni jalb etish, ularda ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. O'smir uchun tengdoshlarining e'tibori, jamoaning fikri ota-ona va o'qituvchi fikridan ham ko'proq ta'sir qiladi. Shuning uchun u tengdoshlari o'rasida obro' orttirishga, liderlikka intiladi. Agar o'zini o'qish va jamoa ishlarida ko'rsata olmasa, yomon xulqli o'quvchi bo'lib tanilishi mumkin. Bu esa aksariyat hollarda o'smirni «kriminogen» mikromuhitga tomon yetaklab boradi. Bu kabi holatlarni oldini olishda, eng to'g'ri yo'l har bir o'smir uchun o'z kuchi va imkoniyatlariga loyiq jamoa topshirig'ining berilishidir. Shundagina o'smir jamoa uchun kerakli ekanligini anglaydi.

O'smirda his-tuyg'ularni idora qilish layoqati endi-endi shakllana boradi. Bu uning xulqida namoyon bo'ladi. O'zining har narsaga jahli chiqishi, qo'pollik holatlari tez-tez yuz beradi. O'smirlarning bu xususiyati ko'proq bahs-munozara jarayonida ko'zga tashlanadi. Garchi, o'z fikri asosli bo'lmasa-da, uni ma'qullashga urinadi.

13–14 yoshlarda o'smirlarda burch hissi, mas'uliyat tuyg'usi o'sadi, birmuncha vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Bu davrda o'smir maqsadga intilish, o'zi uchun ideal tanlash boshlanadi. O'smirlarda axloqiy e'tiqod shakllanib, o'ziga xos qarashlar tarkib topa boradi.

Demak, o'smir bilan munosabatda sabr-toqat, vazminlik zarur. Unga mustaqillik berish, buyruq emas, aksincha, maslahat berish bu yoshdagi o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashning garovidir.

**O'spirinlik davri.** O'spirinlik davri jismoniy o'sishning tinch davri sanaladi. Shu boisdan, o'smirlardan farqli ravishda o'spirinlar faoliyatida romantik his-tuyg'ulardan ko'ra ko'proq realizm muhim o'rin tutadi.

O'spirinning tana tuzilishidagi organlarning (qo'l, oyoq, ko'krak qafasi, yelka) bir-biriga muvofiqsizligi o'spirinlik davriga kelib, asta-sekin yo'qola boradi, ularning qomatlari shakllanadi. Tana massa-

si bilan yurakning hajmi o'rtasidagi munosabatda uyg'unlik, orqa umurtqa suyaklari bilan tananing tuzilishida muvofiqlik vujudga keldi. Muskullarning kuchi va ish qobiliyati ortadi. Ichki sekretsiya bezlarining faoliyati muvozanatlashadi. Jinsiy yetilish, asosan, tugaydi. Ba'zi o'spirinlarda bunday yetilish ortda qoladi. Bunga sabab, bolalikda kechirgan og'ir kasalligi, organizmning kuchsiz, nimjon yoki dardchilligi bo'lishi mumkin. Bugungi kunda o'smirlar rivojlanishi (tezlashish) tufayli o'spirinning yetilishi ham tezlashadi va yuqorida qayd etilgan holat deyarli kuzatilmaydi.

O'spirinlarda organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalaridagi takomillashish nihoyasiga yetadi. Ular jismoniy kuchli, xushbichim va sog'lom bo'lganliklari tufayli tetik va quvnoq hayot kechiradilar. O'spirinlar miya hujayralarining tuzilishida ro'y bergan takomillashish, asab tizimi va faoliyati mazmunining o'zgarishiga olib keladi.

O'spirin faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib qolaveradi. Bilimlar hajmi kengayadi. Ular ijtimoiy munosabatlar, xususan oila, moliyaviy, me'yoriy, ma'muriy, xo'jalik, mehnat hamda jismoniy faoliyatlarning mohiyatini teran tushunishga intila boshlaydi. Shu sababli, mazkur yosh davrida ularga ijtimoiy-ma'naviy bilimlarni berish maqsadga muvofiqdir. O'spirin nazariy ma'lumotlar mazmunini tahlil eta olish imkoniga ham ega bo'ladi. Oilaviy, xo'jalik, oldi-sotdi xususidagi munosabatlarni tashkil etish, maishiy va aloqa xizmatlari, shuningdek, jamoat transportidan foydalanish chog'ida, ularda ijtimoiy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqish hosil bo'ladi. Ehtiyoj hamda qiziqish o'z-o'zidan ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga bo'lgan rag'batni yuzaga keltiradi.

O'spirin ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga, ular haqida chuqur mulohaza yurgizishga intilar ekan. ularda axloqiy (ma'naviy) tasavvur va idrok hosil bo'ladi. Ixtiyoriy va barqaror diqqat esa, ularning ma'naviy tafakkurining shakllanishiga imkon yaratadi. natijada, ular ijtimoiy munosabatlar borasida mantiqiy asosli fikr yurita boshlaydilar.

O'spirin yoshda o'quvchilar turli o'quv fanlarining nazariy va metodologik asoslarini egallashga intiladi, fanlararo aloqadorlik va

bog'liqlik xususida fikr yurita boshlaydi. Shu bois, ta'lim va tarbiya-yani tashkil etishda fanlararo aloqadorlikdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyot va ekologiya asoslari, mehnat hamda harbiy ta'lim kabi fan va maxsus kurslar doirasida iqtisodiy, ekologik, mehnat va harbiy faoliyatlarning ma'naviy asoslari, oqibatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning berilishi o'spirinlarda ma'naviy savodxonlikning vujudga kelishini ta'minlaydi.

O'spirinlarda shaxsiy faoliyatni tashkil etishda mustaqillikka intilish yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa ularda ijtimoiy, xulqiy munosabatlar mazmunini o'zlashtirishda ijtimoiy faollik ko'rsatish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ularning o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlari, jamoatchilik tashkilotlari faoliyatidagi ishtiroki ana shu ehtiyojni qondirish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'spirinlarning ilm-fan, siyosat, texnik, sport, san'at olami bilan bog'liq qiziqishlari darajasini inobatga olib, ommaviy axborot vositalari sahifalarida yoritilgan, yuqorida qayd etilgan sohalarga oid ijtimoiy mazmundagi axborot, eshittirish va ko'rsatuvlar tayyorlash o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. O'spirinlardagi qiziqishni inobatga olgan holda ijtimoiy mazmundagi, xususan, «Biznes faoliyatini tashkil etishning ma'naviy asoslari», «Oldi-sotdi munosabatlarning axloqiy negizlari», «Yoshlar jinoyatchiligi va uning oqibatlari» «XXI asrga narkotiklarsiz qadam tashla!», «Sening huquqiy burchlaring», «Yoshlar ijtimoiy mehnatini tashkil etish shartlari», «Nikoh – muqaddas bitim», «Tabiatni muhofaza qilishning ma'naviy asoslari», «Terrorizm – mudhish jinoyat», «Qonuniy harakat va harakatsizlik nima?» kabi mavzularda ma'ruza va seminarlar tashkil etish, mustaqil ravishda ijtimoiy adabiyotlar bilan ishlashga o'rgatish, noaxloqiy xatti-harakatlar va uning oqibatlari xususida davra suhbatlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan uchrashuv va anjumanlar o'tkazish, shuningdek, ijtimoiy mavzudagi kinofilmlar namoyish etish g'oyat muhimdir.

O'spirin yoshida o'quvchilar o'zlari uchun ideal tanlashga intiladilar. Ushbu istakni rag'batlantirish maqsadida ular o'rtasida adolat, erk, odillik timsoli bo'lgan, elu yurt tinchligi, vatan xavfsizligi yo'lida qurbon bo'lgan kishilar to'g'risidagi ma'lumotni berish-

ga qaratilgan faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish yo'llaridagi muhim omil bo'ladi. O'z ideallari shaxsidan namuna o'zlashtirish o'spirinlarda ijtimoiy mas'ullik xislatlarining shakllanishiga, jamiyatda erk va adolat, qonun ustuvorligiga erishish uchun kurash g'oyalari sodiqlik hissining uyg'onishiga olib keladi.

O'spirin yigit-qizlarda bir-birlariga nisbatan qiziqishning vujudga kelishi, ikki jins orasidagi do'stlik-o'rtoqlik tuyg'ularini shakllanishiga zamin hozirlaydi. Ba'zi o'spirinlarning do'stligi zahirida haqiqiy sevgi-muhabbat qaror topadi. Shu sababli, ularda oila va nikoh masalalariga nisbatan jiddiy munosabatni tarkib topirish, voyaga yetmaganlarning nikohga kirishlari, shuningdek, ular o'rtaidagi jinsiy yaqinlikning oldini olish maqsadida, ular orasida oila va nikohning ma'naviy asoslari borasidagi targ'ib ishini kuchaytirish, bu borada o'ta ehtiyotkorona yondashuvni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'spirinlarning barcha intilishlari muayyan maqsad bilan bog'lanadi. Ularning ko'pchiligi yaxshi xulqli inson bo'lish, vatanga, xalqqa xizmat qilishga intiladi. Ammo, ayrim o'spirinlar nosog'lom muhit ta'siriga tushib qoladi, natijada ular shaxsiy manfaatlarini hamma narsadan ustun qo'ya boshlaydi. Ularning xarakteridagi bu kabi salbiy holatlarining oldini olish uchun tarbiya ishida o'spirinning ijobiy fazilatiga tayanib ish ko'rish, ularga ishonch bildirish, ularni qo'llab-quvvatlash samarali natija beradi. O'spirinlarga axloqiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini to'g'ri anglatish, ularning shaxs erki va huquqlarining kafolatli ekanligiga ishonch hosil qilishlarini ta'minlash, fuqarolik erkinliklari o'spirin uchun ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topa olish garovi ekanligiga ishonch hosil qilishlarini ta'minlash, axloqiy-me'yorlar mohiyatini to'g'ri talqin etishlariga erishish mazkur yosh vakillari hayotining ayanchli, fojiaiy yakun topmasligiga olib keladi.

O'spirin shaxsining rivojlanishida jamoa muhim o'rin tutadi. Jamoa o'spirinni o'ziga jalb etar ekan, uning fikri o'spiringa nisbatan ko'rsatilayotgan e'tibori katta ahamiyatga ega. Shu sababli, sinfdan tashqari sharoitda tashkil etilayotgan ijtimoiy mazmundagi tarbiyaviy

tadbirlarni jamoa ishtirokida tashkil etish. o'quvchilarning birgalikdagi harakatlari kuchiga tayanib, o'spiringa ta'sir ko'rsatish yaxshi natijalar beradi. Shuningdek, o'spirin shaxsiga katta yoshdagi, tajribali hamda bilimdon kishilar muloqotiga intilishi kabi xususiyatni inobatga olib, ana shunday kishilar bilan uchrashuvlar, suhbatlar tashkil etish lozim. Huquqiy tadbirlarni uyushtirishda jamoaning bu boradagi imkoniyatini hisobga olish ko'p foyda keltiradi.

O'spirin o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy bilimlarni targ'ib etishda erkin muloqot, bahs tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular o'z fikrlarini ilgari surish, uni himoya qilish layoqatlarini namoyon etishga intiladi. Ular ham o'smirlar kabi gohida fikrlari to'g'ri, asosli bo'lmasa-da, unda qat'iy turib olishga urinadi. Ushbu kamchilikka barham berish maqsadida sinf rahbari, o'qituvchilar tomonidan o'spirin fikri, uning pozitsiyasini diqqat bilan kuzatish, tahlil qilish hamda o'spiringa o'z vaqtida yordam berishga urinish – eng maqbul pedagogik chora hisoblanadi.

### **3.4. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Shaxs kamolotining yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati**

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash g'oyasi ham milliy, ham umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, u bashariyatni ma'naviyat va ma'rifatga, ezgulik va yuksaklikka olib boruvchi komillik sari yo'ldir. Shu sababli ham insoniyat paydo bo'libdiki, tarbiya masalasi kishilar, oilalar, jamoalar, davlatlar oldida muhim muammo bo'lib kelmoqda va ular ko'p variantli yo'llar, vositalar bilan turlicha shakllarda, uslublarda amalga oshirilmoqda.

Aslida bola tarbiyasi ona qornidaligi paytidayoq boshlanmog'i lozim. Shu sababli ham jismonan baquvvat, ma'nan yetuk insonlar doimo ulug'lanib kelingan va hattoki, jismonan baquvvat insonlarga polvon hamda jismonan, ma'naviy yetuk insonlarga pahlavon deb nom berilgan.

Insonni ezgulik sari yetaklash haqidagi ta'limotlar muqaddas kitoblarimiz (Qur'oni Karim, Hadisi sharif, Avesto va shu kabilar)da doimo ulug'lanib kelingan.

Barkamol shaxsni tarbiyalash, o'zining ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy-uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab va mas'uliyatli dinamik jarayondir.

Mustaqillik xalqimizning turmush tarzini, ya'ni umr mazmunini belgilash imkoniyatini berdi va ular milliylikimizga xos turmush kechira boshladi. Bunda Prezident tomonidan olib borilayotgan milliy davlat siyosati asosiy omil bo'ldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2008-yilning «Yoshlar yili» va 2010-yilning «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilinishi hamda ushbu yillar bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi farmoyishlarning qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama yetuk, jismonan va ma'nan sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalashni maqsad qilib, belgilab berdi. Bunda «Sog'lom hayot», «Sog'lom turmush tarzi», «Sog'lom avlod», «Sog'lom millat», «Sog'lom e'tiqod», «Sog'lom xalq», «Sog'lom ong», «Sog'lom muhit», «Barkamol avlod», «Komil inson» va shu kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati ifodalanib, hozirda xalqimiz turmush faoliyatining asosiga aylana boshladi. Bular Vatanimiz ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini yuksaltirishda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Xalq sog'lom turmush tarzi muhiti yaratilganligini quyidagi omillar orqali anglash mumkin:

- milliy qadriyatlarga sadoqat ruhining mavjudligi;
- jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatning mavjudligi;
- tinch va farovon hayot yaratishga intilish;
- ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish;
- sihat-salomatlik («Umid nihollari», «Barkamol avlod», «Universiada» va boshqa shu kabi respublika miqyosidagi musobaqalar) masalalarining doimiy ravishda davlat va jamiyat e'tiborida turishi;
- sog'lom muhitning har bir a'zosi o'z sog'ligi haqida qayg'urishni kundalik vazifasi deb bilishligi va boshqalarni ham ushbu yo'nalishga da'vat eta olish qobiliyatiga egaligi;
- sog'lom muhit a'zosi o'z qadriga yetishni bilsin, ya'ni bunda «Kecha → Bugun → Ertaga» degan tizim asosida fikr yurita olishi;

– sogʻlom muhitning har bir aʼzosi ortiqcha, reaksiy, mantiqsiz fikrlardan xoli boʻlmogʻi lozim, yaʼni ular ongida gʻoyaviy boʻshliq boʻlmasligi lozim.

Bu omillar inson ongi, dunyoqarashi va munosabatlarini muntazam ravishda takomillashib borishini baholay olish imkoniyatini beradi. Bunda «Kecha → Bugun → Ertaga» tizimining uzluksizligi va uzviyligi bor. Bu yerda «Kecha» soʻziga oʻtmishdagi boy merosimiz haqidagi maʼlumotlar toʻgʻri keladi, yaʼni buyuk qomusiy olimlarimiz va hadis ilmi sohiblarining ijodi, faoliyatini ibratnamuna qilib koʻrsatish hamda tarixiy-badiiy adabiyotlardagi, jumladan, «Alpomish», «Goʻroʻgʻli», «Avazxon» va boshqa dostonlardagi botir pahlavonlarning odamiyligi, insonparvarligi, mehnatkashligi, doʻstlik va muhabbatga sadoqatlari ham shu yoʻnalishdagi maʼlumotlardir.

Yuqoridagi tizimning «Bugun» soʻziga barkamol avlod tarbiyasiga hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar toʻgʻri keladi. Jumladan, «Taʼlim toʻgʻrisida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Davlat taʼlim standartlari», «Oʻrta-maxsus, kasb-hunar taʼlimini tubdan isloh qilish», «Oʻrta umumiy taʼlimni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi tadbirlarning qabul qilinishi, shuningdek, yoshlarimizga bugungi kunda rivojlangan xorijiy davlatlarda oʻz intellektual salohiyatini rivojlantirib kelishiga yaratilayotgan imkoniyatlar hamda turli yoshlarimiz kamolotiga mos sport musobaqalarining tashkil etilishi yoshlarimizning har tomonlama kamol topishiga keng imkoniyatlardir.

Hozirgi kundagi yoshlarimizda oʻz maʼnaviy yetukligini oshirish yoʻlida keng imkoniyatlar va shart-sharoitlar mavjud. Shu sababli ham ularning zimmasida oʻzlarini maʼnaviy sogʻlom qilish evaziga jamiyatda sogʻlom turmush tarzini yanada yuksaltirishga muhim hissa qoʻshishdek muqaddas burch turibdi. Ana shundagina bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib boradi. Bu oʻz navbatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli aʼzolarini tayyorlashni kafolatlaydi.

## Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Shaxs» tushunchasiga ta'rif bering.
2. «Shaxsning rivojlanishi» deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxsni rivojlantiruvchi asosiy omillar nimadan iborat?
4. Shaxsning shakllanishiga muhit qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Shaxsning rivojlanishida tarbiyaning rolini tushuntiring.
6. Bola shaxsining yosh davrlari qanday guruhlariga bo'linadi?
7. Nima uchun o'smirlilik davrini «bola shaxsi rivojlanishining murakkab davri» deyiladi?
8. O'smirlilik davrida bola shaxsining rivojlanish jarayonini izohlang.
9. Barkamol shaxs tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
10. Barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirish bosqichlarini tushuntiring.
11. Barkamol shaxs tarbiyasida g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'y-maslik nimani anglatadi?
12. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini izohlang.

## Test savollari

1. Shaxs bu ...
  - A) Ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli ongli faoliyatning subyekti bo'lmish induvid
  - B) Ongli mavjudot
  - D) Nutqi va ongli rivojlangan insonlar
  - E) Hamma javoblar to'g'ri
2. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ...
  - A) Biologik omil, muhit, tarbiya
  - B) Inson faoliyatini boshqarish
  - D) Tarbiya
  - E) Biologik omil, muhit
3. Go'daklik davriga qaysi davr kiradi?
  - A) Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davr



- B) Chaqaloqlik, tug'lgandan to bir yoshgacha bo'lgan davr
- D) Maktabdagi tarbiya yoshi
- E) Barcha javoblar to'g'ri

**4. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davri qanday davr deb ataladi?**

- A) Bolalik davri
- B) Maktabgacha tarbiya davri
- D) O'smirlik davri
- E) Balog'at davri

**5. «Inson tarbiya predmeti sifatida» asarining muallifi kim?**

- A) Yan Komenskiy
- B) Ushinskiy
- D) Yusuf Xos Hojib
- E) Abdulla Avloniy

**6. «Individ» so'zining ma'nosi ...**

- A) Yagona, bo'linmas, yarim shaxs
- B) Yagona go'dak
- D) Shaxs
- E) Bo'linmas

**7. Faoliyat bu ...**

- A) Rejani yoki uni amalga oshirishdagi muayyan bosqichlar
- B) Rahbarning boshqa odamlarga, jamoaga, jamiyatga munosabati
- D) Emperik bilimlar to'plami
- E) Insonning muhit bilan o'zaro munosabati

**8. Shaxs madaniyatining asosiy jihatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Siyosiy, demokratik, huquqiy madaniyat
- B) Iqtisodiy va mehnat madaniyati, aqliy, axloqiy
- D) Ekologik, badiiy va jismoniy madaniyat, muloqot madaniyati va oilaviy munosabatlar madaniyati
- E) Yuqoridagilarning hammasi to'g'ri

**9. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar ...**

- A) Odob-axloq, tarbiya

- B) Muhit, ta'lim
- D) Irsiyat, tarbiya
- E) Irsiyat, muhit, ta'lim va tarbiya

10. «Irsiyat» deganda nimani tushunasiz?

- A) Odam shaxsining va xulqining rivojlanishi
- B) Biologik omillarning ta'siri
- D) Ota-ona, ya'ni yaqin ajdodlardan avlodlarga o'tadigan biologik xususiyat
- E) Hamma javoblar to'g'ri

11. Shaxsning o'ziga va dunyoga nisbatan munosabatlaridagi xatti-harakatlarning belgisi – uning ...

- A) Intizomi
- B) Tarbiyasi
- D) Odob-axloqi
- E) Bilimi

12. Shaxs rivojlanishining muhim davri yoshlik yillari, (talabalik yillari) nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?

- A) 14–15 yoshdan 17–18
- B) 17 yoshdan 21 yoshgacha
- D) 16–18 yoshdan 17–18
- E) 17–18 yoshdan 24–25 yoshgacha

13. Ideal tarixiy shaxs obrazi berilgan qatorni aniqlang.

- A) Navoiyning ideali – Farhod obrazi
- B) Oybekning «Navoiy» romanida esa Navoiy obrazi – ideal obraz
- D) Xalqimiz qahramoni Alpomish
- E) Javoblarning barchasi to'g'ri

14. Bolalardagi o'ziga xoslikni, ularning ruhiy jarayonlarining turlicha bo'lishini qaysi omillar belgilaydi?

- A) Biologik omil, ijtimoiy omil
- B) Obyektiv omillar, ijtimoiy omillar
- D) Axloqiy omillar, biologik omillar
- E) Biologik omil, ijtimoiy omil, ta'lim-tarbiya

**15. Bola shaxsining rivojlanish davrlari qaysi qatorlarda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Tug'ilgandan to bir yoshgacha bo'lgan bolalik davri
- B) 1 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan davr va maktabgacha tarbiya yoshi davri
- D) Kichik maktab, o'smirlik va o'spirinlik davri
- E) Yuqoridagilarning hammasi

**16. Irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya qanday omillar sirasiga kiradi.**

- A) Jamoatni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar
- B) Shaxsni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar
- D) Shaxsni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar
- E) Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi omillar

Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, nega-ki bunday qanoat uning ma'naviy boy ekanligidan dalolat beradi.

*Suqrot*

#### 4-MAVZU. TARBİYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

##### **Reja:**

1. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi.
2. Hozirgi jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash tarbiya maqsadi sifatida.
3. Tarbiya vazifalari va mazmuni, uning aqliy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida.

##### **Mavzuning maqsadi:**

Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni shakllantirishda tarbiyaning roli, uning mazmuni va turli shakllari haqida ma'lumot berish orqali yoshlarda aqliy, ma'naviy-axloqiy, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiya tushunchalarini shakllantirish.

##### **Mavzuning vazifalari:**

- tarbiya maqsadining xilma-xilligini ochib berish;
- mustaqil fikr yuritadigan ijodkor yoshlarni shakllantirish;
- barkamol shaxs tarbiyasida Sharq mutafakkirlarining tarbiya to'g'risidagi qarashlarini ko'rsatish;
- shaxs tarbiyasida aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, estetik va mehnat tarbiyasining rolini aniqlash.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiyaning maqsadi, tarbiya maqsadining xilma-xilligi, barkamol avlod tarbiyasi, milliy tarbiya asoslari, tarbiya tizimining uzluksizligi, barkamol shaxs tarbiyasi.

#### 4.1. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi

Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, rivojlanishi, yoʻnalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda Oʻzbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Kadrlar tayyorlash milliy modelimizning bosh muddaosi – barkamol shaxs va intellektual salohiyatli mutaxassis tayyorlashdan iborat boʻlib, Oʻzbekistonning xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotini taʼminlay oladigan, mustaqil fikr yuritadigan, tafakkurli, malakali, bilimli mutaxassis, ayni paytda insonning ichki sifatlari barq urib kamolotga yetgan kadrlarni tayyorlashni koʻzlaydi. Mazkur maqsadni amalga oshiruvchi asosiy omillardan biri tarbiya jarayonidir. Tarbiyaning maqsad-natijasi barkamol avlodni shakllantirishdir. Bu jarayon ikki tomonlama boʻlib, uyushtirish va rahbarlikni, shuningdek, oʻquvchi shaxsning oʻzi tomonidan faollik koʻrsatishni taqozo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi vazifani bajaradi, chunki, u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlari, mohiyatini tushunadi, maqsad yoʻlida amalga oshirilayotgan vazifalar tizimidan yaxshi xabardor, tarbiya shakllari, metodlar va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiyaga tadbiiq etadi.

Oʻz tabiatiga koʻra tarbiya koʻp omilli xarakterga ega, yaʼni bola shaxsining qaror topishiga oila, maktab, jamoatchilik, ijtimoiy muhit, shuningdek, vaziyatlar xilma-xilligi bevosita va bilvosita taʼsir etadi. Tarbiyaning natijalari bir xil tavsifda boʻlmaydi. Bu oʻquvchilarning psixologik (individual-tipologik), fiziologik va jismoniy xususiyatlariga, ularning hayotiy va maʼnaviy qiyofasiga, shaxsiy jihatlariga bogʻliq. Tarbiya odatda, oʻz-oʻzini tarbiyalash, oʻz-oʻzini qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va shaxs xususiyatlarini shakllantirish bilan qoʻshib olib boriladi. Oʻz-oʻzini tarbiyalash shaxsning oʻzida ijtimoiy qadrga ega boʻlgan fazilatlarini hosil qilish va takomillashtirishga hamda salbiy xislatlarni bartaraf ettirishga qaratilgan ichki faoliyat sifatida taʼriflanadi. Oʻz-oʻzini qay-

ta tarbiyalash shaxsning o'zidagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni yo'qotishga, bartaraf etishga qaratilgan ichki faoliyat mazmunidir. Bola xulqidagi nosog'lom muhit, ota-onaning tarbiyada yo'l qo'ygan xatolari, o'qituvchi faoliyatidagi kamchiliklar asosida vujudga keladi. Qayta tarbiyalash jarayonida salbiy xulq, hosil qilingan zararli sifatlar o'zgartiriladi, qayta tarbiyalashda maktab, oila, ota-onaning hamkorligi lozim bo'ladi. Demak, qayta tarbiyalash o'quvchining o'zigagina emas, balki uning ota-onasiga ham qaratilishi lozim.

Sharq mutafakkirlari ta'limni hech qachon tarbiyadan ajratib qarashmagan.

Hozirgi kunda ta'lim jarayoni o'qituvchilar tomonidan bilim, iqtidor va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Tarbiya esa shaxs tarbiyalanganligining mezoni sifatida shaxsiy xislatlarni shakllantirish bilan bog'liq bo'lib, bugungi kunda bu xislatlarni ma'naviy qadriyatlar asosida shakllantirib borish maqsadga muvofiqdir. Umumiy ta'lim maktabining yuqori sinflarida ma'naviy qadriyatlarning mohiyatini o'rganish, tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanish, asosan dars jarayonini tashkil etish, uning asosiy qismlariga qo'yiladigan talablarga ijodiy yondashishga bog'liq.

Tarbiya nazariyasidagi asosiy muammolarni aniqlash uchun quyidagilarga e'tibor qaratish zarur:

- tarbiyaviy ish ma'nosini aniqlash;
- tarbiya istaklarini tasniflash;
- o'quvchilarning ma'naviy ehtiyoji va talabi;
- o'quvchilarning yoshi, sinfning umumiy saviyasiga mosligini inobatga olish;
- o'quvchi bilim saviyasi, mantiqiy fikr doirasining o'sishi, tarbiyasiga ta'sirini aniqlash;
- o'qituvchining shaxsiy xislatlarini shakllantirish, olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni tadqiq etish.

**Milliy mentalitetimizga ko'ra, ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Ta'lim va tarbiya – o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan sharqona tushunchalardir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek: «Aslida ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotning chegarasi va poyoni yo'q. Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya**

ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga binoan muttasil o'zgarib-yangilanib boraveradi».

Bu uzluksiz jarayon ta'lim-tarbiya uchun mas'ul barcha rahbarlar va xodimlar zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Negaki, oldimizda turgan eng ezgu maqsadlarimiz mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham. «O'zbekistonning XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha-barchasi, avvambor, yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga yetishiga bog'liqdir».

Tarbiyaning yana bir xususiyati, uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atlarda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Muayyan vaqtning o'zida, turli-tuman qarashlar mavjud sharoitda shaxning harakat qilishi tarbiya maqsadini murakkablashtiradi.

Maktab tarbiyasi shaxs ongini, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois, tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berishni talab etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati, uning uzluksizligidir. Tarbiya jarayoni – bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlaridan iborat. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.

#### **4.2. Hozirgi jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash – tarbiya maqsadi sifatida**

Mamlakatning moddiy va ma'naviy yuksalishida xalqimizning boy ma'naviy merosga, umumbashariy qadriyatlarga, zamona-viy madaniyatga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan, mustaqil

fikr yuritadigan erkin shaxsni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammosidir.

Bu borada qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da barkamol avlodni shakllantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tarbiyalab voyaga yetkazish bosqichlari, shu bilan birga yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni jahon ta'limi darajasiga ko'tarish asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Bu vazifalarni amalga oshirish barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalab voyaga yetkazishdek istiqbolli muammoni hal etishni ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchi-murabbiylar, shu yo'nalishda ijod qiluvchi mutaxassis olimlar, jamoat tashkilotlari, rahbar xodimlar oldiga qo'yilishini davr talab etmoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, oldimizda turgan eng dolzarb va istiqbolli muammolardan biri – erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod va erkin shaxsni va shu asosda barkamol avlodni shakllantirish masalasidir. «Boshqacha aytganda, – deydi I.A.Karimov, – biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak».

Yuqorida qayd etilgan fikr asosidagi tarbiyani amalga oshirish ma'naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Bunda xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, ularga hurmat uyg'otilishi, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning saqlanishi va mazmunan boyitilishi, shuningdek, madaniyat, san'at, ilmfan, ta'lim-tarbiyaning har tomonlama taraqqiy etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda uzluksiz ta'lim tizimida «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Ma'naviyat asoslari», «Milliy istiqloq g'oyasi», «Axloqshunoslik», «Tarbiyaviy ishlar metodikasi» va shu kabi fanlar mazmuni mustaqillik mafkurasi asosida qayta tayyorlanganligi va boshqa turli fanlar mazmuniga ma'naviy qadriyatlar ruhining singdirili-



shi yoshlarimiz ma'naviy tarbiyasida buyuk burilish bo'ldi. Ular orqali yoshlarimiz butun insoniyat, jumladan, Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari, shuningdek, o'zbek xalqi yaratgan ma'naviy boyliklar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Ayniqsa, buyuk vatandoshlarimiz (qomusiy va hadischi olimlarimiz)ning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissalarini yoritish orqali ularga milliy-ma'naviy merosda faxrlanish tuyg'usini tarbiyalash, qadriyatlar va urf-odatlarimizga ongli munosabatda bo'lishni singdirish imkoniyati yaratildi.

Hozirgi demokratik jamiyatdagi tarbiyaning maqsadi yuksak ma'naviyatli, milliy taraqqiyot mafkuramizda qat'iy turuvchi, ona-Vatan ravnaqi fidoyisi, o'zini va yon-atrofdagilarni yot g'oyalardan asrovchi, yurt tinchligi, davlatimiz ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida dovyuraklik va tashabbuskorlik bilan faoliyat yurituvchi **barkamol shaxsni** tayyorlash asosida **barkamol avlodni** shakllantirishdan iboratdir.


Bunday tarbiyaviy faoliyat uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas qisimidir va jamiyat taraqqiyotiga mos tarbiya vositalari, metodlari, usullari, yo'llari va shu kabilar yuksalib boraveradi. Bunda:

- xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati va umum-bashariy qadriyatlarga suyangan holda tarbiyani rivojlantirish;
- tarbiyaviy ishlarni demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;
- oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish lozim.

Oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni quyidagidek olib borish maqsadga muvofiqdir (4.2.1-shaklga qarang).

Quyida biz A. Qodiriy nomidagi Jizzax Davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti jamoasida barkamol avlod tarbiyalashdagi ish tajribalaridan namunalar keltiramiz, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni quyidagi tartibda olib borilmoqda. Maqsad:

- mustaqillik mafkurasini inobatga olib, uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish;
- oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarishning ijtimoiy-pedagogik va amaliy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish;



– o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlar va shu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiya jarayoni ishlarini yagona dinamik tizim sifatida ifodalab olish va uni muvaffaqiyatli faoliyat yuritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– jamiyat taraqqiyoti saviyasi va darajalarini e'tiborga olgan holda yoshlarning tarbiyasidagi davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish muammolari bilan muntazam qiziqib borish;

– ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishni jamiyat taraqqiyoti mosligini kuzatish va nazorat qilishni va bu sohada monitoringni yo'lga qo'yish hamda uning natijalari asosida tarbiyada roslash va tuzatishlar kiritish mexanizmlarini ishlab chiqish;

– oliy o'quv yurti talabalarining ma'naviy shakllanganligini aniqlashni modellashtirish lozim va bu modelning obyektiga adekvatligini nazorat qilish orqali yoshlarning ma'naviy shakllanganligini aniqlashning tizimini yaratish. Ulardan kerak bo'lganda ayrim talaba yoki guruh, kurs, fakultet va shuningdek, oliy o'quv yurtining talabalarining ma'naviy yetukligini aniqlash mexanizmini ishlab chiqish va uni yuksaltirishga ustubiy tavsiyalar tizimini ishlab chiqib, joriy etishga erishish va hokazo.

Ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllangan **barkamol inson** quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam qiladi:

– butun oila a'zolari, qo'ni-qo'shnilari, mahalla-ko'yi, hamqishloqlari va butun mamlakat xalqining farovonligi haqida qayg'uradi;

– odob-axloqli va fe'l-atvori yoqimli bo'lishini insoniy burch deb hisoblaydi;

– ota-bobolaridan yodgor bo'lib qolgan milliy-ma'naviy meroslarni yuksak qadrlaydi;

– milliy qadriyatlarni e'zozlaydi, avaylab-asraydi va ularga sodiq bo'lib qoladi;

– unda vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari barqaror bo'ladi;

– umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qiladi hamda Davlat ramzlariga sadoqatli bo'ladi;

– Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsata oladi va shu kabilar.

Yoshlarimiz oldiga qo'yilgan talablarga e'tibor berilsa va shu ketma-ketlikdagi ta'lim-tarbiya olib borilsa, muxtaram Prezidentimiz I.A.Karimov orzu qilganidek, «Barkamol avlod – O'zbekiston

taraqqiyotining poydevori» degan shior amalga oshadi. Bu orzuni amalga oshirishda dastlab «Barkamol avlod orzusini», ya'ni maqsadni quyidagicha ifodalab olamiz: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan hujjatidir. Bunda, **birinchidan**, milliy dasturni to'liq bajarishga erishish, **ikkinchidan**, butun xalqni mazkur savobli ishga to'liq jalb qilish, **uchinchidan**, umumommaning mazkur ishlar mazmun-mohiyatiga tushunib olishiga erishish va nihoyat, **to'rtinchidan**, har bir fuqaro belgilangan vazifalarning bajarilishiga ishonch hosil qilishiga va bu jarayonga munosib hissa qo'shishiga ishtirok etish istagini uyg'onishiga erishish barchamizning orzuimizdir.

Shu yo'sindagi olib borilgan ta'lim-tarbiya oxirida barkamol shaxsga qo'yilgan talab (mezon) bilan tarbiyalangan shaxsdagi intellektual salohiyat solishtirilib ko'riladi va mezon bo'yicha talablar bajarilgandan keyin tayyor mutaxassisga «Mehnat bozori» – ya'ni kasbiy faoliyat uchun yo'llanma beriladi. Bunda mustaqil O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi – buyuk davlat barpo etish, xalqning maqsad-muddaolarini amalga oshirish, milliy g'oyani yoshlar qalbi va ongiga singdirishdan iborat.

Barkamol shaxs tarbiyasi jarayoniga bunday yondashish ta'lim-tarbiyaning har bir bosqichida puxta tayyorgarlikka ega bo'lishni va maqsadga yetishni kafolatlaydi. Maqsadga yetish tadbirlari avvaldan ishlab chiqilgan mezonlar asosida olib boriladi. Ta'lim-tarbiya mazmuniga qarab yoki ushbu jarayonni boshqarish mazmuniga qarab maqsadlar tizimi (ketma-ketligi) yoki yaxlit-yagona bir maqsad bo'lishi mumkin va u Davlat ta'lim standartlariga yoki mutaxassis-larga qo'yiladigan jahon ta'limi talablari asosida shakllangan (tuzilgan) bo'ladi.

Barkamol avlod tarbiyasining qayd etilgan ilmiy asoslangan ta'lim-tarbiya jarayoni, ayniqsa, ta'limni boshqarishda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritish imkonini beradi va eng asosiy, «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», degan ezgu niyat-larning og'ishmay amalga oshishiga fundamental asos bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda, shunday xulosa qilish mumkin. Yoshlarni barkamol darajada tarbiyalash uchun mil-

liy istiqlol g'oyalari bilan ularni yaqindan tanishtirish, ya'ni ularning qalbida, eng avvalo, milliy ong, milliy g'urur, milliy mafkura tushunchalarini shakllantirish orqali ularning vaqtini bo'sh qoldirmaslik, ularni ijtimoiy foydali ishlarga jalb qilish lozim. Yoshlar bilan shunday usullarda shug'ullanish natijasida, talabalarni bu ishlarga jalb qilish orqali ularni tashqi salbiy ta'sirlardan saqlab qolish imkoniyati paydo bo'ladi.

### **4.3. Tarbiya vazifalari va mazmuni.**

#### **Tarbiyaning aqliy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, estetik yo'nalishlari haqida**

Mamlakatimizda ijtimoiy tarbiya va uning turlari (axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, huquqiy va mafkuraviy tarbiyalar) quyidagi vazifalarni amalga oshiradi. Chunonchi:

1. Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy-axloqiy me'yorlar mazmunidan xabardor etish, ularga axloqiy me'yorlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini tushuntirish, ulardan ijtimoiy-axloqiy me'yorlar (talab va taqiqlar)ga nisbatan hurmat hissinini qaror toptirish asosida aqliy ong madaniyatini shakllantirish.

2. Aqliy tarbiyani yo'lga qo'yish chog'ida o'quvchilarni ilmfan, texnika va texnologiya borasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan, yangilik va kashfiyotlardan boxabar etish, ijtimoiy fanlar asoslari xususidagi bilimlar berish tarzida ularda tafakkur qobiliyatini qaror toptirish, dunyoqarashini shakllantirish.

3. Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarda o'z sog'liqlarini saqlash va mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanishni hamda uning ishlash qobiliyatini oshirish borasida g'amxo'rlik qilish tuyg'usini yuzaga keltirish, ularda yangi harakat turlari borasida ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish, o'quvchilarning yoshiga va jinsiga muvofiq keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, sabotmatonat, chidam, iroda va tavsifni qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish, ularda shaxsiy gigiyenani saqlashga nisbatan ongli munosabatlarni tarbiyalash.

4. Estetik tarbiyani olib borish jarayonida o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirish, estetik madaniyatini shakllantirish.

5. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekologiyaning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptirish. shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlar berish asosida mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasini qoidalarga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasidagi qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish.

7. Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga Davlat Konstitutsiyasi haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ular ongiga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish.

8. G'oyaviy va mafkuraviy bilim berish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyat asoslari, milliy davlat tuzilishi, shuningdek, mafkura mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda mafkuraviy faoliyat ko'nikma va malakalarni qaror toptirish, mafkuraviy madaniyatni shakllantirish va boshqalar.

Demak, tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarining mohiyatini aks ettiradi.

## Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tarbiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?*
3. *Tarbiya to'g'risida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy aytgan fikr-mulohazalar haqida gapirib bering.*
4. *Tarbiyaviy ishlarni demokratlashtirish deganda nimani tushunasiz?*
5. *Tarbiyaviy ishlarni insonparvarlashtirish nima?*
6. *Oliy o'quv yurtida ma'naviy-ma'rifiy ishlar qanday tashkil etiladi?*
7. *Barkamol inson o'zida qanday xususiyatlarni mujassam qiladi?*
8. *Tarbiyaning qanday turlari mavjud?*

### Test savollari

1. «Vijdon – ruhimizning ma'naviy quvvati bilan fikrimizga quvvat beruvchi bir vositai idrokiyatdir». Ushbu fikr muallifi kim?

- |            |            |
|------------|------------|
| A) Aflotun | B) Pifagor |
| D) Suqrot  | E) Arastu  |

2. «Tarbiya o'zi agar u kishining baxtiyor bo'lishini istar ekan, u baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehnatiga tayyorlashi lozim». Ushbu fikr kimga tegishli?

- |                 |                |
|-----------------|----------------|
| A) Makarenko    | B) Ushinskiy   |
| D) Suxomlinskiy | E) Pestalotssi |

3. «Turkiy guliston yoxud axloq» asari kimning qalamiga mansub?

- |                |                  |
|----------------|------------------|
| A) M. Behbudiy | B) M. Qoshg'ariy |
| D) A. Avloniy  | E) A. Cho'lpon   |

4. **Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nechta?**

- |         |         |
|---------|---------|
| A) 6 ta | B) 5 ta |
| D) 3 ta | E) 4 ta |

**5. Barcha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun qaysi faoliyat turi bor?**

- A) O'qish faoliyati
- B) Mehnat qilish faoliyati
- D) A va B javoblar to'g'ri
- E) Ta'lim olish faoliyati

**6. Tarbiya turlari qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat, nafosat, ekologik, etik, iqtisodiy tarbiya turlari
- B) Matematik tarbiya, ijtimoiy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi
- D) Oila tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya va boshqalar
- E) Barcha javoblar to'g'ri

**7. Tarbiya metodlari qaysi variant javobida to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Ijtimoiy ongini shakllantiruvchi, odatlantiruvchi
- B) Hikoya, ma'ruza, suhbat
- D) Pedagogik talab, mashqlantirish, rag'batlantiruvchi
- E) Hamma javoblar to'g'ri

**8. Qadimgi forslar, saklar va massagetlarning ta'lim-tarbiya qarashlariga oid muhim ma'lumotlar berilgan manbani toping.**

- A) Geradotning «Tarix» kitobi
- B) «Avesto» kitobi
- D) Esxilning «Forslar» kitobi
- E) Xalq og'zaki ijodining qadimgi namunalari

**9. Tarbiya – ijtimoiy hodisa. Bunga asos nimada?**

- A) Maktabda tarbiya beriladi
- B) Inson o'z-o'zini tarbiyalaydi
- D) Oiladagi tarbiya
- E) Inson umrining oxirigacha tarbiyalanadi va unga turli xil tashqi ta'sirlar bo'ladi

**10. O'quvchi va o'qituvchini qamrab oluvchi jarayonni aniqlang.**

- A) Tashqi ishlar jarayoni
- B) Tarbiya jarayoni
- D) Ta'lim maqsadlarini amalga oshirish jarayoni
- E) Tarbiyaviy tadbirlar



Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.

*Abdulla Avtoniy*

## 5-MAVZU: TARBIYA JARAYONI MOHIYATI VA MAZMUNI. TARBIYA TAMOYILLARI

### **Reja:**

1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi.
2. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari.
3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari.

### **Mavzuning maqsadi:**

Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi, tarbiya jarayoni mohiyati, tizimi hamda uning qonuniyatlari, tarbiya tamoyillari va unga qo'yiladigan talablar tasnifi to'g'risida ilmiy bilim berish orqali yoshlarda kasbiy malakalarni va sifatlarni rivojlantirish.

### **Mavzuning vazifalari:**

- tarbiya jarayonining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;
- tarbiya jarayoni tizimi va uning qonuniyatlarini o'rganish;
- tarbiya tamoyillari va tasnifini ochib berish;
- tarbiya jarayonida har bir o'quvchi shaxsining shaxsiy munosabat hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish va ta'sir ko'rsatish.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya tushunchasi, tarbiyaning tasnifi, tarbiya usullari, tarbiya maqsadi, vazifalari, tarbiyalanganlik, komil inson, tarbiya metodlari, metod tushunchasi, tarbiyaning maqsadi, vazifalari, tarbiyalanganlik, komil inson, kadr, mutaxassis zamonaviy tarbiya mazmuni, tarbiya maqsadining aniqligi, bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati, o'z-o'zini anglash, tarbiyaning

yo'naltiruvchanligi, ixtiyoriylik, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya qoidalari, obyektiv va subyektiv omillar, demokratik tamoyil, faoliyat va munosabat birligi, ehtiyoj, ijtimoiy munosabat, faoliyat.

### 5.1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiya jarayonining mazmuni, metodlari va tashkil etilishi masalalarini o'rgatadi. Hayotga yangicha siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazardan yondashish o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq jarayon mazmunini ham qaytadan ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi. Tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya kabi fanlar ma'lumotlaridan foydalanadi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi hamda maktabshunoslik bilan uzviy bog'liq.

Tarbiya jarayoni shaxsning muayyan maqsad asosida ijtimoiy hayotga tayyorlovchi tarixiy-ijtimoiy tajribaga suyangan holda olib boruvchi faoliyat jarayonidir. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yonajot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy-milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qator asar va nutqlarida, chunonchi, «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarlarida mustaqil respublikada ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish maqsadi va vazifalari belgilab berilgan.

**Tarbiya** – shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

**Tarbiya** – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Demak, **tarbiya** ijtimoiy hodisa bo'lib, insoning shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy ma'naviy qadriyatdir.

Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki faoliyatni – o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllanib boradi. His-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirish g'oyat muhimdir. Faoliyat jarayonida bola tashqaridan kelayotgan tarbiyaviy ta'sirlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'ladi. Bu munosabat shaxsning ichki ehtiyoj va xohishlarini ifodalaydi. Psixolog va pedagoglarning tadqiqotlari shaxsga tashqi omillarning (xoh salbiy, xoh ijobiy) ta'siri bolaning ularga munosabati, bog'liqligini ko'rsatadi. Bola faoliyatini uyushtirish emas, balki tarbiyalanuvchining bu faoliyatga nisbatan qanday anglashni baholashi, his qilishni anglashi e'tiborga molikdir. Ulardan o'zi uchun nimalarni maqsad qilib olayotganligini bilishi zarur. Bularning barchasi turli kishilar bilan aloqa qilish, jamoada-gi munosabatlar jarayonida murakkablashib boradi. Tarbiya jarayoni o'quvchining ongini emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borishi, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan huquqiy malaka va odatlarni hosil qilishi lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga, hissiyotiga va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilay-


di. ularni ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi.

Tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun uning harakatlantiruvchi kuchini – tarbiya jarayonining manbasini yaxshi bilish va hisobga olish muhimdir. Tarbiya jarayonida ichki va tashqi qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, u bevosita tarbiyalanganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tarbiyada o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini ham hisobga olish kerak bo'ladi. Bu jihat unutilsa, qarama-qarshiliklar kuchayadi.

Tarbiya jarayonida uning maqsadi, shakli, vositalari, shaxsning o'zini-o'zi tarbiyalash va qayta tarbiyalash jihatlari muhim o'rin tutadi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy tuzum buyurtmasi asosida belgilanib, uning amalga oshishi uchun ma'lum shart-sharoitlarning mavjudligi talab etiladi. Ushbu g'oyalar yaxlit tarzda quyidagicha aks etadi (5.1.1-shakl).

5.1.1-shakl

### Tarbiya jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy shakli



Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyosdir.

## 5.2. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari

Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxsning xislatlari bir-biridan ajratilgan emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit tarzda rivojlanadi. Bola o'sib va rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi.

Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, malakalarni tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va h.k.), muomala odobi, yuksak madaniyatni o'quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish, o'quvchilarda fuqarolik tuyg'usini, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish;

j) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash. uning sha'ni. or-nomusi.

qadr-qimmatini, huquq va burchlarini himoya qilishga o'rgatish va boshqalar.

Tarbiya mazmunida oldinga qo'yilgan maqsad va vazifalarga muvofiq o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar shaxs xulq-atvori hamda sifatlarning mohiyatini aks ettiradi. Tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, kishilik munosabatlari mohiyati va darajasi, shuningdek, jamiyat mafkurasi va g'oyalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Zamonaviy tarbiya mazmunida quyidagi g'oyalar yotadi:

1. **Tarbiya maqsadining aniqligi.** O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy mustaqilligining dastlabki yillaridayoq respublikada amalga oshirilishi ko'zda tutilgan bo'lib, tarbiya maqsada aniq belgilab olingan edi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarga ko'ra ijtimoiy tarbiyaning asosiy maqsadi erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish yo'lidagi asosiy vosita – bu shaxsda umumiy madaniyatni tarkib toptirishdir, ya'ni shaxsning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, iqtisodiy, ekologik, huquqiy, mafkuraviy hamda mehnat madaniyatini tarbiyalash tarbiyaning bosh maqsadini amalga oshirish imkoniyatini yaratish ko'zda tutiladi.

2. **Bolalar va kattalarning birgalikdagi faoliyati.** O'qituvchining bolalar bilan ma'naviy madaniyatining eng yaxshi namunasini izlashi, shu asosida tarbiyachi insonning hayotiy me'yor va qadriyatlarini ishlab chiqishi, o'quvchining tarbiya jarayonida faolligini ta'minlashga olib keladi. Dunyoqarashi hali to'la-to'kis shakllanmagan bolalar uchun kattalarning hayotiy tajribalari hamda ularning shaxsiy namunalari katta tarbiyaviy ta'sirga ega.


3. **O'z-o'zini anglash.** Tarbiya insonda e'tiqod, demokratik qarashlar va hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Tarbiya mazmunining eng muhim jihatlaridan biri – bu insonning hayotida o'z-o'zini anglashi, inson o'z shaxsiy hayoti va baxtining subyektivi sifatida e'tirof etilishi bilan tavsiflanadi. Inson kamolotda fuqarolik, kasbiy va axloqiy o'z-o'zini anglash g'oyalarga tayanib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega.

4. **Tarbiyaning yo'naltiruvchanligi.** Mazkur g'oya maktab (ta'lim muassasalari) amaliyotining markaziy nuqtasida tarbiyaviy ishlar dasturi, tadbirlari, shakl, metod va vositalari emas, balki o'quvchi turganligini anglatishga xizmat qiladi. Tarbiya jarayonida uning shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari, o'ziga xos tavsifi o'z qadr-qimmatini anglash tuyg'ulari rivojlantirib borishi zarur.

5. **Ixtiyoriylik.** Tarbiyalanuvchilarning iroda erkinligisiz tarbiya g'oyalari mohiyatini qaror toptirish mumkin emas. Tarbiya jarayoni, agar u oqilona tashkil etilsa, bir vaqtning o'zida ham o'qituvchi va o'quvchi ma'naviyatining boyitilishiga xizmat qiladi. Agar tarbiyachi (o'qituvchi) o'quvchining qiziqishi, faoliyati, o'rtoqlik va fuqarolik burchini anglashi, mustaqillikka intilish tuyg'ularini ko'rib va angalay olsagina uning shaxsiga ta'sir ko'rsatishga yo'naltirilgan faoliyatda samaraga erishadi.

6. **Jamoat yo'nalishi.** Tarbiyaviy ishlar mazmunida jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish yotadi. Jamoa yordamida shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, unda dunyoni anglash va uni to'laqonli talqin etish, insonparvarlik va hamkorlik tuyg'ularining yuzaga kelishi va rivojlanib borishi amalga oshiriladi.

Zamonaviy pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchiga aqliy, estetik, axloqiy, jismoniy, siyosiy, iqtisodiy, ekologik hamda diniy tarbiya olish lozimligini uqtirishning o'zi ham samara beradi. Zamonaviy tarbiya mazmuni, g'oyalari yaxlit tarzda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (5.2.1-shakl).



5.2.1-shakl. Zamonaviy tarbiya mazmuni va g'oyalari.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi hamda vazifalarni amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining xususiyatlarini aniqlab olishi muhim ahamiyatga ega.

### **Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari**

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, unga tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (subyektiv va obyektiv) omillar ko'zga tashlanadi. Subyektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglashga yordam bersa, obyektiv omillar shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarni ijobiy hal etish uchun sharoit yaratadi. Tarbiya faoliyatining mazmuni, yo'nalishi va shakli obyektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez suratda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniy sifatlarni namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati o'zining uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni – bu o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi g'oyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.


Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati – bu uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasini amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga



ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtirila boriladi, shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitlik, tizimlilik tavsifiga ega bo'lishi lozim.

Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishni talab etadi.

Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi (5.2.1-shakl).



5.2.1-shakl. Tarbiya jarayoni tuzilmasi.

Demak, yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarga tayangan holda quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib top-tirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayoni bo'lib, har qanday ijtimoiy tuzum va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosiy bo'lib kelgan.

2. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish jarayonida qator vazifalar hal etiladi. Tarbiyaning maqsad va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqarolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi.

3. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish ko'zlangan maqsad va vazifalarning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

### **5.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari**

Tarbiya jarayonini ilmiy asoslangan tarzda olib borish uning qonuniyatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi. Bu qonuniyatlar voqealarning muayyan rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi sabab va oqibat o'rtasidagi muhim, zarur ichki aloqalarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tarbiya jarayonining asosini ijtimoiy hayotning obyektiv talablari insonning ijtimoiy mohiyatini va tabiatini aks ettiruvchi qonuniyatlar tashkil etadi.

Tabiat yoki jamiyatdagi har qanday murakkab hodisada obyektiv ravishda mavjud bo'ladigan barqaror aloqalar kuzatiladi. Bunday aloqalar «qonuniyat» deb ataladi. Bunday qonuniyatga tarbiya jarayonida ham amal qilinadi. Tarbiya qonuniyatlari mohiyati bir tomondan ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ikkinchi tomondan shaxsning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning **birinchi** va eng muhim qonuniyati uning ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga bog'liqligidir.

Tarbiyaning **ikkinchi** muhim qonuniyati uning shaxs rivojlanishi bilan birligi, o'zaro aloqadorligi va bog'liqligidir.

Shaxs rivojlanishi tarbiyaning g'oyaviy mazmuni va sifat darajasiga bog'liqdir. Ayni chog'da tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari shaxsning rivojlanganlik darajasiga ham bog'liq. **Tarbiya jarayoni**

psixologiya fani asoslarini, shaxsning psixologik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlarini bilishni talab qiladi. Tarbiyachi (o'qituvchi) tarbiyalanuvchi (o'quvchi) shaxsni har tomonlama o'rganishi va shu asosida unga to'g'ri psixologik tavsif berishi hamda ta'sir ko'rsatishi lozim. Tarbiyalanuvchining shaxsiy xususiyatlari va imkoniyatlari hisobga olinmas ekan, ularga har qanday tarbiyaviy ta'sir bir tomonlama yoki tasodifiy bo'lib qoladi. Shuningdek, ular boshqa tarbiyaviy ta'sirlarga mos bo'lmay qoladi.


Tarbiyaning **uchinchi** qonuniyati faoliyat va munosabat birligini e'tirof etish, shaxsning ijtimoiy ijobiy fazilatlarini shakllantirishning asosiy manbayi bo'lib xizmat qiladi. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati jamiyat uchun qanchalik foydali, maqsadga muvofiq tashkil etilsa, shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabat oqilona bo'lsa, tarbiya jarayoni shunchalik samarali bo'ladi.

Tarbiyaning **to'rtinchi** qonuniyati tarbiyalanuvchilarning o'zaro tarbiyaviy ta'sirga ega ekanliklari, ularning o'zaro munosabatlari hamda faol faoliyatlari o'rtasidagi bog'lanishning mavjudligi sanaladi.

Tarbiyachi (o'qituvchi)larning va o'quvchilar jamoasining tarbiyalanuvchi (o'quvchi)larga pedagogik ta'siri, ular faoliyati va munosabatlarini tizimli hamda rejali tarzda maqsadga muvofiq tashkil qilishni nazarda tutadi. Tarbiya jarayonida tarbiyachi (o'qituvchi) va tarbiyalanuvchi (o'quvchi)larning ijtimoiy roli bir xil emas. Tarbiyachi uchun tarbiyalanuvchi har vaqt tarbiyaviy obyekt hisoblanadi. Biroq, tarbiyalanuvchi tarbiyachi bilan ongli ravishda o'zaro munosabatda bo'lishga erishsa, tarbiyaviy munosabatlar faol xarakter kasb etadi.

Rivojlanuvchi (shaxsni rivojlantirish), tarbiyalovchi (tarbiya maqsadlarini amalga oshirish) va tashkilotchilik (faoliyat va munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil etish) vazifalari tarbiya jarayonida (tarbiyalanuvchilarning) asosiy vazifalari sanaladi.

Demak, tarbiya jarayonining qonuniyatlari quyidagilardan iborat (5.3.2-shaklga qarang).



Tarbiya jarayonining qonuniyatlari bilan birga bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari bo'lib, ular quyidagilar:

- tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyani hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa deb bilish;
- shaxsning jamoada tarbiyalashga oid o'rni;
- tarbiyalanuvchi shaxsiga nisbatan talabchan bo'lishi va uning shaxsini hurmat qilish;
- tarbiyalanuvchi (o'quvchi)ning tarbiya jarayonida yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishiga e'tibor.

Tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uni tashkil etishda qanday tamoyillarga ko'ra ish ko'rilayotganligiga ham bog'liq.

## Tarbiya tamoyillari

Tarbiya tamoyillari tarbiya jarayoni qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiyaviy jarayonda ilg'or tamoyillarga amal qilinishi tarbiya samarasini ta'minlaydi. Tarbiya tamoyillari quyidagilardan iborat:

- tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi;
- tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi;
- tarbiyada milliy, umumbashariy qadriyatlarining ustunligi;
- tarbiyada izchillik va tizimlilik;
- tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish;
- tarbiyani mehnat bilan bog'lash;
- tarbiyalanuvchi shaxsni hurmat qilish;
- tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish;
- jamoa va jamoa yordamida tarbiyalash;
- tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy tomonlarni yo'qotish.

**Tarbiyaning maqsadga yo'naltirilganligi va g'oyaviyligi** – o'qituvchi ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifasini aniq tasavvur etishi va puxta anglab olishi zarur.

Yosh avlodni yuksak g'oyaviylik ruhida tarbiyalash – ularning ongiga xalq, millat, yurt, jamiyat manfaatlaridan yuqoriroq manfaat bo'lishi mumkin emasligini singdirish, ularni vatanga, xalqqa muhabbat ruhida va sadoqatli qilib tarbiyalash demakdir. Bu sohada mustaqil respublikamiz xalq ta'limi xodimlarining asosiy vazifasi erkin, ijodkor, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega, yetuk mutaxassis, komil shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning barchasi ijtimoiy tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchi (tarbiyachi)lar jamoasi va har bir o'qituvchi – tarbiyachining maqsadi har tomonlama kamol topgan mukammal inson shaxsini tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim. Ana shunda mazkur tamoyil o'z vazifasini bajargan bo'ladi.

**Tarbiyada demokratik va insonparvarlik g'oyalarining ustunligi** – tarbiyada inson shaxsini ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir

bola, o'smir va o'spirinning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy xulqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu – tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. Bu tarbiya ishiga jamoatchilikni jalb qilish, uning rivojlanishiga jamoat omilini kiritish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya obyekti emas, balki o'zi kabi subyekt deb qarashi darkor. Ya'ni o'quvchiga teng huquqli hamkor, hamfikir deb qarash lozim.

Umuman, ta'lim va tarbiyani insonparvarlashtirishning diqqat markazida insonning muhim masalasi va muddaosi, ya'ni bolalarda inson shaxsiga dunyodagi eng yuqori, bebaho boylik sifatidagi munosabatini shakllantirishdek faoliyat yotadi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlar ustunligi** – xalqning ko'p asrlik qadriyatlarini, ulkan va boy merosini chuqur bilmasdan milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. Shu bois, xalq an'analari, urf-odatlar, marosimlari, xalq og'zaki ijodi, milliy o'yinlar va ularda ifodalangan g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish, ularda ushbu g'oyaga nisbatan hurmatni qaror toptirish lozim.

Umumbashariyat uchun qadrli, ardoqli bo'lgan, insoniyat o'tmishi, buguni hamda kelajagi uchun daxldor qadr-qimmatga ega bo'lgan an'analar, urf-odatlar haqida ma'lumotlar berish, ularda mehr-muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularni qo'llab-quvvatlash, ezgu g'oyalari uchun kurashish hissini qaror toptirish tarbiya jarayonida amalga oshirilishi lozim.

**Tarbiyada izchillik va tizimlilik** – tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajasini belgilab beradi. Bunday pedagogik maqsad va vazifalar, ularning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashuvchilari tomonidan tan olinishi shart.

Tarbiyada izchillik juda muhimdir. O'quvchilarga birdaniga ko'p talab va qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. O'qituvchilar o'quv-

chilarga bo'lgan munosabat jarayonida o'zaro bir-biriga zid harakatda bo'lmasliklari, yagona talab qo'yishlari lozim.

**Tarbiyani ijtimoiy hayot bilan qo'shib olib borish.** Mehnatning tarbiyaviy ta'siri g'oyat kattadir. Mehnatda ishtirok etish va unumli mehnat qilish bilan shaxs o'z qobiliyati va iste'dodini namoyon qiladi va kamolga yetadi. Mehnat yosh avlodning tarbiyasi uchun juda katta vositadir. O'quv mehnati va ijtimoiy foydali mehnat o'quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etadi, bu ikki faoliyat birligi bolani faollashtiradi, xulq birligini ta'minlaydi, tashabbuskor va izlanuvchan qiladi. Mehnat bolalarga siyosiy-ma'naviy tarbiya berish uchun zamin hozirlaydi. Shuning uchun oila va maktablarda bolalarni ilk yoshidan boshlab mehnatsevarlik ruhida, mehnatga muhabbat va mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Maktabda o'qishning o'zi ham mehnatdir. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning aksariyati ham mehnat tarbiyasi bilan mustahkam bog'langan.

**Tarbiyalanuvchi shaxsini hurmat qilish** – o'quvchilarni ijtimoiy tarbiyalashning muhim tamoyillaridan biri – ularning shaxsini hurmat qilishdir. Bu tamoyil insonparvarlik munosabatidan kelib chiqadi. O'quvchi shaxsini hurmat qilish, ularga mehr-muhabbat ko'rsatish va ularga ishonish shart. Tajribalarning ko'rsatishicha, qayerdagi o'quvchilarga hurmat, muhabbat, ishonch bo'lsa, shu yerda tarbiyaning ta'siri samarali bo'ladi. Bolalarga hurmat va muhabbat ular kuchiga kuch qo'shadi, o'qituvchiga nisbatan hurmatni uyg'otadi.

**Tarbiyada o'quvchining yosh va alohida xususiyatlarini hisobga olish** – tarbiyaning mazmuni, shakl va metodlari bolalarning yosh va saviyasiga qarab turli sinflarda turlicha bo'ladi. Bolalar maktabda rivojlanishning turli davrlarini – bolalik, o'smirlilik va o'spirinlik bosqichlarini bosib o'tadilar. Shu davrlar ichida bolaning axloqiy turg'unligi rivojlanadi, xulqi va ongi o'rtasidagi uyg'unlik vujudga keladi. Tarbiya berishda har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini ham hisobga olish katta ahamiyatga ega. Bolalarning jismoniy va ma'naviy o'sishida bir qadar umumiylik bor, biroq bolalarning tavsif-xislatlari, qobiliyat va mayllari, qiziqishlari, irodaviy sifatleri har xil bo'ladi. Bu farqlar ularning xulqida, o'qishi va mehnatida aks etadi.

Bir o'quvchiga nisbatan foydali metodni boshqa o'quvchiga nisbatan qo'llaganda natijasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shuning uchun har bir o'quvchining o'zgarishga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

**Jamoada va jamoa yordamida tarbiyalash** – tarbiya jarayoni o'quvchilarning jamoa bo'lib birlashishlari, ularda manfaatdorlik birligi, o'zaro yordam tuyg'usini o'stirishga xizmat qilishi lozim. Tuyg'u tashkil etilgan jamoa a'zolarining qobiliyat va iste'dodini rivojlantirish uchun keng yo'l ochadi. Jamoada bola har tomonlama rivojlanishi uchun keng imkoniyatga ega bo'ladi. O'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushganlaridagina tarbiyaviy ishlarini amalga oshirish ancha yengil va muvaffaqiyatli bo'ladi, har bir shaxsga ta'sir etadi. O'z manfaatini jamiyat manfaati bilan qo'shib olib borish, o'zaro yordam kabi fazilatlar, avvalo, jamoada shakllanadi. O'qituvchi hamma vaqt o'quvchilar jamoasiga tayanmog'i, ularni jamoa bo'lib turli ishlarni bajarishga odatlantirib, jamoada yashash va ishlashga o'rgatib borishi lozim.

Tarbiyada o'quvchi xulqidagi ijobiy sifatlarga tayanib, salbiy xislatlarini yo'qotib borishga e'tibor qaratish lozim. Mahoratli pedagoglar o'z o'quvchilarning shaxsiy fazilatlarini yaxshi biladilar. Tarbiya maqsadini amalga oshirish uchun bola xulqidagi ijobiy sifatlarga suyanib ish ko'radilar. Boladagi ijobiy sifatlarga tayanish, uning salbiy sifatlarini yo'qotish, yomon odatlardan qaytarishning eng yaxshi vositasidir. Tarbiya muvaffaqiyati mazkur masalaning to'g'ri hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga egadir.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Tarbiya deganda nimani tushunasiz?*
- 2. Tarbiya jarayonining asosiy qonuniyatlarini aytib bering.*
- 3. Tarbiya jarayonining tamoyillari deganda nimani tushunasiz?*
- 4. Tarbiya tamoyillari qanday qismlardan tashkil topgan?*
- 5. Tarbiya izchillik va tizimlilik deganda nimani tushunasiz?*



6. *Tarbiya to'g'risida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy nima degan?*
7. *Tarbiya jarayonining tashkiliy tuzilmasini tushuntirib bering.*
8. *Komil inson tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?*
9. *Tarbiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat?*
10. *Zamonaviy tarbiya deganda nima nazarda tutiladi?*
11. *Tarbiya jarayoniga ta'sir etadigan ichki va tashqi omillarni izohlang.*
12. *Tarbiya va ta'limning o'zaro mushtarakligini tushuntirib bering.*
13. *Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?*

### Test savollari

#### 1. Tarbiya jarayonlarini aniqlang.

- A) Yaxlit tizimlik talablari, uzoq muddatli, ko'p qirrali jarayon
- B) Ikki tomonlama aloqa, qisqa muddatli jarayon
- D) Faoliyat jarayoni
- E) To'g'ri javob yo'q

#### 2. Tarbiya nechta xususiyatga ega?

- A) 5 ta
- B) 6 ta
- D) 7 ta
- E) 4 ta

#### 3. Tarbiya jarayonining tarkibiy qismlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Aqliy, axloqiy, jinsiy
- B) Jimoniy, estetik
- D) Mehnat, huquqiy, iqtisodiy va boshqalar
- E) Yuqoridagilarning hammasi

#### 4. Tarbiya qonuniyatlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Aniq maqsadga yo'natirilgan jarayon, ko'p qirrali jarayon, uzoq muddatli jarayon, uzluksiz jarayon, yaxlit tizimli jarayon, ikki tomonlama jarayon.
- B) Texnologik jarayon, dialektik jarayon, dinamik jarayon
- D) Ijtimoiy munosabatlar jarayoni, uzluksiz jarayon
- E) Barcha javoblar to'g'ri

Odamlarning eng yaxshisi odamlarga manfaat keltiradiganidir.

*Hadisi sharifdan*

## 6-MAVZU: O'QUVCHILAR JAMOASI – YAGONA PEDAGOGIK JARAYONNING ASOSIY SHAKLI

### Reja:

1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari.
2. Jamoaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari.
3. O'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlik.

**Mavzuning maqsadi:** o'quvchilar jamoasi, uning turlari va vazifalari, o'quvchilar va yoshlar jamoasining tuzilishi va tarkib topish mexanizmi bosqichlari haqida ilmiy tushuncha berish orqali o'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlikni o'rgatish.

### Mavzuning vazifalari:

- jamoa va uning rivojlanish bosqichlarini yoritish;
- jamoaning pedagogik vazifalari va funksiyalarini belgilash;
- jamoa turlari haqida tushuncha berish va o'quvchilar jamoasiga pedagogik rahbarlikni uyushtirish va boshqalar.


**Tayanch ibora va atamalar:** barkamol shaxs tarbiyasi, barkamol avlod tarbiyasini amalga oshirish bosqichlari, bakalavriyat, magistratura, aspirantura, doktorantura, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlar tayyorlash milliy modeli, jamoa, o'quvchilar jamoasi.

### 6.1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari

«Jamoa» so'zi lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini

anglatadi. Aniqroq aytiladigan bo'lsa, jamoa bu – kishilardan iborat guruh demakdir.

Zamonaviy talqinda «jamo» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlatiladi. **Birinchidan**, jamoa deganda kishilarning istalgan tashkiliy guruhi tushuniladi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, zavod jamoasi, xo'jalik jamoasi va h.k.). **Ikkinchidan**, jamoa deganda yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, tarbiyalanuvchilarning birlashmasi o'ziga xos muhim belgilariga egadir. Quyida jamoa va uning xususiyatlari (belgilar) borasida so'z yuritamiz.



Jamoa va jamoa orqali tarbiyalash tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi ahamiyati to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davrlaridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin har qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, mazkur belgilar jamoani kishilarning yetarli darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoa ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanadi, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy jamiyat maqsadi, intilishini o'zaro birlik, uzviylik, maqsadga muvofiqlik tashkil etadi.

Shu bois, jamoa hayotning bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganligi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Har bir jamoa boshqa bir jamoalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini baholay olish, umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etadi hamda bo'linishiga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'z-o'zini boshqarish organiga ega va umummilliy jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliy jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatidir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga ega.

Jamoa xususiyatini aniqlash kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnatishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi. Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g'amho'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi. Birgalikdagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga hurmat hissining paydo bo'lishiga ko'maklashadi. jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. jamoa a'zolari o'rtasida o'zaro ruhiy yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish), sispatiya yuzaga keladi. Ushbu munosabat, ko'pincha, o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi. Ruhiy va hissiy birlik jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, bir

tomondan. jamoa a'zolari qo'yilgan ishchanlik munosabatlarini ifoda etsa, ikkinchi tomondan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy, psixologik munosabatlarning umumiy tizimi va mikrogruhni tashkil etuvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi. Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rnini uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maktab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga tashlangan o'rinni egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlar (mikrogruhlar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlar bo'lganda jamoa o'zining chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.


Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminida tashkil topgan bo'lmasin. haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi. jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyatli faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlarni o'rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolarining munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'ysinish shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradi.

Jamoa va uni shakllantirish pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Namuna ko'rsatish uni shakllantirish vositasi bo'lib uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalashtirish yaxshi samara beradi. Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi shaxs

ni har tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilish, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim hamda yangi turdagi ta'lim muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi. Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in – sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasi doirasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Bu bilan sinf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi bu – ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarning huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir. O'quvchilar jamoasi pedagog-tarbiyachilar hamda bolalardan iborat. Jamoaning murakkab birlashmasi, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analari ega guruh hisoblanadi.

Demak, yuksak darajada o'stirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat belgilarini namoyon etadi. Ular quyidagilardir (6.1.1-shakl).



6.1.1-shakl. Jamoani tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.

## 6.2. Jamoaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari


Bir so'z bilan aytganda, jamoa bolalarning bir guruhi emas, balki maxsus tashkil etilgan munosabatlar tizimidir.

Jamoa o'z-o'zini boshqarish va tartibga solish organlariga ega

bo'lib, ular barcha bolalarning va jamiyatning manfaatlarini ifodalovchi vakillardir. Jamoa maktab o'quvchilarini umumiy maqsad, umumiy mehnat bilan hamda mehnatni umumiy tarzda tashkil etish bilan birlashtiradi.

Pedagog bolalar hayotini tashkil etishning shunday shaklini topish kerakki, uning yordamida barcha bolalar alohida olingan har bir shaxsga bir vaqtning o'zida va bir xilda kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan bo'lsin. Tashkil etilgan va muayyan an'analarga ega bo'lgan jamoa pedagogning tashkil etilgan jamoa fikri yordamida barcha bolalarga va alohida olingan har bir bolaga ta'sir o'tkazishga imkon beribgina qolmasdan, shu bilan birga, tarbiyachi yo'q bo'lgan vaqtda ham katta o'quvchilarning kichik o'quvchilarni to'g'ri tarbiyalashiga imkon beradi. Bolalar jamoasi metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilsa, katta tarbiyaviy kuch bo'lib qoladi.

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga kelishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichida dastlab pedagog butun bir guruhga talab qo'yadi. so'ngra jamoa faollari (aktiv) jamoa a'zolariga talab qo'yadi, butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishni talab qiladi va nihoyat, shaxs o'z-o'ziga talab qo'yadi. Ushbu jarayonni sxema tarzida quyidagicha bayon etish mumkin (6.2.1-shakl).



6.2.1-shakl. Jamoaning shakllanish tamoyillari.

Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq va jamoa rivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashqi ko'rsatkich sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyat mazmuni, jamoa a'zolarining jamoa oldidagi javobgarligi, ijodiy hamkorligi a'zolarining xulq-atvor, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi.

Jamoani shakllantirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoaning bosqichlari chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtai nazardan jamoaning shakllanish bosqichlariga ajratish juda muhimdir.

**Bolalar jamoasi rivojlanishning birinchi bosqichi.** Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki tashkil etuvchi birlik (sinf, guruh)-dir. Tarbiyalanuvchilar talablarning qo'yilishiga e'tiborsiz qaraydilar. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatini tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqali jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishtirok etishi tufayli asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birgalikda muhokama qilish, qilinadigan ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilardan jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqishning paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil etish borasidagi tajribalarga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolarini oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat'iyligi, izchilligi, murosasizligi va jamoaning barcha a'zolariga talabni birday qo'ya olishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchining «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashdan intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsa-da, guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faollarining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Jamoa faoli (aktivi) muayyan guruhning shunday a'zolaridandirki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qiladilar va pedagog faoliyati hamda talablariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'ladilar. Faollar pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.



**Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi.** Ushbu bosqich jamoa faollarining pedagog talablarini qo'llab-quvvatlashi hamda o'z navbatida uning o'zi bu talablarni jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Endilikda pedagogik jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq bo'lgan muammo, masalalarni yolg'iz o'zlari hal qilmaydilar. Jamoa faollari bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali bu ishga ularni jalb etadi. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'z-o'zini boshqarishga o'tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatining doimiy ravishda murakkablashib borishi mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinchi bosqichda jamoaning muhim ishlarini o'quvchilar tomonidan mutasil rejalashtirishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarni muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari)ning paydo bo'lishi, ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari orasida hurmat qozona olishi, namuna bo'lishi, o'z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelarini suiiste'mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S.Makarenkoning jamoa faoliga nisbatan «Jamoa vijdoni» deya bergan ta'rifini eslab o'tish joizdir. Jamoa faollari birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Jamoaning rivojlanishi bu bosqichda to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismi xolos. Bordinyu jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faollari guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavfi tug'ilishi mumkin. Mazkur bosqichda jamoa moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini to'plab, mustahkamlanib va boyib borar ekan, shaxsning har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni sekin-asta yaratib beradi.

Bu esa ikkinchi bosqichni – jamoa shaxsni har tomonlama kamolga yetkazishning obyektiv shakli asosida boshlashini taqozo etadi.

Bunda boshlang'ich davr bekor ketmaydi, faqat salbiy jo'shqinlikka emas, balki ijobiy jo'shqinlikka ham ega bo'ladi. Bir tomondan, u qiyinchiliklarga tayyorlanish imkonini beradi, bolada o'z-o'zini anglatish va o'zini idora qilishga intilishni tarbiyalaydi. Ikkinchi tomondan, bu bosqichni amalga oshirish kishini har tomonlama ulg'ayishi uchun zarur bo'lgan amaliy va ma'naviy munosabatlar tizimi vujudga keladi.

**Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi** jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S.Makarenkoning aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs»larga talab qo'ya boshlaydi.

Jamoaga endilikda faqat faollargina emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich, ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishdagi ishini maqsadga muvofiq va izchil olib borgan sharoitda ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin. Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini jamoaning birgalikdagi faoliyati yakuni uning a'zolari tomondan jamoa bo'lib muhokama qilinadi: turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyushtiriladi, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy, g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy, iqtisodiy va boshqa bilimlar targ'ibi tashkil etiladi. Pedagog jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zolarini ijobiy tajribaga qo'shish imkonini beradigan, o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalanadi. Jamoa o'zining har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarni tarkib toptirishga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarining yuzaga kelishining sababi – uning a'zolarini yuksak axloqiy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil qilishda faol ishtirok etishlarining samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu bosqichda faqat jamoa faoliyatini emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablarni qo'ya boshlaydi.

**Jamoa rivojlanishining to'rtinchi bosqichi.** Bu bosqich uchinchi bosqichning bevosita davomi bo'lib, uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zolarining o'ziga muayyan talablar qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalishi (masalan, o'yinda umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi. Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zolarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojiga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'sib o'tadi. Biroq, u ayrim shaxsning yanada rivojlanishida jamoaning tutgan o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldidagi istiqboli, yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi:

Bugungi kunda pedagog olimlar bolalar jamoasi rivojlanishi jarayonini tahlil qilar ekan, uni quyidagi ikki bosqichga bo'ladi:

- jamoani dastlabki jiplashtirish;
- jamoani shakllantirish – uning har bir a'zosini individual rivojlantirishning asosidir.

Jamoa hayotidagi har bir bosqichni ajratib ko'rsatish yuqorida bayon etilgan fikrlarga zid emas, balki shaxsning rivojlanishida jamoaning yetakchi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Rus pedagogi A.S.Makarenko jamoa munosabatlarining ichki jihatlariga katta ahamiyat bergan edi. U jamoada shakllangan quyidagi eng muhim belgilarni ajratib ko'rsatgan edi:

1. Doimiy tetiklik, tarbiyalanuvchilarning faoliyatga tayyorligi;
2. O'z jamoasi qadriyatlarining mohiyatini tushunish, uning uchun g'ururlanish asosida o'z qadr-qiyamatini anglash;
3. Uning a'zolari o'rtasidagi do'stona birlik;
4. Jamoaning har bir a'zosidagi do'stona birlik;
5. Tartibli, ishchan harakatga yo'llovchi faollik;
6. O'z hissiyot va so'zlarini boshqara olish ko'nikmasi.

### 6.3. O'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlik

Jamoaning rivojlanishi – jamoa hayotining qonunidir. Xo'sh, bolalar jamoasining olg'a harakat qilib borishiga nima yordam beradi? Uning rivojlanishiga nima imkon beradi? Bunday kuch istiqboldir. Hayot shuni ko'rsatadiki, kishining kelajakka umid va ishonch bilan intilishi, hayotiy istiqbolini yurtimizning taqdiri bilan bog'lab, mustaqil diyorimizning bugungi jamiyat sharoitida ma'naviy va ma'rifiy qiyofasini yaratishda hissa qo'shgan kishi va jamoa tobora shakllanib, rivojlanib boradi.

Bu intilish va hayotiy istiqbolda kishining ma'naviy va madaniy ehtiyojlarining jami, uning rivojlanganlik darajasi, butun ma'naviy qiyofasi aks etadi. «Istiqbolning eng muhim pedagogik xususiyatlaridan biri shuki, degandi A.S.Makarenko, u oldinga qo'yilgan maqsad sifatida bolani istagan natijaga erishish imkoniyati bilan qiziqtiradi, unda kelajakni barpo etishda qatnashish istagini uyg'otadi. Quvnoq kayfiyat va olg'a intiluvchilikni vujudga keltiradi».

Pedagogik nuqtai nazardan istiqbol deganda, shaxsning bolalar guruhini, umuman jamoani rivojlantirishning ichki ehtiyojlariga javob beruvchi, uning a'zolarini rivojlanish darajasiga, ularning yosh va individual xususiyatlariga hamda jamiyatimiz vazifalariga mos keladigan vazifalar, maqsadlar, ishlari tushuniladi.

Jamoani vujudga keltirish va talaba-yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan tashkil etiladigan istiqbollar ularning hammasi uchun xarakterli bo'lgan ayrim umumiy xususiyatlarga ega bo'ladi:

1. Bevosita bolalarning qiziqishiga hamda vazifani bajarish uchun birgalikda jamoa bo'lib kurash olib borishning quvonchli manzarasiga asoslangan ishlarning maroqli bo'lishi;

2. Ishlarning ijtimoiy foydali qiymati va ularning butun xalqimiz olib borayotgan kurash bilan bog'liqligi;

3. Istiqbol uchun kurashning borishini aniq tashkil etish;

4. Talaba-yoshlarda konkret axloqiy sifatlarni tarbiyalashda pedagogik maqsadga muvofiqlik.

Har xil istiqbollarni tashkil etishdagi asosiy metodik usul bolalarni birorta istiqbolga erishish uchun kurashga tayyorlashdan iboratdir. Bu tayyorgarlikka ish rejaları, loyihalar va boshqalarni muhokama qilish kiradi. Soʻngra istiqbol sari harakat qilishga yordam beradigan amaliy ish bajarilishi lozim. Bu ish jamoani tashkil etish va jipslashtirish jarayonidagi eng muhim bosqichlaridan biridir. Shunga erishish kerakki, barcha yoshlar umumiy faoliyatda ishtirok etsin va bu ishtirok etish faol, ijobiy xarakterga ega boʻlsin.

Topshiriqlarni jamoaning barcha aʼzolari oʻrtasida toʻgʻri taqsimlash bolalarni qiziqarli ishlarni bajarishga jalb qilishning asosiy yoʻlidir. Bolalarning aql-idroki emas, balki ularning xis-tuygʻulariga ham taʼsir koʻrsatish uchun har qanday ish aniq tashkil etilishi, chiroyli jihozlanishi kerak. Ayniqsa, bayramlarni chiroyli va tantanali qilib tashkil etmoq kerak. Bu bayramlarda ota-onalar va mehmonlar ishtirok etsa, bayram davomida bolalar mukofotlansa, muşobaqa yakunlari eʼlon qilinsa, yaxshi boʻladi. Bolalarning tayyorgarlikda jamoa maqsadiga erishish jarayoniga jalb qilishning tarbiyaviy ahamiyati shu jihatdan kattaki, bu yoʻl bilan bolalarni maqsadga qaratilgan jamoa axloqiy xulq-atvorini egallashga mashq qildirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Jamoa hayotining meʼyori umumiy maqsadga intilishga va qiziqarli ishlar bilan shugʻullanishga emas, balki jamoada bolalar oʻrtasidagi munosabatlar usuliga, ularning tevarak-atrofdagi vaziyatga boʻlgan munosabatlariga, jamoadan tashqaridagi aloqalariga ham bogʻliqdir. Har bir talaba-yoshda oʻz jamoasi uchun faxrlanish tuygʻusini, shaxsiy qadr-qimmat hissini tarbiyalash zarur. Mazkur usul va uslublar jamoani shakllantirishga asosiy yoʻl va vosita sifatida asos boʻladi.

Jamoani shakllantirishda jamoa aʼzolari va ularning faoliyatlariga qoʻyiladigan yagona talablar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yagona talab bolalarning dars jarayonidagi tanaffus, jamoat joylari hamda uydagi xulq-atvor qoidalarini oʻz ichiga oladi. Puxta oʻylab qoʻyilgan talablar tizimining muntazam amalga oshirilishi oʻquv muassasasida muayyan tartibning oʻrnatilishini taʼminlaydi.

Pedagoglar tomonidan qo'yiladigan talablar quyidagi sharoitlarda ijobiy natija beradi:

1. Qo'yilayotgan talablar ta'lim oluvchi shaxsini hurmat qilish bilan qo'shilishi kerak;

2. Qo'yilayotgan talablar muayyan o'quv muassasasidagi mavjud sharoitni hisobga olgan holda qo'yilishi lozim;

3. Qo'yilayotgan talablar aniq bo'lishi kerak;

4. Talaba-yoshlarning tashqi qiyofasi, kiyinishi, yurish-turishi hamda muomalasiga nisbatan qo'yilayotgan talablar ularda ma'naviy madaniyatni shakllantirishga xizmat qilishi shart.

Xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan talablar bilan tanishtirish mazkur talablar ustida mashq qildirish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Xulq-atvorni tarbiyalash ongni tarbiyalashga qaraganda ancha murakkab ish, o'quvchilar talablar mohiyatini yaxshi anglashi mumkin, biroq aksariyat hollarda rioya qilmaydilar. Shu bois, muntazam ravishda mashq qildirish madaniy xulq-atvorni odatga aylantiradi.

Talablarning qo'yilish jarayonida ularga ta'lim oluvchilarning amal qilish ustidan nazorat o'rnatishi lozim. Nazorat qilib borish turli shakllar yordamida amalga oshiriladi. Nazorat haqqoniy va muntazam bo'lishi kerak. Uning natijalaridan talaba-yoshlarni ogoh etib borish lozim.

• Jamoani uyushtirish va jipslashtirish unda faollarni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Har bir o'qituvchining jamoani shakllantirish borasidagi harakati jamoaning tayanch yadrosini tanlashdan boshlanadi.

Jamoa faollarini shakllantirish jamoaning u yoki bu faoliyatiga nisbatan ehtiyoji mazmunidan kelib chiqadi.

Ishonchli, ishchan faollarni yaratish uchun o'qituvchi talabalar faoliyatini, ularning jamoa ishlaridagi ishtiroki, xulq-atvorini kuzatib borishi har bir talabaning ijtimoiy faoliyatini tashkil etish layoqatini aniqlashi zarur. Jamoa faollarini shakllantirishda talabalarning jamoadagi obro'sini inobatga olish lozim. Jamoa faoli tarkibini bolalarning o'zlari, albatta, pedagog ishtirokida va rahbarligida tanlasa, maqsad-

ga muvofiq bo'ladi. Pedagog jamoa faoli bilan maslahatlashib, olib boradi. Jamoa faollarining har bir a'zosi zimmasiga muayyan vazifa yuklash, ma'lum davrda ana shu vazifalar yuzasidan hisobot berib borishlariga erishish lozim. Pedagog ayni shu faolga oshirilgan talab qo'yadi. Talabalar jamoasida faol rahbarligida o'z-o'zini boshqarish jamoa a'zolaridan ayrimlarining boshqasi ustidan ustun kelishiga olib kelmasligi kerak. Shu bois, pedagog faolni maqsadga muvofiq ish yuritishini nazorat qilib borishi lozim.

**Talabalarning o'z-o'zini boshqarish** – bu pedagoglar tomonidan tashkil qilinadigan jamoa ishini uyushtirish va boshqarishda talabalar-ni faol ishtirok etishidir. O'z-o'zini boshqarishning shakllari orasida jamoa a'zolarining yig'ilishi, konferensiyasi hamda turli komissiyalar faoliyati muhim o'rin tutadi.


• Talabalar jamoasini shakllantirishda an'analar muhim ahamiyat kasb etadi. Jamoa an'analari – bu barqarorlashgan odat bo'lib, ularni jamoa a'zolari birdek qo'llab-quvvatlaydilar. Jamoa an'analari mazmunida munosabatlar xususiyati hamda jamoaning ijtimoiy fikri yorqin ifodalanadi.

Jamoa an'analari shartli ravishda ikkiga bo'linadi:

- 1) Kundalik faoliyat an'analari;
- 2) Bayram an'analari.

Kundalik faoliyat an'analari talabalarning o'quv faoliyati (o'zaro yordam) hamda mehnat faoliyati (ko'chatlar o'tkazish, hasharlar uyushtirish va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Bayram an'analari turli voqea-hodisalar bilan bog'liq sanalarni nishonlash, xususan, «Mustaqillik bayrami», «Navro'z bayrami», «Xotira va qadrlash kuni» va boshqalar kiradi. An'anaviy bayramlar o'quv muassasalarda turlicha o'tkaziladi. Talabalar an'analar mohiyatini anglasalar, ularga nisbatan ongli munosabatda bo'lsa, tadbirning ta'sir kuchi yuqori bo'ladi.

An'analarni yuzaga kelishida talaba-yoshlarning unga nisbatan munosabati katta ahamiyatga ega. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi borasida quyidagi andozaning yaratilishi ta'minlanadi (6.3.1-shakl).



6.3.1-shakl. Shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlar.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan quyidagi xulosaga kelish mumkin:

1. Jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgilar)ni namoyon etadi.

2. Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'ysinadigan, uzoq muddatli, murakkab dinamik jarayon bo'lib, ko'pchilik pedagoglarning e'tirof etishlaricha, to'rt bosqichli jarayonda qaror topadi.

3. Jamoani shakllantirish o'ziga xos metodika asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika doirasida jamoaga nisbatan talablarning qo'yilishi jamoa faoli (aktivi)ni tarbiyalash masalasi alohida ahamiyatga egadir.

Jamoaning mustahkam bo'lishi a'zolari o'rtasida o'zaro yordam, hamkorlikning qaror topishida jamoa an'analarini muhim ahamiyat kasb etadi.



## Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. «Jamo» soʻzining maʼnosini tushuntiring.
2. «Jamo orqali turbiyalash» deganda nimani tushunasiz?
3. Jamoaning tuzilishi necha qismdan iborat boʻladi?
4. Jamoani tashkil etishning oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
5. «Jamoaning rivojlanish bosqichi» deganda nimani tushunasiz?
6. «Oʻquvchilar jamoasi» tushunchasini izohlab bering.
7. Jamoaning shakllanish tamoyillarini jadvalda koʻrsating.
8. Jamoaning rivojlanish bosqichi necha qismdan iborat boʻladi?
9. Jamoani tashkil etishning maʼnosini tushuntiring.
10. Istiqbol deganda nimani tushunasiz?
11. Jamoaning faoliyatiga qoʻyiladigan talablarga nimalar kiradi?
12. «Jamo anʼanalari» deganda nimani tushunasiz?
13. Shaxs va jamoa oʻrtasidagi munosabatni izohlang.
14. Shaxs va jamoa oʻrtasidagi munosabatlar shaklini chizmada koʻrsating.

## Test savollari

1. **Jamo anʼanalari 2 ta boʻladi. Bular qaysilar?**  
A) Kundalik faoliyat      B) Qonunda belgilangan bayramlar  
D) Qadimiy bayramlar      E) A va B javoblar toʻgʻri
2. **Jamo soʻzining maʼnosi nima?**  
A) Omma, yigʻilma      B) Xalq, yigʻim  
D) Omma, xalq      E) Jamiyat, birlashma
3. **Jamoadi tarbiyalash va jamoa munosabatlariga katta eʼtibor qaratgan olim.**  
A) Makarenko      B) Ushinskiy  
D) Suxomlinskiy      E) Vigotskiy

Nafing agar xalqqa beshak durur,  
Bilki, bu naf o'zunga ko'prakturur.

*Alisher Navoiy*

## 7-MAVZU: TARBİYANING UMUMIY METODLARI

### **Reja:**

1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Ularning maqsadi, mazmuni va tasnifi.
2. Tarbiyada ibrat-numana ko'rsatishning tutgan o'rni.
3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

### **Mavzuning maqsadi:**

Tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining maqsadi va vazifalari, tamoyillari hamda xususiyatlari, tarbiya metodlarining turlari va shakllari haqida ilmiy tushuncha berish orqali o'quvchi-yoshlarda jamoaga uyushish va shakllanganlik darajasini belgilash.

### **Mavzuning vazifalari:**

- tarbiya metodlari va ularning maqsad-vazifalari hamda turlari haqida tushunchalar berish;
- tarbiya metodlarini qo'llashda o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligini aniqlash;
- tarbiya metodlarining shaxsni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash va boshqalar.

**Tayanch ibora va atamalar:** tarbiya metodlari, tarbiya metodlarining turlari, ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar, odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari, tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari.

## 7.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Ularning maqsadi, mazmuni va tasnifi

**Tarbiya metodlari** – pedagog-o‘qituvchilarning o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish usullari, vositalari, tarbiyalanuvchilarga barkamol shaxs xislatlarini singdirish maqsadida tarbiya jarayonini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etish yo‘llaridir.

Tarbiya metodlari bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish maqsadi bilan belgilanadi va tarbiya jarayoniga taalluqli ko‘pgina tarbiyaviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Tarbiya metodlari ijtimoiy jamiyat tomonidan ta’lim muassalari oldiga har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi bo‘lgan shaxsni tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi.


Tarbiya metodlari bu o‘qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g‘oyaviy va ma’naviy e’tiqodlarini, ma’naviy his-tuyg‘u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish yo‘llari demakdir.

Metodlar tarbiyaning maqsad va mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Tarbiya metodlari barkamol shaxs fazilatlarini tarkib toptirishga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyalanuvchilarning rivojlanganlik darajasini hisobga olish tarbiya metodlaridan samarali foydalanishning muhim shartlari hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan tarbiya jarayonini olib borganda turli xil usul va metodlarni qo‘llaydi. Tarbiya metodlarining xilma-xilligi ularni turlarga ajratish, tasnif qilish zarurligini ko‘rsatadi. Shuning uchun ularning alohida xususiyatlarini hisobga olib guruhlariga ajratish mumkin (7.1.1-shakl).

Tarbiyaviy natijalarga erishishni istagan har bir o‘qituvchi (tarbiyachi) tarbiya metodlari va ularning mohiyatini puxta o‘zlashtirib olishi maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh metodlarining vazifasi o‘quvchining ijtimoiy ongiga hayot, axloq, mehnat qilish munosabatlari qoida va me‘yorlari haqida tushuncha hosil qilish va bilim berishdan iborat. Tarbiya jarayonida ushbu qoida va me‘yorlar shaxsning e’tiqodi, ishonchi va hayotiy qarashlariga aylanadi.




Ikkinchi guruh metodlari yordamida o'quvchida ma'naviy mazmunga oid odatlar hosil qilinadi. O'quvchi xulqida ijtimoiy tarbiyaning mazmuniga muvofiq ma'naviy odatlar asosida, faoliyat zaminida tarkib topadi.

Faoliyat o'quvchilarning ijtimoiy munosabat va ijtimoiy xulq-atvor tajribasi bilan boyituvchi muhim manba bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi guruh metodlari orasida pedagogik talab metodi ahamiyatlidir. Pedagogik talab turli vazifalarning bajarilishi, ya'ni ijtimoiy xulq-atvor me'yorini ifodalash, u yoki bu faoliyatda qatnashib, bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifani amalga oshirish, u yoki bu harakatni olib borishga undovchi bo'lishi mumkin.

Talablar bevosita yoki bilvosita qo'yilishi mumkin. Bevosita talablar qat'iy buyruq yoki ko'rsatma, ishchanlik, yo'l-yo'riq beruvchi tavsifdagi ko'rinishda bo'ladi. Bilvosita talablar kechinma, inti-

lish tuyg'usini uyg'otishi ko'zda tutilgan holda maslahat, iltimos, ta'na qilish, faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otish tarzida namoyon bo'ladi. Talablar o'quvchida u yoki bu darajaja ong, asos, maqsad hamda e'tiqod mavjudligini nazarda tutadi. Ayni vaqtda o'qituvchi o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablarning me'yorida bo'lishiga qat'iy ahamiyat berishi lozim. Bevosita va bilvosita talab o'rtasidagi asosiy farq quyidagi chizmada ko'rsatilgan (7.1.2-shakl).

7.1.2-shakl



O'qituvchi tomonidan qo'llanilayotgan talablar bora-bora jamoat talabiga aylanadi. Jamoat talabi ijtimoiy fikr tarzida namoyon bo'ladi. Jamoa (jamoatchilik) fikri o'zida jamoaning muayyan faoliyati, voqea-hodisaga nisbatan beriladigan bahona yoki muhokama natijasini ifodalaydi va faol ta'sir kuchi bo'lib qoladi.

Foydali faoliyat va maxsus tashkil qilinadigan vazifalar jarayonida ijobiy xulq-atvor va xarakterlarga o'rgatib boriladi.

**O'rgatish** – bu ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shakliga aylantirish maqsadida o'quvchilar tomonidan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkil etiladigan amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

Xo'sh, inson ongi va u borliqni, atrof-muhitni anglashi uchun qanday faoliyat darajasiga yetishi kerak?

**Inson ongi** – uning idroki, aql orqali hayotiy va dunyoviy haqiqatni fahmlash asosida ma'naviy istiqbolli faoliyat darajasidir.

Aql kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilishdir.

Uchinchi guruh metodlariga shunday metodlar kiradiki, bular-

da tarbiyalanuvchilardagi ijobiy xulq-atvorni rag'batlantirish, salbiy xislatlarni tuzatish yoki oldini olish, ularning his-tuyg'ulari va maqsadlariga bevosita ta'sir ko'rsatishda foydalaniladi. Ushbu guruhga rag'batlantirish va jazo berish kabi metodlar kiradi.

## 7.2. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni

Ibrat tarbiyasi insonni qadimdan qiziqtirib kelgan. Bu ayniqsa, mashhur yunon mutafakkirlari – Aflotun va Arastuning nomi bilan bog'liq pandnomalaridan keng o'rin olgan. Jumladan, Sharq mamlakatlarida Aflotunning Arastuga, Arastuning Iskandarga nasihati va vasiyatnomalari yaxlit asar sifatida tarqalgan. Arastuning aytishicha, tarbiyachining o'zi tarbiya ko'rgan, insoniy fazilatlarini egallagan bo'lishi darkor. «Shuni bilginki, – deydi Arastu, – ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi odam o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qilolmaydi. Xulqi yaxshi kishi boshqalarni yaramas, va iflos ishlarga boshlay olmaydi. Agar sen o'z o'quvchingni tarbiyalamoqchi bo'lsang, avval o'z ruhingni yaxshilashdan boshla. Mabodo o'zgalar aybini bartaraf etmoqni ixtiyor etsang, bundan oldin o'z nafsingni nuqson va illatlardan tozalashing zarur. Ammo ko'zi ojiz bo'lgan kishi qanday qilib ko'rga yo'l ko'rsata oladi? Xor va tuban kishi boshqalarga obro' va qadr-qimmat ato qila oladimi?»

Bulardan tashqari Sharq mamlakatlarida axloq va ta'lim-tarbiyaga oid «Ro'shnoinoma», «Qobusnoma» Fariddin Attorning «Pandnoma»si, Ubayd Zakoniyning «Sad pand» kabi asarlari keng tarqalgan. Ilk o'rta asrlarda Arastu va uning izdoshlarining risolalari arab tiliga tarjima qilindi va ularning ta'limotlari al-Kindiy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jomiy, Navoiy va boshqa Sharq faylasuflari tomonidan o'rganildi va boyitildi.

Demak, bugungi yoshlarimizning kamoloti va unga mos dunyoqarashi muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib borishida ibrat-namunaning o'rni beqiyosdir. Bu, o'z navbatida, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratuvchilarining ongli a'zolarini tayyorlashni kafolatlaydi.

### 7.3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari

**Rag'batlantirish metodlari** – o'quvchilarning harakatlarini ijobiy baholashni ko'zda tutadi. Rag'batlantirish quvonch, qoniqish, qanoatlanish kechinmalarini paydo qiladi, tetiklik va g'ayrat bag'ishlaydi. o'z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi, ijobiy xatti-harakatlarni rag'batlantiradi, o'z faoliyati va xulqiga mas'uliyatini oshiradi. Rag'batlantirish metodlari xilma-xil bo'lib, ular tarkibiga ma'qullash, ko'ngil ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki va yozma tashakkur bildirish, mukofotlash va boshqalar kiradi.

Rag'batlantirish pedagogik talablarni hisobga olgan holda qo'llanilishi lozim. Har qanday rag'batlantirish o'quvchining jamoa oldidagi chinakam xizmatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Rag'batlantirish vaqtida o'quvchining alohida xususiyatlarini, jamoada tutgan o'rnini hisobga olish va u ketma-ket bo'lmasligi kerak. Haddan oshirib maqtash, jamoaga nisbatan taqqoslash talabchanlikni bo'shashtirib yuborish, bular o'quvchida man-manlik, xudbinlik sifatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Rag'batni tashkil etishda o'quvchining muvaffaqiyati bilan birga uning jamoadagi o'rnini, axloqiy qiyofasi, shuningdek, mehnatga, jamoa topshiriqlariga, jamoaning o'ziga munosabati borasidagi jamoa fikrini inobatga olish ham talab etiladi.

**Jazo berish metodlari** – bu o'quvchilarning xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berishdir. Jazo berish axloq me'yorlariga qarama-qarshi faoliyat va xatti-harakatlarni muhokama etishni ifodalaydi. Jazo berish noma'qul xatti-harakatlarning oldini olish, axloqni tuzatishi, jamoa oldida uyalishi, o'zini gunohkor deb bilish hissini uyg'otishi mumkin. Jamoa tomonidan yoki uni qo'llab-quvvatlashi asosida jazo berish metodlari ham xilma-xil bo'lib, ular jumlasiga tanbeh berish, koyish, uyaltirish, qizartirish, xatti-harakatlarni jamoa o'rtasida muhokama qilish, muayyan faoliyatdan chetlatish va boshqalar kiradi.

Jazo berish ham pedagogik talablarga amal qilish zarur. Berilayotgan jazo maqsadga muvofiq bo'lib, o'quvchilarning aybiga, salbiy xatti-harakatiga qarab berilishi lozim. Jazo berish chog'ida salbiy xatti-harakatning sabablari uning jamoaga yetkazadigan zarari, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Jazo berish o'quvchining manfaatlaridan kelib chiqmasligi yoki uning uchun xizmat qilmasligi lozim. Jazo jamoa tomonidan ham berilishi mumkin. Barcha hollarda ham o'quvchini jismoniy va ruhiy azobga solmasligi, uni tahqirlanmasligi, sha'nini yerga urmasligi, huquqini paymol etmasligi kerak.

Tarbiya metodlari sharoitni, vaqtni, shuningdek, o'zaro bir-biriga ta'sirini hisobga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq tarbiya metodlari, tarbiya vositalari bilan juda yaqin aloqada hatto, bir-biriga singib ketgan bo'lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Tarbiya vositalariga tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil qilingan faoliyat turiga kiradi.

O'yin, o'quv mehnati, sport va boshqa faoliyat turlari shunday vositalar hisoblanadi. Bundan tashqari tarbiya jarayonida turli predmetlar, moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari, axborot hamda texnik vositalardan ham tarbiya vositasi sifatida foydalaniladi. Chunki, ko'rgazmali-o'quv qurollari, badiiy-ilmiy adabiyotlar, san'at asarlari, radio, televideniye, kompyuter, magnitofon, slayd, shuningdek, kishilar ham tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tarbiya vositalaridan foydalanish doimo unga muvofiq keluvchi tarbiya metodlaridan foydalanishni taqozo etadi, chunki ular yordamida ong, his-tuyg'u, xulq-atvor tarkib toptiriladi. O'quvchining turli ko'rinishdagi faoliyati uyushtiriladi.

Bugungi kunda tarbiya jarayonida axborot va texnika vositalaridan foydalanishga alohida diqqat-e'tibor qaratilmoqda. Ulardan maqsadga muvofiq va samarali foydalanish o'quvchilarning ma'naviy kamol topishiga olib keladi.

Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodlar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular ijtimoiy jamiyat tomonidan ta'lim muassasalari oldiga qo'yilgan yosh avlodni, har tomonlama barkamol, erkin, ijodkor, mustaqil fikr egasi etib tarbiyalash vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya metodlari o'zaro o'hshash jihatlari ko'ra uch guruhga bo'linadi. Tarbiya jarayonida qo'llaniladigan tarbiya vositalari metodlar ahamiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.



## Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. *Tarbiya metodlari deganda nimani tushunasiz?*
2. *Tarbiyaning qanday metodlari bor?*
3. *Rag'batlantirish metodi nima va uning qanday turlari mavjud?*
4. *Jazolash metodi va uning turlarini tushuntirib bering.*
5. *Tarbiya jarayonida metodlar nima uchun qo'llaniladi?*

## Test savollari

1. **Tarbiyaning usullarini ayting.**
  - A) Maslahat, ko'rgazmalilik, tushuntirish
  - B) So'z orqali ifodalash, rag'batlantirish, ko'rgazmalilik, amaliy namuna
  - D) Jazo, rag'batlantirish
  - E) Mas'uliyat, ko'rgazmalilik
2. **Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad nima?**
  - A) Ma'muriy ehtiyoj va qiziqtirish
  - B) Insoniy fazilatlarini tarkib toptirish
  - D) Har tomonlama ma'naviy rivojlanganlik, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirish
  - E) A va B javoblar to'g'ri
3. **Xalq pedagogikasida qanday tarbiya usullari mavjud?**
  - A) Tushuntirish, odob-axloq, tarbiya
  - B) Tushuntirish, namuna, nasihat
  - D) Qoralash, urishish, jazo
  - E) To'g'ri javob yo'q
4. **Tarbiyani demokratizatsiya qilish bu ...**
  - A) Tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish
  - B) Tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ishonch
  - D) Bolalar bilan o'zaro aloqada bo'lish
  - E) O'quvchilar bilan o'qituvchilar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatish

**5. Jazoning turlari?**

- A) Tushuntirish, tanbeh berish
- B) Uyaltirish, urishish
- D) Ogohlantirish, tushuntirish
- E) Hamma javob to'g'ri

**6. Jazo nima?**

- A) Bolalarga tanbeh berish
- B) Bolalarni noto'g'ri qilgan ishi uchun izza qilish
- D) Ogohlantirish
- E) Bolalarning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish

**7. Maktabda bolalarni rag'batlantirishning nechta turi qo'llaniladi?**

- A) 5 ta
- B) 8 ta
- D) 9 ta
- E) 7 ta

**8. Tarbiya metodlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?**

- A) Rag'batlantirish va jazo
- B) Ogohlantirish, tanbeh berish, uyaltirish,
- D) So'z orqali ifodalash, ko'rgazmalilik, amaliy namuna, rag'batlantirish va jazo
- E) O'rgatish, ogohlantirish, o'qitish

Faqat bir ezgulik bor – bu bilim va faqat bir yomonlik bor – jaholat.

*Suqrot*

## 8-MAVZU. TALABA-YOSHLARNI MILLIY MAFKURA RUHIDA TARBİYALASH

### **Reja:**

1. G'oya va mafkura tushunchalari
2. Milliy istiqloq mafkurasining mazmun-mohiyati
3. Milliy mafkuramizning bosh va asosiy g'oyalari
4. G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini
5. Barkamol avlod tarbiyasi va uni talabalar ongiga singdirishning zamonaviy axborot texnologiyalari
6. Milliy istiqloq g'oyasini o'rganish va targ'ibot qilish barchan-ing ishi
7. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fanini o'tish haqida uslubiy tavsiyalar

### **Mavzuning maqsadi:**

Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasini tarbiyalashning nazariy, ilmiy asoslari va metodlari haqida nazariy bilimlarni berish hamda ularda bu g'oyalarni tashviqot-targ'ibot qilish malakalarini shakllantirish.

### **Mavzuning vazifalari:**

1. G'oya va mafkura tushunchalari haqida ilmiy tasavvur paydo qilish.
2. Ularning mazmun-mohiyatini ochib berish.
3. G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi o'rnini ko'rsatish.
4. Milliy istiqloq g'oyasi va mafkurasining amaliyotga tadbiiq etish malakalarini shakllantirish.

**Tayanch ibora va atamalar:** g'oya, mafkura, milliy mafkura, milliy mafkuraning mazmun-mohiyati, milliy mafkura g'oyalari, bunyodkor g'oya, milliy g'oya targ'iboti, milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalari, vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik.

## 8.1. G'oya va mafkura tushunchalari

Insoniyat tarixi – g'oyalar tarixi. G'oya – inson tafakkurining mahsuli. Milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyidir.

**Mafkura** – muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.

Har qanday tushuncha fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki shaxsiy fikr o'ziga xos bir qarashdir, ijtimoiy fikr esa, voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa butun bir davrni tarixga aylantiradi.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch: bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi.

Tafakkurning mahsuli sifatida g'oya tevarak olamni o'rganish, bilish jarayonida vujudga keladi. Mazmun va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin. Masalan, diniy g'oyalar, ilmiy g'oyalar, falsafiy g'oyalar, ijtimoiy-siyosiy g'oyalar, milliy g'oyalar, umuminsoniy g'oyalar va boshqalar.

Yuqorida qayd qilingan g'oyalarning har birini pedagogik nuqtai nazardan asoslash mumkin. Ya'ni, mazkur g'oyalarning har biri inson, tabiat va jamiyatning o'zaro uyg'unligini munosabatlar, hamkorliklar va tarbiyaviy ishlarning o'zaro bog'liqligida amalga oshiradi va namoyon bo'ladi.

Misol tariqasida ilmiy, g'oyalar – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo'ladigan turli fan

sohalarining asosiy tamoyillari, ustuvor qoidalarini tashkil qiladigan ilmiy fikrlar deb ta'riflanadi.

Ta'rifning mohiyatiga chuqurroq e'tibor bersangiz, pedagogik qoida-qonunlarning barcha talablari shu yerda mujassam ekanligini anglaysiz. Bu esa fan taraqqiyoti uzluksiz va cheksiz ekanligini, ta'limiy, tarbiyaviy ishlar esa bu taraqqiyotni harakatga keltiruvchi bosh omil ekanligini dalillaydi.

## 8.2. Milliy istiqlol mafkurasining mazmun-mohiyati

Milliy istiqlol mafkurasida o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan taqqoslaydigan asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.

Milliy mafkuraning asosiy mohiyati xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diniga mos g'oyalar asosida odamlar ongiga kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini singdirishdan iboratdir. Milliy mafkura avvalambor, o'zligimizni, muqaddas an'analirimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'kidlashicha, «O'zbekiston islohotini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayinishi kerak. Tarbiyaviy axloqiy masalalarda, ma'naviy hayotda kerak bo'lsa milliy manfaatlarimizga mos keladigan siyosatni izchil olib borishda o'z yo'limizni yo'qotmasligimiz uchun g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz darkor».

Milliy mafkura **birinchidan**, o'zligimizni, muqaddas an'analirimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.

**Ikkinchidan**, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hilma xil fikrlar va g'oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifa va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning e'tiqodi va dunyoqar-

rashidan qat'i nazar, ularning barchasini yagona milliy hudud atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya-mafkura bo'lishi kerak.

**Uchinchidan**, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o'xshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik; ularni kamsitish kayfiyati va qarashlardan mutlaqo xoli bo'lib, qo'shni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatidagi xalqaro maydonda o'zimizga xos, o'zimizga mos obro' poydevor bo'lishi darkor.

**To'rtinchidan**, milliy g'oya birinchi navbatda o'z avlodlarini vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo'lishi zarur».

**Beshinchidan**, u vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimizning boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oya bo'lishi kerak.

Milliy g'oya nafaqat shaxslarni, balki butun xalqni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi.

Milliy g'oya – sadoqat ruhida tarbiyalash, ular qalbida insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlari-mizga yo'l ochuvchi g'oyadir.

Milliy g'oya xalqning milliy manfaatlaridan kelib chiqadi va uni o'zida ifoda etadi.

«Sodda qilib aytganda, – deydi I.A.Karimov, – jamiyatimizning mafkurasi shu jamiyatning tayanchi bo'lishi, oddiy inson va uning manfaatlarini ifoda etishi, xalqimizning bexatar, tinch-omon, farovon, badavlat turmushga erishish uchun g'ayrat manbayi bo'lishi lozim».

Demak, milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra mustaqillikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy asoslarini mustahkamlar ekan. Milliy istiqlol mafkurasi O'zbekistonni kelajakda buyuk davlatga aylantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ulkan vazifalarni ijro etishda mamlakatimiz xalqla-

ri va millatlarini safarbar etadi, bir soʻz bilan aytganda milliy istiqlol mafkurasi:

– Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratik talablarga asoslanadi;

– xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak maʼnaviyati, anʼana va udumlari, ulugʻ bobokalonlarimizning oʻlmas merosidan oziqlanadi;

– adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik gʻoyalari hamda xalqimizning ishonch va eʼtiqodini aks ettiradi;

– Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini taʼminlashga xizmat qiladi;

– jamiyati aʼzolarini, aholining barcha qatlamlarini Oʻzbekistonning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi;

– millati, tili va dinidan qatʼi nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona Vatanga muhabbat, mustaqillik gʻoyalariga sadoqat va oʻzaro hurmat tuygʻusini qaror toptiradi.

Milliy mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, jamiyatning sogʻlom ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning oʻz muddoalariga erishish uchun maʼnaviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor boʻlib kelgan.

### **8.3. Milliy mafkuramizning bosh gʻoyasi va asosiy gʻoyalari**

Milliy mafkuraning bosh gʻoyasida ozodlik tushunchasining ustuvor va yetakchi oʻrinda turishi Vatan mustaqilligini barcha orzu-ntilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorugʻ kelajagimizning asosi ekanidan dalolat beradi.

Milliy mafkuraning asosiy gʻoyalari xalqimizning mustaqil taraqqiyot yoʻlidagi bosh gʻoyasidan kelib chiqadi va oʻzining maʼnomohiyati, falsafasi, jozibasi bilan uni xalqimizning qalbi va ongiga yanada chuqurroq singdirishga harakat qiladi.

Milliy mafkura oʻzining tub mohiyatiga koʻra Vatanimiz ozodligi va mustaqilligini mustahkamlashni, Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, xalq farovonligini taʼminlashni koʻzda tutadi. Bunday ulugʻvor vazifani bajarish har bir fuqarodan erkin fikrlash, Vatan taqdiri, istiqloli

uchun mas'ullikni his qilishni talab etadi. Erkinlik bo'lmagan joyda mas'uliyatsizlik, loqaydlik vujudga keladi.

**Vatan ravnaqi.** Vatan insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. Vatanning ravnaqi, avvalo uning farzandlariga va ularning ahvoriga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizning o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatini his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'lolmaydi. Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotganini, xalqimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilmiy salohiyati yuksalayotgani vatan ravnaqi asosi bo'ladi.

**Yurt tinchligi** – bebaho ne'mat, ulug' saodatdir. Yurt tinchligi – barqaror taraqqiyot garovidir. O'zbek xalqi tinchlikni yuksak qadrlaydi, uni o'z orzu-intilishlari, maqsad-muddolari ro'yobga chiqishining kafolati deb biladi.

Yurt tinchligi – Vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Birovga qaram bo'lgan xalq hech qachon erkin va farovon yashay olmaydi. Shuning uchun mustaqillik va tinchlikni asrash, mamlakatimizni tajovuzkor ko'chlardan himoya qilishga doimo tayyor turishimiz lozim. Yuksak ma'naviyat, siyosiy madaniyat, millatning g'oyaviy va mafkuraviy yetukligi – yurt tinchligini saqlashning muhim omilidir.

**Xalq farovonligi** – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning oliy maqsadi – xalqimizga munosib turmush sharoiti yaratishdan iborat. Ya'ni, islohot inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak. Jamiyatimizda har qanday yangilanish, har qanday o'zgarish mohiyatida ana shu ezgu maqsad mujassamdır. Milliy istiqlol mafkurasi mohiyat-e'tibori bilan fuqarolarimizda «har qanday inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi», degan tushunchani tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim.



Milliy g'oyaning eng oliy maqsadi, vazifalari o'z xususiyatlariga ega. Uning oliy maqsadi – yurtimizda obod va ozod Vatan, erkin va farovon hayot, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida xalqimizni jipslashtirish, kishilar ongida mustaqil dunyoqarash va ogohlik hissini kamol toptirish, komil insonni voyaga yetkazish, fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lib qolaveradi.

**Komil inson.** Erkin fuqarolik jamiyatini ma'naviy barkamol, ezgu g'oyalari, hayotiy e'tiqodi bo'lgan insonlargina bunyod eta oladi. Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali barkamol insonlarni voyaga yetkazishga e'tibor qaratilmoqda.

**Millatlararo totuvlik.** Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Millatlararo totuvlik g'oyasi umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bir jamiyatda yashab yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elat vakillariga mansub kishilarni o'zaro hurmat va hamjihatlik ruhida tarbiyalash – istiqolol mafkurasining asosiy maqsadlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, milliy istiqolol mafkurasida xalqning, jamiyatning o'z oldiga qo'ygan ezgu maqsad-muddaolarini amalga osha borganligi, taraqqiyot tajribalari ortgani sari boyib, takomillashaveradi.

#### **8.4. G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi o'rni**

G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy-pedagogik masaladir. Inson o'z g'oyalarini yaratadi, ulardan kuch-qudrat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuuri-ni, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoyi insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning Shiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari – buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham buyuk ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi, chunki ular yuksak g'oyalar – Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodatligi, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgan, jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi.

Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va teran tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Aflotun, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Mahatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir. Ularning har biri o'z davrida o'zi mansub bo'lgan xalqni birlashtiradigan ulkan g'oyalarni yaratish asnosida tarbiyaga, inson faoliyatini shakllantirishga doir qator pedagogik fikrlarni ham o'rta tashlaganlar. Mazkur g'oyalarga tayanib bunyodkorlik yo'lida, ezgu maqsadga erishish uchun hormay-tolmay mehnat qilganlar va o'zgalarni ham shu yo'lga bag'ishlaganlar.

### **8.5. Barkamol avlod tarbiya g'oyasini talabalar ongiga singdirishning zamonaviy axborot texnologiyalari**

Mustaqillik tufayli hozirda O'zbekiston deb atalmish vatanimizning nafaqat Sharqda, balki butun jahonda sivilizatsiya beshiklaridan biri bo'lganligini dunyo tan olmoqda. Bunga misol qilib xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Amur Temur, Mirzo Ulug'bek, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Forobiy, at-Termiziy, Imom Buxoriy kabi yetuk mutafakkir ota-bobolarimizning tavallud sanalarini yoki Buxo-

ro va Xiva shaharlarining 2500 yilligini yoki «Alpomish» dostonining 1000 yilligini, yoki «Avesto» nomli muqaddas kitobning 2700 yilliklarini o'tkazishdagi hamkorliklarini keltirishimiz mumkin.

Ajdodlarimizning ilmiy salohiyati va bunyodkorligi haqida Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirishni lozim topdik: «Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'ru-fayzini, mahobatini yo'qotmagan osori atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimiy tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinalarida saqlanayotgan 20 000 dan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil aytamiz».

Demak, Ona zaminimizda yashab o'tgan ajdodlarimiz ilm-fanni puxta egallab, butun iymon-e'tiqodi bilan bunyodkorlik ishlarining boshida turgan ekanlar. Bu borada nafaqat ulug' allomalar, balki davlat arboblari ham ilm-fan yutuqlariga tayanib, katta bunyodkorlik ishlarini olib borganlar.

Umuman olganda, «Agar fanni ulkan bir daraxt deb tasavvur qilsak, tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko'p hosil beradi». Yurtimizda ilmning baquvvat ildizlari azaldan mavjud bo'lib, bugungi kunda bularga tayanib buyuk bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga cheksiz imkoniyatlar mavjud. Hozirda yoshlarimiz uchun ilm olishga to'liq imkoniyatlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan mamlakatlarda o'z ilmiy salohiyatini oshirib kelmoqdalar yoki Vatanimizda yashayotgan xohlagan yoshlar uchun «INTERNET» orqali dunyoga chiqishning imkoniyati nihoyatda beqiyosdir. Bu borada ularni qo'llab-quvvatlovchi avvalo muhtaram Prezidentimiz bor.

Bu ulugʻ zotning yoshlar tarbiyasidagi shiori: «Farzandlarimiz bizdan koʻra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli boʻlishlari shart!»dir. Shuning bilan birga «Mahalla», «Kamolot», «Sogʻlom avlod uchun», «Nuroni», «Ulugʻbek», «Umid», «Ustoz» jamgʻarmalarining taʼlim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlari, oʻsib kelayotgan avlodni ilmiy salohiyatli, jismonan sogʻlom va maʼnaviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qoʻshayotgan hissalar ham bugun mamlakatimiz umumommasiga maʼlum va mashhurdir.

Hozirdagi mavjud xalqaro hayot jamiyat taraqqiyotining shunday pallasiga koʻtarilganki, bunda taraqqiyotni baquvvat harbiy yoki iqtisodiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, gʻoya, taʼlimot va ular asosidagi ilgʻor texnologiyalar hal etadi.

Hozirdagi zamon ilmi, rivoji darajasi kishilarning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, maʼrifiy, aqliy, axloqiy, kasbiy saviyalari va faoliyatlari yoʻnalishlarida ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Ayniqsa, ilmiy-texnika ravnaqi, xususan axborot texnikalarining kishilik faoliyatining turli jabhalariga jadal surʼatlar bilan kirib borishi bunyodkorlik ishlarini qilishga kuchli turtki boʻlmoqda.

Yoshlarimiz oldiga qoʻyilgan talablarga eʼtibor berilsa va shu ketma-ketlikda taʼlim-tarbiya olib borilsa, muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov orzu qilganidek, «Barkamol avlod – Oʻzbekiston taraqqiyotining poydevori» boʻlishdan ezgu niyatlar amalga oshadi. Bu orzuni amalga oshirishda dastlab «Barkamol avlod orzusini», maqsadni quyidagicha ifodalab oldik: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» – barkamol avlodni tayyorlashning qonuniy davlat ahamiyatiga ega boʻlgan hujjati. Bunda, birinchidan, milliy dasturni toʻliq bajarishga erishish, ikkinchidan, butun xalqni mazkur ishga toʻliq jalb qilish, uchinchidan, umumommaning mazkur ishlarning mazmun-mohiyatiga tushunishiga erishish va nihoyat toʻrtinchidan, har xil fuqaroning belgilangan vazifalar bajarilishiga ishonch hosil qilishiga va bunda ishtirok etish istagini borligiga erishish.

Bizda «Barkamol avlod orzusini»ni amalga oshirishga zarur boʻlgan asoslar mavjud. Ular:

– ajdodlarimiz orzusi;

- orzuga erishish maqsadi;
- orzuga erishish yo'li va vositalari;
- «Taraqqiyotning besh tamoyili»;
- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun;
- «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»: «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (KTMD)ni amalga oshirish bosqichlari, uzluksiz ta'lim tarkibi, uzluksiz ta'lim tizimi, KTMD milliy modeli;
- barkamol avlod tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy ildizlari;
- ta'lim-tarbiyani axborotlashtirishning yangi texnologiyalari;
- o'quv rejalari va dasturlari;
- DTS;
- Mutaxassislik bo'yicha tafsifnoma (kvalifikatsion xarakteristika).

Mazkur asoslarni e'tiborga olib, ilmiy bilishni deduksiya tamoyili asosida «Barkamol shaxs»ni shakllantirishga quyidagicha ifodalab o'tdik. Bunda shaxs tarbiyasini rostdab turish maqsadida muntazam ravishda ilmiy-uslubiy ta'minotiga e'tibor berilib borildi va jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'zgarishlar bo'yicha axborot ta'minotiga e'tibor qaratilishi lozimligi aniqlandi.

Qo'yilgan nuammoning yechimini topishda quyidagi ishlarni amalga oshirishga to'g'ri keldi:

- milliy g'oyaning nazariy-tarixiy asoslari o'rganilib chiqildi va ular Zardushtiylar ta'limoti, uyg'onish davri ta'limoti, jadidchilik harakati namoyondalari ta'limotlari asosida uzluksizlikda (ketma-ketlikda) bitta tizimga keltirildi;

- milliy g'oyaning tarixiy asoslarini e'tiborga olgan holda milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganish uchun «QADRIYATLAR» nomli kompyuterli tizim ishlab chiqildi;

- talabalarimizga bugungi kunda o'qishda va boshqa yo'nalishlardagi faoliyat ko'rsatishga Davlatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar haqidagi ma'lumotlar bir tizimga keltirildi;

- bunyodkor va vayronkor g'oyalar ta'riflari tayyorlandi va ular orasida talabada shakllanadigan burchlar va xislatlar ham yagona tizimga keltirildi;

– vayronkor g'oyalari oqibatlarini tasniflandi (sinflarga ajratildi, klassifikatsiya qilindi);

– yuqoridagi ketma-ketlikdagi ma'lumotlar asosida ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki) tashkil etildi;

– ma'lumotlarni axborotga aylantirish mezonini ishlab chiqildi;

– tayyolangan axborotlarni kompyuterli tizimda ishlatish algoritmi ishlab chiqildi;

– «BUNYODKOR G'OYALAR» nomli kompyuterli tizim tayyorlandi.

Mamlakatimizdagi ta'lim islohotlariga mos g'oyaviy ta'lim-tarbiya ham «Taraqqiyotning o'zbek modeli», «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»lari asosida olib borilmoqda. Shuning bilan birgalikda, bu jarayon Milliy g'oya (MG')ni talabalar qalbi va ongiga singdirishga, ta'lim-tarbiya, targ'ib va tashviqotning samarali ilg'or uslubiyatini, shakllarini, vositalarni ishlab chiqish, ularni hayotda amaliy joriy etishni taqozo etadi.

Bu yerda har bir fanni o'qitish orqali MG'ni talabalar ongiga singdirish yo'llari, usullari va vositalari to'g'risida batafsil to'xtala olmaymiz, faqatgina dastlab ushbu yo'nalishdagi ta'lim-tarbiyani olib borishda ilgari surish mumkin bo'lgan quyidagi bunyodkor g'oyalari kategoriyalarini keltirib o'tamiz:

– **Vatanparvarlik** – yurtga sodiqlik, ona zaminga sadoqat, xalqning ezgu niyat bilan yashashi, ulug' ajdodlarimiz qahramonliklari va olimlar zaxmatkash mehnati mahsulining jahonshumul ahamiyati hamda davlat arboblarning yurt ravnaqi, xalq farovonligi, ma'naviyati, yuksalishidagi buyuk xizmatlari va shu kabilar orqali singdiriladi;

– Milliy iftixor bo'y milliy madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy, harbiy-siyosiy barkamol millatning davomchisi bo'lishdek faxrlanish tuyg'usini shakllantirish orqali singdiriladi;

– **Insonparvarlik** – insonni ulug'lash va sevish ya'ni Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida tasvirlangandek shaxs bo'lishga va hadischi olimlar asarlaridagi komillikka erishish borasidagi tadqiqot natijalari hamda «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli risolada qayd etilgan talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalash jarayonida maqsadga erishiladi;

– **Mehnatsevarlik** – o‘z oilasida, mahallasida, faoliyat ko‘rsatayotgan jamoasida. jamoa topshiriqlarini sidqidildan bajarish jarayonida amalga oshiriladi. ya‘ni Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishda ushbu kategoriya shakllana boradi;

– **Iymon-e‘tiqodlilik** – yuksak ma‘naviy kamolotga erishishga intilish jarayonida shakllanadi;

– **Halollik** – hayotning barcha jabhalarida bunyodkorlik g‘oyasi bilan sug‘orilgan ishlarni amalga oshirishdagi faoliyat orqali erishiladi;

– **Erkinlik** – baxtimiz qomusida belgilab berilgan qonun-qoidalar asosida ish tutib, jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi bo‘lish orqali erishiladi;

– **Ma‘naviy poklik** – odamlarni halollikka, bag‘rikenglikka, mehr-shafqatli bo‘lishga va bu borada o‘zi ibrat-namuna ko‘rsatish orqali erishiladi;

– **Odillik** – atrof-tevarakda yuz berayotgan voqea va hodisalarga xolisona (haqqoniy) yondashish, kishilar haqqidan qo‘rqish, jarayonlar haqida to‘g‘ri fikrni ayta olish qobiliyatlari shakllanishi natijasida erishiladi;

– **Baynalmilatchilik** – millati, elati, xalqi, urf-odatlaridan qat‘i nazar, umuminsoniy qadriyatlarni hamma narsadan ustuvor deb bilish orqali erishiladi;

– **Tashabbuskorlik** – bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirish borasida, oilada, mahallada, jamoada, kishilar o‘rtasida ijobiy ishlar, tadbirlar tashkilotchisi bo‘lish va o‘zi ham ishtirokchisi bo‘lish orqali amalga oshiriladi;

– **Taraqqiyparvarlik** – taraqqiyotning samarali bosqichlari uchun jonbozlik ko‘rsatish, Vatan ravnaqi haqida tinmay qayg‘urish va kishilarni bunday buyuk g‘oyalarni amalga oshirishga jalb qilish orqali amalga oshiriladi;

– **Ijodkorlik** – yangilik uchun kurashish. fan-texnikaning eng so‘nggi yutuqlarini tahlil qila bilish va undan o‘zining faoliyatida oqilona foydalanishga erishish, doimo o‘z ustida ishlash orqali erishiladi;

– **Bilimdonlik** – o‘zi egallagan sohaning ustasi bo‘lish va bunda dunyo bo‘yicha bo‘layotgan ilg‘or bunyodkor g‘oyalarni muntazam ravishda kuzatib borish orqali erishiladi;

– **Onglilik** – o‘zi qilayotgan ishlarga munosabatlari va ularning o‘z faoliyatida ahamiyatini tahlil qilish, mehnatga, ijodga va taraqqiyot yo‘nalishlariga sog‘lom fikr bilan qarash orqali erishiladi;

– **Jismoniy kamolot** – muntazam ravishda o‘z sog‘ligi va atrof-muhitning tozaligini saqlash orqali erishiladi.

MG‘ni talabalar qalbiga va ongiga singdirish SHAKLLARI hozirgi paytda quyidagi yo‘nalishlarda yaxshi natijalar bermoqda:

– yuqorida qayd etilganidek, turli fanlarni o‘qitish orqali;

– fan va ilmiy muassasalar hamda ularda yaratilayotgan darslik, o‘quv qo‘llanma, uslubiy tavsiyanoma va ko‘rsatmalar, ko‘rgazmali vositalar orqali;

– madaniy-ma‘rifiy muassasalarda olib borilayotgan ommaviy tadbirlar orqali;

– adabiyot va san‘at asarlari hamda ularning teatrlashtirilgan ko‘rinishlari, shuningdek, hujjatli filmlar orqali;

– hadis ilmidagi komillikka intilish g‘oyalarining bugungi hayotimizdagi talqini misolida;

– oila, mahalla, mehnat jamoalaridagi faoliyat orqali;

– jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha musobaqalarni (spartakiadalar, universiadalar va hokazolarni) tashkil qilish orqali;

– ommaviy axborot vositalaridagi ko‘rsatuv va eshittirishlar («Hidoyat sari», «Ziyo», «Ma‘naviyat»...) orqali;

– nodavlat tashkilotlarning faoliyat yo‘nalishlari orqali.

MG‘ni talabalar qalbi va ongiga singdirish VOSITALARINI quyidagicha ifodalashni lozim topdik:

– ta‘lim dargohidagi yoshlarni ularning yoshiga qarab MG‘ni singdirish bo‘yicha o‘quv dasturini yaratish;

– MG‘ni teran aks ettiruvchi o‘quv dasturlari, darslik, qo‘llanmalar va ko‘rgazmali qurollar yaratish;

– bugungi taraqqiyotni, oliyjanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san‘at asarlarini yaratish;



– jismoniy tarbiya va sportga oid ommaviy tadbirlarni («Barkamol avlod orzusi» sport o'yinlarini ko'rigi, universiada, spartakiada va shu kabilar) uyushtirish;

– ta'lim-tarbiyaga informatsion texnikalarni (EHM masofaviy ta'lim, Internet kabilarni) qo'llash;

– turli fanlarni o'zlashtirishga qaratilgan ta'lim beruvchi, muloqotli dasturlar, kompyuterli tizimlar, avtomatlashtirilgan tizimlarning MG' bilan sug'orilgan variantlarini tayyorlash;

– ta'lim-tarbiyada jahonning ilg'or tajribalarini o'rganish va joriy etish imkoniyatlarini yaratish;

– MG'ni talabalar qalbiga va ongiga singdirishning ilg'or ta'lim texnologiyalarini yaratish.

MG'ni talabalar qalbi va ongiga singdirish YO'LLARI esa quyidagilardan iborat:

– talabalar ongida MG'ni shakllantirish jarayonini uzluksiz, muntazam ravishda olib borish;

– muntazam ravishda professor-o'qituvchilarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtira borishlariga erishish, bunda ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanish;

– talabalarga ibrat-namuna bo'la oladigan barkamol insonlar va davrimiz qahramonlari bilan uchrashuvlar tashkil qilish;

– talabalarga ibrat-namuna bo'ladigan barkamol insonlar, davrimiz qahramonlari obrazini yaratish orqali milliy g'oyani ilgari surish;

– MG'ga zid g'oyalarning zararli mohiyatini ochib beruvchi adabiyot va san'at asarlarini yaratish;

– hadis ilmiga asoslangan poklik, mehr-oqibatlilik va hokazolar borasidagi ta'lim-tarbiya ko'lamini kengaytirish;

– jismoniy tarbiya va sport orqali inson qalbida g'alabaga ishonch, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy va amaliy darslarda ilmiy asoslangan sodda va samarali keng ko'lamdagi ma'lumotlar berish;

– MG'ni talabalar ongiga singdirishda ilmiy ko'rgazmafilikka e'tibor berish;

– o'quv yurti bilan oila, mahalla va boshqa nufuzli tashkilotlar

o'rtasida MG'ning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va nufuzi borasida anjumanlar uyushtirish;

– MG' maqsad va vazifalari asosidagi bahs, munozara, davra suhbatlari. sahna ko'rinishlari, bellashuvlar tashkil qilish;

– ommaviy axborot vositalari yordamida axborotlar oqimini muntaзам ravishda kuzatib, tahlil qilib borish va kerakli joylarda ularning jamiyatimiz taraqqiyotiga ta'siri haqida chiqishlar qilish;

– MG'ni talabalar ongiga singdirishga ularni MG'ni targ'ib-tashviq qilishga tayyorlashni ham e'tiborga olish;

– MG'ni o'rgananlik mezonini ishlab chiqish va joylarda ularni joriy qilish, yuqori natijalarni qo'lga kiritgan yoshlarimizni «Vatan taraqqiyoti, yurt ozodligi. xalq farovonligi fidoyisi» deb e'lon qilib, rag'batlantirish.

Demak, ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida MG'ning bosh va asosiy g'oyalarini talabalar qalbi va ongiga singdirishning shakllari. vositalari, yo'llaridan keng foydalanish shubhasiz o'zining ijobiy samaralarini beradi va kelajak jamiyat taraqqiyotiga mos bo'lgan MG'ni o'rganish va targ'ib qilishning turli xil ilg'or shakllari, vositalari. usullarini kashf qilishga va hayotga tadbiiq qilishga ilhomlantiradi.

## **8.6. Milliy g'oyani o'rganish va targ'ib qilish barchaning ishi**

Vatanimiz mustaqqilligi bugun bizga ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdek buyuk maqsadni amalga oshirishda qatnashish – vatanparvarlik burchimiz ekanligini va bunday ezgu maqsadga erishishda g'oyaviy tarbiyaning ilg'or samarali vosita va usullarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish har qachongidan ham zarurligini ta'kidlamoqda. Shu sababli ham mazkur ishga milliy mafkura (MM)ni talabalar ongiga singdirish va ularni targ'ib qilishga tayyorlanishning ilmiy asoslarini yoritishni maqsad qilib qo'ydik.

Buni amalga oshirishda esa «Milliy g'oya» nomli o'quv fanini joriy etish ayni muddao bo'ldi. Ta'lim-tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha mutaxassislar, oliy ma'lumotlilar va ziyoli-

lar bugungi kunda kelajagimiz bo'lmish barkamol avlod tarbiyasida, ayniqsa, milliy istiqlol g'oyasi (MG')ni o'rgatishda quyidagilarga alohida e'tibor bermog'i lozim:

- MG'ni targ'ib qilishning ilg'or, zamonaviy uslublaridan foydalanish va ularni yoshlar ongiga ta'sirini nazorat qilish;

- MG'ni targ'ib qilishda tevarak-atrofdan amaliy misollar keltirib, bahs-munozarani suhbat tarzida olib borish va suhbat oxirida ularda shakllangan bilimlarni eshitish, aniqlash hamda baholash;

- o'qituvchi va talaba orasida o'tkazilayotgan mashg'ulot bo'yicha umumiy hamfikrlilikni o'rnatish, ommaviy axborot vositalaridan tarqalayotgan dunyoning muhim voqealari bilan bog'langan holda, iloji bo'lsa Internet tarmog'idan olingan ma'lumotlar asosida ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishda g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik;

- tevarak-atrofimizdagi voqealar asosida talabalarda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning jamiyat taraqqiyotiga salbiy va ijobiy ta'sirlarini singdirish. Bular asosida talabalar ongiga insoniylik xislatlarining shakllanganligini (anketa, savol-javob, insho yozdirish, tanikli olimlar bilan uchrashuvlar o'tkazish va shu kabi tadbirlar asnosida) aniqlash;

- talabalar qalbi va ongiga MG'da aks ettirilgan bosh va asosiy g'oyalarning insonparvar g'oyalar ekanligini ko'rsata bilish va shu asosda mustaqilligimizni avaylab-asrash va mustahkamlash Vatan oldida oliy maqsadimiz hamda burchimiz ekanligini singdirishimiz kerak.

MG'ning asosiy maqsadi, birinchidan, xalqimizni buyuk kelajakka ishonch va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, ikkinchidan, jonajon vatanimizda yashovchi har bir insonni (ularning tili, dini, millatidan qat'i nazar) yagona maqsad, Vatan baxt-saodati yo'lida vijdonan xizmat qilishga yo'naltirish, uchinchidan, boy o'tmish merosimizga, ya'ni ulug' avlod-ajdodlarimizga munosib bo'lish, to'rtinchidan, milliy qadriyatimizni va an'alarimizga munosib bo'lishga erishish va nihoyat, beshinchidan, yuksak fazilatli barkamol avlodni tarbiyalash va ularni bunyodkorlik ishlariga jalb qilish hamda ona-Vatanimizni muqaddas deb bilish tuyg'ularini mustahkamlashdan iboratdir.

Vatanimiz istiqlol mafkurasi xalqimizning asosiy maqsadi va

ezgu-tilaklarini ifodalaydigan, xalqlar tarixini kelajagi bilan bog'laydigan buyuk g'oyaviy qurolimizdir. Shu sababli ham MG'ni otabobolarimizning qanchadan qancha qon to'kislari va boshqa turli mashaqqatli sa'y-harakatlari tufayli qo'lga kiritilganligini yoshlar qalbi va ongiga singdirish, ularni turli reaksiyon oqimlar va guruhlarga qo'shib ketishidan saqlab qolishda barcha fan o'qituvchilari, ishchi va xodimlar, shuningdek, mahalladagi jamoalar ham mas'ul bo'lishlari kerak.

Ular tomonidan «Ma'naviyat burchagi», «Ma'naviyat-ma'rifat xonasi», ko'rgazmalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishga, ko'rsatmalar, uslubiy tavsiyalar va MG'ni o'rganish va undagi turli fanlarni o'rganishda foydalanish haqidagi takliflarni berib borish uchun «Takliflar va mulohazalar» qutichasi tashkil etish, bulardan tashqari turli ommaviy tadbirlar: davra suhbatlari («Men nechun sevaman O'zbekistonni», «Mustaqil O'zbekiston mafkurasi», «Prezidentimiz – faxrimiz», «O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati», «Boy o'tmish merosimizga sodiq bo'laylik», «O'zbekiston – Vatanim manim» va boshqa shu kabilar); bahs-munozaralar («Mustaqillik bizga nima berdi?», «Mustaqillikni mustahkamlashga men qanday hissa qo'shdim?», «Baxtimiz qomusi – bizning himoyachimiz», «Qonun – ham qilich, ham qalqon», «Bugungi yoshlar dunyo bo'ylab ilm olyaptilar», «Biz kecha qanday edik, bugun qandaymiz, ertaga qanday bo'lishimiz kerak?», «Milliy qadriyatlarimizga hurmat bajo keltira olyapmizmi?», «Men mustaqil davlat fuqarosiman, deb kim aytishi kerak va qachon?» kabi mavzularda tadbirlar) o'tkazish samarali natija beradi.

O'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar turli fanlarni o'qitish jarayoni ni MG'ni o'rganishga yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **8.7. «Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o'qitish haqida uslubiy tavsiyalar**

Milliy mafkura yuzasidan mashg'ulotlarni olib borish hamda mafkuraviy tarbiyani amalga oshirishda o'quvchilarning yoshi diniy dunyoqarashi, shaxsiy psixologik xususiyatlarni hisobga olish

lozim. Buning uchun ushbu xususiyatlarining asosiy belgi va sifat-lari haqida tegishli ilmiy ma'lumotlarni bilish talab qilinadi. Masalan, o'quvchilarning yoshi, tafakkuri, idrok va qobiliyatlari darajasiga muvofiq ravishda tabaqalashtirilgan va bosqichma-bosqich ta'lim usullarini tanlash yaxshi samara berishi mumkin. Eng muhimi, mafkuraviy ta'limni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar ushbu mashg'ulotlarda milliy istiqloq g'oyasining hayotbaxsh kuchini, jozibasini chuqur his etib, uning mohiyatini teran darajada ang-lab yetsinlar.

Respublika ta'lim muassasalarida «Milliy istiqloq g'oyasi: aso-siy tushuncha va tamoyillar» fanini o'qitishda ma'naviy yuksalishlar darajasini aniqlash, nazorat qilish mexanizmi nizomi bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Mazkur nizomning ikkinchi bo'lim, 2.1 bandiga muvofiq umu-miy o'rta ta'lim maktablarining 1–4-sinflarida «Odobnoma», 5–6-sinflarida «Vatan tuyg'usi»; 7–9-sinflarida «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanlarini o'zlashtirish asosida mustaqil o'rganish va nazorat qilishning shakl va usullari bo'yicha uslubiy tavsiyalar yaratildi.

O'quvchilarning bu fanlardan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash mexanizmi ishlab chiqildi. Ushbu fanlar bo'yicha mexanizm-da aks etgan dars shakllari, jumladan, «Sayohat», «Harakatli o'yinlar», «Suhbat», «Bahs-munozara», «Davra suhbatlari», «Kichik guruhlar» tashkil etish, bayon, insho yozish, refaratlar tayyorlash hamda trening-mashg'ulotlar o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlandi.

«Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanini o'tishda yangi pedagogik texnologiyalarning ilg'or, ta'sirchan vositalari, inno-vatsion usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular sirasiga asosan quyidagi noan'anaviy dars usullari kiradi:

1. Konferensiya darsi.
2. Seminar darsi.
3. Texnika vositalari yordamida dars o'tish.
4. Badiiy o'qish.
5. O'ylab top («Evrika»).
6. Kasbga bog'lab dars o'tish.

7. Bahs-munozara, suhbat darsi.

8. Yozma ishlar olish.

9. Integratsiya.

10. Ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanish.

«Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani mavzularini «Bahs-munozara» usulida o'tishda quyidagi omillarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- «Aqliy hujum» usuli
- Fikr va g'oyalar to'plami
- Fikr va g'oyalarni guruhlashtirish
- Munozara o'tkazish bo'yicha tadbirlar
- Tahlil

«Bahs-munozara» mashg'ulotini o'tkazish usuli:

1. O'qituvchi bahs-munozara mashg'ulotini o'tkazish uchun mavzu tanlaydi va o'quvchilarni bahs-munozarada faol ishtirok qilishga taklif etadi.

2. O'qituvchi o'quvchilarga mavzuni «aqliy hujum» usulida yechishni vazifa qilib yuklaydi va uni o'tkazish tartibini belgilaydi.

3. O'qituvchi «aqliy hujum» vaqtida o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikr va g'oyalarni yozib borishni bolalardan biriga topshiradi. Bu bosqichda o'qituvchi guruh qatnashchilarining har bir a'zosi o'z fikrini erkin bildirishga sharoit yaratib beradi.

4. O'qituvchi ikkinchi bosqichga o'tishdan oldin qisqa tanaffus e'lon qiladi. Tanaffusdan so'ng mashg'ulotning ikkinchi bosqichi boshlanadi.

5. O'qituvchi o'quvchilarning fikr, g'oyalarini o'tkazish orqali o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsad, vazifalarini amalga oshirib, quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni yanada mustaqamlashga erishadi:

**Birinchi**dan, o'quvchi «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasining ma'no-mazmunini chuqur o'rganadi, bilimi yanada boyiydi, mustaqil dunyoqarashi, tafakkuri rivojlanib boradi;

**Ikkinchi**dan, o'zining fikrini erkin, mustaqil bayon etish ko'nikmasiga ega bo'ladi;

**Uchinchidan.** erkin tafakkur qilishi natijasida faolligi oshadi. Bunyodkorlik ishlariga ilhomlantiruvchi omil, vositalarni bilib o'rganib boradi;

**To'rtinchidan,** yangicha fikrlash, tashabbuskor va shiddatkor bo'lish qobiliyatiga ega bo'ladi;

**Beshinchidan,** qalbida mustahkam e'tiqod, mustaqil dunyoqarash asoslarini shakllantirish, rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mustaqil mutolaa orqali malaka oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- kasbiy mahoratni oshirish;
- metodik mahoratini oshirish;
- pedagogik va psixologik bilimlarni boyitish;
- milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat, ma'rifat masalalarini o'qib-o'zlashtirish, o'quv jarayoniga tatbiq etish.

Mustaqil mutolaa jarayonida o'qituvchi birinchi manbalar, xrestomatiyalar, ma'lumotlar va boshqa adabiyotlar bilan ishlaydi. Birinchi navbatda, Prezidentimiz Islom Karimovning mafkura, ma'naviyat masalalariga bag'ishlangan asarlari, ma'ruza va nutqlarini o'rganadi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *G'oya va mafkura tushunchalarining mazmunini izohlab bering.*
2. *«Milliy mafkura» deganda nimani tushunasiz?*
3. *Milliy mafkuraning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*
4. *Milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalari tushuntirib bering.*
5. *Milliy mafkuraning asosiy g'oyalari nimaga xizmat qiladi?*
6. *«Vatan ravnaqi» deganda nimani tushunasiz?*
7. *Yurt tinchligi nima uchun eng katta boylik hisoblanadi?*
8. *Xalq farovonligi nimaga asoslanadi?*
9. *G'oyaviy bo'shliq nima?*
10. *«Milliy g'oya» deganda nimani tushunasiz?*
11. *Milliy g'oyani singdirish vositalariga nimalar kiradi?*
12. *Milliy g'oyaning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?*

13. «Bunyodkorlik» deganda nimani tushunasiz?  
14. Bunyodkor g'oyalar tushunchasini izohlab bering.  
15. Bunyodkor g'oyalarni singdirish yo'llariga nimalar kiradi?  
16. Bunyodkor g'oyalarni singdirishda axborot texnologiyalari-ning rolini tushuntirib bering.

### Test savollari

1. **Komil inson bu ...**  
A) O'z vataniga halol xizmat qiluvchi kishi  
B) O'z xalqining ideallari uchun kurashuvchi kishi  
D) Ozod shaxs, erkin fikr yurituvchi kishi  
E) Barcha javoblar to'g'ri
2. **Mafkura qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**  
A) Ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam g'oyasi  
B) Maqsad-muddao, manfaatlar yig'indisi  
D) Manfaatlar yig'indisi  
E) Ijtimoiy guruh, qatlam, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojla-ri, maqsad-muddaolari, maqsadlari, orzularini amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimi.
3. **Milliy mafkuraning bosh g'oyasi qaysi qatorda to'g'ri ko'r-satilgan?**  
A) Vatan ravnaqida, millatlararo totuvlikda  
B) Yurt tinchligida, xalq farovonligida  
D) Komil inson tarbiyasida  
E) Barcha javoblarda milliy mafkuraning asosiy g'oyasi to'g'ri ko'rsatilgan
4. **Qaysi bir noan'anaviy dars usullari jarayonlarida «Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani o'rganiladi?**  
A) Konferensiya, seminar darslari  
B) Badiiy o'qish, kasbga bog'lab bahs-munozara darslarida, integratsiyada, konfrensiya, seminar darslarida  
D) Ilmiy ommabop adabiyotlarini o'rganishda  
E) Axborot darslarida



Kimdagi aqldan biron satr bor,  
Umrin bir lahzasin o'tkazmas bekor.

*Umar Xayyom*

## 9-MAVZU: ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA TALABA-YOSHLARNING AQLIY TARBIIYASI

### **Reja:**

1. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida.
2. Talabalarning dunyoqarashini yuksaltirish.
3. Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni.
4. Aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllari.

### **Mavzuning maqsadi:**

Ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda aqliy tarbiyaning rolini belgilash orqali o'quvchi-yoshlarda e'tiqod va ishonch kabi xislatlarni tarbiyalash.

### **Mavzuning vazifalari:**


- ilmiy dunyoqarashning mazmun-mohiyati, uni shakllantirish jarayoni unda aqliy tarbiyaning rolini ko'rsatish;
- aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllarini yoritish;
- yoshlar tarbiyasida ilmiy dunyoqarash va aqliy tarbiyaning rolini belgilash va boshqalar.

**Tayanch ibora va atamalar:** aqliy tarbiya, ilmiy dunyofarash, tafakkur, zamonaviy axborotli texnologiyalar, axborotlar banki, ma'lumotlar bazasi, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishning uzluksizligi, ilmiy dunyoqarashni yuksaltirishning axborotli texnologiyasi referat, kurs ishi, maqola, ilmiy tezis.

## 9.1. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida

Talabalar dunyoqarashini kengaytirish uchun avvalo, ular ongida ilmiy izlanish haqidagi tushunchani paydo qilish lozim.

Ilmiy izlanish ilmiy-tadqiqotning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, yangilikni topishga qaratilgan faoliyatdan iborat.



Talaba-yoshlarga ilmiy izlanish haqida tushuncha berishda ularning intellektual salohiyatli bo'lishini (aqli, ongli, ilmi, biliml, ijodga intiluvchan, fikrlash doirasi kengligi, xulosalash qobiliyati yuksakligi, yangi fikrni qadrlashi, yangilikni ijodiy daraja sifatida seza olishi va h.k.) va ijodiy jasurligini hamda qat'iyat bilan yangilikka intilishi lozimligini keng miqyosda tushuntirish lozim. Bunda ijodkor talaba o'z zamonasining ilg'or g'oyalari bilan qurollangan bo'lishi ham ilmiy izlanish samaradorligini oshirishda muhim asos bo'ladi.

Ilmiy izlanish jarayoni fan oldiga, ilm ahli oldiga, bashariyat oldi-

ga ilmning ijtimoiy maqsadlari sari rivojlantirishga oid maqsad va vazifalarni qo'yadi. Quyida ularning ba'zilarini keltiramiz:

- kishilik jamiyatida hayotni yaxshilash sari intilishdagi olovning va o'z navbatida unga mos gugurtning paydo bo'lishi;

- ish qurollarini takomillashtirishga bo'lgan zarurat orqali metallarga ishlov berish yo'nalishining paydo bo'lishi;

-- ma'lumotlarni saqlash, to'plash va uzatish zarurati tufayli yozuvning paydo bo'lishi, qog'oz, kitob, bosmaxona va shu kabilarning vujudga kelishi;

- energiyaning bir turdan ikkinchi turga aylanishi muammosini hal qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi buyuk o'zgarishlarning yuzaga kelishi;

- atomning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ulardan tinchlik maqsadlarida foydalanish;

- «uchar gilam» – aviatsiya orqali kishilarning uzog'ini tezkorlik bilan yaqin qilinishi;

- «oynai jahon» – televideniyaning kishilik jamiyatidagi turli jabhalarga keng kirib borishi;

- zamonaviy kompyuterlarning paydo bo'lishi orqali tezkor hisoblashlarga bo'lgan talablarning qondirilishi;

- «inson – mashina» tizimining hayotimiz turli jabhalariga keng joriy etilishi va hokazo.

Bugungi kunda kibernetika va mantiq fanlari oldiga «sun'iy tafakkur»ni shakllantirish muammolari qo'yilmoqda.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ishlarini ta'lim-tarbiya jarayonining turli jabhalarida amalga oshirish mumkin. Buning uchun har bir fan rivojlanishidagi ilmiy asarlarni qayd qilib o'tish va ilmiy izlanish jarayoniga talabalarning e'tiborini qaratish yetarli. Bularni talabalarga mustaqil topshiriq berish orqali birinchi kursdan boshlash kerak va ushbu jarayonning **uzluksiz ketma-ketligini** quyidagicha amalga oshirgan ma'qul: talabalarga o'rganiladigan bilim, tushuncha, ko'nikma va malaka yuzasidan ma'lumotlar to'plashni (ma'lumotlar bankini hosil qilishni) va ularni axborotlar ko'rinishiga keltirishni o'rgatish. Bunda kutubxonadagi kartoteka va ular asosi-

da adabiyotlar ro'yxati tuziladi hamda o'rganilgan fanlar bo'yicha bilimlar, tushunchalar, qonunlar, qoidalar, ko'nikma va malaka tizimlari yaratiladi. Talabada undan intellektual salohiyatni kengaytirish, muntazam foydalanish uchun qulay holga keltirish imkoniyati bo'ladi. O'rganilishi kerak bo'lgan adabiyotlarning annotatsiyasi yoki referati haqida ma'lumot berish, buni fan o'qituvchilari o'z fanini o'rgatishning dastlabki bosqichida, ya'ni fanning maqsad va vazifalari hamda predmetlarini bayon qilish paytida amalga oshirsa bo'ladi, yoki bu jarayon ilmiy ijodiyot to'garaklarining bevosita vazifasidir; talabalarga aniq mavzu bo'yicha referat yozishni topshirish orqali ham amalga oshiriladi; ilmiy to'garaklarga ilmiy mavzular orqali qatnashish; talabalarining kurs ish (loyiha)larini tayyorlashga qatnashishi; muayyan fanga oid ilm-fan va texnika-texnologiyalarga bog'liq ilmiy qadriyatlarni yig'ish va ularni bir tizimga keltirish; ilmiy tushunchalar va fikr (g'oya)lar bilan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarga qatnashish uchun ma'ruzalar tayyorlash; ilmiy seminarlarga faol qatnashish; ilmiy qadriyatlarining ijtimoiy-moddiy qadriyatlariga aylanishi monitoringini olib borish; bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda qatnashish va hokazo.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning qayd etilgan uzluksizligida tegishli topshiriqlar berishda o'tiladigan fanlar mazmuniga ko'proq e'tibor berishga to'g'ri keladi, chunki oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ilmiy dunyoqarashi asosan o'qitiladigan fanlar mazmunlari va ularga tegishli ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari asosida shakllanadi.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirish ilm-fan, ta'lim-tarbiya va texnika-texnologiyalarning muntazam rivojlanish natijalari ta'siri ostida ro'y beradi. Bunday jarayonda texnika-texnologiyalar muntazam ravishda takomillashib, rivojlanib bormoqda va natijada shunga mos yetuk mutaxassislar tayyorlash zarurati ham tug' ilmoqda. Bunda talabalar ilmiy dunyoqarashi va uning axborot ta'minotining tadqiqiy va texnikaviy yechimlaridan boshlab olingan natijalarni amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy dunyoqarash dastavval bo'lajak mutaxassis tafakkurida fikr shaklida yuzaga keladi, keyin ular rivojlanib, takomillashib, qarash (konsepsiya), g'oya, ta'limot ko'rinishiga o'tadi va ularga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar boshlanadi. Izlanishlar olib borishda o'rganilayotgan tadqiqot ishigacha bo'lgan ishlanmalar tahliliy o'rganib chiqiladi, ya'ni tahlil va sintez, umumlashtirish, xulosalash, tajribada sinab ko'rish, kuzatishlar o'tkazish, mantiqiy xulosalar chiqarish, ichki farazlarni ifodalab olish kabi ishlarni amalga oshiradi.


Bugungi kundagi ta'lim tizimi zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talab asosida yaratilgan yangi standartlar va dasturlar doirasidagi ta'lim jarayonini eskirgan uslubda olib borishga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli hozirda pedagogik innovatsiyani yaxlit murakkab jarayon sifatida qaralib, uning interaktiv sifatlari, tarbiyaviy qismlari, funksional tavsifi va uzviyligi izchil tadqiq qilinmoqda. Bunda talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning innovatsion ta'lim texnologiyalarini yaratish lozim bo'ladi va buning uchun dastlab ushbu muammo yechimini hal qilish maqsadida ma'lumotlar bazasini tayyorlash kerak. Bular orqali axborotli boshqaruv bloki tuziladi va uning tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- maxsus o'quv-didaktik ta'minot (axborotlar banki, ma'lumotlar bazasi, bilimlar banki);
- multimediali informatsion texnologiyalar.

Talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratuvchi ko'makchi kompyuterli tizimni quyidagicha ifodalash maqsadga muvofiq (9.1.1-shakl).

Ushbu ko'makchi kompyuterli tizimning afzalligi shundaki, bunda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi imkoniyatlar kafolatlanadi:

- fanga oid ilmiy dunyoqarash va ular asosidagi aqliy tarbiyaga oid tushunchalarni umumiy dastur asosida kompyuter vositasida o'rganish imkoniyatining mavjudligi, bo'lajak mutaxassislarning mustaqil ishlashi uchun optimal variantlarni qo'lga kiritish imkonini beradi;



9.1.1-shakl. Ko'makchi kompyuterli tizim ishlashiniing tashkiliy-tuzilmaviy modeli.

**Izoh:**

shakldagi KTMD – kadrlar tayyorlash milliy dasturi; EHM – elektron hisoblash mashinasi; BO' – bo'lajak o'qituvchilar; DTS – Davlat ta'lim standartlari; ID – ilmiy dunyoqarash.

- ko'makchi kompyuterli tizim bilan muntazam shug'ullanish bo'lajak mutaxassislarning ilmiy dunyoqarash va aqliy tarbiyaga oid bilim, ko'nikma, malakalarini kompyuterlarda mustaqil shakllantirishlariga erishishlarini kafolatlaydi va bu o'z navbatida, ular bilan qo'shimcha qiziqarli mashg'ulotlar olib borishga imkoniyat yaratadi.

Ko'makchi kompyuterli tizimdan talabalarga «ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarga aqliy tarbiya berish» bo'yicha bilim berishda bevosita foydalanish mumkin, shuningdek, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi fanlardan ham talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishda foydalanish mumkin. Bu orqali ta'limda innovatsion texnologiyalar va kadrlar tayyorlashning jahon andozalari talablariga javob beradigan variant kafolatlanadi.

## 9.2. Talabalarning dunyoqarashini yuksaltirish

Talabalar dunyoqarashini kengaytirishda, shu jumladan ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda «O'qing, qiziq», «Eng, eng, eng ...» kabi sarlavhalarda haftalik devoriy gazetalar tashkil qilishning o'rni beqiyos bo'lib, ulardagi ma'lumotlar ko'proq kasbiy faoliyat sohasiga tegishli bo'ladi.

«O'qing, qiziq» sarlavhasiga tegishli ma'lumotlarni topishni talabalarining o'ziga yuklash maqsadga muvofiq, chunki talaba bu orqali izlanishga o'rganadi va shu sohadagi ko'nikma va malakalari shakllanib boradi. Albatta, talaba bu sohadagi ishlarini samarali tashkil qilish uchun o'qituvchi ko'rsatma berishi lozim, aks holda talabada bu sohadagi ishtiyoq so'nishi mumkin va ko'rsatma berishda ko'proq «U kim, bu nima» va shunga o'xshash har xil ensiklopediyalar, gazetalarda «O'qing, qiziq» va boshqa qiziqarli xabarlar, «Turfa olam» hamda «Fan va turmush» kabi jurnallarni tavsiya etgan ma'qul. Bunda, albatta, ixtiyoriy ma'lumotlarni to'playverish emas, yuqorida ta'kidlangandek, kasbiy faoliyatga yuksaltirish asosiy diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Dunyoqarashni kengaytirishga intellektual o'yinlar («Zakovat», «Intellektual ring», «O'yla, izla, top!» kabilar)ning o'rni beqiyos.

Umuman olganda barcha darslarda talabalar dunyoqarashini ken-

gaytirish mumkin. Unda faqat o'qituvchidan pedagogik mahorat talab etiladi va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llaridan xabardor bo'lishi zarur. Bularda muammoli ta'limga ko'proq e'tibor berib, zamonaviy pedagogik texnologiyalardagi «Aqliy hujum», «Tahliliy fikr», «Tizimli tahlil» kabi yo'nalishlardan samarali foydalanish zarur.

Tabiiyki, talabalar dunyoqarashini biror uslub yoki metodlarda emas, balki zamonaviy interaktiv usullar, turli o'yinlardan «Zakovat», «Intellektual ring» kabilardan foydalanishsa, foydadan xoli bo'lmaydi.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri barcha fanlarni o'qitishda «Zakovat», «Intellektual ring» kabi o'yinlardan foydalanishsa, talabalar ilmiy dunyoqarashi, salohiyatini oshirish, mutaxassislarni tayyorlash, ularning sifatini mukammallashtirish vazifasi osonlashadi. Talabalar dunyoqarashini shakllantirishni quyidagicha amalga oshirgan ma'qul: **birinchi** kurs talabalari o'rtasida «Zakovat» klubini ochish kerak. Bunda «Zakovat» o'yin turlarini o'tkazish orqali quyidagi natijalarga erishish mumkin. Bunda bo'lajak yosh pedagoglarning o'quv-tarbiyaviy jarayoni turli fanlar bo'yicha bilimlari tekshiriladi, baholashning pedagogik tizimlari ishlab chiqiladi. O'zlashtirgan materiallarini har xil ko'rinishda, turli sharoitda, qay darajada qo'llashlikni, qadriyatlarimizni, turli ko'nikma, malaka, bilimlarini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Pedagogika oliygohi talabalari mashg'ulot jarayonida ham ushbu o'yinlardan foydalanilsa, o'zlashtirish yuqori samara beradi. 1-kursda ushbu ta'lim texnologiyasi talabalar dunyoqarashini kengaytiradi, o'zlashtirish 40 %gacha yaxshilanadi.

**Ikkinchi kurs** talabalarida o'tkazilgan o'yinda mustaqil ishning faol tashkil qilinishiga imkoniyat yaratiladi. Ilmiy dunyoqarashi oshib, kasbiy qobiliyati shakllanadi. O'z ustida mustaqil ishlash faolligi oshadi. O'quv materiallarini ijobiy o'zlashtirishga yordam beradi. Bilim saviyasi 60 %gacha ko'tariladi.

Shu yo'sinda muntazam ravishda olib borilgan «Intellektual ring» o'yinlari yordamida talabalar bilim saviyasini **uchinchi kursda** 80 foizgacha va **to'rtinchi kursda** 100 %gacha ko'tarish mumkin.



Talabalarning «Zakovat» o'yini orqali ilmiy dunyoqarashlari shakllanishlari bilan birga, qalbida ma'naviy hislar tarbiyalanadi. Shuningdek, kelajakda O'zbekistonni yuksak malakali mutaxassislar bilan ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, «Zakovat» o'yini talabalarni kam vaqt ichida yuqori natijalarga ega bo'lishga undaydi.

### 9.3. Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni

Har qanday kishida muhim bir bezak bor, bu insondagi aql va unga mos odob go'zalligidir. Ushbu go'zallik kishiga hayotda o'z o'rnini topishda muhim ma'naviy asos bo'ladi. Quyida ular bilan bog'liq ma'lumotlarni keltiramiz:

**Aql** – kishining o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida ma'naviy-insoniy nuqtai nazardan amal qilish imkonini beruvchi ne'matdir.

**Aql** – inson kamolotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, uning yordamida odam hayotda o'z o'rnini va nufuziga ega bo'ladi. **Aqlning** dalili – fikrdir.

**Aqliy tarbiya** – tabiatan berilgan aqliy kuch, ruhiy holat, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirish natijasida insonda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo'ya olish hamda ko'zlagan maqsadiga yetish qobiliyatini shakllantirish.

**Aqliy tarbiya** shaxs intellektual salohiyatini yuksaltirishning asosiy negizini tashkil etadi. Bu borada xalq ta'limi quyidagi muhim bo'lgan uchta funksiyani bajaradi:

1. Kishilarni zamonaviy ilm-fan asoslari bilan qurollantiradi.

2. Inson shaxsining intellektual salohiyatini taraqqiy ettiradi, uni aqliy, ma'naviy, axloqiy va badiiy jihatdan rivojlantiradi, har tomonlama barkamol inson bo'lib shakllanishiga yordam ko'rsatadi.

3. Mamlakat ish kuchini takror ishlab chiqaradi. Hozirgi zamonada cheklangan, noyob resurslar sharoitida mamlakat xalqining o'sib borayotgan ehtiyojlarini samarali qondira borish muammosini hal etishda ham xalq ta'limi tizimi muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni e'tiborga olib **aqliy tarbiyaning maqsadini** quyidagicha ifodalash mumkin.

Talabalar aqliy tarbiyasidan **asosiy maqsad** inson shaxsining ma'naviy va intellektual salohiyati negizida ularning dunyoqarashini yuksaltirish, e'tiqodini mustahkamlash va ezgulik hamda aqliy go'zallik kabi ko'nikmalarini shaxs sifatiga aylantirishdan iboratdir.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator muammolar yechimlarini belgilab olishga to'g'ri keladi, ya'ni aqliy tarbiya yordamida bajariladigan **vazifalar** aniqlanadi. Ular quyidagilar:

1. Shaxs tarbiyasidagi **iste'dodni yuksaltirishga e'tiborni** qarataish.

2. Shaxs tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanishga erishish.

3. Aqliy tarbiyada intellektual salohiyatga e'tibor berish.

**Aqli odam** egallagan bilimlarga amal qilib qanday faoliyat yuritishni biladi. **Dono odam** nima qilmaslik kerak ekanligini ham biladi. Ya'ni, aqli odam muammoli vaziyatdan oson chiqib ketsa, dono odam bunday holatga umuman tushmaydi.

**Aqli odam** – bu buyuk yaratuvchilikka, olamni obod qilishga, kishilarning mushkulini oson qilishga, jamiyat va davlat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga, odamlar o'rtasidagi insonparvarlikni yuksaltirishga xizmat qilib, o'zini ham inson kamoloti bosqichlariga erishishga surunmay, to'qnashmay borishini ta'minlay oladi va ular bugungi yoshlarimiz tarbiyasida ibrat-namuna bo'ladi.

**Dono odam** – bu aql-zakovatli bo'lishi bilan birga, oqil va donishmand inson.

4. Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishda intellektual mulkka tegishli tushunchalardan foydalanishga e'tiborni qaratish.

Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berish ong, fikr, ilm, tafakkur, idrok qilish kabi tushunchalarning mazmun-mohiyatini bilishni talab qiladi va bular o'z navbatida talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishdagi ma'lumotlar tushunarli hamda ishonchli bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Shu sababli ham bilish haqidagi tushunchalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

Ma'lumki, **fan** – dunyo (tevarak, atrof-muhit) haqidagi obyektiv

**bilimlar** majmuyi. **Bilimlar** esa o'qish, o'rganish va tajriba yoki amaliyot orqali shakllanadi.

Bilim tushunchasi keng qamrovli, shu sababli uning ta'riflarini har xil ko'rinishda uchratish mumkin, ammo ularda ifodalanayotgan mazmun-mohiyat umumiydir. Ulardan ba'zilarini keltiramiz.

«**Bilim** – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilingan ma'lumotlaridir va yana **bilim** obyektiv borliqning inson tafakkurida aks etishidir».

«**Bilim** – ijtimoiy moddiy va ruhiy faoliyatning mahsuli: obyektiv xususiyatlar va olamning tabiiy va insoniy aloqalarning belgili shakldagi ideal ifodalanishi».

«**Bilim** – odamlarning predmetlar va jamiyatni bilish (tasavvur etish, tushunish) mahsuli».

«**Bilim** – tabiat, jamiyat va tafakkurning qonuniyatlari to'g'risidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan yig'indisidir».

Bu ta'rif umumnazariy qoidalar asosida ifodalangan ta'rifdir va uning yordamida ilmiy bilim haqida ham tushuncha hosil qilinadi.

Bilimlarga quyidagi talab qo'yiladi:

1. **Bilimning tushunarligi** – bu sifat ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlar o'rtasidagi aloqasini tushunishlarida, muhim va asosiy bo'lmagan aloqalarini ajrata bilishda, bilim olish usullari va tamoyillarini bilishda aks etadi.

2. **Bilimni tushunish** – bu o'zlashtirish va boshqa ko'rsatkichlarni sintez qiluvchi yakuniy natijalarni ifodalovchi birmuncha umumlashgan sifatdir. U bilimning chuqurliligi, mukammalligi va tizimlanganligiga qarab bir bilimning o'zi turlicha tushunilishi, ifodalanishi va undan foydalanilishi mumkin.

3. **Bilimning mukammalligi** – buni aniqlash uchun tushunchaning barcha belgilari va ularning bir-biri bilan aloqasini ajratish kerak.

4. **Bilimning teranligi** – buning uchun u yoki bu tushunchalar va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarini hamda ulardagi muhim belgilar sonini aniqlash lozim.

5. **Bilimning operativligi (tezkorligi)** – bu o'rganilgan bilimlar o'zgarishi mumkin bo'lgan ko'p variantli vaziyatlarni taqdim etish

bilan va ulardagi qarorlar qabul qilishni o'z vaqtida bajarish bilan aniqlanadi.

6. **Bilimning ixchamliligi** – buni tekshirish topshiriqni hal qilishda bir necha usullarni uyushtirish yoki o'xshash masalalarni hal qilishda bir shaklda bo'lmagan yondashuvlar ichidan masalaga qulay va mosini tanlash orqali amalga oshiriladi.

7. **Bilimning aniqligi va umumiyliigi** – umumlashtirilgan bilimning aniq namoyon bo'lishini ochib berish mahorati, aniq bilimlarni umumlashtirish ostida yakunlash. xususiylkdan umumiylikka (induksiya) o'tkazish qobiliyatini aniqlash bilan tekshiriladi.

8. **Bilimning tizimiyligi** – buni topshiriqlarni tushunchaning ierarxiyasini aniqlashdagi ularning izchilligi, o'zaro bog'liqligi tizimi bilan tekshiriladi.

Demak, bilimlar inson aqliy faoliyatining doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi jarayoni bo'lib, insonni yaratuvchilikka, ijodkorlikka undaydi va natijada ularda ilmiy bilimlar tizimi yaratiladi. Kundalik hayotda «bilish», «bilim» kabi atamalar ko'plab uchrab turadi.

Umuman bilish deganda jarayonning harakatdagi ba'zi holatini, muayyan predmetlardagi qandaydir voqealarni amalga oshirishni, ba'zi jarayonlarning kechishi va boshqa holatlarini tavsiflovchi inson faoliyati mahsuli tushuniladi.

«**Bilish** – ta'lim oluvchi ongida tashqi dunyo aks etishining ma'lum shakliga tegishli ta'lim-tarbiya oluvchining xotirasida saqlanib qoladigan va uning amaliy faoliyatini tartibga solish va tashkil etishga yo'naltirilgan tasavvur va tushunchalar ko'rinishidagi ifodasidir».

Bilish tadqiqot usuli bo'lib, uning yordamida tabiat va jamiyat qonuniyatlari o'rgatiladi. Bu qonuniyatlar bilimning obyektiv reallikka bo'lgan munosabatlari asosida yaratiladi.

Bilish jarayonining bosqichlari, shakllari, usullari, vositalari, ishonchligi, haqqoniylik shartlari va mezonlarini **bilish nazariyasi** tadqiq qiladi.

Demak, bilish jarayoni keng tushuncha bo'lib, u bilish qonunlari va imkoniyatlarini hamda bilimning obyektiv borliqqa munosabat-

larini o'rganishdagi asosiy poydevordir. Shuning bilan birga, bilish jarayoni insoniyatning tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi fikr (g'oya, ta'limot, qarash, qonun, qonuniyat, usul, uslubiyyat va h.k.)larini shakllantirishning mustahkam asosidir.

#### **9.4. Aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllari**

Talaba-yoshlarga aqliy tarbiya berishda ularning axloqiy jihatlari – muhim asoslardan biridir. Shu o'rinda talaba-yoshlarning ongli intizomi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish lozim.

Ijtimoiy jamiyat hayotini tartibli kechishini ta'minlash maqsadida axloqiy hamda huquqiy me'yorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma tomonidan yaratilgan bo'lib, unda muayyan millat (elat, qabilalar yoki etnik guruhlar) kishilarining turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, o'y-fikrlari, dunyoqarashlarini namoyon etuvchi talablar aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma fikri asosida tartibga solinadi.

Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy-huquqiy me'yorlar esa davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli qonun aktlari asosida tartibga solinadi. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilishda ixtiyoriylik tamoyilining ustunligi ko'zga tashlansa, ijtimoiy-huquqiy me'yorlarga amal qilish majburiylik xususiyatiga egadir.

Intizom – ijtimoiy-axloqiy va huquqiy me'yorlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga to'la amal qilish demakdir. Boshqacha talqin etiladigan bo'lsa, intizom – shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlari talablari asosida tashkil etilish ko'rsatkichi sanaladi. Ongli intizom tushunchasi esa shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablari asosida aqliy quvvatga tayangan holda tashkil etilish ko'rsatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi talaba-yoshlar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rnini to'g'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Talaba-yoshlar o'rtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- Ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini talabalar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini qaror toptirish.

- Talabalar tomonidan ijtimoiy burch mohiyatining o'zlashtirilishiga erishish.

- Talabalarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

- Talabalarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etish ko'nikmasini hosil qilish.

- Talabalarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, aqliy va jismoniy mehnat faoliyati o'rtasida o'zaro mutanosiblikning qaror topishiga erishish) ko'nikma va malakalarini hosil qilishga erishish.

- Talabalarda ta'lim muassasasi ichki tartib-qoidalariga bo'ysinish hissini shakllantirish.

- Intizomsizlikning oldini olgan holda intizomsizlikka qarshi kurashishga yo'naltirilgan faoliyatni yo'lga qo'yish va boshqalar.

Ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri – yosh avlodni ongli intizom ruhida tarbiyalashdir.

Ta'lim muassasalarida o'rnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish. ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mo'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom talabalardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli talabalar organlari, uning a'zolari talablarini to'g'ri talqin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

O'quv yurtida qaror topgan ongli intizom talabalar faolligi va tashabbuskorligining o'sishiga yordam beradi. Shuningdek, ongli intizom talabalarining o'qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo'lish, o'quv yurti ichki tartib-intizomiga bo'ysinish, jamoa tomonidan berilgan topshiriqni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-atvor me'yorlariga qat'iy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga o'z ixtiyorlari bilan itoat etish ko'nikmalarining hosil bo'lishiga sharoit yaratadi.

Ta'lim muassasalari talabalarida intizomlilik xislatining hosil

bo'lishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Ongli intizom jamoa yordamida olib borilgan tarbiyaviy ishlarining natijasi bo'lib qolmay. ayni vaqtda, tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Intizom ko'rsatkichi qanchalik yuksak darajaga ko'tarilsa, tarbiya vositasi sifatidagi ta'siri shuncha ortib boradi. Intizomli jamoa o'z a'zolarini ichki tartibga rioya qilishga, muayyan xulq me'yorlariga amal qilishga, talabalar topshiriqlarini bajarishga, o'z tengdoshlariga namuna ko'rsatishga, ijtimoiy burchni anglashga o'rgatadi. Bunday jamoada talaba noto'g'ri harakat qilsa, uning xatosi ko'rsatiladi, natijada talaba tomonidan o'z xatosini anglashi, to'g'rilashga bo'lgan urinish yuzaga keladi. Talaba va jamoa o'rtasida ongli intizomni qaror toptirish ikki tomonlama ta'sir kuchiga egadir. Talaba jamoa doirasida salbiy xususiyatlarini yo'qotish uchun kurashadi, jamoa esa talabadagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etishga o'z ulushini qo'shadi.

Intizom o'quv ishlariga g'oyat katta ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilarning topshiriqlarini, jamoa qarorlarini bajarish, mashg'ulotlarga kechikmasdan yetib kelish hamda sababsiz dars qoldirmaslik, darsda tartib saqlash kabi holatlar ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini, shuningdek, talabalarning chuqur bilim olishlari uchun imkon yaratadi. Shunday ekan, qaysiki o'quv yurtida o'qituvchi va talabalar jamoasi intizom qoidalariga qattiq rioya qilsa, o'sha o'quv yurtida o'zlashtirish yuqori darajada bo'ladi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuksak natijalar qo'lga kiritiladi.

Talabalarning ongli intizomini qaror toptirishda kundalik hayotiy rejim hamda unga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Qat'iy dars jadvali, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va ularni o'tkazish, kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish talabaning shaxsiy hayotini muayyan tartibga solishga xizmat qiladi.

Talabalarning kundalik hayotiy rejimini ishlab chiqishda maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari muayyan o'rin egallashi lozim. Oliy ta'lim muassasalaridagi tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirayotganda auditoriyadan tashqari ta'lim muassasalari tadbirlar

rejasini, darsdan tashqari mashg'ulotlarda esa oliy o'quv yurtlarining tadbirlar rejasi mazmunini inobatga olishi lozim. Shuningdek, ular o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Talabalarning kundalik rejimini o'z tashabbuslari bilan tuzish va bajarishga o'rgatish muhimdir. U o'zining kundalik rejimini oliy ta'lim muassasasi va undan tashqari muassasalar ish rejasi bilan muvofiqlashtirishga erishishi maqsadga muvofiqdir. Kundalik rejimni tuzish, unga rioya qilish, faoliyat talablariga amal qilish kabilarga ajratiladigan vaqtni belgilashda, ota-onalar, jamoatchilik tashkilotlari va o'qituvchilar ularga yordamlashishlari yaxshi natija beradi.

Kundalik rejimga amal qilish faqat organizmning fiziologik quvvatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning intellektual salohiyatini yuksaltirishni yuzaga keltiradi va intizom talablariga ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Ongli intizom tuyg'usini talabalarda shakllantirish quyidagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

- maqsadga muvofiq talablarning qo'yilishi hamda ularning talabalar tomonidan bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat qilib borish;
- ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-huquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirish;
- ongli intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizorali xulq, xarakter va iroda sifatlarini hosil qilish maqsadida mashq qildirish va o'rgatish;
- rag'batlantirish va jazolash.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *Aqliy tarbiya deganda nimani tushunasiz?*
2. *Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Bilimga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?*
4. *Ilmiy bilim deganda nimani tushunasiz?*
5. *Aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllarini tushuntirib bering.*



6. *Ongli intizom aqliy tarbiyaning tarkibiy qismi deganda nimani tushunasiz?*
7. *Talabalar dunyoqarashini shakllantirishning asosini nima tashkil etadi?*
8. *Ilmiy dunyoqarashning uzluksizligini izohlab bering.*
9. *Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning axborotli texnologiyasi deganda nimani tushunasiz?*
10. *Aqliy tarbiyada ibrat-namunali tarbiyaning rolini tushuntiring.*

### Test savollari

#### 1. Mahorat bu ...

- A) Murakkab ishni tez, aniq bajarishning yengilligi, mehnatning yuqori sifati va barqaror ritmi
- B) Shaxsning o'ziga va dunyoga nisbatan munosabatlari
- D) Shaxsning o'ziga va zehnli sifatleri
- E) Shaxsning aqliy, zehnli sifatleri

#### 2. Bilim nima?

- A) Sog'lom fikr va kundalik amaliy faoliyat shakli
- B) Borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi
- D) Sog'lom fikr va yangi ma'lumotlarni berish
- E) O'quvchi talabalarga eski va yangi ma'lumotlarni berish.

#### 3. Bilim, ko'nikma, malaka, ilm, aql, ong, fahm kabi tushunchalar qaysi tarbiya turining tarkibiga kiradi?

- |                     |                    |
|---------------------|--------------------|
| A) Axloqiy tarbiya  | B) Estetik tarbiya |
| D) Mehnat tarbiyasi | E) Aqliy tarbiya   |

#### 4. Forobiyning fikricha mavjudotning eng buyuk va eng yetuk mahsuli bu ...

- |        |                   |
|--------|-------------------|
| A) Ong | B) Odam           |
| D) Aql | E) Yaratuvchanlik |

#### 5. Dunyoqarash tushunchasi atamasi ...

- A) Dunyoni his qilish, dunyoni tushunish demakdir
- B) Narsa-hodisa bilishdir

D) Mavjudotlarni bilish tizimdir

E) Ilohni anglash demakdir

6. **Dunyoqarash kimlarga xosdir?**

A) Faqat insonga

B) Narsa-hodisaga

D) Mavjudotlarga

E) Shaxsga

7. **Aqliy tarbiyaning maqsadi?**

A) Ilm-fan, texnika, texnologiyadan tushuncha berish

B) Yangiliklardan bilim berish

D) Ijtimoiy-tabiiy fanlardan bilimlar berish

E) Barcha javoblar to'g'ri

8. **Aql nima?**

A) Kishilarning o'z idroki, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglashi va ularga amal qilishidir

B) Ma'naviy-insoniy nuqtai nazar

D) Qalb ko'zi

E) Dunyoni anglash

9. **Aqllilik nima?**

A) Kishi o'z tafakkurini mustaqil ishlata olishi, aqli rasolik, mustaqil fikrlilik

B) Aqli rasolik

D) Hurfikrlilik

E) Komillik

Mol-mulkni behuda isrof qilish – aqlsizlik, boylikni o'ylamasdan sarflash – tanazzul alomatidir.

*Hikmat*

## 10-MAVZU: IQTISODIY TARBIYA. EKOLOGIK TARBIYA

### Reja:

1. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari.
2. Iqtisodiy tarbiyada oila budjeti tushunchalari.
3. Iqtisodiy tarbiyada – ma'naviy qadriyatlar.
4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati.
5. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari.
6. Talaba-yoshlar ekologik tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish.
7. Ekologik tarbiya yo'nalishlari.

### Mavzuning maqsadi:

Iqtisodiy va ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmuni va shakllari, yoshlar tarbiyasida ularning tutgan o'rnini haqida ilmiy bilim berish orqali ularda bozor iqtisodiyoti hamda atrof-muhitni saqlash ko'nikmalarini tarbiyalash.

### Mavzuning vazifalari:

- iqtisodiy va ekologik tarbiyaning mohiyati, mazmun va shakllarini yoritish;
- yoshlarda bozor iqtisodiyoti sharoitida tejamkorlikni ko'rsatish;
- atrof-muhitni saqlashda ekologik ong va madaniyatni tarkib top-tirish va boshqalar.

**Tayanch ibora va atamalar:** iqtisod, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, iqtisodiy tarbiyaning vazifalari, tejamkorlik, moddiy ne'matlar, ma'naviy ne'matlar, oila budjeti, oilada iqtisodiy tarbiya, moddiy boylik, ma'naviy boylik, ekologiya, eko-

logik tarbiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiyaning maqsadi, ekologik tarbiyaning vazifasi, tabiiy boylik, atrof-muhit, iqlim, ekologik muvozanat, ekologik madaniyat.

### 10.1. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari

Inson o'z kamoloti davomida turli yo'nalishda tarbiyalanadi. Ular ma'naviy, ma'rifiy, ekologik, vatanparvarlik, huquqiy, mehnatsevarlik, fuqarolik, estetik, jismoniy va iqtisodiy tarbiya kabi yo'nalishlarda joriy etilgan. Ular ichidan iqtisodiy tarbiya bo'lajak mutaxassislarni jamiyat va davlat, qolaversa, oiladagi jarayonlarga ongli munosabatini shakllantirish bilan birgalikda, tejamkorlikni, isrofgarchilikka nafratni, ishbilarmonlikni, tadbirkorlikni, tashabbuskorlik, iqtisodiy hisob-kitob va shu kabi iqtisodiy jihatlarni qamrab oluvchi insoniy fazilatlarini yuksaltirishga xizmat qiluvchi tarbiyaviy asosdir.

Demak, iqtisodiy tarbiya insonning ham ma'naviy jihatdan, ham moddiy jihatdan yuksaklik sari sa'y-harakatlarini ta'minlashdan iborat.

Barkamol avlodni tejamkorlik ruhida tarbiyalashda iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati beqiyos. Ma'lumki, insonning kundalik turmush tarzi mehnat yoki boshqa bir faoliyat turi bilan bog'liq bo'ladi. Ularda mehnat (xoh jismoniy bo'lsin, xoh aqliy) sarfining nechog'liq kam bo'lib, yuqori samaradorlikka erishish muhimdir.

Kam mehnat sarflab, ko'proq (yaxshiroq) natijani qo'lga kiritish ushbu sohadagi optimal variant hisoblanadi.

Iqtisodiy tarbiya talaba-yoshlarning tevarak-atrofdagi muhitni, muayyan buyumlarni anglab, ularni avaylab-asrash va bilib olishning mustahkam vositasi bo'lib, ularga nazariy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratib beradi va ularning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

**Iqtisodiy tarbiya** – ishlab chiqarishning jamiyatda tutgan o'rni, ishlab chiqarish vositalari va ish qurollarining mohiyati, ular orasidagi uzviy aloqadorlikni o'rgatish va odamlarda shu bilimlarga ko'nikma hosil qilish.

Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy maqsadi o'quv mashg'ulotlarini olib borishda talaba-yoshlar ongida tejamkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik kabi iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oluvchi xislatlarga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. Ular quyidagilar:

- iqtisodiyotning mohiyatini anglatish orqali inson iqtisodiy qudratining oila va davlat iqtisodiy qudratini yuksaltirishdagi ahamiyatini yoritish;
- inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylash;
- tejamkorlik, ishbilarmonlikka muhabbatni uyg'otish;
- oila budjeti va moddiy boyliklarni sarflash haqidagi bilimlarni yuksaltirish;
- tejamkorlik va boylikni ijtimoiy burch sifatida qarash;
- moddiy va ma'naviy boyliklar haqida muntazam ravishda tasavvurlar shakllantirish;
- iqtisodiy faoliyatni tashkil etishga ongli munosabatni tarbiyalash;
- iqtisodiyotni ilmiy asosda tashkil etish;
- mehnat samaraligidan faxrlanish.

## 10.2. Iqtisodiy tarbiyada oila budjeti tushunchasi

Har qanday tarbiyada ham o'sha tarbiyaga tegishli tushunchalarning mazmunini to'liq anglab yetish o'sha tarbiya samaradorligini oshirishi hech kimga sir emas.

Bu borada o'quv yurti va oila sharoitida talaba-yoshlarning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirishda, ularni hamkorlikka va ishbilarmonlikka chaqirishni, iqtisodiy hisob-kitoblarni o'rganishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish iqtisodiy tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tarbiyada tejamkorlik, tadbirkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob, oila budjeti va boylik kabi tushunchalarning muhim ahamiyati bor.

Ular ichidagi boyluk tushunchasiga juda qadimdan boshlab turli fikrlar bildirilgan.

- Talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishda tarbiyaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berilsa, ijobiy pedagogik samarani qo'lga kiritish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiyotda, dastavval, oila budjeti va iqtisodiy qudrati eng muhim asoslardan ekanligi hech kimga sir emas. Shu sababli oila budjeti to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirib o'tamiz.

- **Oila budjeti.**

Inson shaxs sifatida shakllandimi. endi u oilaga va jamiyatga xoh iqtisodiy, xoh ma'naviy jihatdan bo'lsin foydasi tegishini o'ylab sa'y-harakatlarni qilishi lozim. Ayniqsa, shaxs oilali bo'lganida oila iqtisodiy qudratini mustahkamlash asosiy vazifa bo'lish kerak.

Oila budjetini mustahkamlash va sarflashda quyidagilarga e'tibor berib borish zarur:

- oilaviy ehtiyoj;
- oilaviy orzu-havas;
- oila ravnaqini o'ylash va shu kabilar.

Bunda oilaviy ehtiyoj zarur, uni bajarishga harakat qilish kerak.

Oilaviy orzu-havas, oila ravnaqi uchun imkoniyat darajasida harakat qilish lozim.

Demak, iqtisodiy tarbiyani oiladan boshlash talab qilinadi. Bu orqali oilasiga va qolaversa, shaxsan o'ziga tegishli bo'lgan imkoniyat hamda ne'matlarning qadr-qimmatiga etishga erishiladi. Bularning keyingi holatlarda ham, ya'ni o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limdagi o'quv muassasalarida ham iqtisodiy tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta'siri katta bo'ladi.

### **10.3. Iqtisodiy tarbiyada ma'naviy qadriyatlar**

Iqtisodiy tarbiyaning dastlabki bosqichlari uzoq tarixga ega. Ular kishilik jamiyati taraqqiyotiga mos ravishda takomillashib kelavergan.

Iqtisodiy tarbiyaga tegishli ma'lumotlarni ilohiy kitob – Qur'oni Karimda va muqaddas kitob – Hadisi sharif hamda «Avesto» bitiklarida ham topish mumkin. Iqtisodiy tarbiya Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham bayon etib kelingan. Jumladan, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asarlarida qozixonada meros va uni taqsimlash bo'yicha alohida xodim faoliyat ko'rsatishi qayd etilgan. Ular shubhasiz qozixonadagi iqtisodiy muammolar yechimlarini hal etish uchun jalb etilgan.

Bu borada Forobiyning «Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka etaklaydi», degan fikri o'rinlidir.

Tejamkorlikda vaqt masalasi alohida e'tiborga molik tushunchadir. U inson ixtiyoridagi bebaho xazina. Shu sababli ham «**Kun qaytadi, ammo vaqt qaytmaydi**», degan naql bor, chunki vaqt o'lchovidir. Undan dunyoni o'rganish, o'zgartirish, shaxsiy manfaat, el-yurt xizmati va mehnat samaradorligini oshirish borasidagi faoliyatlarda foydalanish mumkin. Shu sababli ham u **qadrlidir**. Tarihiy voqealardan foydalanish iqtisodiy tarbiya berishning samaradorligini oshiradi va talaba-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga yordam beradi.

Talaba-yoshlarga **iqtisodiy tarbiya berish yo'llaridan** yana biri – bu tarixiy voqealar asosida, ularning iqtisodiy tarbiyaga oid tafakkurini boyitishdan iboratdir.

Tejamkorlik tarbiyasi mehnat, axloqiy va iqtisodiy tarbiyalarning muhim asosi hisoblanadi. Shu sababli ham talabalarga iqtisodiy tarbiya berishda, o'g'itlar va hikmatlardan foydalanib, ularni tahlil qilib borilsa, iqtisodiy tarbiya samarali kechadi.

Demak, talaba-yoshlarga iqtisodiy tarbiya berishning samarali yo'llaridan biri – bu iqtisodiy tafakkurni yuksaltirishga oid o'g'it va hikmatlardan foydalanishdan iborat bo'lib, dars mashg'ulotlarida ulardan mosini tanlab va uni tahlil qilib, talabalarning iqtisodiy tafakkuri rivojlantiriladi.

#### 10.4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati

«Ekologiya (yunoncha oikos – uy, turar joy va logos – ta’limot) – organizmdan har xil darajada yuqori turadigan sistemalar: populatsiyalar; biosenozlar; biogeosenozlar (ekotizimlar) va biosferaning tuzilishi, ularda kechadigan jarayonlarni o’rganadigan biologik fanlar majmuyi. Ekologiyani organizmlar va ular atrof-muhit o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni o’rganadigan fan sifatida ham talqin qilinadi».

«Ekologiya – yunoncha so’z bo’lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak-atrofdagi muhit bilan o’zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o’rganadigan fandır».

Ekologiya termini 1866-yilda nemis olimi E.Gekkel tomonidan fanga kiritildi. Olim tirik organizmlarning atrof-muhit bilan munosabatlarini belgilash uchun shu atamani taklif etdi.

Ekologiyaning fan sifatida yuzaga chiqishi XVIII–XIX asrlarni qamrab oladi. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida tadqiqotchi – olimlar tomonidan ayrim omillar, ayniqsa, iqlimning kishi organizmiga ta’sirini o’rganish natijasida bu fanga bo’lgan e’tibor yanada kuchaydi.

Bugungi kunda ekologiya muammolari umumjahon (umuminsoniyat, umumbashariyat) muammosiga aylangan. Shu sababli, bu masala yechimiga bir, ikki davlat emas, balki o’z atrofimizdagi olam muvozanatini o’ylayotgan ko’pgina davlatlar e’tibor bermoqda. Jumladan, bu muammo yechimi respublikamizda ham davlat siyosati darajasi-gacha ko’tarilgan.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida yer usti va yer osti boyliklarini, suv manbalarini, o’simlik va hayvonot dunyosini saqlash, qo’riqlash hamda bu moddiy boyliklardan mamlakatimiz taraqqiyotini o’ylagan holda oqilona foydalanish, ob-havoning toza va musaffo bo’lishiga doimo harakat qilish, tabiiy (yer usti va osti) boyliklarni uzluksiz yuksaltirib borishni ta’minlash, atrofimizdagi olamni yaxshilash uchun doimo chora-tadbirlar ko’rib borishimiz ta’kidlangan. Bundan tashqari O’zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan «Tabiatni muhofaza qilish



to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 23-apreldagi «Sog'lom avlod uchun» Xalqaro nodavlat xayriya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni, o'sha yili «Sog'lom avlod uchun» ordenining ta'sis etilishi, shu nomda Davlat dasturi, «Ekologik ta'lim-tarbiya konsepsiyasi»ning ishlab chiqilishi, «Ekosan» jamg'armasining tuzilishi mamlakatda ekologik muammolarni bartaraf etishga davlatimiz hukumatining g'amxo'rligidan dalolatdir.

Qadimda ham ekologik muammolarni hal qilishga urinishlar bo'lgan. Ayniqsa, «Avesto»da, Qur'oni Karim va Hadisi shariflarda ham ushbu muammolarga e'tibor berib kelingan.

Ekologik tarbiyaga e'tibor yurtimizda oiladan, bog'cha va yas-lilardanoq boshlab yuborilgan. Hozirgi paytda umumta'lim maktab-larida ham ekologik yo'nalishdagi sinflarning tashkil etilishi va shu-lar asosida litsey va maktablarda ta'lim-tarbiya ishlarining olib borili-shi – yoshlarga maktab partasidanoq tabiatga muhabbat ruhida tarbiya berishga astoydil kirishilganligidan dalolatdir.

«**Ekologik ta'lim-tarbiya** – ekologik bilimlarni berish, ularda tashqi muhit va vujud orasidagi uzviy bog'liqlik mavjudligini his etti-rish, tabiiy va ijtimoiy muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish ko'nikmalarini hosil qildirish».

Talaba-yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda ularga tegishli tushuncha va atamalarning mazmun-mohiyatini yoshlar ongiga sing-dirish ushbu sohadagi ishimiz samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

1. **Ekologik joy – ekomuhit** – tabiatda tur yashashi mumkin bo'lgan barcha muhit omillari majmuyi.

2. **Ekologik krizis – ekologik tanglik** – ekologik tizimlar, alohida hududlar yoki biosfera miqyosidagi tabiiy ofatlar: toshqin; yer silkini-shi; vulqon otilishi; qurg'oqchilik; dovul; chigirtkalar ofati; yong'in va boshqa holatlar oqibatida yuz beradigan ekologik vaziyat.

3. **Ekologik muvozanat** – inson, o'simlik va hayvonlar uchun zarur bo'lgan tabiiy sharoitlar muvozanati.

4. **Ekologik omillar** – atrof-muhitning organizmlar faoliyatiga o'ziga xos ta'sir etuvchi ma'lum sharoitlar va elementlar majmuyi.

5. **Ekologik madaniyat** – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarlik va boshqalar.

6. **Ekologik tanglik xavfi** – XX asr davomida texnikaning rivojini, xalq xo'jaligini va kundalik turmushni kimyolashtirish, yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rtasidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv, havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida paydo bo'lgan holat.

«Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muammolar butun dunyo (global) muammolarga aylanib bormoqda. Yer bag'ridan har yili 120 mlrd tonnadan ortiq turli xildagi xomashyo, qurilish materiallari, yoqilg'ini qazib olinishi va sarf qilinishi tabiiy boyliklar miqdorining kamayib borishiga sabab bo'lmoqda. Ko'pgina zararli korxonalar, zavodlarning oqar suvga yaqin joylashganligi sababli suv havzalarini toza saqlash muammo bo'lib borayotir. Markaziy Osiyoda yashayotgan fuqarolarning salomatligi yomonlashib, kasalliklar ko'paymoqda. Yer kurrasida insonning yashab qolish-qolmasligi masalasi endi ekologik muammolarni yechishga bog'liq bo'lib qoladi».

Ekologik ta'lim-tarbiya pedagogika sohasida muhim yo'nalish hisoblanadi.

**Ekologik ta'lim** – talaba-yoshlarga tabiat va inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimini berish jarayonidagi o'qitishdan iborat.

**Ekologik tarbiya** – talaba-yoshlarning atrofimizdagi olamga, atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Demak, bundan ekologik ta'lim-tarbiyaning **mazmun-mohiyatini** quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni umumiy ta'lim-tarbiyaning asosiy va tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, uning yordamida talaba-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari yechimlariga nisbatan

ongli munosabatni shakllantirish hamda ularni kelajakda ekologik tarbiyani olib borishga oid bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdir.

### 10.5. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari

**Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi** talaba-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Talaba-yoshlarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. **Ekologik madaniyatni shakllantirish.** Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma'lumot keltirildi.

Talaba-yoshlardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilib borilmog'i lozim:

- atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;
- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora-tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;
- «suvga tuflama, uni iflos qilma», degan da'vatning mazmun-mohiyatini bilishlikka;
- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabilarga.

3. **Ekologik savodxonlikni shakllantirish.** Bunga talaba-yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't-o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salo-

matligiga ta'siri oqibatlarini haqida talaba-yoshlar ongida tasavvurlarini shakllantirish;

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini talaba-yoshlar ongiga singdirish;

- zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini talaba-yoshlar ongiga singdirishning axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yaratishga erishish;

- bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda ekologik tarbiyani olib borish;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

- fanlarni o'qitishda talaba-yoshlarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

**4. Talaba-yoshlarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish.** Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, talaba-yoshlar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri – **bir tomondan** – muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, **ikkinchi tomondan** – musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorimizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida talaba-yoshlarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular talaba-yoshlarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;

- tabiat boyliklaridan tejab-tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

- atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash;
- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday bo'lsa, o'shandayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar.

## 10.6. Talaba-yoshlar ekologik tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm-faniga, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz. Ota-bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy merosi milliy merosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga erishuvda buyuk ma'naviy ozuqa bo'ldi yoki ota-bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

«Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Atrof-muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf-odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa – yer, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida «Suv sayli» o'tkazgan. Ota-bobolarimiz «Suv – tabiat in'omi, hayot manbasi», deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan yerga to'la yetib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfi paydo bo'ldi».

Demak, talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadri-

yatlar, urf-odatlar, anʼanalar, marosimlar, nodir qoʻlyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos boʻlib, bular orqali ularni atrof-muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiysi sogʻlom turmush tarzi hamda muhitini tashkil eta olishga oʻrgatiladi.

### Ekologik tarbiya yoʻnalishlari

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xoʻjaligining turli jabhalariga taʼsir etadi. Bu borada oʻziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda **global muammolarga** Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xirosima va Nagasaki shaharlardagi bomba portlashlar hamda shu kabilar misol boʻla olsa, **mintaqaviy muammolarga** zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki maʼlum hududdagi tuproq erroziyasi, baʼzi kasalliklarning koʻpayishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

Shu sababli ekologik tarbiya yoʻnalishlari ham turli xil boʻladi. Quyida ularning baʼzilari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltiramiz:

1. Talaba-yoshlarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab-tergashga, uni muhofaza qilishga oʻrgatish.

2. Talaba-yoshlarni oʻz oʻquv muassasalarini va uning tevarak-atroflarini koʻkalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga oʻrgatish.

3. Talaba-yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash koʻnikmalarini shakllantirish.

4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.

5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.

6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.

7. Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit va uning shaxs maʼnaviy dunyosiga taʼsiri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.

8. Talaba-yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.

9. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda oʻquv muassasalari va oila oʻrtasidagi umumiylik va xususiylik.

10. Talaba-yoshlar ongida atrof-muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Talaba-yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota-ona ibrat-namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Talaba-yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf-odatlarini tiklashga e'tiborni qaratish.

14. Talaba-yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda «Tabiat va inson», «Ekologiya va inson», «Orol madad so'raydi», «Tabiatni e'zozlaylik», «Suvni muqaddas deb bilaylik» va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota-bobolari-mizning azal-azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishganligini talaba-yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Talaba-yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda xalqimizning tabiatga munosabati: Navro'z bayrami, urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, xirmon to'yi, hovli to'yi va shu kabilarning ahamiyati katta.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. «Iqtisodiy tarbiya» deganda nimani tushunasiz?
2. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy tarbiyaning maqsadi va vazifalarini tushuntiring.
4. «Oila budjeti» deganda nimani tushunasiz?
5. Iqtisodiy boylik tushunchasiga izoh bering.
6. Iqtisodiy tarbiyada oilaning rolini tushuntiring.
7. Iqtisodiy tarbiyani shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarining ta'siri qanday?
8. «Boylik» deganda nimani tushunasiz?
9. Ekologik tarbiya deganda nimani tushunasiz?
10. «Ekologiya» terminini fanga birinchi bo'lib kim kiritgan?
11. «Ekologiya» terminining ma'nosiga izoh bering.

12. «Ekologik ta'lim» deganda nimani tushunasiz?
13. «Ekologik madaniyat» deb nimaga aytiladi?
14. Ekologik tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?
15. Ekologik tarbiyaning vazifalarini tushuntiring.
16. Ekologik savodxonlikni shakllantirishning asosiy vositalarini izohlang.
17. Ekologik tarbiyani shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarning ahamiyati nimadan iborat?

### Test savollari

#### 1. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalari:

- A) Tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish, tabiatga, insonga, hayvonlarga muhabbatni tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy tushunchalarni bilish
- B) Umuminsoniy madaniyat va milliy qadriyatlarga jalb qilish
- D) Baxtli insonni tarbiyalash
- E) Huquqiy davlat qonunlari va huquqlarini hurmat ruhida tarbiyalash, o'z mamlakatining ramzlarini hurmatlash.

#### 2. Tejamkorlik, sarf, isrof, foyda, mulk, mulkka egalik qaysi tarbiya turiga taalluqli?

- A) Ekologik tarbiyaga
- B) Mehnat tarbiyasiga
- D) Iqtisodiy tarbiyaga
- E) Estetik tarbiyaga

#### 3. Faollik, ishchanlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabilar qaysi tarbiya turining tarkibiga kiradi?

- |                        |                       |
|------------------------|-----------------------|
| A) Aqliy tarbiya       | B) Mehnat tarbiyasi   |
| D) Iqtisodiy tarbiyaga | E) Ekologik tarbiyaga |

#### 4. Tabiatni asrash, uni ne'matlarini avaylash va parvarishlash, atrof-muhitni toza tutish haqidagi fikrlar qaysi manbada keltirilgan?

- |                   |                    |
|-------------------|--------------------|
| A) Qutadg'u bilig | B) Avesto          |
| D) Donishnoma     | E) Buyuk didaktika |



5. I.A.Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» deb nomlangan asari necha qismdan iborat?

- A) 4 qism  
D) 2 qism
- B) 6 qism  
E) 8 qism

6. O'zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish va jahon bozorida yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'llari nimalardan iborat?

- A) Bank tizimini qo'llash  
B) Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, bank tizimini quvvatlash, texnologiyalarni joriy etish  
D) Jahon bozorida yangi qirralargi erishish  
E) Barchasi to'g'ri

7. Iqtisodiy ta'limning mazmuni qaysi savolda o'z ifodasini topgan?

- A) Ta'lim oluvchiga iqtisodiy ta'lim berish jarayoni  
B) Iqtisodiyot tamoyilliklarini tushuntirish  
D) Iqtisodiyotning umumiy asoslarini berish  
E) Barchasi to'g'ri

8. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuni nimalardan iborat?

- A) Odamning mulkka nisbatan tejamkorlik hislarini tarbiyalovchi yo'l  
B) El e'zozlagan odam, iqtisodiy bilim, ko'nikmaga ega odam  
D) Axloqiy tarbiyaning qismidir  
E) Barcha javob birgalikda iqtisodiy tarbiyaning mazmunini anglatadi

9. «Iqtisodiyot» atamasi nima?

- A) Yunoncha so'z bo'lib, «uy-xo'jaligini boshqarish» demakdir  
B) Tejamkorlik  
D) Ishlab chiqarish bilimi  
E) Xo'jalik demakdir

10. Ekologik siyosatni yurgizadigan Oliy Kengashga saylangan ekologiya guruhlariga saylangan deputatlar sonini ko'rsating.

- A) 15 ta  
B) 20 ta  
D) 30 ta  
E) 40 ta

Barkamollikka erishgan odam barcha jonzotlardan yuqori turadi, ammo agar u qonunlar va adolatga bo'ysunmay yashasa, hammadan tubandir.

*Arastu*

## 11-MAVZU: FUQAROLIK TARBİYASI

### **Reja:**

1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari.
2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish.
3. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish
4. Huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan mushtarakligi.

### **Mavzuning maqsadi:**

Fuqarolik tarbiyasining mohiyati, mazmuni va maqsad-vazifalari hamda metodlari, huquqiy ong va fuqarolik madaniyati haqida tushuncha berish, yoshlarda davlat ramzlariga (bayroq, madhiya, tamg'a) hurmatni shakllantirish orqali fuqarolik va huquqiy madaniyatni tarbiyalash.

### **Mavzuning vazifalari:**

- fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalarini ochish;
- huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan bog'liqligini ko'rsatish;
- davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish;
- yoshlar o'rtasida huquqbuzarlikni oldini olishda huquqiy tarbiyaning rolini belgilash.

**Tayanch ibora va atamalar:** fuqarolik, fuqarolik tarbiyasi, fuqarolik madaniyati, fuqarolik mas'uliyati, fuqarolikni tan olish, fuqarosiz shaxslar, fuqarolik tarbiyasining maqsadi, davlat ramzlari, davlat

madhiyasi, davlat bayrog'i, davlat gerbi, fuqarolik burch, fuqarolik tuyg'usi, Vatanga sodiqlik, ma'rifatparvarlik.

### 11.1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari

Mustaqillikka erishilgandan so'ng pedagogikada fikrlashga to'liq imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Natijada pedagogikada sog'lom aql, ijodiy muhit, milliy ruhiyat, fuqarolik madaniyati va an'analar, marosimlar, urf-odatlariga mos tarzda ta'lim-tarbiya olib borish imkoniyati yaratildi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy mafkura fuqarolarni Respublika Konstitutsiyasida e'tirof etilgan insonparvarlik, demokratik davlat va huquqiy jamiyatni barpo etishdek ezgu maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Har bir fuqaroning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy faolligini yuzaga keltirish, fuqarolik madaniyatini qaror toptirish – fuqarolik jamiyatining asosiy talabi sanaladi.

Ushbu talab mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan qator qonun va qarorlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari mazmunida o'zining yorqin ifodasini topdi. Ijtimoiy tarbiyaning samarali, izchil tizimini yaratish, jamiyatda fuqarolik madaniyatini shakllantirish muammolarining ijobiy hal etilishi jamiyat ijtimoiy hayoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

Fuqarolik madaniyatining shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi: **bir tomondan**, jamiyat manfaatlari uchun mos kelsa, **ikkinchi tomondan**, fuqaro manfaatlari, shuningdek, jamiyat hamda fuqaroning birgalikdagi manfaatlari uchun to'la mos keladi. Shu sababli respublika mustaqilligi sharoitida ijtimoiy ta'lim-tarbiyani tashkil etish mazmunini tubdan modernizatsiya qilish zaruriyati yuzaga keldi. Bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy tarbiyasini keng ko'lamda fuqarolik tarbiyasi bilan uyg'un holda tashkil etish bugungi kunning da'vati va talabi bo'lib qolmoqda. Mazkur talabni ijobiy hal etish «Davlat-ta'lim muassasalari – jamiyat-jamoatchilik» uyg'unligini yaratish asosida amalga oshiriladi.

### Fuqarolik tarbiyasining vazifalari:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga ongli ravishda rioya etishga o'rgatib borish;

2. Talaba-yoshlarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;

3. Vatanni himoya qilish borasida harbiy vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish;

4. Talaba-yoshlarda davlat ramzlariga hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorgarlik hissini shakllantirish;

5. Talaba-yoshlarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ularda g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini, shuningdek, adolatli, diyonatli, mehr-muruvvatli, ezgulikni himoya qiluvchi, va'daga vafoli shaxslarni shakllantirishga erishish;

6. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish;

7. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi va yurt mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga qodir fidoyi fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish;

8. Umumxalq ma'qullagan Konstitutsiyani va shu kabi muhim davlat hujjatlarini hurmat qilish hissini shakllantirish;

9. Yoshlarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda shaxsning Konstitutsiyada ko'rsatilgan huquqlaridan foydalanish hamda burchlarini bajarilishi xususida ma'lumotlar berish, ularda ijtimoiy faoliyatni tashkil etishda huquqlardan foydalanish va burchlarini bajarish bo'yicha ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iborat:

• Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, shuningdek, boshqa kishilarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni, qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdir;

- Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab-asrashga majburdirlar;

- Fuqarolar atrof, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar;

- Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majburdirlar;

- O'zbekiston Respublikasini har tomonlama himoya qilish – O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir.

Zamonaviy milliy pedagogikada millat ruhiyatining va fuqarolik madaniyatining nozik jihatlariga kirib borish va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarni ham hisobga olish imkoniyati yaratildi.

**Fuqarolik madaniyati** deganda har bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi, huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hamda fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, ularning huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi. Ayni paytda, barcha pedagogik tadbirlarda yoshlar ta'lim-tarbiya jarayonining obyekti emas, balki subyekti, ya'ni ijrochisi ekanligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil va erkin fikrlashlarini ta'minlashga imkon bermoqda. Eng asosiysi yoshlarda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda ta'lim-tarbiya ishlari olib borilmoqda.

O'z fuqarolariga ega bo'lish har bir davlatning zarur va muhim belgisi sanaladi. Fuqarolarning mavjudligi sababli davlat mavhum tushuncha bo'lmay, muayyan mexanizmga, jonli sifatda maydonga chiqadi. Huquqiy o'rni qonun yo'li bilan kafolatlangan shaxsning davlat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, ma'lum bir davlatga qarashliligi holatiga **fuqarolik** deyiladi.

Ya'ni, **fuqarolik** – bu shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lishi, shu davlatga mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansubligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi.

Shu o'ringa fuqaro va unga tegishli tushunchalarni talaba-yoshlar ongiga singdirish ham o'ta muhim.

**Fuqaro** – huquqiy asoslar orqali ma'lum davlatga mansub shaxs. Shaxs fuqaro hisoblansa, ma'lum huquq va erkinliklarga ega bo'ladi. Fuqaroning huquqiy holati tegishli mamlakatda fuqaroliksiz shaxslarning yoki xorijiy mamlakatlar fuqarolarining huquqiy holatidan farq qiladi. Masalan, siyosiy huquqlar faqat fuqarolarga taalluqli bo'ladi.

**Fuqarolik mas'uliyati** – jamiyatning demokratik rivojlanishi jarayonida erishgan g'alaba, yutuq va muvaffaqiyatlarga fuqarolarining ongli munosabati, yutuqlarni yanada ko'paytirish va ulardan foydalanishda faol qatnashishi.

**Fuqarolikni tan olish** – bu fuqarolikka ega bo'lish usullaridan biri bo'lib, u davlatning o'z hududida doimiy yashab kelayotgan yoki tegishli qonunda belgilangan tartibda mazkur davlat fuqaroligiga qabul qilingan shaxslarning mavjud huquqiy holatini yuridik mustahkamlaydigan, o'z ixtiyoriga ko'ra amalga oshiriladigan xatti-harakati.

«O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasiga ko'ra, kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy holatidan, irqi va millatidan, jinsi, ma'lumoti, tili, siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, mashg'ulotining turi, saviyasidan qat'i nazar ushbu qonun kuchga kirgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida yashab turgan, boshqa davlatlarning fuqarolari bo'lmagan hamda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lish istagini bildirgan shaxslar **O'zbekiston Respublikasi fuqarolari** deb tan olinadi.

**Fuqaroliksiz shaxslar** – biron-bir mamlakatga huquqiy mansub bo'lmagan shaxslardir. Bunday shaxslar har qanday mamlakatda, jumladan, O'zbekistonda ham mavjud. Ular siyosiy huquqlardan foydalanmaydi, o'zlarining xohishi bilan O'zbekiston fuqaroligiga o'tishi mumkin. Fuqaroliksiz shaxslarning manfaati, huquq-erkinliklar: qonun bilan himoya qilinadi.

**Xalq** – konstitutsiyaviy huquq fanida odatda muayyan davlatning barcha aholisi tushunilib, u yagona ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy umumiylikni vujudga keltiradi (garchi u bir necha milliy umumiylikka

ega bo'lgan bo'lsa-da). Shu ma'noda, zamonaviy Konstitutsiyalarda xalq to'g'risidagi «suverenitet egasi» va «hokimiyatning birdan bir manbayi» degan iboralar ko'p ishlatiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayidir (7-modda). Shuningdek, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi.

O'zbekiston fuqarosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Respublika Oliy Majlisi qabul qilgan tegishli qoidalarda belgilangan huquqlardan foydalana oladi, qonunda ko'rsatib o'tilgan burchlarni bajaradi.

Fuqarolikning asosiy **tarkibiy qismlari** quyidagilar:

- muayyan davlat a'zosi ekanligini his etish, shaxs taqdiri davlat va jamiyat hayoti bilan uzviy chambarchas bog'liq ekanligini tushunib etish;

- xalq, davlat oldidagi fuqarolik huquq va burchlarini qonunchilik asosida bilish, ularga so'zsiz, qat'iy amal qilish;

- o'z xalqi va davlatining o'tmishi va hoziriga hurmat tuyg'usini qaror toptirish, shaxsiy manfaatlaridan davlat manfaatlarini ustun qo'ya bilish, xalq farovonligi, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi istiqboli uchun kurashishga tayyor turish;

- davlat ramzlari (madhiya, gerb, bayroq)ga nisbatan cheksiz muhabbatni qaror toptirish, ular muhofazasi uchun tayyorgarlik, davlat ramzlarining millat, xalq or-nomusi, sha'ni, qadr-qimmatini ekanligini anglash;

- ijtimoiy-siyosiy ongliklik ijtimoiy faollik, davlatning ichki va xalqaro siyosati qoidalarini tushunish va idrok qilish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni tarbiyalash;

- huquq me'yorlarining buzilishiga nisbatan murosasiz kurashish kabilar kiradi.

## **11.2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish**

**Davlatimiz ramzlari** – bu Konstitutsiyada belgilangan bo'lib (5-modda), bayroq, tamg'a, madhiya hisoblanadi va ular O'zbekiston

xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Davlat ramzlari muayyan millat, elat etnopsixologik xususiyatlarini, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari hamda maqsadini, hududiy, siyosiy ijtimoiy birlik mohiyatini ajratishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmuyidir. Muayyan davlatning bayrog'i, gerb (tamg'asi) hamda madhiyasi davlat ramzlari majmuyini ifodalaydi.

Davlat ramzlari o'zlarida chuqur siyosiy va ijtimoiy mazmun ifoda etadi. Davlat ramzlarida (bayroq, gerb) tasvirlangan ranglar, tasvirlar shu xalq, millat o'tmishi, qadim an'analari, xalqning turmush tarzi, orzu-umidlari, maqsadi, g'oyalari ifodalashga xizmat etadi. Davlat madhiyasida esa xalq, millat, davlat va jamiyatning yagona maqsadi, birligi, g'oyalari tarannum etiladi.

Davlat ramzlari davlat mavjudligini ko'rsatuvchi belgilardan sanaladi. Ramzlar – bu shartli belgilar bo'lib, ular qadim davrlardayoq turli xalqlarda u yoki bu hodisa, olam, mavjudot, odamlar tasvirini, ularning qarashlarini ifodalagan.

Respublikamizda davlat mustaqilligining e'lon qilinishi bilan mustaqillikni aks ettiruvchi ramzlarni ishlab chiqishni taqozo etdi. Shu munosabat bilan 1990-yil 30-martda «O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida»gi Qaror qabul qilindi va bu borada ishlar amalga oshirildi.

**Madhiya** – bu biror shaxs, voqea yoki narsaning maqtoviga bag'ishlangan badiiy asar. Ba'zan asarning bir qismi ham madhiyadan iborat bo'lishi mumkin.

Arab, fors va o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi an'analarga ko'ra, har bir yirik epik asarning bosh qismida maxsus maqtovlar berilgan. Ular odatda, asar yozilgan paytdagi hukmdor va qahramonlarga bag'ishlangan. Shuningdek, shoirlarga o'zlaridan avval o'tgan buyuk shaxslarni maqtash, ya'ni maqtovlar bag'ishlash ham odat bo'lgan.

**Davlat madhiyasi** – har bir davlatning bosh va asosiy qo'shig'i hisoblanadi. Unda muayyan davlat, unda yashaydigan xalqning ruhiyati, o'ziga xos tabiati, orzu-umidlari tarannum etiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi** – bu O'zbekiston Respublikasining Davlat suverenitetining ramzi bo'lib, Davlat mad-



hiyasiga zo'r ehtirom bilan qarash mamlakat har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Madhiya musiqa va she'r vositasida ifodalanadi hamda davlat organlari tomonidan o'tkaziladigan tantanali marosimlar va boshqa tadbirlar vaqtida ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasida jonajon mamlatimiz O'zbekistonning asosiy jihatlari, ajdodlarimizning mardona ruhi, bag'ri kengligi, mustahkam imoni jo'shqin misralarda kuylanadi. Yurtimizning kelajagiga umid va ishonch uyg'otadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov ijodining gulto'ji, eng sara badiiyat namunasi bo'lib, O'zbekiston Oliy Majlisining 1992-yil 8-dekabrda bo'lib o'tgan XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi sifatida ma'qullandi. Ushbu madhiyaga taniqli bastakor Mutal Burhonov musiqa bastalagan. «Davlat madhiyasi haqida»gi Qonun 1992-yil 10-dekabrda qabul qilindi.

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon,  
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon.  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas imoni,  
Erkin yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar ona yurt, mangu bo'l obod!

## Naqorat:

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon.  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Davlat madhiyasi kabi uning bayrog‘i, gerbi (tamg‘asi) ham jahon miqyosida mavjud bo‘lgan muayyan davlatning o‘z xalqi, millati nomidan faoliyat yuritish imkoniyatiga ega ekanligini anglatadi.

**Davlat bayrog‘i** – bu davlat ramzlaridan biri bo‘lib, uni boshqa mamlakatlardan farqlovchi belgidir. U mamlakat hududida ilgari mavjud bo‘lgan g‘oyat qudratli saltanatlar bayrog‘iga xos bo‘lgan eng yaxshi an‘analarni davom



ettirgan holda respublika tabiati xususiyatlarini, xalqining milliy va madaniy sohalaridagi o‘zligini aks ettiradi. Bayroq maxsus qonun bilan tasdiqlanadi va qayerda, qachon o‘rnatilib qo‘yilishi belgilanadi. Bayroqning ko‘rinishi, rangi, undagi belgilarning chuqur ma‘nosi bor.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining bayrog‘i uch xil rangda bo‘lib, ko‘k, oq, yashil ranglardir. Oq rang qizil rang bilan hoshiyangan. Respublika bayrog‘ida yurt tarixi, o‘zbek xalqining milliy ruhi va yurt tabiati jamoli aks ettirilgan. Bayroqning chap tomoni yuqori qismida yarim oy va 12 yulduz tasviri tushirilgan. Ko‘k rang va yulduzlar tasviri tiniq, moviy osmon belgisidir. O‘rtada oq rang esa yorug‘ kun va pokiza oqko‘ngilli xalqimizning tilagi, qizil hoshiyalar esa tomirlarda oqayotgan qon kabi tiriklik va hayot ramzidir. Yashil rang esa qadim-qadimdan tabiat belgisi (yangi oy) tasvirining berilishi mustaqillik sharoitida hayot kechirish xalqimiz uchun o‘ziga xos yangi davr ekanligi ifodasidir, yulduzlar sonining 12 taligi yil oylariga, muchal hisobiga nisbatidir. Umuman, yulduzlar qadimdan oq abadiyat timsoli sifatida qadrlanib kelingan, XVIII asrdan bosh-

lab esa buyuk intilish hamda ulug' g'oyalarning ifodasi sifatida talqin etila boshlagan.

Milliy bayrog'imizning huquqiy maqomi – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risidagi ma'lumotlarni talabalarga yetkazish mustaqillik darslari soatlarida. shuningdek, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish chog'ida amalga oshiriladi.

Bayroq mamlakatimizning o'tmishi, buguni va kelajagining yorqin ramzidir. «O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i to'g'risida»gi Qonun 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan. Bayroq davlat mustaqilligining belgisigina bo'lmay, u respublikamiz nomini xalqaro maydonda ramziy ifoda etish uchun xizmat qiladi. Davlat bayrog'i Prezidentlik apparati, Respublika Oliy Majlisi va hukumati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va hukumati, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari. O'zbekistonning doimiy vakolatxonalari binolarida doim ko'tariladi.

Davlat razmlarining yana biri – **bu davlat gerbidir**. O'zbekiston Respublikasi davlat gerbining qabul qilinishi «O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to'g'risida»gi Qonun g'oyalari hamda xalqimizning ming yillik boy tajribasi asosida amalga oshirildi.



**Davlat gerbi** – bu davlat ramzlaridan biri, davlatning tamg'asi bo'lib, muhrlarda, turli hujjat nusxalarida, pul birligida aks ettiriladi. Uning ko'rinishi maxsus qonun bilan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbida tog'lar, daryolar, bug'doy boshlari (chap tomonda), ochilgan g'o'za shoxlarining (o'ng tomonda) gulchambar holiday tasviri aks ettirilgan. Gerb o'rtasida serquyosh yurt ramzi bo'lgan quyosh o'zining zarrin nurlarini sohib turibdi. Gerbning yuqori qismida respublika mustaqilligining ramzi sifatida sakkiz burchak tasvirlangan bo'lib, uning ichida yarim oy (yangi oy – yangi tuzum) va yulduzlar (abadiyat timsoli) joylashtiril-

gan. Gerbning markazida baxt va erksevarlik ramzi bo'lgan kumush rangli Humo qushi qanotlarini yozib turgan holda tasvirlangan. Humo qushi insonga baxt keltiruvchi, uni turli ofatlardan himoya qiluvchi, mehribon jonzot sifatida o'zbek xalq og'zaki ijodida keng talqin etilib kelingan. Gerbning pastki markaziy qismida davlat bayrog'i ranglaridagi chamber jiyak o'zagida «O'zbekiston» so'zi yozilgan. Gerbda ifoda etilgan sakkiz qirrali burchak ijtimoiy hayotning barcha jihatlarini ma'lum bir g'oya, kuch birlashtiradi, degan ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Paxta va bug'doy boshloqlarining tasviri rizqu ro'zimiz nishonasidir.

Davlat gerbining huquqiy maqomi ham maxsus qonun bilan qo'riqlanadi. Davlat gerbidan foydalanish huquqi maxsus davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralariga berilgan bo'lib, ularga O'zbekiston Prezidenti Devoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, davlat hokimiyati va boshqaruvning mahalliy idoralari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, barcha toifadagi sudlar, prokuratura, diplomatik va konsullik vakolatxonalari kiradi.

Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrlar, hujjatlarning blankalari, ulardan foydalanish va saqlash, yo'qotish tartibi Respublika Vazirlar Mahkamasining maxsus hujjati asosida tartibga solinadi.

Davlat gerbi, shuningdek, fuqarolik pasportida, korxonalar, tashkilot, muassasalarning ish qog'ozlarda o'z ifodasini topgan. Inson shaxs sifatida o'z sha'ni, or-nomusini qanchalik muqaddas bilsa, fuqaro sifatida davlat ramzlarini shu qadar muqaddas bilishi, muhofaza qilish uchun o'zida mas'ullik tuyg'usini qaror toptirishi lozim. Fuqarolik tarbiyasini yo'lga qo'yish jarayonida davlat ramzlaridan noqonuniy hamda axloqsiz ravishda foydalanayotgan kimsalarga nisbatan murosasiz bo'lish maqsadga muvofiqdir.

### **11.3. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish**

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish va mustahkamlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, uning qonuniy zaminlari, huquqiy asoslarini takomillashtirish fuqarolarning siyosiy-

huquqiy faolligiga, onglilik, bilimdonlik darajasiga uzviy aloqadorlikdadir.

Buning uchun O'zbekistonning har bir fuqarosi, eng avvalo, hayotimizning asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, uning har bir moddasini puxta o'rganishi lozim.

Boy o'tmish merosimizga murojaat qilganimizda milliy-ma'naviy qadriyatlarga asoslanish zarur. Bunga sabab, talaba-yoshlarda bu orqali milliy g'ururni yuksaltirish samarali kechadi va bu yoshlar **fuqarolik madaniyatining** yuksalishiga olib keladi. Talaba-yoshlar fuqarolik ma'naviyatini yuksaltirish bo'yicha milliy-ma'naviy qadriyatlardan foydalanishni quyidagi ketma-ketlikda olib borgan ma'qul:

• Qomusiy olimlar hayoti va ijodi milliy g'ururni yuksaltirishda muhim asos bo'lib, yoshlarning **fuqarolik burchiga sadoqatni yuksaltiradi**. Bunda ko'proq al-Beruniy, al-Farg'oni, al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Ismoil Jurjoni, Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi kabi buyuk siymolar haqidagi ma'lumotlardan foydalanish maqsadga muvofiq;

**Fuqarolik tarbiyasi** negizida xalq o'tmishi, tarixini o'rganish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglashga yo'naltirilgan faoliyatga talaba-yoshlarni jalb etish pedagogika fani, tarbiyada ko'zlangan maqsadga eltuvchi yo'l sanaladi.

Talaba-yoshlarni haqiqiy fuqaro etib tarbiyalash, ularda fuqarolik tuyg'usini qaror toptirish, fidoyi fuqaro sifatida shakllantirish bilan yakunlanadi. Talaba-yoshlarda fuqarolik hissi va e'tiqodini tarbiyalamay turib, ularda axloqiy, xulqiy odatlarni, malakalarni hosil qilib bo'lmaydi.

**Fuqarolik tuyg'usini** qaror toptirish murakkab jarayon. Shu sababli, ushbu sohadagi tarbiyaviy ishlarimizda talaba-yoshlar ongiga fuqarolik tuyg'usini shakllantirishga mos milliy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish lozim bo'ladi.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma'lum shart-sharoitlar taqozo etiladi. Bular:

1. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

2. Fuqarolik tarbiyasi jarayonining muvaffaqiyati talabalar va

o'qituvchilar jamoasining saviyasiga va undagi fuqarolik tuyg'usining nechog'liq yuksakligiga bog'liq bo'ladi;

3. Oila, maktab va mahallalarda o'zaro hamkorlik va hamjihatlikning yuzaga kelishi fuqarolik tarbiyasi muvaffaqiyatini ta'minlaydi;

4. Talaba-yoshlarning axloqiy va huquqiy me'yorlarga hamda umumiy tartibga rioya qilishga o'rgatish va boshqalardir.

Fuqarolik tarbiyasining tashkil etilishi natijasida kamol topgan fuqaro o'zida quyidagi sifatlarni namoyon eta olishi lozim:

– fuqarolik burch va mas'uliyatiga egalik (o'z vatani, xalqi, otanasi oldidagi qarzini his eta olishi);

– milliy g'urur, Vatanga sodiqlik, ma'naviy yetuklik va ma'rifat-parvarlik tuyg'usiga ega bo'lish;

– davlat Konstitutsiyasi, davlat hokimiyati organlari, mamlakat Prezidenti hamda davlat ramzlari (gerb, bayroq va madhiya)ga nisbatan hurmatda bo'lish;

– fidoyilik, ya'ni Vatan tuyg'usi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, mamlakat taqdiri va istiqboli uchun javobgarlik, mas'ullik hissi-ni shakllanganligi;

– ijtimoiy-huquqiy hamda axloqiy me'yorlarga nisbatan hurmat va itoatda bo'lish;

– mamlakat milliy va ma'naviy boyliklariga nisbatan hurmat bilan qarash va ularni asrash borasidagi fuqarolik burchi nimalardan iborat ekanligini anglash;

– milliy davlat tili, madaniyati va an'analariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish va ularni asrab, boyitib takomillashtirib borishda jonbozlik ko'rsatish;

– ijtimoiy faollik, mamlakat taqdiri, taraqqiyotiga bog'liq har qanday xatti-harakatda jonbozlik ko'rsatish;

– demokratik tamoyillarga amal qilish va fuqarolar tengligi hamda ularning o'zaro munosabatlari mazmundorligiga e'tiborli bo'lish;

– fuqarolarning huquq va burchlarini hurmat qilish va bu boradagi davlat hujjatlarini chuqur o'rganishga erishish;

– huquqiy ong va fuqarolik madaniyatiga ega bo'lishda huquqiy ong hamda burchlar to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lish;

– o‘z faoliyati va xatti-harakati borasida to‘g‘riso‘z, adolatli, muruvvatli, mehribon bo‘lish va boshqalar.

#### **11.4. Huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan mushtarakligi**

Milliy mafkuraning mazmun-mohiyatida «asosiy maqsad – demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyat qurish», deb belgilangan. Mustaqil O‘zbekistonda fuqarolarning huquqiy bilimi va madaniyati hamda ma‘naviyatini yuksaltirish g‘oyat muhim va dolzarb muammodir.

Fuqarolarning huquqiy bilimi, madaniyati va ma‘naviyati qancha yuksak bo‘lsa, huquqiy davlat shuncha kuchli bo‘ladi, mustaqilligimiz mustahkamlanib, barqarorlashib boraveradi. Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, xalq ommasi qonun-qoidalar va huquqiy me‘yorlarga, qonuniy aktlarga, eng muhimi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ishonch-ixtiyor, ixlos, iymon-e‘tiqodli munosabatda bo‘lish va rioya qilishiga odatlanmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo‘lmaydi.

Huquqiy davlat ommaning siyosiy ongliligi, uyushqoqligi, siyosiy hushyor va ziyrakligi, hayotimizda ro‘y berib turadigan har bir narsa va hodisaga ko‘r-ko‘rona emas, balki aql-idrok, bilim va tafakkur, fahm-farosatli yondashganligi bilan kuchli. Huquqiy bilim va madaniyat millat o‘zligi va inson barkamolligining eng muhim omillaridan biridir.

Fuqarolarning barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo‘lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishlari uchun asosiy e‘tiborni nimalarga qaratish lozimligi haqidagi vazifalar Oliy Majlisning 1997-yil 29-avgustda tasdiqlangan «**Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida**» belgilab berilgan.

Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. U umumiy madaniyatning shunchaki bir qismi emas, balki uning o‘zagi, negizi, asosidir.

**Huquqiy madaniyat** deganda, har bir davlatning qonun asosla-

ri, huquq meʼyorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va oʻz faoliyatida ularga rioya etishi – huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti haqida fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk maʼnaviyati, ularning huquqiy burch va masʼuliyatlari tushuniladi.

Huquqiy madaniyat huquqiy bilim hamda moddiy, maʼnaviy, axloqiy va boshqa mafkuraviy omillar asosida shakllanadi va rivojlanib boradi. Huquqiy madaniyat fuqarolarning yetukligi va ongliligini koʻrsatuvchi meʼyordir. Huquqiy bilimlarga ega boʻlgan va ularni amaliyotda tadbiiq eta oladigan kishi huquqiy bilimli va madaniyatli hisoblanadi.

Huquqiy bilimlar va madaniyatning yuzaga kelishi va rivojlanishi dinamik jarayondir. Har qanday bilim va maʼrifat singari huquqiy bilim va madaniyat ham jamiyat taraqqiyotiga mos paydo boʻlgan talab va ehtiyojlar, mavjud shart-sharoit va imkoniyatlar asosida yuzaga keladi va rivojlanadi.

Bolalarning qalbi va vujudiga goʻdaklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda oilaning roli va ahamiyati katta.

Shuning uchun Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas sanalgan. «Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, eng qimmatli anʼanalar: halollik, rostgoʻylik, or-nomus, sharmu hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo oilada shakllanadi», – degan edi Islom Karimov Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining besh yilligiga bagʻishlangan tabrik soʻzida.

Bolalarda huquqiy tasavvur va tushunchalar asosini ilk bor ildiz ota boshlashida, farzandlar qalbini mehr-muhabbat, nafasat, ezgulik nuri bilan munavvar etishda odamiylik, halollik, olijanoblik, mehr-oqibat singari asl insoniy fazilatlar kamolotida ota-onaning, oilaning oʻrni beqiyos.

Huquqiy bilimga ega boʻlish, huquqiy jihatdan tarbiyalanganlik, huquqiy madaniyat, maʼrifat va maʼnaviyat sohibi boʻlish, qonunlarni muqaddas hisoblab, ularga shak keltirmasdan faoliyat koʻrsatishga odatlantirish – Oʻzbekistonda har bir fuqaroning qalbiga chuqur singib ketgan.



**Bilim olish huquqi** – O‘zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlaridan hisoblanadi. Unga asosan, har kim bilim olish huquqiga ega. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta‘lim olish bepul, ya‘ni umumiy ta‘lim olish uchun haq to‘lanmaydi. Umumiy ta‘lim bo‘yicha ma‘lumotga ega bo‘lgan har bir kishi o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim olish huquqiga ega. Bu ta‘lim belgilangan sinovdan o‘tganlar uchun bepul, qolgan shaxslar pul to‘lash bilan bilim olishni davom ettirishlari mumkin. **Bilim olish huquqi** umumiy maktablar, akademik litseyalar, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlaridagi faoliyatlar orqali ta‘minlanadi. Bundan tashqari, aspirantura va doktoranturada ham bilim olish mumkin (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi).

**Konstitutsiyaviy huquq** – har bir mamlakatning huquq tizimida-gi yetakchi huquq. Uning yetakchiligi shundaki, boshqa har qanday huquqlar tartibga solinadigan huquqlar tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosi Konstitutsiyaviy huquqda belgilanadi (masalan, bilim olish huquqi, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, ma‘muriy huquq va h.k.). Konstitutsiyaviy huquq ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tuzilishning asoslarini, saylov tizimini, insonning asosiy huquq, erkinliklarini va burchlarini o‘rnatuvchi, tartibga soluvchi huquqiy normalar yig‘indisidir.

**Milliy teng huquqlilik** – shaxsning huquqiy holati tamoyillari-dan. Barcha fuqarolar, millatidan qat‘i nazar, qonun oldida, davlatni boshqarishda va barcha huquqlardan foydalanishda tengdir. Bu masalalarda hech bir millatga imtiyoz berilmaydi. Ozchilikni tashkil etuvchi millatlarning madaniyati, tili, urf-odatlarini hurmat qilinadi va ularning rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

**Milliy g‘urur** – xalqni xalq, millatni millat qilib ko‘rsatadi. O‘zbekiston mustaqilligi tufayli o‘zbek xalqning milliy g‘urur tuyg‘usi jahon bo‘ylab qad ko‘tardi. Jahon xalqlari mehnatkash, shon-shuhrati yuksak bo‘lgan o‘zbek xalqini tan oldi. O‘zbekiston fuqarolarining hayoti, erki, sha‘ni, qadr-qimmatini muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan himoyalanaadi.

**Shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi** – insonning asosiy konstitutsiyaviy shaxsiy huquqlaridan biri bo‘lib, shaxsiy va oilaviy sirlarni

qonun bilan himoya qilishni anglatadi. Dunyodagi eng yaxshi konstitutsiyalar shaxsning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni uning roziligisiz to'plash, saqlash, foydalanish va tarqatishni ta'qiqlab, bu qoidani shaxsiy hayot daxlsizligining kafolati sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 25–27-moddalari shaxsiy hayot daxlsizligi huquqini mustahkamlaydi.

**Qonun** – mamlakat miqyosida oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat. Qonun O'zbekistonda mamlakatning oliy vakillik organi Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Qonunlar umumxalq ovozi – referendum yo'li bilan muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun konstitutsiyaviy va oddiy qonunlar shaklida qabul qilinadi. Uning aniq jarayon va tartiblari belgilangan.

**Huquq** – ushbu so'zning bir necha ma'nosi bo'lib, birinchidan, u davlat tomonidan bajarilishi majbur qilingan yurish-turish qoidalari, xatti-harakatlar yig'indisi. **Ikkinchidan**, huquq tushunchasi fuqarolarga berilgan imkoniyat. **Huquq** konstitutsiyaviy va oddiy huquqlarga bo'linadi. Konstitutsiyaviy huquqlar konstitutsiyaviy normalar bilan, oddiy huquqlar oddiy qonunlar bilan belgilanadi. **Uchinchidan**, huquq o'z navbatida tarmoqlarga bo'linadi. Ular: konstitutsiyaviy huquq; ma'muriy huquq; fuqarolik huquqi; jinoyat huquqi va boshqalar. Ular alohida hujjatlar bilan mustahkamlanib qo'yiladi.

**Huquqiy davlat** – davlat tuzilishi va faoliyatining huquqqa asoslanganligi huquqiy davlatda quyidagi shartlar, albatta, bo'lishi shart: xalq hokimiyatining amalga oshishi; shaxsning huquq va erkinliklarining hech kim, shu jumladan, davlat tomonidan ham hech qanday holda buzilmasligi; konstitutsiya va qonunning ustunligi; hokimiyatning bo'linish tamoyiliga amal qilish; sudlarning mustaqilligi. Davlat faqat huquq yaratib qolmay, o'zi ham ana shu huquq normalariga amal qilishi huquqiy davlatning asosiy xususiyatidir.

**Huquqiy madaniyat** – fuqarolarning yetukligi va ongliligini ko'rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darajasi, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darajasi, huquqning obro'yi singari unsurlardan tashkil topadi. Huquqiy mada-

niyatga huquq fanining rivojlanish darajasi, huquqni tashviqot qilishning qanday yo'lga qo'yilganligi, madaniyatning umumiy darajasi ta'sir qiladi. Huquqiy madaniyat huquqiy ongning amaliyoti, ya'ni huquqni qo'llash, amaliyotga tadbiiq etishdir. Shaxs qanchalik huquqiy bilimiga ega bo'lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, jamiyat uchun katta zarardir.

**Huquqiy madaniyat** – har bir davlatning qonun asoslari, huquq me'yorlarining mavjudligi, fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va o'z faoliyatida ularga rioya etishi. Huquqiy va demokratik davlat barpo etishning muhim sharti hamda fuqarolik jamiyatida kishilarning yetuk ma'naviyati, huquqiy burch va mas'uliyatlari tushuniladi.

**Huquqiy me'yor (norma)lar** – huquqni belgilovchi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar. Ular turli ko'rinish va shaklda namoyon bo'ladi. Huquqiy normalar konstitutsiyada, qonunlarda va boshqa me'yoriy (normativ) hujjatlarda bayon qilinadi.

**Huquqiy ong** – kishilarning huquqqa, qonunga odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi. U hurmatda bo'lish yoki huquqni mensimaslikka ta'sir qiladi. Kishilarning huquqiy ongi qanchalik kuchli bo'lsa, bu huquq normalarining ixtiyoriy bajarilishiga olib keladi.

Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi. Yoshlarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalari, milliy urf-odatlar va qadriyatlarga chuqur hurmat-ehtiromli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Darhaqiqat, huquq asoslarini, konstitutsiya va qonunlar mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, yoshlarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Fuqarolik tarbiyasining mazmun-mohiyati nimadan iborat?*
- 2. Fuqarolik madaniyatini izohlab bering.*
- 3. «Fuqarolik» deganda nimani tushunasiz?*

4. *Fuqarolik mas'uliyatini tushuntirib bering.*
5. *Fuqarolikning asosiy tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?*
6. *Fuqarolik tarbiyasining vazifalari nimalardan iborat?*
7. *Fuqarolarning burchlarini tushuntirib bering.*
8. *«Davlat ramzlari» deganda nimani tushunasiz?*
9. *Fuqarolik tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning rolini izohlab bering.*
10. *Huquqiy madaniyatning ma'nosiga izoh bering.*
11. *«Bilim olish huquqi» deganda nimani tushunasiz?*
12. *Huquqiy ong tushunchasini izohlab bering.*

### Test savollari

#### 1. Komillikning asosiy belgilari ...

- A) Mehr-oqibat, insoniylik
- B) O'zligini anglash, vatanparvarlik, sadoqat
- D) O'z oldiga maqsad qo'ya bilish, milliy qadriyatlarni bilish
- E) Jismoniy salomatlik, axloqiy poklik, aqliy yetuklik.

#### 2. Fuqarolik tarbiyasining maqsadi nimadan iborat?

- A) Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga'oyalari hamda axloqiy-huquqiy me'yorlarga muvofiq faoliyat yuritish
- B) Chuqur vatanparvarlikni tarkib toptirish
- D) Insoniylik va mehr-oqibatni tarkib toptirish
- E) Fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglash orqali o'quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, vatan, jamiyat uchun fidoyi insonlar etib tarbiyalashdir

#### 3. O'zbekiston davlat ramzlariga nimalar kiradi?

- A) Davlat bayrog'i va gerbi
- B) Davlat madhiyasi
- D) Davlat konstitutsiyasi
- E) Yuqoridagilarning barchasi

Oz narsaga qanoat qilgan odam davlatmanddir, negaki bunday qanoat uning ma'naviy boyligidan dalolat beradi.

*Suqrot*

## 12-MAVZU: MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYA VA MEHNAT TARBIYASI

### Reja:

1. Axloq va ma'naviy sifatlar.
2. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik hususiyatlari.
3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kamolotida e'tiqod tarbiyasining o'rni.
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari.
5. Axloqiy tarbiya berishning yo'llari.
6. Mehnat tarbiyasi va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati.
7. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari.
8. O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari.
9. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar.

### Mavzuning maqsadi:

Yoshlarda ma'naviy-axloqiy va mehnat tarbiyasi, ularning mohiyati va vazifalari, ma'naviy-axloqiy tarbiya mezonlari, mehnat tarbiyasining asosiy turlari haqida ilmiy tushuncha berish, o'quvchi-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va intizomni tarbiyalash.

### Mavzuning vazifalari:

- yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash;
- Sharq mutafakkirlarining ma'naviy-axloqiy g'oyalari, hozir-

gi kunda shaxsni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda ularning ahamiyatini ko'rsatish:

– bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mehnat tarbiyasi va ular turlarining rolini belgilash.

**Tayanch ibora va atamalar:** axloq, shaxs ma'naviyati, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ma'naviy-axloqiy madaniyat, ma'naviy-axloqiy kamolot, ma'naviy-axloqiy ong, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish, o'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi, ma'naviy tarbiyada e'tiqodning o'rni, odob, xulq, fazilat, xislat, sifat, xatti-harakat, ijobiy xislatlar, salbiy xislatlar, rostgo'ylik, to'g'rilik, mehnat tarbiyasi, mehnat ta'limi, mehnat faoliyati, ijtimoiy foydali mehnat, mehnat jarayoni.

### 12.1. Axloq va ma'naviy sifatlar

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayyan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda mazkur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

«Axloq» tushunchasi omma fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan oq ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asarlarda ushbu tushuncha turli ko'lamda ishlatilib kelingan.


Axloq (arabcha *xulq-atvor* demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq an'analari) da o'z talablarining asoslanishi, amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hech kimning ko'rsatmasi, hech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydi-

gan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuyidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.



**Axloqiy tarbiya tizimini tashkil etuvchi omillar**

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etish aniq maqsadga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon bo'lib, Ushbu jarayonda quyidagi pedagogik vazifalar hal qilinadi:

1. O'quvchilarga ma'naviy-axloqiy me'yorlar hamda axloqiy munosabatlar mohiyati va ularning ijtimoiy jamiyat hayotidagi ahamiyati to'g'risida ma'lumot beriladi.

2. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, ma'naviy-axloqiy ongni qaror toptirish.

3. O'quvchilarda ijobiy mazmundagi ma'naviy-axloqiy sifatlar (bilimlilik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehr-muhabbat, vatanga, xalqqa muhabbat, ota-ona va kattalarga hurmat, insonparvarlik, saxovat, burchga sadoqat va hokazo)larni qaror toptirish.

4. O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy mazmundagi xulq-atvor, xarakter va irodani shakllantirish.

5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirish.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy-obyektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralari kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

– o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondashuvida namoyon bo'ladi;

– o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

– o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

– o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:



1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosga ega ekanligi.

2. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi.

3. Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalariining aniq maqsadga yo'naltirilganligi.

4. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv.

5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarga tayanib ish ko'rish.

6. Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi.

7. Ma'naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish – faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga o'quvchilarni undashni ham ko'zda tutadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchi (tarbiyalanuvchi)ning o'z-o'zini tarbiyalashni kuchaytirishi katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

## **12.2. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari**

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga qo'yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa, etnografiya, etika, estetika fanlari tadqiq etadi.

«Madaniyat» – arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy hayotda va ma'naviyatda qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuyidir.

Demak, madaniyat – inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasining amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchining ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konferensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'rni va ahamiyatiga ega.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog'i kerak.

### **12.3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kamolotida e'tiqod tarbiyasining o'rni**

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilarga o'xshashga harakat qilishlari, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslanganidir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladilar.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi.

Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak-atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy xulq-odatlarini yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

## 12.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz.

**1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar:** talabanning muomala madaniyati; talabanning ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; Vatan tuyg'usi – muqaddas tuyg'u; talabanning tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi; kitoblar – bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?; ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari; mustaqil O'zbekiston jahon nigo-hida; O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustavor yo'nalishlari; yuksak madaniyat va ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix – millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish. Bunda turli fanlar mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin.

**2. Hikoya;**

**3. Tushuntirish;**

**4. Quyidagi mavzu va yo'nalishlarda ma'ruza va seminarlar tashkil etish va uyushtirish:** ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni; mehr va muruvvat – ulug' inso-

niy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya – kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

**5. Namuna ko'rsatish.** Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «ibrat-namuna – hayot dorilfununi» ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi va bu jarayonni talabalar o'qiydigan o'quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagan ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna – talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng obyektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi». Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi odobi, a'lo o'qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi orqali ham talabalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Biroq, namuna qilib ko'rsatuvchi talabaning shaxsini haddan ziyod maqtamaslik va o'zgalarning shaxsiyatiga tegmaslikka alohida e'tibor berishi lozim.

**6. Kishi ijobiy xislat va fazilatleri insonning olijanoblighi ekanligiga ishontirish.**

Ishontirish tarbiya metodi – talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o'qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarini shakllantiradi, iltatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy udum va an'analarga, falsafiy dunyoqarashga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqur tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

**7. Bahs-munozaralar uyushtirish.** Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha, allomalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha, kitob va kitob xosiyati haqida; kasb va hunar haqida; hamkorlik – taraqqiyot omili ekanligi xususida; «zukkolik va bilimdonlik – aql oynasi» ekanligi bo'yicha; giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to'g'risida, ma'naviy yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o'rni haqida; «mustaqillik va ilm-fan»; «mustaqillik va ta'lim-tarbiya». «mustaqillik va imkoniyat hamda mas'uliyat» ruknlaridagi jarayonlar; halollik va fidoyilik va h.k. shu kabilar orqali tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi hamda bahs-munozarani boshqaruvchi mashg'ulotning ma'naviy-axloqiy jihati bo'yicha xulosalarni bayon qiladi.

Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, talabalarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi.

**8. Uchrashuvlar.** Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq: O'zbekiston Respublikasining madhiyasiga bag'ishlab «Adolat mezoni – yetuklik belgisi» mavzusida uchrashuv; «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni» munosabati bilan «Vatan – sajdagoh kabi muqaddasdir» mavzusida O'zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassislari bilan uchrashuv; «1-mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni» bilan bog'liq uchrashuvlar; «1-oktabr – Xalqaro qariyalar kuni» va «1-oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni»ga oid uchrashuvlar; «5-oktabr – Xalqaro o'qituvchilar kuni» va «5-oktabr – Xalqaro shifokorlar kuni»ga bog'liq uchrashuvlar; «24-oktabr – Xalqaro BMT kuni»ga oid uchrashuvlar; «4-noyabr – YUNESKO tashkil topgan kun»ga oid uchrashuvlar va hokazo.

## 9. Matbuot konferensiyasi.

10. **Tanlovlar o'tkazish.** Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar amalga oshiriladi va quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: krossvord yechish bo'yicha; rebus tuzish bo'yicha; boshqotirmalar tayyorlash bo'yicha; «Tafakkuringizni sinab ko'ring» va «Intellectual ring» o'yinlari bo'yicha; «Bilimlar o'chog'i» va «Oltin toj» o'yinlari asosida; «Shaxs kamoloti o'quvi» va «Yangi fikr» to'garaklari mashg'ulotlari asosida va hokazo.



## 11. Sahnaviy darslar o'tkazish.

## 12. Matbuot materiallari.

## 13. O'quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash.

14. **Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalari.** Bunda milliy g'oyani o'rganishga tayyorlangan axborotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid «Qadriyatlar» nomli ko'makchili kompyuterli tizim, bunyodkor g'oyalarni o'rganishga oid «Bunyodkor» nomli axborotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, talabalar dunyoqarashini yuksaltirishga oid «Intellekt» nomli kompyuterli tizim, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishni optimallashtirishga oid «Axloq» mavzusidagi axborotlashtirilgan intellektual tizim va shu kabilarga e'tibor qaratiladi.

**Ma'naviy-axloqiy xulq, bu boradagi hayotiy tajribalarni hosil qilishga ko'maklashuvchi metodlar:**

1. **Rasmiy kashiy o'yinlar.** Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ma'lumotlar to'planadi va ayniqsa, buyuk allomalarning faoliyati hamda qarashlari, asarlari asosidagi axloq kategoriyalari va ularning

mazmun-mohiyatini ochib berishga oid o'yinlarni («Aql-zakovat», «Oltin toj», «O'yla, izla, top», «Yangi fikr», «Pedagog kim», «Tarbiyachilarni yoki murabbiy» va shu kabi o'yinlarni uyushtirish.

**2. Ishchanlik o'yinlari.** Bunda «Aqlli odam bo'lish yaxshimi yoki dono», «Olim kimu fozil kim?» va hokazo ko'rinishdagi o'yinlar orqali talabalarga axloqiy tarbiya berish amalga oshiriladi.

**3. «Aqliy hujum».** Bunda talabalar ongida ezgulikni va adolatni shakllantirishga oid trening darslarini tashkil etish nazarda tutiladi.

**4. Fikr va g'oyalarni tizimlashtirish.** Bunda fikrlar va g'oyalar kurashi asosida jaholatga qarshi kurashda ma'rifatga va ma'naviyatga tayanish lozimligi ta'kidlanadi.

**5. Bahs-munozara.** Bunda «Oddiy haqiqatlar», «Siz intellektual salohiyatlimisiz?», «Barkamol avlod kim?», «Komil inson kim?», «Donishmandlik qanday shaxslarga xos?» va shu kabi mavzular uyushtiriladi. Ularda talaba-yoshlarning axloq kategoriyalari haqidagi tasavvurlarini kengaytirish nazarda tutiladi.

**6. Musobaqa.** Bunda insonning individdan shaxs darajasiga yuksalishi, aqlli odamning dono darajasigacha yuksalishi va hokazo insonning donishmand darajasigacha aqliy kamoloti bosqichlariga oid guruhlar orasidagi musobaqalar tashkil etiladi. Ulardan ko'zlangan maqsad talabalar ongida ma'naviy yetuk shaxs modelini yaratishdan iborat bo'ladi.

**7. Devoriy gazeta.** Bunda beriladigan ma'lumotlar talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga oid materiallardan iborat bo'ladi va ular iloji boricha darslik va o'quv qo'llanmalaridagi materiallarni boyitishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

**8. Ma'naviy-axloqiy mavzularga oid albom va jurnal tayyorlash.** Bunda ma'naviyatimiz buyuk timsollarining muayyan bir kishiga yoki bir yo'nalishdagi ulug' insonlar fikr, qarash, g'oya va ta'limotlariga asoslangan holda jurnal va albomlar tayyorlash e'tiborga olinadi.

**9. Axloqiy-muammoli vaziyatlar tahlili.** Bunda bunyodkor va vayronkor g'oyalarning odamga, oilaga, jamoaga va davlatga turli xil ta'sirlari to'g'risidagi muammoli vaziyatlar talabalar ishtiro-



kida tahlil etiladi va uning natijasida hosil bo'ladigan xulosalar-ning yoshlarga milliy-ma'naviy tarbiya berishdagi ahamiyati ham o'rganiladi.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari hamda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish barkamol avlodni shakllantirishda mustahkam asoslardan biri hisoblanadi.

## 12.5. Axloqiy tarbiya berish yo'llari

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, talabalarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiya tarbiyalanuvchining yoshi va uning to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni (oila, o'rtoqlar va do'stlar muhiti) ham hisobga olganda shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning yo'l va usullari talabalarga axloqiy saboq berish kabi maxsus ishni tashkil qilishda alohida xususiyatga ega. Axloqiy tasavvurlar, qarash, mulohaza, baho berish kabi tushunchalarni shakllantirishga va shu asosida axloqiy e'tiqodni yuksaltirishga ta'sir ko'rsatadi, ya'ni:

– talabalarni o'zlarining axloqiy tajribalarini mushohada qilishlari va boyitishlariga yordam beradi;

– turli manbaalarda axloq to'g'risida olingan bilimlarni sinaydi;

– shaxsning o'zini axloqiy tarbiyalashga zamin yaratadi.

Axloqiy bilim berishni tashkil qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini, ularning shaxsiy axloqiy tajribalarini, axloqiy me'yorlar to'g'risidagi xabardorlik darajasini, axloq sohasidagi o'zlashtirgan bilimlarning axloqiy talablari bilan munosabatini hisobga olish zarur. Axloqiy bilim, asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar mavzui, kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, talabalar konferensiyalari va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

## 12.6. Mehnat tarbiyasi va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati

Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining oʻrni beqiyosdir. Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bogʻliqdir. Shu sababli mehnat butun moddiy va maʼnaviy boyliklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizidir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulgʻayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola oʻz aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Pedagogika fanida yosh avlodni shakllantirishda mehnat tarbiyasi katta rol oʻynashini rus pedagogi K.D.Ushinskiy bunday deb yozgan edi: «Tarbiyaning oʻzi, agar u kishining baxtiyor boʻlishini istayotgan, uni baxt uchun tarbiyalashi kerak emas, balki turmush mehratiga tayyorlashi lozim».

Mehnat faoliyati bolaning tevarak-atrofdagi muhitni, real buyumlarni anglab olishning mustahkam vositasi boʻlib, unga nazariy bilimlarni qoʻllash imkoniyatini yaratib beradi, uning ongini hissiy tasavvurlar bilan boyitadi.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga eʼtibor berish, mehnat oʻquvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos boʻlishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda boʻlishi, oʻz vaqtida turli kasblar haqida maʼlumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Umuman olganda, mehnat tarbiyasi ijtimoiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Mehnat tarbiyasining bosh gʻoyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, koʻnikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Mehnatga, mehnat qilishga ruhiy tayyorgarlik zarur. Bunda:

- mehnatning inson faoliyatidagi ahamiyatini anglash;
- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish ragʻbatini qaror toptirish;
- mehnatga ongli munosabatda boʻlishlikni qaror toptirish;

- mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- mehnatning kishilik taraqqiyoti bosqichlaridagi roli va o'rnini anglash;
- o'tmish ajdodlarimizning mehnatini ulug'lovchi qadriyatlarni anglash va shu kabilar.

Ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini olib borish maxsus dastur asosida amalga oshiriladi. Mehnat ta'limi dasturi namunaviy xususiyatga ega. Unda maktab, o'qituvchi va o'quvchilar mehnat faoliyatini baholash bo'yicha ta'lim va tarbiya natijasiga nisbatan davlatning minimum (eng quyi) talablari aks etadi.

Mehnat tarbiyasiga nisbatan yangicha yondashish o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishlarini ta'minlashga olib keladi. Bugungi kunda mehnat tarbiyasining tarkibiy tuzilmasi ham o'zgarimoqda, u o'zida texnika va texnologiyalarni tushunish (tasavvur qilish), amaliy vazifalarni hal etish ko'nikmasi hamda holatlarni ifoda etadi.

Mehnat tarbiyasini samarali tashkil etishda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar muhim o'rin tutadi. Mazkur tadbirlar shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham foydali bo'lib, shaxsni yo'naltiruvchi xususiyatga egadir.

## 12.7. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari

Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;
2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;
3. Mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirgantarini alohida qayd etish;

4. O'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;

8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

9. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirishga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rnini va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, «Mohir qo'llar» tanlovi, «Quvnoq shahar ustaxonasi», o'quvishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi xo'jalik, «Yosh radiotexniklar stansiyasi» va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi va boshqalar.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati – bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehti-

yotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

## 12.8. O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Maishiy mehnat;
2. O'quv mehnati;
3. O'quv-ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Bolalar bajaradigan ilk mehnat turi maishiy mehnat bo'lib, u o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishdan boshlanadi.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo'llaniladi. Bola muayyan yoshga to'lgach, kattalarga yordamlashadi, o'z imkoniyatlarini anglab yetadi va o'quv (ta'lim) mehnatiga muntazam tayyorlanib boradi.

Maktabda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga doir quyidagi mehnat ko'rinishlari davom ettiriladi: sinf xonalari va maktab binosi hovlisini ozoda saqlash, tartib-qoidalarga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gulxonalarda gullarni o'stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv havzalari (basseyn)da o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi yumushlarga o'quvchilarni jalb etadilar. Maishiy mehnat yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnatida mehnat-

sevarlik, qat'iylik, tashabbuskorlik, olg'a intilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

**O'quv (ta'lim) mehnati** o'quvchilarning asosiy mehnat turi hisoblanadi. U boladan katta axloqiy, irodaviy va jismoniy zo'r berishni, kuchni talab qiladi. O'quv mehnati faqat bilim olishni, bilishga oid ko'nikmalarni qaror toptirib qolmay, balki bolada ishtiyoq va betartiblikni tarbiyalashga, o'qishga qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashadi, o'qishga bo'lgan qiziqish, istak hamda o'qishdagi muvaffaqiyatlardan xursand bo'lishni his etish aynan maktab partasidan tarbiyalab boriladi.

O'quvchining aqliy va jismoniy mehnati turli darslarda turli tartibda tashkil etiladi. Xususan, jismoniy tarbiya hamda texnik mehnat darslarida jismoniy mashqlar mazkur darslarning asosini tashkil etsa, matematika, fizika, astronomiya, geografiya va chizmachilik darslarida aqliy faoliyat – mantiqiy fikrlash asosiy o'rin tutadi.

Maktab o'quv rejasiga o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida shunday fanlar kiritilganki, ularning asosiy vazifasi o'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishdan iborat. O'quvchilar boshlang'ich ta'lim davrida mehnat ta'limi darslarida qo'l mehnati sirlarini o'rganadilar, turli materiallar bilan tanishadilar, dastlabki mehnat tajribasiga ega bo'ladilar.

Umumiy o'rta ta'lim davrida o'quv ustaxonalarida, maktabga tegishli o'quv-tajriba maydonlarida, otaliq korxonalar sexlarida anchagina murakkab mehnat faoliyatini tashkil eta boshlaydilar. Bunday sharoitda mehnat qilish egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish imkoniyatini beradi.

Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash ishlarini kuchaytirish maqsadida endilikda «o'quv-ishlab chiqarish» tizimini umumiy o'rta maktablar faoliyatiga olib kirish maqsadga muvofiqdir.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda tahsil oluvchi o'quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti jarayonida kasb-hunar va mutaxassisliklar yuzasidan amaliy ravishda tanishadilar. Ularga mehnat ta'limi va tarbiyasini berishda tajribali mutaxassislar, ishlab chiqarish ustalari katta rol o'ynaydilar.


Ijtimoiy foydali mehnat yosh avlodni jamiyat hayotini tashkil etish jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ijtimoiy-foydali mehnatning turlari xilma-xildir. O'qituvchilarning ijtimoiy foydali ishlari asosan sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiladi.

Ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatning (motivi), ijtimoiy-g'oyaviy asoslari ancha chuqurroq bo'ladi. Ya'ni ijtimoiy-foydali mehnat rag'obati jamiyat oldidagi ijtimoiy burchni his etishi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Jamiyat ravnaqi, el-yurt, xalq farovonligi uchun fidokorona mehnat qilish o'smir va o'spirin o'quvchilar mehnatining ijtimoiy-g'oyaviy asosidir.

### 12.9. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar

Ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etishning barcha bosqichlarida mehnat faoliyatini tashkil etishga nisbatan pedagogik talablar qo'yiladi. Mazkur pedagogik talablar quyidagilardan iborat (12.9.1-shakl):

12.9.1-shakl



**O'quvchilar mehnat faoliyatining axloqiy asosda, ijtimoiy-g'oyaviy mazmuniga ega bo'lishi.** O'quvchilarning mehnat faoliyatiga qo'yiladigan mazkur talablar ularni vatan ravnaqi, xalq baxt-saodati yo'lida mehnat qilayotganliklari, mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida umumjamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun bo'lishiga harakat qilayotganliklarida namoyon bo'ladi. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida o'quvchilarda fidoyilik, chidamlilik, sabr-toqatga ega bo'lish, onglilik, to'g'rilik, halollik, mehnatga nisbatan vijdonan yondashish kabi xislatlar shakllanadi. Bajayotgan mehnat yoki shaxsning o'ziga, shuningdek, atrofdagilarga yoki ijtimoiy jamiyat uchun foyda keltirishni o'quvchilarga tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ularga har qanday mazmun va ko'lamdagi mehnatning besamar bo'lmasligini uqtirib o'tish joiz.

**Mehnat faoliyatining jamoa xarakteriga ega bo'lishi** – muhim pedagogik talab sanaladi. O'quvchilar mehnat faoliyati ularda jamoatchilik ko'nikmalarini hosil qilish, o'zaro yordam va do'stlik aloqalarini mustahkamlashni ko'zda tutish lozim. Jamoa asosida tashkil etiladigan mehnat faoliyatida har bir o'quvchining yagona maqsadi asosida mehnat qilish uchun sharoit yaratiladi. O'quvchi mustaqil harakat qilish bilan birga o'rtoqlariga yordamlashadi. Muhimi, jamoa mehnat faoliyatining ijobiy samarasi uchun har bir o'quvchining mas'ulligi ortib boradi.

**Mehnat topshiriqlarni berishda o'quvchilar imkoniyatini hisobga olish.** Mehnat topshiriqlari hamma vaqt o'quvchining kuchi va imkoniyatiga muvofiq bo'lishi kerak. Mehnat faoliyati ularni almashtirib turish, jismoniy mehnatni aqliy mehnat bilan yoki dam olish bilan qo'shib olib borish, mehnat jarayoniga yangi unsurlarni singdirish, mehnatni tashkil etish chog'ida o'quvchilarni zo'riqtirmaslik, toliqtirmaslik zarur.

**Mehnat faoliyatining tizimli va rejali bo'lishiga erishish.** O'quvchilar mehnat faoliyati bir o'quv yili bo'yicha rejalashtiriladi va mehnat ta'limi o'quv rejasida, jadvalda qayd etiladi. Ijtimoiy foydali mehnatning tizimli bo'lishi oddiy mehnat turidan murakkabroq mehnat turiga o'tish, shuningdek, sinfda, maktabda qilayotgan mehnatdan.



maktabdan tashqari sharoitda olib boriladigan ijtimoiy foydali mehnatga o'tish tarzida olib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar mehnat faoliyatining tizimli bo'lishi mehnatning o'quvchi tomonidan hayotiy ehtiyoj, zarurat sifatida e'tirof etilishiga olib keladi hamda bu borada o'quvchida ko'nikma va malaka hosil bo'ladi.

**Mehnat faoliyatining ijodiy xususiyat kasb etishi.** Mazkur talab ham muhim pedagogik talab sanaladi. O'quvchilar mehnat faoliyatining qaysi turiga jalb etilmasin, unda aqliy va jismoniy mehnatning uyg'unlashuviga erishish uchun, unga nisbatan ijodiy yondashish uchun keng sharoit yaratilmog'i lozim. Mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida uning har bir bosqichida o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahat berish to'g'ri emas. Aksincha, topshiriqni berish chog'ida uni qanday bajarilishini tushuntirish, lozim bo'lsa bajarib ko'rsatish, mehnat jarayonida esa o'quvchining mustaqil fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish uchun imkon yaratib berish lozim. O'quvchi mehnati orttirilgan tajriba asosida, shuningdek, tadqiqotchilik vazifalarini hal etish asosida bajarilganda ijodiy xususiyat kasb etadi. Aynan shu holatda o'quvchida qiziqish uyg'otadi, unda mehnatga nisbatan muhabbat ijodiy munosabatni qaror toptiradi.

O'quvchilarni ijodiy mehnatga yo'naltirishda maktab va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya muassasalarida tashkil etiladigan texnika, qishloq xo'jaligi to'garaklari alohida ahamiyatga ega. Bunday to'garaklar faoliyati o'quvchilar ahlini, texnika va qishloq xo'jaligi sohasidagi ijodkorligini o'stiradi. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yilayotgan talablar bir-biri bilan o'zaro bog'liq holda qo'llansa, ijobiy natijalar beradi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Ma'naviy-axloqiy metodlarni aytib bering va ularning vazifasini tushuntiring.*
- 2. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlarning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*

3. *Ma'naviy-axloqiy tarbiyada namuna ko'rsatish metodining mazmunini nima tashkil etadi?*
4. *«Bahs-munozara uyushtirish» deganda nimani tushunasiz?*
5. *Ma'naviy-axloqiy xulqning mazmuni nimadan iborat?*
6. *Ma'naviy-axloqiy xulqni hosil qilishda ko'maklashuvchi metodlarni tushuntirib bering.*
7. *«Ongli intizom» deganda nimani tushunasiz?*
8. *Ongli intizomni shakllantirishda qanday vazifalar amalga oshiriladi?*
9. *«Axloqiy tarbiya berish yo'llari» deganda nimani tushunasiz?*
10. *Axloqiy tarbiyaning vazifalarini tushuntirib bering.*
11. *«Mehnat tarbiyasi» deganda nimani tushunasiz?*
12. *Ijtimoiy foydali mehnatni izohlang.*
13. *Mehnat tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?*
14. *Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?*
15. *Mehnat ta'limini tushuntirib bering.*
16. *«Ijtimoiy mehnat tarbiyasi» deganda nimani tushunasiz?*
17. *O'quvchilar mehnat faoliyatining turlarini aytib bering.*
18. *Maihiy mehnatning mazmunini nima tashkil etadi?*
19. *O'quv mehnatining mazmunini izohlang.*
20. *O'quv-ishlab chiqarish mehnatini tushuntirib bering.*
21. *O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan talablar nimadan iborat?*

### **Test savollari**

1. **Qaysi qatorda axloqqa to'g'ri ta'rif berilgan?**
  - A) Axloq – jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuasidir
  - B) Axloq – oila fikri asosida tartibga solinuvchi faoliyat turidir
  - D) Axloq – ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalovchi tushunchadir
  - E) Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biridir

**2. Ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil nima?**

- A) Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish
- B) Ta'lim-tarbiyaning aloqadorligi
- D) O'qituvchi o'z oldiga qo'ya olgan maqsadga yo'llovchi tushunchadir
- E) Axloqiy me'yorlar

**3. Axloq, odob, xulq, yaxshilik, adolat, insof, diyonat, mardlik, vatanparvarlik qaysi tarbiya turining tarkibiy qismi hisoblanadi?**

- A) Aqliy tarbiya
- B) Axloqiy tarbiya
- D) Huquqiy tarbiya
- E) Estetik tarbiya

**4. Axloq tushunchalarini ko'rsating.**

- A) Vatan muhabbat
- B) Mehnatsevarlik, erksevarlik
- D) Maqtanchoqlik, kitob
- E) A va B javoblar to'g'ri

**5. O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.**

- A) Maishiy mehnat, o'quv mehnat, o'quv-ishlab chiqarish mehnati, ijtimoiy-foydali mehnat
- B) O'quv-ishlab chiqarish mehnati, ijtimoiy-foydali mehnat
- D) O'quv amaliyoti, o'quv-ishlab chiqarish
- E) Maishiy mehnat, o'quv amaliyoti, ijtimoiy-foydali mehnat

Alloh taoloning o'zi go'zaldir. U go'zallikni sevadi.

*Hadisi Sharif*

### 13-MAVZU: ESTETIK VA JISMONIY TARBIYA

#### **Reja:**

1. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati.
2. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari.
3. Estetik tarbiya berish vositalari.
4. Jismoniy tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari.
5. Jismoniy madaniyat.
6. Jismoniy tarbiya ma'naviyati.
7. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo'llari.
8. Jismoniy tarbiya vositalari.

#### **Mavzuning maqsadi:**

Estetik va jismoniy tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari, amalga oshirish shakllari va metodlari, estetik va jismoniy tarbiya konsepsiyasi va ularning ahamiyati haqida ilmiy tushunchalar berish orqali yoshlarda estetik go'zallik, jismoniy kamolotga erishishni tarbiyalash.

#### **Mavzuning vazifalari:**

- estetik va jismoniy tarbiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari, estetik va jismoniy madaniyatni tarkib toptirish;
- estetik va jismoniy tarbiyalashda umuminsoniy va milliy qadriyatlarining rolini ko'rsatish;
- yoshlarda estetik tuyg'u va jismoniy barkamollikka erishishni ta'minlash.

**Tayanch ibora va atamalar:** estetik tarbiya, nafosat, estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati, estetik tarbiya kategoriyalari, badiiy ijod, go'zallik kategoriyasi, san'at asarlari, tasviriy san'at, musiqa, rasm.

jismoniy tarbiya, jismoniy tarbiyaning mohiyati, jismoniy tarbiyaning maqsadi, jismoniy madaniyat, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", Sog'lom avlod, badantarbiya, jismoniy mashqlar, "Universiada" sport musobaqalari, jismoniy tarbiya vositalari.

### 13.1. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati

Har bir ota-onada pedagogik ichki hissiyot mavjud. Ulardan har kim har xil yo'ldan foydalanib farzandlarini tarbiyalaydilar. Bu borada estetik tarbiya eng samarali yo'llardan biridir. Oilada ham, mahallada ham, tanishlar orasida ham estetik tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, el e'zozidagi va xalq e'tiboridagi shaxslarni ibratnamuna qilib ko'rsatish tarbiya samaradorligini oshirishga muhim g'oyaviy asosdir.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri **go'zallik kategoriyasidir**. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiylikini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- **go'zallik** – bu kishining qalbi go'zalligi;
- **go'zallik** – bu kishining istarasi issiqligi;
- **go'zallik** – bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi;
- **go'zallik** – bu barmisoli daraxt, yaprog'i – **axloq, ildizi – ichki dunyo, mevasi – yaxshi fazilat**. Xullas, odam bolasidagi go'zallik –

tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi **xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarini o'z ichiga olgan odamiylikdan** iborat (Mirzakalon Ismoiliy).

Demak, estetik tarbiya nafosat tarbiyasi ham, odamiylik tarbiyasi ham, to'la-to'kis ahamiyatga ega bo'lgan go'zallik tarbiyasidir. Shu sababli talaba-yoshlarni estetik ruhda tarbiyalash g'oyat murakkab, ko'p qirrali dinamik jarayon bo'lib, uning yordamida barkamol shaxs tarbiyasi jarayonini olib borishning optimal variantlarini qo'lga kiritish mumkin.

«**Estetik tarbiya** – o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi.

turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallikni olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir».

«Estetik ta'lim-tarbiya – insonda zavq uyg'otuvchi va uni harakat, shijoat va qahramonliklarga undovchi barcha turdagi ko'rinishlar, holatlar, hodisalar va badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish».



«Estetik rivojlantirish – bu shaxsning estetik ongi, munosabatlari va estetik faoliyatining vujudga kelishi hamda takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayondir. Bu jarayon ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli darajalarga egadir. U shaxsning jamiyat estetik madaniyatini egallab olishga bog'liq bo'lib, turli yo'llar va shakllar yordamida amalga oshiriladi.

U jamiyat estetik madaniyatini turli ma'naviy va moddiy ko'rinishlarda tushunib olishni ta'minlaydi».

Talaba-yoshlar estetik tarbiyasining **mazmuni** asosan:

- estetikaga qiziqish va ehtiyojning mavjudligi;
- estetik jihatdan bilimdonlik;
- estetik ko'nikma va malakalarning shakllanganligi;
- estetik his-tuyg'uning mukammalligi;
- o'z mehnatidan zavq olib bilish va natijani baholay olish qobiliyatlarining, hissiyot va qobiliyatlarining mavjudligi;
- go'zallikka intilish va didlarni tarbiyalashga erisha olishlik kabi insoniy xislatlar majmualaridan iboratdir.

### 13.2. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi talaba-yoshlarda ma'naviy jihatdan go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik didni va san'at asarlarini sevishtirishni shakllantirish. tarix va me'moriy yodgorliklarga nisbatan hurmatni uyg'otish, jonajon tabiatimizga ongli munosabatda bo'lishga oid tasavvurlarni yuksaltirish, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlay bilish ko'nikma va malakalarini hosil qilish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida yosh avlodni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlangan holdagi ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga erishish lozim bo'ladi.

Estetik tarbiya yosh avlodning, ya'ni talaba-yoshlarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo'ladi.

Estetik tarbiyaning vazifalari uning asosiy maqsadini amalga oshirishdan iborat bo'ladi. Bunda mustaqil respublikamizdagi ta'lim-tarbiyani isloh qilish borasidagi sa'y-harakatlar ham e'tiborga olinmog'i lozim.

Estetik tarbiyani oliy o'quv yurtlarida quyidagi yo'nalishlarda olib borgan ma'qul va bu har bir yo'nalish estetik tarbiyaning asosiy maqsadini hal qilishdagi vazifalardan iboratdir:

- **talaba-yoshlardagi estetik tarbiyaga ehtiyojni aniqlash.** Bunda ularning ma'naviy jihatdan go'zallikni his qilishi; estetik ong va did, estetik mulohaza va qiziqishlarning borligi; talaba-yoshlarning o'z estetik didini yuksaltirilishini yoqtirishi; milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmati borligi; jonajon Vatanga, ota-onasiga va o'rtoqlariga hurmat hissi borligi va shu kabilar aniqlanadi;

Estetik ehtiyoj deb. insonning atrofimizdagi olamni estetik jihatdan o'rganib, bilib olishiga, uning badiiy faoliyatini muayyan bir turiga yoki yo'nalishiga undovchi aniq jihatlardan majmuyiga aytiladi.

- **talaba-yoshlardagi estetik moyillikni aniqlash.** Bular talaba-yoshlardagi estetik hayajon, estetik mulohaza, estetik munosabat, badiiy va estetik did, estetik qiziqish, estetik tuyg'u, estetik idrok va

estetik baho kabi ijobiy xislatlar haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarning borligi orqali aniqlanadi.

• **estetik ongning shakllanganligini aniqlash.** Bunda estetik tarbiya ijtimoiy voqelik, tabiat, san'atga nisbatan bevosita muloqot jarayonida shakllangan fikr, g'oya, qarash, nazariya va ta'limotlarning badiiy ta'lim va tarbiyaning natijasida hosil bo'lishga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik ongning asosini esa estetik idrok tashkil etadi va u insonning go'zallik bilan uchrashganida paydo bo'ladi hamda uning aniq maqsadga yo'naltirilganligi bilan ham xarakterlanadi. Estetik ongning shakllantirilishi bilan talaba-yoshlarda go'zallik va xunuklik, saxiylik va baxillik, xushfe'llilik va qo'pollik, xursandchilik va xafalik, shodlik va qayg'u, najot va falokat kabi juftliklarning mazmun-mohiyatlarini to'g'ri anglashni tarbiyalashga erishiladi. Bu orqali talaba-yoshlarda tevarak-atrofga nisbatan to'g'ri ongli munosabat va go'zallikni tushunish shakllanadi;

• **talaba-yoshlar ongida estetik tarbiya kategoriyalarining mazmun-mohiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.** Bunga talaba-yoshlar ongiga estetik madaniyat, madaniy meros, shaxs estetik madaniyati, estetik ong, estetik idrok, estetik bahs, estetik ideal, estetik qiziqish, estetik bilim, estetik moyillik, estetik did, estetik hissiyot, estetik mulohaza, estetik ehtiyoj, estetik munosabatlari, estetik faoliyat kabi kategoriyalar mazmun-mohiyati haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni singdirish yordamida erishiladi;

• **ilmiy dunyoqarashning ma'naviy qiyofasini shakllantirish.** Bunda hayotni bilib borishga, nafosatni tushunishga, insonning butun qiyofasini, ya'ni uning his-tuyg'ularini va estetik irodasini mustahkamlashga e'tibor berish lozim;

• **estetik tarbiyani milliy-ma'naviy qadriyatlar asosida tashkil etish.** Bunda o'zbek xalqining o'tmishdan bizga qoldirgan ma'naviy meroslariga e'tiborni kuchaytirish kerak. Ayniqsa, qomusiy olimlar, hadis ilmi sohiblari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, davlat arboblari, xalq qahramonlarini hayoti va faoliyatidagi estetikaga oid materiallar estetik tarbiyani asosli ravishda olib borishga keng imkoniyatlar yaratadi;



• **talaba-yoshlarni estetik faoliyatga tayyorlash.** Bunda estetik faoliyat bilim, ko'nikma va malakalar kabi ijobiy qobiliyatlar mavjudligi bilan xarakterlanishini esdan chiqarmaslik kerak. Shuning bilan birga ushbu jarayonga jamoaviy jarayon deb qarash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunga sabab, bunday o'rgatish guruh vazifalarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchilarni faol estetik va badiiy faoliyatga jalb qiladi, ularda estetik va badiiy idrokni rivojlantiradi.

• **estetik va badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish.** Bunda o'zbek xalqining o'tmishdagi boy milliy-ma'naviy merosiga, xususan, badiiy boyliklarga va san'atiga egaligi muhim didaktik asos bo'ladi va o'qituvchidan har bir bolada umumiy va individual badiiy-ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishini, hissiy hozirjavoblik qobiliyatini hamda fazoviy tafakkurni yuksaltirishni hisobga olib pedagogik faoliyat yuritishini talab etadi.

### 13.3. Estetik tarbiya berish vositalari

Estetik tarbiyani samarali amalga oshirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kino-teatrlar, galereyalar, o'tmish obidalari, tarixiy me'morchilik yodgorliklari, san'at asarlari va tarixiy madaniy joylar va hayot tarzimizdagi borlig'imiz hamda ulardagi go'zalliklar talaba-yoshlarimizni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo'ladi.

**Estetik tarbiya vositalari** – talaba-yoshlarni estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san'at estetikasi va yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, go'shiq, boshqa musiqaviy harakatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o'qituvchilarda mustaqil izlanish, ijod qilishga doir ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, oila nafaqat tarbiyaning dastlabki o'chog'i, balki go'zallikning dastlabki maktabi hamdir. Bunda oila a'zolarining o'zaro munosabatlaridagi go'zal va mazmunli muloqot, uy jihozlarining tartibli, mazmuni chiroyli qilib joylashtirilishi, oiladagi saranjom-

sarishtalik va uying barcha narsalarining estetik did bilan joylashtirilishi estetik tarbiyalashga asosiy vositalari hamdir. Bunday vositalar o'quvchining maktabdagi va keyingi boshqa o'quv muassasalaridagi estetik tarbiyalanishida asosiy poydevorlardir. Bu jarayon maktablarda sinf xonalari, dahlizlar, fan kabinetlari, to'garak xonalarini jihozlashda yana davom ettirilib, ular asosida yodgorlik va a'lochilar burchaklarini tashkil etish davomida yanada rivojlantiriladi. Bularning barchasi bolalarning estetik didini yuksaltirishga ijobiy ta'sir etadi. Bular yana oliy o'quv yurtlarida davom ettiriladi.

Bu borada turmush tarzimizdagi estetika ham muhimdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, estetik tarbiya ham oiladan boshlangani ma'qul bo'ladi. Bunda oiladagi tartiblilik, intizomlilik, tozalik, ozodalik, narsalarni joy-joyiga qo'ya bilishlik, bezash ishlarini olib borishda estetik didni ishga solish kabi estetik tarbiya kategoriyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Pirovard natijada talaba-yoshlar o'z o'quv xonalari-dagi tozalikni saqlanishi, jonli burchaklarning tashkil etilishi, talabayoshlarning ijodiy ishlari ko'rgazmasining tashkil qilinishi, a'lochilar doskasini tayyorlash va shu kabi badiiy-estetik sa'y-harakatlarni muvaffaqiyatli bajaradilar.

Bulardan tashqari san'at va san'at asarlari ham asosiy estetik tarbiya vositalaridan hisoblanadi. Bunda san'atning turli yo'nalishlari va janrlari yordamida talaba-yoshlarning badiiy-ijodiy qobiliyatlari rivojlantirilib borilishiga erishiladi. Auditoriyadagi ta'lim-tarbiya jarayonida turli fanlarni o'rganishda va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda (kechalar, suhbatlar, ko'rgazmalar, muzey va teatrlarga ommaviy ravishda borish, rasmlar galereyasiga borish, san'at yodgorliklari, rassom va me'morlar hamda haykaltaroshlar ustaxonalariga sayohat uyushtirish, amaliy san'at to'garaklariga qatnashish, tanlovlar o'tkazishni tashkil etish va shu kabilar talaba-yoshlarning estetik tarbiyasida asosiy vositalar bo'lishi bilan birga muhim yo'nalishlar hamdir. Shuning bilan birga talaba-yoshlarga estetik tarbiya berishda ashula, musiqa, badiiy chiqishlar, ommaviy-tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish ham ijobiy-pedagogik samaralarni beradi va ularning estetik didini o'stiradi.

### 13.4. Jismoniy tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari

**Jismoniy tarbiya mohiyati.** Jismoniy tarbiya, shu jumladan muntazam ravishdagi jismoniy mashqlar kishi organizmining har qanday muhitga chidamliligini oshirishga, sog'lig'ini mustahkamlashga, ongli ravishda uzoq umr ko'rish imkoniyatlarini kuchaytirishga qaratilgan faoliyatdir.

Bugungi kunda hukumatimiz bunday muhim omillarni e'tiborga olib qolmasdan, balki ularni muntazam ravishda amalga oshirib borishni davlat siyosati darajasigacha ko'tarmoqda. Jumladan, «**Umid nihollari**» (o'rta umumta'lim o'quv muassasalari o'quvchilari uchun), «**Barkamol avlod**» (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari o'quvchilari uchun), «**Universiada**» (oliy o'quv yurtlari talabalar uchun) kabi respublika miqyosidagi musobaqalar davlatimiz tomonidan talaba-yoshlarimizning ham jismonan, ham ma'nan yuksakligini o'ylab qilinayotgan tadbirlardir. Bular orqali yoshlarni barkamol shaxs darajasida tarbiyalashga erishamiz va ular yuksak unumli ongli mehnat qilishga tayyor bo'ladi hamda o'z ona-Vatanini sodiqlik bilan qo'riqlashdek xislatlarga ega bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan tadbirlardan asosiy maqsad – yosh avlodni bolalik chog'idan boshlab jismoniy jihatdan sog'lom va baquvvat hamda irodali qilib tarbiyalashdan iboratdir.



**Jismoniy tarbiyaning maqsadi** – insonni har tomonlama jismoniy jihatdan chiniqqan, mustahkam irodali, qat'iyatli va Vatanni himoya qila oladigan sabot-matonatli shaxsni tarkib toptirishdir. Bunda kishining ijodiy imkoniyatlari doirasini kengaytiriladi va ularning

mehnat tarbiyasiga hamda ijtimoiy-foydali mehnatga yo'naltirilishiga e'tibor kuchaytiriladi. Bular bolalardagi harakat ko'nikmalarining ortib borishi, jismoniy sifatlarning takomillashuvi va sog'lig'ining mustahkamlanishiga har tomonlama yordam beradi.

#### **Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilar:**

- har tomonlama, ya'ni ham jismonan, ham ma'nan rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishga muhim hissa qo'shib va ulardagi ozodalik, pokizalik, irodalilik, sabr-bardoshlilik ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iboratdir (bosh vazifa);

- sog'liqni mustahkamlash, organizmni chiniqtirish, jismoniy takomillashuvga asos yaratish;

- yoshlar ongida harakat turlari to'g'risida tasavvur hosil qilish va ularning kishi sog'lom turmush tarzidagi ahamiyati haqidagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

- kishining harakatlanish jarayoniga tegishli faoliyatini takomillashuviga yordam berish;

- yoshlarning yoshiga, jinsiga mos keladigan jismoniy mashqlar tizimini aniqlash va ularning asosiy harakat faoliyatining rivojlantiruvchi mexanizmlarini (texnologiyalarini) ishlab chiqish;

- jismoniy tarbiya va sport, jismoniy madaniyat va onglilik sohasidagi ma'lumotlarni bayon qilishda axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutish;

- yoshlarning sport bilan qiziqish va unga bo'lgan maylligini hosil qilish yordamida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan muntazam ravishda shug'ullanish uchun odatlanishiga yordam berish (ijobiy ta'sir ko'rsatish);

- yoshlar turmush tarzida jismoniy tarbiyaga ongli munosabatda bo'lishni o'rgatish, ya'ni o'z sog'lig'iga ongli munosabatda bo'lishni shakllantirish orqali ularni gigiyena qoidalariga amal qilishni va ertalabki gimnastika qilishga odatlantirish hamda doimiy ravishda sport mashg'ulotlariga qatnashishini tarkib toptirish.

Jismoniy tarbiyaning eng muhim tomonlaridan biri – yoshlarni ongli harakat qilishga o'rgatishdir. Bu borada kichik yoshdagi bolalarning asab tizimi nihoyatda sezuvchan va ta'sirchan bo'ladi. Shu sababli ham ularda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini olib borish sama-

rali kechadi. Ana shunda ularning fiziologik imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda harakat qilishga o'rgatish izchil ravishdagi pedagogik va metodik talablar asosida tashkil etilsa, u holda yoshlardagi jismoniy tarbiya samarali bo'ladi.

Jismoniy tarbiya darslarida yoshlarni turli maqsadli (rejalashtirilgan) harakatlarga o'rgatish uchun bir necha bosqichli mashq qildirish metodidan foydalanish lozim bo'ladi. Bunda asosiy maqsad rejalashtirilayotgan va bajarilayotgan harakatlar yoshlarning qaddi-qomatni to'g'ri tutishga o'rgatishga yoki ularning harakatidagi nuqsonlarini to'g'rilashdan iborat bo'lishi kerak.

Bu yoshlardagi jismoniy kamolot asoslari bo'lmish quyidagi jihatlarning to'g'ri shakllanishiga yordam beradi:

- yoshlarni o'z qomatlarining to'g'riligini kuzatib borishiga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;
- yoshlarning qomatining risoladagidek bo'lishiga va go'zalligiga intilishni uyg'otadi;
- qomatni to'g'rilash uchun zaiflashib qolgan muskullarni chiniqtirishga bo'lgan zaruratni uyg'otadi;
- ularning harakat sifatlari ichidagi chaqqonlikka qiziqishlari kuchayadi.

### 13.5. Jismoniy madaniyat

**Jismoniy madaniyat** tushunchasi – bu ancha keng tushuncha bo'lib, u jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish hamda ma'naviy takomillashuvlarning uyg'unlashgan ko'rinishidir.

Abu Ali ibn Sino sog'liqni saqlashda yettita narsaga e'tibor berishni tavsiya etadi:

- fe'l-atvorni yaxshilash;
- narsalarni tanlab yeb-ichish;
- gavdani chiqindidan tozalash;
- badanning to'g'ri tuzilishini saqlash;
- toza havodan nafas olish;
- mos kiyim tanlash;
- jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil qilish.

Umuman olganda **jismoniy madaniyat** umumiy madaniyatning bir qismi bo'lib, ushbu sohadagi jamoatchilik yutuqlarini va bu yutuqlarni qo'lga kiritishning metod hamda vositalarining majmuasi asosida jismoniy rivojlanishga va yo'nalishga tegishli bilimlarni egallashga ta'sir ko'rsatuvchi jihatdir.

Sportda va boshqa jismoniy mashqlarni bajarishda yoshlardan tezkorlik bilan vaziyatni baholash va shu baho asosida harakat shaklini bajarishga o'tishni taqozo etadi. Bu tezkorlikni, ya'ni eng qisqa vaqtda, eng unumli (maqsadli) harakatni amalga oshirish hamma yoshlardan talab qilinadi. Bu esa ularning musobaqaviy fikrlash doirasini ham kengaytirishga olib keladi. Ular ichidan yuqoridagi qayd etilganidek tez o'ylab, tez harakat qilish natijasida birinchi, ikkinchi va hokazo o'rinlarda ushbu jarayonlarni bajarganlar baholanadi. Ushbu jarayonda jismoniy sog'lomlik bilan tez qaror qabul qilish tafakkuri asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bunday jarayonlarda yoshlar o'zlari bajarayotgan mashqlarning mazmunini ongli ravishda tushunsalar jarayon samarali va mazmunli kechadi hamda bu orqali ular o'z harakatlari ongli boshqaradilar, ya'ni ular da to'g'ri harakat to'g'risida tasavvur hosil bo'ladi. Bunda fikr yuritish faoliyati yoshlarga harakatlarni aytib bajarish, o'z o'rtoqlarining harakatlarini kuzatish, tahlil qilishda muhim hisoblanib, ular **jismoniy madaniyatning** tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Yoshlar jismoniy madaniyatini yuksaltirishda quyidagi ommaviy-jismoniy tadbirlarning mazmun-mohiyati to'g'risida ma'lumotlar berib borish muhimdir:

- «Umid nihollari» – o'rta maktab o'quvchilarining respublika sport musobaqalari;
- «Barkamol avlod» – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari ta'lim oluvchilarining respublika miqyosidagi sport musobaqalari;
- «Universiada» – oliy o'quv yurtlari talabalari o'rtasida o'tkaziladigan respublika sport musobaqalari va shu kabilar.

Shuningdek, quyidagi mavzularda suhbatlar o'tkazish ham yoshlar jismoniy madaniyatining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

- sog' tanda – sog'lom aql;
- ma'naviy sog'lom shaxs kim?;

- ma'naviy va jismoniy poklik jismoniy madaniyat shakllanishida qanday imkoniyatlarni kengaytiradi?;
- sog'lom avlod – yurtimizning asosiy qo'riqchilaridir;
- sog'lig'imiz o'z qo'limizda;
- kuch→tezkorlik→chaqqonlik→chidamlilik→aql-idroklilik→sog'lom fikrlilik – jismoniy madaniyat asoslaridir;
- inson jasorati jismoniy madaniyatning qaysi asosi hisoblanadi;
- qahramonlik, jasorat va jismoniy madaniyat va shu kabilar.

### 13.6. Jismoniy tarbiya ma'naviyati<sup>1</sup>

Vujudning jismoniy tarbiyasi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin, bu sohada maxsus adabiyotlarda qayd etilgan. Unda jismoniy tarbiyaning metodologik asoslarini, ya'ni asosiy tamoyillarini qayd qilib o'tamiz, xolos.

**Jismoniy tarbiyaning birinchi tamoyili** – bu jismoniy mashqlarni juda ham sekin bajarishda. Jismoniy mashqlarni qancha tez va terlab bajarsang, shuncha yaxshi, degan gaplar hozirgi kunda ham ishlatiladi. Jismoniy mashqni mumkin qadar sekin bajarib, tez-tez bajarilgan mashqlar bilan erishgan natijaga erishsa bo'ladi. Farqi shunda bo'ladiki, sekin amalga oshirilgan mashqlar yurakka og'irlik qilmaydi va kuch saqlanib qoladi. Mashqlar tez bajarilganda ancha quvvat sarf bo'lib, yurakka og'irlik tushadi, yurak sekin-asta charchab, insonning umri qisqaradi. Sekin bajarilgan mashqlar juda qiyin bo'lib, odamdan katta irodani talab qiladi.

**Ikkinchi tamoyil** – to'g'ri nafas olish. Sahar turib, birinchi qiladigan ishingiz, toza havoga chiqib, buning iloji bo'lmasa uyda deraزالarni ochib qo'yib yura boshlaysiz. Maqsad badanni qizdirib, vujudingizga nafas olishni o'rgatish. Buning uchun uch yoki to'rt qadamda (bu sizning o'pkangizning hajmiga bog'liq) burun orqali nafas olasiz, keyingi uch-to'rt qadamda nafasni chiqarasiz, qorin bilan nafas olishga e'tibor bering. Nafas olganingizda ko'kragingiz ko'tarilmasin, bu juda muhim. Nafas chiqarayotganingizda qorningizni ichga tor-

<sup>1</sup> Ushbu paragraf Bo'ri Ziyomulhammedovning «Komillikka eltuvchi» nomli kitobi (343–345-betlar)dan olindi.

tib, iloji boricha orqa umurtqangizga yopishtirishga harakat qiling. Bu to'g'ri nafas olish hisoblanib, bu mashqni ertalab 15–20 minut davomida bajarish kerak. Kun bo'yi ham, iloji bo'lsa har soatda, iloji bo'lmasa imkoniyat paydo bo'lganda, 5 daqiqa mobaynida mashqlarni takrorlash yaxshi natija beradi. Nafasni ovoz chiqmaydigan darajada sekinlik bilan tortish va chiqarish lozim. Har bir mashqni bajaranda, yurganda va boshqa holatlarda bu qoidaga rioya qilinishi shart. Umuman, hech qachon nafasni ko'p ushlab turmaslik kerak, bu zararli bo'lib, o'pkani ishdan chiqaradi.

**Uchinchi tamoyil – mashqlarni bajarish tartibi.** Erta bilan yengil mashqlar bajarilib, kechqurunga yaqin, uyquga ketishdan uch – to'rt soat oldin og'ir mashqlar bajarilishi to'g'ri bo'ladi. Og'ir mashqlarga mushaklarni chiniqtiradigan va ko'p kuch talab qiladigan mashqlar kiradi. Bular yugurish, tosh ko'tarish, arqon tortish va boshqa snaryadlar yordamida bajariladigan, ko'p kuch talab qilinadigan mashqlardir. Har qanday mashqni bajarishdan oldin badanni qizdiruvchi mashqlar bilan vujudingizni qizdirib olishingiz shart. Ularga tez yurish, yugurish va boshqa jismoniy mashqlar kiradi.

### **13.7. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo'llari**

Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo'llari quyidagicha:

**1. Ertalabki badantarbiya.** Sog'lom bo'lishni va muntazam aqliy rivojlanishni o'ziga maqsad qilib olgan har qanday insonning ertalabki badantarbiyasi ish kunining asosiy dastlabki bosqichidan iborat bo'lmog'i lozim. Bu holatga o'qituvchi ham alohida e'tiborni qaratish lozim bo'ladi, ya'ni o'qituvchi har bir o'quvchining ish kuni badantarbiya mashqlarini bajarishdan boshlanishiga erishish kerak. Bunday mashqlar uchun mo'ljallangan harakatlar majmualarini jismoniy madaniyat darslarida o'rganish kerak. Har bir majmuaga 6–7 ta mashq kiritiladi va bunda muskullarning hammasini qamrab oluvchi mashqlar (harakatlar) e'tiborga olinmog'i lozim bo'ladi.

**2. Mashg'ulotlargacha bo'lgan badantarbiya.** Bunday mashg'ulotlar dars jarayoni boshlangunga qadar amalga oshiriladi. Munta-



zam ravishda olib boriladigan bunday mashqlardan ko'zlangan maqsad, o'quvchilar organizmining tashqi muhitga nisbatan chiniqishini va qomatining to'g'ri rivojlanishini ta'minlashdan iborat bo'ladi. Bu turdagi badantariyani sport maydonlarida o'tkazilsa qulay bo'ladi va bu bilan qo'shimcha ravishda yugurish, sakrash kabi harakatlarni ham qo'shib olib borishga imkoniyat yaratiladi. Har qanday sharoitda ham kamida bir oyda bunday mashg'ulotlar majmuasini tarkibiy harakatlar tizimini almashtirib turish lozim.

**3. Jismoniy tarbiya daqiqasi.** Bu turdagi mashg'ulotlar jismoniy madaniyatga ko'proq tegishli bo'lib, ayniqsa, muayyan fanlarni o'zlashtirish davomidagi aqliy toliqishning oldini olish uchun undan foydalaniladi. Bunday harakatlardan (harakatlar majmuyini o'qituvchi tanlaydi) ko'zlangan maqsad quyidagilardan iborat:

- ta'lim oluvchilarning asab tarangligini bo'shashtirish;
- ta'lim oluvchilarning jismoniy holatini yaxshilash;
- diqqatini yanada o'rganilayotgan mavzuga kuchaytirish.

Umuman olganda jismoniy tarbiya daqiqasi asosan quyidagi uch qismdan iborat bo'ladi:

1. Harakatlarga kirishishni ta'minlash;
2. Oyoq muskullarini harakatlantirishga mo'ljallangan mashqlar;
3. Tananing boshqa a'zolarini harakatlanishiga mo'ljallangan mashqlar.

Bunday ko'rinishdagi jismoniy tarbiya daqiqalari o'yin ko'rinishida tashkil etilib, bunda qo'l harakatlari barcha mashq turlarida mos holda ishtirok qiladi.

#### **4. Madaniy jismoniy yayov yurishlar va sayr qilishlar.**

Bunday mashqlarga odatda havoning ochiq kunlari va darsdan tashqari vaqtlar tanlanadi. Jismoniy yayov yurishlar asosidagi sayrlarda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi:

- uni to'g'ri uyushtirishni rejalashtirish lozim;
- sayr dasturi mukammal ishlab chiqilmog'i lozim;
- sayr harakat rejasi oldindan aniqlanib, ma'qullanib olmog'i lozim;
- o'quv yurti rahbariyati va ota-onalar bunday jismoniy harakatlar majmuyidan xabardor bo'lmog'i lozim;

- ushbu harakatlar majmuyini amalga oshirish muddatini bir kundan oshirmaslik lozim;

- sayr qatnashchilarining xavfsizligi va salomatligiga mutasaddilar oldindan belgilanishi lozim va shu kabilar.

**5. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumiy jismoniy tarbiya.** Bunday turdagi jismoniy tarbiya sport turlariga mos holda tanlanadi va ular yilning fasllarini e'tiborga olgan holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlarning asosiy mazmuni jismoniy tarbiya o'quv dasturining mazmuniga mos bo'ladi.

**6. Sport musobaqalari.** Bu ta'lim oluvchilarning muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishini e'tiborga olinishini nazarda tutiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik guruhlarini tuzishga keng imkoniyatlar yaratadi va ular bolalar jamoalarini yanada jipslashtiradi. Bu borada Respublikamizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktab o'quvchilari uchun «Umid nihollari», o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari o'quvchilari uchun «Barkamol avlod», oliy o'quv yurtlari talabalari uchun «Universiada» va shu kabi respublika miqyosidagi sport musobaqalarining tashkil etilishi yoshlarimizning ham jismonan, ham aqlan barkamol bo'lishiga yurtimizdagi katta e'tibordir.

### **Jismoniy tarbiya vositalari**

Ma'lumki, insonning hayoti va faoliyati hamda turmush tarzi turli-tuman jabhalardan iboratdir. Bu jabhalar ichida eng muhimi ularning sog'lom turmush tarzidir.

Bugungi kun taraqqiyoti saviyasi uzluksiz ta'lim tizimi oldiga yosh avlodni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, intellektual salohiyatli shaxs qilib yetishtirishdek muhim talablarni qo'ymoqda.

Bu talablarni bajarish uchun jismoniy ma'naviyat va madaniyatni og'ishmay amalga oshirish hamda ularga mos jismoniy tarbiya vositalarini jamul-jam qilmoq lozim. Zero yetuklik va komillik o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra mustaqil ong va faoliyat zahirida shakllanadi, shuningdek, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalar sohibi bo'lishga

intilish jismonan sogʻlom, aqlan teran, ruhan tetik boʻlish yoshlarning jamiyatda oʻz oʻrnini topishga zamin yaratadi.

Demak, insonning har tomonlama kamol topishi uchun jismoniy tarbiya zarur va bunda jismoniy tarbiya vositalaridan toʻgʻri foydalanishning ahamiyati beqiyosdir.

Jismoniy tarbiya vositalari quyidagicha:

- sanitariya-gigiyena omillari;
- tabiatdagi sogʻlomashtiruvchi kuchlar;
- jismoniy tarbiya vazifalarini hal etishga yoʻnaltirilgan jismoniy mashqlar tizimi.

Endi har bir yoʻnalish boʻyicha qisqacha maʼlumotlarni keltiramiz.

**Birinci yoʻnalish**, asosan, jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning kundalik rejimi asosida harakatlar majmuyini tashkil etadi. Qatʼiy rejim har qanday yoshni sogʻligʻini muntazam ravishda taʼminlash bilan birga ularni algoritmik tarzda tartib-intizomga ham oʻrgatadi va bu faoliyat shartli refleksga aylanib boʻladi. Shuningdek, yoshlarning kundalik rejimni muntazam ravishda bajarib borishi, ular organizmining ritm bilan ishlashiga odatlantiradi va domiy hayotiy ehtiyojga aylanadi.

Rejimga rioya qilmaslik, yaʼni oʻz vaqtida ovqatlanmaslik. meʼyorida uxlamaslik, aqliy va jismoniy mehnatlarning tartibsiz bajarilishi quyidagi salbiy oqibatlarining paydo boʻlishiga olib keladi:

- kishi organizmini tashqi muhitga chidamliligi susayadi, yaʼni organizm boʻshashib ketadi;
- organizm hujayralarining meʼyoriy harakatlari faoliyati buziladi;
- kishi bosh miyasining faoliyati buziladi.

Kundalik rejim tuzishda kishilar yoshi, oʻquv yurtlaridagi mashgʻulotlar muddati, ovqatlanish vaqti, ochiq havoda dam olish vaqti, yilning fasllari va aqliy mehnat bilan jismoniy mehnatning almashinuvi kabi jihatlari eʼtiborga olinsa, kundalik rejim tuzishning **optimal variantlarini** kafolatlashga erishiladi.

**Ikkinchi yoʻnalish**. Kishi jismoniy sogʻlomligini taʼminlashda tabiatdagi sogʻlomashtiruvchi kuchlardan foydalanish yoshlarning sogʻligʻini mustahkamlash, organizmni chiniqtirish va ularning

muntazam jismonan rivojlanish darajasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asosiy vositalar quyosh, havo va suvdan iborat bo'ladi, ya'ni tabiat kuchlari jismoniy mashg'ulotlar o'tkazish va mustaqil shug'ullanish uchun eng asosiy vositalar sifatida foydalaniladi.

**Uchinchi yo'nalish.** Jismoniy tarbiyada foydalaniladigan jismoniy tarbiya vositalari orasida eng ko'p qo'llaniladigani jismoniy mashqlar tizimidir. Ular orqali quyidagi samaralarga erishiladi:

- gavda muskullarining me'yorida o'sishi ta'minlanadi;
- organizm jismonan mustahkamlanadi;
- yurak qon-tomir tizimi faoliyati yaxshilanadi;
- nafas olish tizimining ishlashi yaxshilanadi;
- bosh miya qobig'ida harakatlantiruvchi sohalarning faoliyatini yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu yo'nalishdagi jismoniy tarbiya vositalari tizimida gimnastika, harakatli o'yinlar va sport mashg'ulotlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Gimnastikaning quyidagi turlari mavjud:

- asosiy gimnastika, ya'ni gigiyenik gimnastika;
- sport gimnastikasi va uning ba'zi turlari (akrobatika, badiiy gimnastika va shu kabilar);
- yordamchi, jumladan davolovchi gimnastika.

**Sport.** Jismoniy tarbiya tizimida sport musobaqalarini tashkil etishi va uyushtirilishi jismoniy tarbiyani og'ishmay amalga oshirishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Bunday xatti-harakatlar ko'proq musobaqaviy tarzda amalga oshirilib, ularda eng yuqori yutuqlarga intilish, ya'ni g'oliblikni qo'lga kiritish, muntazam ravishda mashq qilish, sport musobaqalarga qatnashish, sport razryadlari olish, «sport ustasi» maqomiga sazovor bo'lish va hokazo ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

## **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Estetik tarbiya deb nimaga aytiladi?*
- 2. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati nimadan iborat?*

3. «Estetik rivojlanish» deganda nimani tushunasiz?
4. Estetik tarbiyaning maqsadini izohlab bering.
5. Estetik tarbiyaning vazifalarini tushuntiring.
6. Estetik tarbiyani shakllantirishda asosiy vositalarning rolini izohlab bering.
7. Estetik tushunchani shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligini tushuntiring.
8. Jismoniy tarbiyaning mohiyati nimadan iborat?
9. Jismoniy tarbiyaning vazifalarini tushuntirib bering.
10. «Jismoniy madaniyat» deganda nimani tushunasiz?
11. Jismoniy tarbiyaning zarurligi to'g'risida buyuk mutafakkir ibn Sino fikrlarining mazmunini tushuntirib bering.
12. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismlarini nimalardan iborat?
13. Jismoniy tarbiya ma'naviyati deganda nimani tushunasiz?
14. Jismoniy tarbiyaning asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
15. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo'llariga nimalar kiradi?
16. Sport musobaqalari deganda nimani tushunasiz?
17. Jismoniy tarbiya vositalari nechta yo'nalishdan iborat?
18. Jismoniy tarbiyada sportning mohiyatini tushuntirib bering.

### Test savollari

1. «Sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm – ma'rifvtga ega bo'lmoq uchun badan tarbiya qilish zarur» ushbu fikr kimga tegishli?
  - A) Behbudiya
  - B) Avloniyya
  - D) Shakuriyya
  - E) Cho'lponga
2. Jismoniy tarbiya darslarining asosiy vazifalaridan biri ...
  - A) O'quvchilarda sportga qiziqishini o'yg'otish
  - B) O'quvchilarda tezkorlik va chaqqonlik kabi sifatlarni rivojlantirish
  - D) O'quvchilarni jismoniy baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi
  - E) O'quvchilarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish

**3. Chiniqish, o'yinlar, sog'lom tan, harakat tushunchalari tarbiyaning qaysi turiga tegishli?**

- A) Mehnat tarbiyasi                      B) Jismoniy tarbiya  
D) Ekologik tarbiya                      E) Axloqiy tarbiya

**4. Respublikamizda nechanchi yil «Sog'lom avlod yili» deb e'lon qilindi?**

- A) 2003-yil                                  B) 2002-yil  
D) 2001-yil                                  E) 2000-yil

**5. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalarini ko'rsating.**

- A) Axloqiy did va ongini, xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini rivojlantirish umumiy madaniyat va milliy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash  
B) Jismoniy rivojlantirish, sog'liqni saqlash, tozalik-sog'lik tarbiyasi  
D) Estetik ehtiyojni tarbiyalash, estetik tushuncha did va badiiy qobiliyatlarini rivojlantirish  
E) Intizomlik, sofdillik, mehr – oqibat va insonparvarlikni tarbiyalash

**6. Go'zallik, keyinish, tozalik, yurish-turish, saramjon-sarishtalik qaysi tarbiya turining tarkibiy qismiga kiradi?**

- A) Huquqiy tarbiya  
B) Axloqiy tarbiya  
D) Ekologik tarbiya  
E) Estetik tarbiya

**7. «Badantarbiya sog'liqni saqlashda ulug'vor usuldir». Ushbu fikr qaysi allomaga tegishli?**

- A) Abu Rayhon Beruniy  
B) Abu Nasr Forobiy  
D) Abu Ali ibn Sino  
E) Mirzo Ulug'bek

**8. Jismoniy tarbiyaning vazifasi nima?**

- A) O'quvchilarning jismoniy baquvvatligini ta'minlash  
B) Tetik va xushchaqchaqlikni ta'minlash  
D) Mehnatga qobiliyatli qilib tabiyalash  
E) Hamma javob to'g'ri

**9. Komillik 3 bosqichdan iborat bo'ladi. Ular qaysilar?**

- A) Jismoniy salomatlik, axloqiy poklik, aqliy yetuklik
- B) Aql-zakovat, yuksak ma'naviyat insonparvarlik
- D) Iymon, insof, diyonatli qilib tarbiyalash
- E) A va B javoblar to'g'ri

**10. Estetik tarbiyaning asosiy vazifalarini ko'rsating.**

- A) Estetik ehtiyojlarni tarbiyalash, idrokni va his-tuyg'uni, estetik tushuncha, did, baholash va fikrlash, musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish
- B) Axloqiy did va ongni, xulq-qtvor ko'nikmalari va odatlarni rivojlantirish, umuminsoniy madaniyat va milliy qadriyatlarga hurmatni tarbiyalash
- D) Jismoniy rivojlanish, sog'liqni mustahkamlash, tozalik-sog'lik tarbiyasi
- E) Atrof-muhitga ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalash, tabiatga muhabbat.

Tarbiya ona vazifasidir, keyin ota, keyin maktab va jamoatchilik ishidir.

*Abdulla Avloniy*

#### 14-MAVZU: OILA TARBIYASI ASOSLARI. TARBIYADA OILA, TA'LIM MUASSASASI VA JAMOATCHILIKNING HAMKORLIGI

##### **Reja:**

1. Oilada bola tarbiyasini tashkil etish.
2. Ta'lim muassasalarining ota-onalar bilan olib boradigan faoliyat turlari.
3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv muassasasining hamkorligi mazmuni.

##### **Mavzuning maqsadi:**

Oila, maktab va jamoatchilik o'zaro pedagogik hamkorligi, oila va uning tarbiyaviy vazifalari, oila, maktab va mahallaning hozirgi davrdagi muammolari haqida ilmiy tushuncha berish hamda yoshlarni pedagogik hamkorlik, ota-ona va katta yoshdagilarga hurmat ruhida tarbiyalash.

##### **Mavzuning vazifalari:**

- tarbiyada pedagogik hamkorlikni tashkil etish;
- ta'lim muassasalarining bola tarbiyasida oila, mahalla, jamoatchilikning rolini ko'rsatish, oila tarbiyasining samaradorlik yo'llarini yoritish;
- oila tarbiyasida umuminsoniy va milliy an'analardan foydalanish.

**Tayanch ibora va atamalar:** jamiyat va oila tushunchalari, oila tarbiyasi, bola tarbiyasida oilaning roli, oila muhiti, bola tarbiyasida ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar, ota-onalar majlisi, ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbat, faxriy yorliq, rahmatnoma, bola tarbi-



yasida hamkorlik tushunchasi, tarbiyada oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi.

#### 14.1 Oilada bola tarbiyasini tashkil etish

Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda, tasavvur, dunyoqarash shakllanadi.

Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida anglaydi.

Shaxsning ma'naviy sifatlarga ega bo'lishi, unda ma'naviy bilimlarga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishi oila tarbiyasi asosida amalga oshadi.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelishgan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni tashqi borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilingan edi.

Milliy istiqloлга erishgandan so'ng o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligini, o'tmish qardiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi, oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va ahamiyatini xolisona baholash imkonini beradi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etadi: «Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'pasrlik mustahkam ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi. O'zbekiston xalqining aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki, oilaning, qarindosh urug'lar va yaqin odamlarning omon-essonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa uning oliy darajdagi ma'naviy qadriyati, inson qalbining gavharidir».

Oila tarbiyasida obyektiv va subyektiv omillarning roli katta. Obyektiv omillar sirasiga: oilaning moddiy ta'minoti va farovonligi, shu bilan birga maishiy turmush darajasi, oila budjetining mavjud

holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog'lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar kirs; oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a'zolarining fizilogik-psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma'lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o'rtasidagi mutanosiblik, birlik tamoyillariga tayanish va shu kabilar subyektiv omillar sirasiga kiradi.

Oila tarbiyasida bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish – ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy garovidir. Bolaning oiladagi vaqtini o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlariga to'g'ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.

Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog'lom, ma'naviy barkamol, mehnatga hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasi mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning yo'nalishlari: jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g'oyaviy hamda jinsiy tarbiya berish, ularda faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya bolalarni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodlikka o'rgatish, o'z sog'lig'i uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan harakatlar mazmunini ifoda etadi. Oila tarbiyasida bolalarning aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki vazifa ota-ona tomonida bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iboratdir. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolari dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar, ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolariga, shuningdek, atrof-dagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muravvat, kamtarlik, to'g'ri so'zlik, mehnatsevarlik, saxovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir.

Oilada tashkil etilayotgan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni

his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish va ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam tavsif va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning ahamiyati katta. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilib turish ahamiyat kasb etadi. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularni tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarni taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishini, ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lishi bolaning mehnatga bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga ishonchini yuzaga keltiradi.

Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalar ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar orasida huquqiy mavzudagi suhbatlar alohida diqqatga sazovor. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzudagi ko'rsatuv maqolalar, eshittirishlar, shuningdek, ommabop huquqiy adabiyotlar hamda ularda ilgari surilayotgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar, bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, tafakkur, savodxonlik, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatning qaror topishiga olib keladi.


#### **14.2 Ta'lim muassasalarining ota-onalar bilan olib boradigan faoliyat turlari**

Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

## 1. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar

### A) Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.

Suhbatlar yakka hamda umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy madaniyatni qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarining ijtimoiy anketa so'rovlar o'tkazish mumkin.



So'rovnomalar ikki xilda bo'lib, ulardan birinchisi, har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatni shakllantirishga ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir. Quyida birinchi turdagi so'rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz:

«Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?» nomli so'rovnoma mazmuni quyidagicha:

1. Farzandingiz ushbu o'quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?

2. Farzandingiz so'nggi o'quv yilidagi o'zlashtirish darajasi sizni qoniqtiradimi?

3. Farzandingizning fanlarga bo'lgan munosabati qanday?

4. Uning fanlarga bo'lgan qiziqishini baholay olasizmi?

5. Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoada va keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonida ishtiroki qanday?

6. Farzandlaringizga munosib bo'lgan muhitning ma'naviy-axloqiy iqlimi qanday? U kimlar bilan do'stlashgan, ularning ma'naviy qiyofasi sizning talablaringizga javob bera oladimi?

7. Katta farzandingizga nisbatan salbiy munosabat yoki salbiy ta'sir ko'rsatganliklarining guvohi bo'lganmisiz?

8. Uning oilada tutgan o'rni qanday?

9. O'quv yurti yoki oila o'rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlar bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to'ldirilgan so'rovnomalar natijalarini tahlil etib, ular bilan tashkil etiladigan suhbat yo'nalishi va mazmunini belgilab beradi.

**2. Maktabning o'quv yili davomida ota-onalar bilan olib boriladigan ishlari:**

**A) Sinf ota-onalar majlisi.** Majlis o'quv yili davomida 5 marta o'tkaziladi, ya'ni o'quv yili boshlanishi oldidan I, II, III va IV chorak yakunida.



Majlislarda o'quv yurti ichki tartib-qoidalariga umumjamoa ijtimoiy me'yorlariga rioya etish holati, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil qilinadi. navbatdagi davr uchun qilinadigan ishlarni ijobiy hal etish chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda tarbiya va ta'lim olayotgan jamoa hayotida, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar jarayonida faollik ko'rsatgan, o'qishda, mehnatda alohida o'rnatilgan bo'layotgan tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi. Ayrim ota-onalarining o'quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol qatnashmasliklari aytib o'tiladi va buning sabablari aniqlanadi, bunday holat-

lariga barham berish borasidagi asosiy talablar o'rtaga tashlanib, fikr-  
lanib olinadi.

B) Umummaktab ota-onalar umumiy yig'ilishida o'quv yili davomida o'quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarining borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori, ijtimoiy me'yorlariga amal qilishlari, o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishilayotgan natijalar bilan tanishtiriladi. O'quv yili yakunida bo'lib o'tgan umummaktab ota-onalar majlisida maktab ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, huquqiy mazmundagi tadbirlarni uyushtirishda aholida ibrat ko'rsatgan, shuningdek, muyyan fanlar olimpiadasida muvaffaqiyatli qatnashgan bir guruh o'quvchilar va ularning ota-onalari rahmatnoma bilan taqdirlanadilar. Quyida ushbu rahmatnomaning matnini keltiramiz.

### «Hurmatli Tohirjon Hasanboyev!

Yangiqo'rg'on tumanidagi 32-o'rta maktab ma'muriyati, kasaba uyushmasi, «Kamolot» yoshlar uyushmasi Sizga farzandingizning tarbiyasiga alohida e'tibor berayotganingiz uchun tashakkur izhor etadi.

Farzandingiz Nodirjon Hasanboyev 2004–2005-o'quv yilini a'lo baholar, namunali xulqi, shuningdek, «Soliq tizimini boshqarish» bo'yicha bilimlar tanlovida faol ishtirok bilan yakunladi.

Farzandingiz mustaqil respublikamiz va xalqimizga munosib fuqaro bo'lib yetishayotganidan xursandmiz.

Sizga va oila a'zolaringizga sog'liq, oilangizga tinchlik tilaymiz.

Maktab ma'muriyati:

Kasaba uyushmasi qo'mitasi:

«Kamolot» yoshlar uyushmasi

2005-yil 6-iyun»

D) Ijtimoiy-ma'naviy mazmundagi suhbat va ma'ruzalar.

Bunday ma'ruza va suhbatlar ota-onalarda ijtimoiy mazmunda shuningdek, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlarni egallash, farzand tarbiya-

si ishiga jiddiy e'tibor berish, bu borada ta'lim muassasasi bilan mustahkam hamkorlik o'rnatishni ta'minlaydi.

### **14.3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv muassasasining hamkorligi mazmuni**

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bozor iqtisodiyoti sharoitlarida muvafaqqiyatli ishlay oladigan, mustaqil fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlashda oila, mahalla va o'quv muassasalarining nufuzini yanada yuqori pog'onaga ko'tarishni taqozo etadi.

Jamiyatda davlat bosh islohotchidir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, **birinchidan**, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldidagi bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni yaxshi singdirish;

**Ikkinchidan**, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan bir xil fikrlikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

**Uchinchidan**, yoshlarni baynalminal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat uyg'otish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

**To'rtinchidan**, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

**Beshinchidan**, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon, zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash – O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

«O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi» konsepsiyasini amalga oshirish jarayonida ularning har birining alohida vazifalari mavjud:

– oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzi-

ni hisobga olish, farzandlar ota-onasiga, vatanga muhabbat tuygʻusini shakllantirish, oʻzaro gʻamxoʻr boʻlishini taʼminlash;

– farzandlarga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, maʼrifatli va maʼnaviyatli kishilar boʻlib yetishishlarini taʼminlash;

– bolalarni maʼnaviy barkamol va jismoniy sogʻlom boʻlishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhit yaratish;

– bolalarni mustaqil fikrlarga oʻrgatish, istiqloq gʻoyalari va mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

– bolalarning boʻsh vaqtini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib, unumli tashkil etish va ularga qoʻshimcha taʼlim berish;

– bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning maʼnaviy, axloqiy tomonlarini shakllantirish;

– mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda taʼlim-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi kerak boʻlgan masalalarni muhokama qilishda qatnashish va oqilona yechimlarini topishlarida faollik koʻrsatilishi;

– mahalla oʻz hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qoʻllab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh boʻlishi;

– maʼnan nosogʻlom oilalarni mahalla yigʻinlarida muhokama qilish, ularga nisbatan jamoatchilik choralari koʻrish;

– ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy gʻurur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmillatlik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama ragʻbatlantirish;

– yoshlar diniy mazhablar va aqidaparastlikning mohiyatini anglab yetishga, ota-onalar orqali taʼsir koʻrsatish, ulugʻ ajdodlarimizning tarbiyaviy oʻgʻitlarini singdirib borishga jamoatchilikni safarbar qilish;

– mahalla hududida oʻquv-tarbiya muassasalari bilan birgalikda turli koʻrik-tanlovlar, sport musobaqalari, anjumanlar, bayram va bel-lashuvlar tashkil qilish;

– turli yoʻnalishda iqtidorli boʻlgan oʻquvchi-talabalarni maktablar tavsiyasiga koʻra ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qoʻllab-quvvatlash;

– har bir yosh fuqaroda Oʻzbekistonga, uning tabiatiga muhab-



bat, tarixiga qiziqish, mahalla obodonchiligi, ahilligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirish;

– maktabda bolaga biror-bir kasb-korni egallash uchun mustahkam poydevor yaratish;

– bolalarga ta'lim-tarbiya berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andozalarigi mos holda ta'minlash;

– tarbiyasi «og'ir», qarovsiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishlash, oilalarga pedagogik yordam berish;

– yosh oilalar bilan ishlash, tibbiy, tarbiyaviy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy ijtimoiy tushunchalar berish uchun maxsus tadbirlarni amalga oshirish;

– turar joyda va mahallada olib borilayotgan barcha tarbiyaviy, ma'naviy, ma'rifiy, madaniy, ommaviy va sport tadbirlari markazi – maktab bo'lishiga erishish;

– o'quvchi yoshlar ota-onalar, jamoatchilik bilan huquqiy tarbiyani amalga oshirish, tarbiya jarayonining barcha ishtirokchilari orasida milliy mafkurani targ'ib qilish, aqidaparastlik va milliy taraqqiyotimizga zararli g'oyalarni kirib kelishiga qarshi murosasiz kurashni tashkil qilish;

– ta'lim muassasalari nizomlari asosida o'quvchilarning maktabda joriy qilingan tartibga amal qilishlarini ta'minlash.

Shunday qilib, tarbiyada oila, mahalla, o'quv muassasalarining hamkorligini oqilona tashkillashtirib, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni ijobiy hal qilish imkoniyati yaratiladi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *«Oila» terminining ma'nosini izohlab bering.*
2. *Oila va jamiyat tushunchalarining bog'liqligini tushuntiring.*
3. *«Oila tarbiyasi» deganda nimani tushunasiz?*
4. *Bola tarbiyasida oilaning rolini izohlang.*
5. *«Oila muhiti» deganda nimani tushunasiz?*
6. *Bola tarbiyasida ota-onalar bilan olib boriladigan faoliyat tur-larini sanang.*



O'quv qayda bo'lsa – ulug'lik shunda,  
Bilim qayda bo'lsa – buyuklik shunda.

*Yusuf Xos Hojib*

## 15-MAVZU. DIDAKTIKA-PEDAGOGIK TA'LIM NAZARIYASI SIFATIDA

### **Reja:**

1. Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi.
2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari.
3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari.
4. Ta'lim paradigmatlari.

**Mavzuning maqsadi:** Ta'lim jarayonining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy asoslar haqida bilim berish.

### **Mavzuning vazifalari:**

1. Ta'labalarga didaktika haqida tushuncha berish.
2. Didaktika ta'lim nazariyasi ekanligi.
3. Didaktikaning maqsad-vazifalari.
4. Didaktikaning asosiy tushunchalari.
5. Uzlüksiz ta'lim tizimi va o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi konsepsiyasi.
6. Hozirgi davr didaktikasi tizimlari.
7. Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmatlari: an'anaviy, konservativ, ilmiy, insonparvarlashtirilgan, ratsionalistik, texnologik, izoterik.

**Tayanch ibora va atamalar:** didaktika; o'qitish nazariyasi; umumiy didaktika; falsafa va sotsiologiya, siyosatshunoslik; pedagogik psixologiya; odam fiziologiyasi; xususiy metodika; ta'lim; ta'lim jarayoni; ta'lim tamoyillari; didaktik tamoyillar; bilim, ko'nikma va malakalar; didaktik materiallar; tarqatma materiallar; didaktik qobili-

yat; didakosentrik texnologiyalar: paradigma; ta'limni axborotlashtirish; innovatsion ta'lim; modellashtirish.

### 15.1. Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi

**Didaktika** – pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Unda ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullaniladi.

**Didaktika** pedagogikada ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismdir.

**Didaktika** – yunoncha so'z bo'lib, «didasko» – o'qitish, «didaskol» – o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan.

«Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimasini ta'lim nazariyasini anglatadi.

Bu atamani nemis pedagogi V. Ratke (1571–1635) ilmiy iste'molga kiritgan. «Didaktika» nomi ostida nazariy va metodologik asoslarni tadqiq qiladigan ilmiy fan tushuniladi. Didaktikaning fundamental ilmiy asoslari ilk bor Ya. A. Komenskiy (1592–1670) tomonidan ishlab chiqilgan. U 1657-yilda chex tilida «Buyuk didaktika» asarini yozdi. Didaktikani Komenskiy «Hammani hamma narsaga o'rgatish san'ati», deb baholadi. Didaktika fanining mohiyatini ishlab chiqishda G. Pestalotssi, I. Gerbart, K.D. Ushinskiy, Abdulla Avloniy, Sadriddin Ayniy, Hamza, Oqilxon Sharofiddinov va Qumri Abdullayevalar katta hissa qo'shdilar.

**Umumiy didaktika** o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'langan bo'lib, ularga oid ma'lumotlarga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktikada ta'limni tashkil etishning umumiy masalalari, o'qitish jarayonining mohiyati, ta'limning mazmuni, o'qitish qonuniyatlari, o'qitish tamoyillari, metodlari, uning tashkiliy shakllari yoritiladi.

O'qitish jarayoni pedagogning o'rgatuvchilik faoliyatini va ta'lim oluvchilarning maxsus tashkil etilgan bilish faoliyatini o'z ichiga oladi. Shu o'rinda bu jarayonlarning tahliliga e'tibor qarataylik. Ta'limda

o'qituvchining boshqaruvchilik roli o'z kasbining ijtimoiy asoslaridan kelib chiqib, ajdodlarining boy tajribasini, insoniyatning asrlar davomidagi bilish, mehnat, muloqot, umumiy aloqalar, estetik hamda axloqiy qarashlar jarayonida qo'lga kiritgan yutuqlarni egallashni shart qilib qo'yadi.

Didaktika va metodika mustahkam aloqada hamda o'zaro bog'liqdir. Didaktika o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi. Aniq bir predmetni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xususiy metodikalarda ishlab chiqiladi.

**Xususiy didaktika** – muayyan o'quv fanlarini o'qitishning qonuniyatlari, usullari, vositalari, shakllari va yo'llarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogika fanlari turkumining asosiy sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U umumiy didaktika yutuqlari asosida rivojlanadi va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina takomillashib boradi. Muayyan bir fanga tadbiiq etilgan didaktik qonuniyatlar, o'sha predmetning umumiy jihatlarini qonunlashtiradi va ularda o'qitishning universal jihatlarini namoyon bo'ladi.

**Didaktikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.** Ta'lim jarayoni jamiyat rivojlanishining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlari, odamlar faoliyati va hayotiy ehtiyojlari, zamonaviy fan-texnika taraqqiyotining yutuqlariga hamma ta'lim oluvchilarning shaxsiy sifatlari-ga qo'yilgan katta talablarga asoslanadi.

Didaktika sohasidagi natijalar uning oldiga yangi-yangi masalalarni ko'ndalang qo'yadi. Bu muammolarni hal qilish boshqa fan yutuqlaridan maksimal darajada samarali foydalanishni talab etadi.

**Falsafa va sotsiologiya** jamiyat va atrof-muhit rivojining umumiy qonuniyatlari haqidagi fanlar sifatida odamlarning hayoti va faoliyatining ijtimoiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

**Siyosatshunoslik** ta'limdagi siyosiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq didaktik masalalarni ochish uchun xizmat qiladi.

**Etnologiya** didaktikaga odamlarning milliy o'ziga xosliklarini to'g'ri hisobga olishda yordam beradi. qaysiki ta'limda milliy tajribalar o'ziga xos xususiyatga ega.

**Pedagogik psixologiya** ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va mala-

kalarni egallash jarayonining psixologik qonuniyatlari va tamoyillari-ni hisobga olishga imkoniyat beradi.

*Odam fiziologiyasi* ta'lim jarayonida odam tana tuzilishi va nerv tizimining ishlash qonuniyatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ularning roli, ahamiyati va o'ziga xos vazifalarni ko'rsatishga yordam beradi.

*Xususiy metodika* alohida predmetlarni o'qitishda ta'limning tur-li shakl va vositalarini qo'llashning o'ziga xosliklarini aniq hisobga olishda didaktikaga yordam beradi.

## **15.2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari**

Didaktikaning asosiy vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdan iborat.

Bularning barchasi o'qituvchining ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlan-tiruvchi vazifalarini amalga oshirishida o'z aksini topmog'i lozim. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilariga qo'lga kiritilgan bilimlarni o'rgatadi. O'quv faoliyatida ularni ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradi. Shu bilan bir paytda u ta'lim oluvchilarda dunyo-qarash va axloq me'yorlarini hosil qiladi, qiziqish va qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning bilish faolligini oshiradi. O'qituvchining fao-liyati ta'lim oluvchi shaxsining maqsadga muvofiq shakllanishiga kat-ta imkoniyatlar ochib beradi. Yanada aniq qilib aytsak, butun o'quv jarayonini rejalashtiradi, ushbu jarayonda ta'lim oluvchilar bilan bir-galikdagi faoliyatni tashkil etadi. Ta'lim oluvchilarga qiyinchiliklar-ni yengib o'tishda yordam beradi hamda ularning bilimlarini va butun ta'lim jarayonini tashxis qiladi. O'z navbatida, ta'lim oluvchilarning faoliyati o'quv jarayonida o'rganishga, bilim, ko'nikma hamda mala-kalarni egallashga, o'zini jamiyatga foydali faoliyatga tayyorlashga yo'naltiradi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning faoliyati ko'p qirrali yo'nalgan harakatni ifodalaydi va bu harakat bilishga doir vazi-falarni hal qilishda ularga katta yordam beradi.

Didaktikaning asosiy tushunchalariga ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim tamoyillari, ta'lim metodlari, ta'lim shakllari, ta'lim vositalari, bilim, ko'nikma, malaka, o'qitish, o'qish va shu kabilar kiradi.

**Ta'lim** – ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) **vazifasi** ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini bajaradi.

**Ta'lim berish** – ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyati bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

**Ta'lim dasturi** – o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va yetarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

**Ta'lim maqsadi** – har bir pedagogik texnologiyani yaratishga asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi. Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsad zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarning ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan aytganda, o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi. Bunday maqsadlarning yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

**Ta'lim mazmuni** – insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakterini tashkil etadi.

Ta'lim mazmuni belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda

tasdiqlanadi. Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartirishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

*Ta'lim menejmenti va marketingi* – bu pedagogik texnologiya-ning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiiq qilish masalalarini hal qiluvchi soha.

Ta'lim menejmenti va marketingida tegishli dolzarb yo'nalishlar aniqlanib, mutaxassislar tayyorlash uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes-rejalari tuzish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Bunday muammolar yechimlarini izlashning optimal variantini topish uchun ta'lim menejmenti va marketingi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega hamda tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

*Ta'lim metodi* – bu ta'lim jarayonida o'qituvchi va talabalarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatidir.

Ta'lim metodi o'qituvchi bilan talabalarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim metodlari o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish usullarini hamda o'quv materiallarini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

*Ta'lim monitoringi* – pedagogik tizim faoliyati haqida axborotlar yig'ishni tashkil etish, saqlash, qayta ishlash va ularni sinflarga ajratish tizimidan iborat bo'lib, kuzatilayotgan obyekt holatini va kelgusida uning rivojlanishi dinamikasini oldindan bashorat qilish jarayoni.

U ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini nazorat qilish uchun ma'lumotlar yig'ish texnologiyasi, ta'lim natijalari darajasini taqqoslash uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlar majmuasini tayyorlashni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Ta'lim monitoringi pedagogik tizim faoliyatidan olingan daliliy-xulosaviy natijalarni uning maqsadiga nechog'lik mosligini ko'rsatuvchi, tezkor aloqani ta'minlovchi, mustaqil boshqaruvchi vazifalarini amalga oshirishning didaktik asosi hamdir.



**Ta'lim sifati** – bu ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi.

Sifat kategoriyasi insonning obyektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichini ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida obyekt subyekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi. Bevosita hissiy idrokda sifat ko'plab xossalarning majmuyi tarzida ko'rinish beradi.

Talab etilgan darajadagi ta'lim sifatiga ma'lum ijtimoiy-pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Bu tizim quyidagi qism tizimlardan tashkil topadi: DTS; bo'lajak mutaxassislarining me'yoriy modeli; ta'lim sifatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda monitoringi.

**Maxsus ma'noda** «Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim beruvchi» darajasida ta'lim sifati – bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini belgilovchi darajadir.

**Umumiy ma'noda** «Ta'lim oluvchi ↔ ta'lim muassasasi» darajasida ta'lim sifati – bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim-tarbiya natijalarining moslik darajasidir.

**Ta'lim standarti** – bu standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida ta'lim oluvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarining mazmuni.

**Ta'lim tamoyillari** – bu o'qituvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosdir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

**Didaktik tamoyillar** – bu ta'lim jarayoni qonuniyatlari, mazmu-

ni va metodlarini belgilab beruvchi o'qitish tamoyillaridir. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagogik mahorati va ta'lim oluvchining o'rganuvchanlik faoliyatini bir qolipga solib, belgilangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan qoidalar majmuasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik tamoyillar mohiyatini tashkil etadi.

Didaktik tamoyillar nazariy va amaliy ta'limida maqsad, mazmun, metodlar, tashkil etish shakllari, o'qitish vositalari va usullari; mehnat va tarbiyaviy faoliyat; ta'limning turli bosqichlari hamda pedagogik va mehnat jarayonlari; ta'lim oluvchilarning jamoaviy rivojlanishi va har birining alohida rivojlanishi o'rtasidagi aloqadorliklarni aks etiradi.

**Ta'lim vositalari** – o'quv jarayonining tashkil etilishi va o'tib borishini ta'minlaydigan xilma-xil o'quv jihozlari, o'quv qo'llanmalari va boshqalar.

**Bilim** – bu o'quvchilar ongida muayyan tartibda mustahkamlangan, ularning shaxsiy mulkini tashkil etadigan va bundan ular zaruratga ko'ra foydalana oladigan faktlar, ma'lumotlar, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tushunchalardir.

U borliqni bilish jarayonining amaliyotda tasdiqlangan natijasi. Obyektiv reallikning inson ongida adekvat aks ettirilishi (tasavvur, tushuncha, mulohaza, nazariyalar). U kundalik, ilmiy, empirik, nazariy bilimlarga ajraladi.

**Kundalik bilim** sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanadi va insonning atrof-muhitga moslashuvchi, uning xatti-harakatlari va oldindan ko'ra bilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Uning vazifasi ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilishga ko'maklashish.

Ta'lim-tarbiyani uyushtirishda nazariy, empirik va ilmiy bilimlar roli va o'rni beqiyos.

**Ilmiy bilim** ta'lim-tarbiyani takomillashtirish muammolarining yechimlarini topishda qo'l keladi va u tizimli, asosli narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bo'ladi. U empirik va nazariy darajada bo'ladi. Bilimdan empirik va nazariy bilimlarni shakllantirishda foydalaniladi.

**Nazariy bilim** – empirik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa va

hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonuniyatlarni ochishni nazarda tutadi.

Bilim bilishni amalga oshiruvchi asosiy omil bo'lib, dunyoni bilishning negizini tashkil etadi va u tufayli ilm, fan, texnika-texnologiyalar rivojlanishi ta'minlanadi. Demak, bilimni obyektiv mavjudot haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma'lumotlar majmuyi, deb ham ifodalash mumkin. U odamlarning ijtimoiy-siyosiy amaliyot jarayonida to'plangan umumlashgan tajribasidir.

*Ilmiy bilimlar*, obyektiv olamni ancha to'g'ri (batafsil) ifodalaydi. Ular doimiy emas, ular o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi va natijada doimiy iste'moldagi bilimga aylanadi, ya'ni tadrijiy (evolyutsion) tarzda rivojlanib turadi. Bilimlar asosida talabalarning kuzatuvchanlik, sinchkovlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarashni shakllantiruvchi g'oyalarni tizimi tarkib topadi.

*Bilimlar banki* – bu ma'lumotlar majmualarini bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejasidagi fanlar bloklari bo'yicha tizimlarga ajratib, ular asosida shakllantirilgan bilimlar majmuyi. Shuningdek, bilimlar banki – bu izlanuvchilar tomonidan bir necha yo'nalishlar bo'yicha kompyuter xotirasiga kiritilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar to'plami hamdir.

*Bilimlar bazasi* – muayyan bir soha (yo'nalish, fan, bob, bo'lim, mavzu, tushuncha va shu kabilar) bo'yicha to'plangan bilimlar va ularning kompyuter xotirasida mujassamlashtirilishi va qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'ljallangan bilimlar majmuyi.

*Ko'nikma* – bu o'zlashtirib olingan bilimlar asosida amalga oshiriladigan va amaliy jihatdan maqsadga muvofiq harakatlarga tayyorlikda ifodalangan ongli faoliyat. U malakaning tarkibiy qismi bo'lib, harakatning ayrim qismlarini nihoyatda tez, aniq va maqsadga muvofiq ravishda o'z-o'zidan bajarilish qobiliyatini ifodalaydi va u talabalarda ko'p marta takrorlanadigan mashqlar natijasida yuzaga keladi» [4]. Ko'nikma – ongli faoliyat (harakat) ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflangan holda bajarish jarayoni natijasi. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi

bosqichda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

**Malaka** – avtomatlashgan, oʻrganib qolingani, muayyan usul bilan bexato bajariladigan harakatdir. U shaxs harakatining amalga oshirishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson, tez, goʻyo oʻz-oʻzidan bajarilayotgandek boʻladi.

**Oʻqitish** – oʻquvchilarni bilim, koʻnikma va malakalar bilan qurollantirish hamda ularning bilish faoliyati natijasida bu bilim, koʻnikma va malakalarni egallab olishga doir maxsus tashkil etilgan va biror maqsadga qaratilgan faoliyatdir.

U insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat koʻrsatish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalar yigʻindisini oʻzlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir. Uning natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan taʼminlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus maʼlumotni olish imkoniga ega boʻladi. Oʻqitishda deyarli hamma vaqt uning tarbiyaviy jihatlari yaqqol bilinib turadi. Taʼlim maqsad, mazmun, oʻqituvchining shaxsi, talabardagi oʻqitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi.

**Oʻqish** – bilim, koʻnikma va malakalarni egallab olishning murakkab jarayoni boʻlib, oʻquvchining intellektual, irodaviy va jismoniy kuch-gʻayratini talab etadi hamda ularning rivojlanishini ragʻbatlantiradi.

U oʻz mazmun-mohiyati jihatidan maqsad, vazifa, tamoyil, mezon va harakatlar bilan bogʻliq boʻlib, ular yordamida talabalar maʼlum bilimlarni oʻzlashtiradilar. Oʻqish va uning samaradorligi talabaning har tomonlama faolligiga koʻp jihatdan bogʻliq boʻladi va bu jihatlar turli shakllarda namoyon boʻladi. Ular: mehnat faoliyati, jamoatchilik faoliyati, kitobxonligi, kasbiy oʻyinlarni yaxshi koʻrishligi, oʻz kasbiga oid yangi bilimlarni egallashga oʻchligi va shu kabi shakllarda namoyon boʻladi.

#### ***Oʻqish jarayonining asosiy gʻoyalari:***

• oʻqish – bevosita bajariladigan jarayon boʻlib, uning yordamida odamlar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi:

- bolalarni o'qishga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi, ularni chuqur o'ylanib o'qishga o'rgatish kerak va bular natijasida o'quvchitalabalarda yangi fikr paydo bo'lib, ularning ilmiy ijodga kirib kelishi ta'minlanadi;

- o'qish oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;

- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi. shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin;

- o'qish va yozish orasida chambarchas aloqa bor. Bu aloqani tushunish o'qitish jarayonini boyitadi va rag'batlantiradi.

**O'rgatish** – ta'lim maqsadini amalga oshirish bo'yicha pedagogning tartiblangan faoliyati. U axborotdan foydalanish va turli harakatlarni bajarish ko'nikmalarining ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishini turli vosita va usullarni qo'llab tushuntirish, ko'rsatish va mashqlarni amalga oshirish jarayoni. U ijtimoiy xulq-atvorni oddiy shaklga aylantirish maqsadida ta'lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir.

**O'rganish** – anglash, mashq qilish va egallangan tajribalar asosida xulq-atvor va faoliyatning yangi shakllarini egallash jarayoni. oldin egallanganlari o'zgaradi. U axborotdan foydalanish va turli harakatlarni ko'rsatilgan tartibda mustaqil bajarish ko'nikmalarini egallashdir.

**O'qitish** – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati.

**Maqsad** (o'quv, ta'limiy) – o'qitish nimaga qaratilganligi, uning kuchlari kelgusida nimaga safarbar etilishi. U qo'yilgan muammo (maqsad) yechimiga intilishi, yo'nalishi va bu boradagi harakatlar natijasi.

**Mazmun** (o'qitish, ta'lim) – o'quvchilar o'qitish jarayonida egalashi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malakalar. faoliyat

va fikrlash usullari tizimi. Mazmun – ilmiy bilimlar yig‘indisi bo‘lib, amalda qo‘llash uchun beriladigan ko‘nikma va malakalar jarayonida u ta‘lim oluvchilarning fikrlash, o‘ylash, mulohaza yuritishi orqali amalga oshiriladi.

**Tushkil etish** – qo‘yilgan maqsadni yaxshi amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo‘yicha tartiblangan didaktik jarayon.

**Shakl** – o‘quv jarayonining mavjudlik usuli, uning ichki mohiyati, mantiqi, mazmuni uchun qobiq.

**Metod** – o‘qitishning maqsad va vazifalariga erishish (amalga oshirish) yo‘li. Metod (yunoncha – aynan nimagadir yo‘l) maqsadga erishish yo‘lini bildiradi. Muayyan ma‘noda tartibga solinadigan faoliyat.

**Metodika** – bu metodikaga tegishli, qat‘iy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), ilgari o‘rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilishdir. U biror ishni maqsadga muvofiq o‘tkazish metodlari, yo‘llari majmuasi.

Pedagogika fani sohasida ma‘lum o‘quv fanini o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika fanini o‘qitish metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

**Vosita** – o‘quv jarayonini predmetli qo‘llab-qo‘vvatlanishi. Vositalarga o‘kituvchining jonli nutqi, keng ma‘noda uning mahorati, darsliklar, sinf jihozlari va boshqalar.

**Natija** – dars mashg‘ulotlari jarayonida rejalashtirilgan xulosaga kelingan va ta‘limning ma‘lum muayyan jarayonidan olingan yakuniy natijasidir. Natija (mahsul)lar – o‘quv jarayonining so‘nggi natijasi, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.

Natijani o‘zlashtirish – olingan natijalarni amaliy o‘zlashtirilishiga tayyorlash jarayonidan iboratdir, ya‘ni, iste‘mol uchun tayyorlash. Bunga tadqiqotchi ishtiroki muhim rol o‘ynaydi, chunki kerak bo‘lganda ayrim tuzatishlar kiritish har kimning qo‘lidan kelavermaydi.

**Didaktik vositalar va tarqatma materiallar** – bu fanni o‘qitishda zarur bo‘lgan jihozlar, kompyuterli vositalar, modellar va maketlar, ko‘rgazmalar va texnik vositalar, asbob-uskunalar va mahsulotlardir. Shuningdek, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘laniladigan

tarqatma materiallar. Ular: kartochkalar, savolnomalar, yo'riqnomalar, qiziqarli savol va topshiriqlar, amaliy ishini tashkil etish bo'yicha texnologik xaritalar va hokazolardan iborat bo'ladi.

Professor B.Ziyomhammadovning ijod mahsulida **didaktik materiallar** – pedagog tomonidan har bir darsga alohida tayyorlangan, dars mazmunini to'la ifodalash va o'quvchi-talabalar dars mazmuniga yaxshi tushunib yetishlari uchun xizmat qiladi, deb qayd etiladi. Bularga turli ko'rgazmali qurollar, turli muammoli vaziyatlarni yaratuvchi moslamalar, o'yinlar va hokazolar kiradi. Didaktik materiallar ham didaktikaning tamoyillariga mos ravishda yaratiladi. Dars jarayoni faqat usul va uslublar orqali amalga oshirilib, darsning ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dasturi va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, pedagogik usullar va uslublarsiz darsni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Didaktik qobiliyat** – o'quv materiali, ko'rgazmali qurollar va vositalarini tayyorlab qo'yish, o'quv materialini aniq, ifodali va izchil bayon qilish, o'rganishga bo'lgan qiziqish hamda ma'naviy, hissiy istaklarni rag'batlantirish, o'quv bilimni oshirish, faollashtirish mahoratlari majmuyidan iboratdir.

Didaktik qobiliyatga ega bo'lgan rahbarlar turli vaziyatlarda sharoitdan kelib chiqib, ta'lim muassasasida vujudga keladigan muammoli vaziyatlarda, muammolarni hal qilishga vaziyatli yondashuv asosida hamda rahbarlarga xos ravishda, o'z vakolati darajasida faoliyat ko'rsatadi, stereotiplarni, ya'ni jamoada mavjud bo'lgan sun'iy to'siq va muammolarni hal etishda, turli yo'nalishlarda qarorlar qabul qilishda jamoa fikrini o'rganadi.

**Didaktosentrik texnologiyalar** – bu o'quv dasturidagi rejalashtirilgan materialni har qanday yo'l bilan bo'lsa ham ta'lim oluvchilarga yetkazishdagi pedagogik faoliyat jarayonidir.

### 15.3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari

**Uzluksiz ta'lim konsepsiyasi** – kadrlar tayyorlash tizimining asosi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti-

ni ta'minlovchi shaxsning jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha.

*Uzluksiz ta'lim* – milliy modelning asosiy qismi bo'lib, quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

*Uzluksiz ta'lim* – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, DTSni, kadrlar tayyorlash tuzilmasini va uning faoliyat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri, 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida tamoyil sifatida qayd etilgan. Umumiy ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismlaridan biri, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Umumiy ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Ta'limning ustuvorligi.
2. Ta'limning demokratlashuvi.
3. Ta'limning insonparvarlashuvi.
4. Ta'limning ijtimoiylashuvi.
5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi.

Quyida uzluksiz ta'limning tarkibiy qismlari haqidagi qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz.

1. **Maktabgacha ta'lim** – bu milliy pedagogik kadrlar tayyorlashning boshlang'ich shakli. Maktabgacha ta'limning vazifasi bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlash, ulardagi o'qishga intilish hissini uyg'otish va uni muntazam ta'lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim bola 6–7 yoshga yet-



guncha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Uning maqsad-vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar ishtirok etishi mumkin.

**2. Umumiy o'rta ta'lim** – bu to'qqiz yillik (I–IX sinflar) o'qitishdan iborat bo'lgan umumiy o'rta ta'lim – majburiy ta'limdir. Bunda ta'lim oluvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlarini, ularda bilim o'zlashtirish ehtiyojlarini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarini, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, mehnat ko'nikmalarini, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishni va kasb tanlashni shakllantiradi.

Demak, o'rta umumta'lim – uzluksiz majburiy ta'lim bo'lib, unda quyidagi muammolar hal bo'ladi:

- fanlar asoslari bo'yicha uzluksiz bilim beriladi;
- mehnat ko'nikmalari shakllanadi;
- ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishi o'rgatiladi;
- kasb tanlash shakllanadi.

Umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi boshlang'ich ta'lim deb nomlanadi.

**Boshlang'ich ta'lim** – umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi. O'zbekiston Respublikasida boshlang'ich ta'lim 1–4-sinflarda bolalarga ilk ta'lim berish, ularni ma'naviy kamol toptirishning boshlang'ich davri hisoblanadi. U 1–4-sinflarni o'z ichiga oladi va bunda o'qish 6–7-yoshdan boshlanadi. Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan boshlang'ich ta'lim sinflari uchun o'quv rejasi va dasturlari mavjud.

**Boshlang'ich maktab** – ta'lim oluvchilarga boshlang'ich umumiy ma'lumot beradigan umumta'lim ta'lim-tarbiya muassasasi. Uning vazifasi – ta'lim oluvchilarga yozish, o'qish, hisoblash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilim berish, xulq-odobga o'rgatishdir.

Umumiy o'rta ta'lim tugallangandan keyin ta'lim fanlari va ular

bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi.

**3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi.** Umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati 3 yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turdir. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi yo'nalishi – akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy tanlanadi.

*Akademik litseyda* DTSga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beriladi, o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, sohalashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olish ta'minlanadi.

Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha (gumanitar, texnik, agrar va boshqa sohalar) bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini o'zlarida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin. Kasb-hunar kollejiga tegishli DTS doirasida ta'lim oluvchilarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi; o'quvchilarga kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarni chuqur rivojlantirish, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha iqtisosni egalash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir nechta zamonaviy kasb-hunarni egallash hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilim olish imkonini beradi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarida ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlangan iqtisodliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatishining normativ vazifalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- soha uchun oliy ta'lim muassasalarining ishlab chiqarish, fan va madaniyat sohasi mutaxassislari jalb etgan holda, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashni, shu jumladan, chet ellarda tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil etish;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturi, o'quv uslubiy majmualar ishlab chiqish;

- akademik litseylarning o'quvchilari mehnat faoliyati ko'nikmalarini, egallashlari uchun ixtisoslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish va joriy etish;

- kasb-hunar kollejlari tayyorlanadigan mutaxassislarga nisbatan ixtisos va kasb-hunar, malaka talablarining ro'yxatini ishlab chiqish;

- hududlarning jo'g'rofiy va demografik shart-sharoitlarini va tegishli sohadagi mutaxassislarga bo'lgan mahalliy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi ta'lim muassasalarining tashkil etishini va ular oqilona joylashtirilishini ta'minlash, ularga o'quvchilarni imkon qadar oilasidan ajratmagan holda qamrab olish;

- akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning moddiy texnika va axborot bazalarini mustahkamlash.

**4. Oliy ta'lim.** Oliy ta'lim – malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Bu ta'lim 18–19 yoshdan boshlanib, 4 yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (akademiyalar, universitetlar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistratura bosqichlaridan iborat.

*Oliy ta'lim* – turli oliy maktablarga xo'jalik, fan, texnika va madaniyat tarmoqlari uchun oliy malakali mutaxassislar tayyorlash

uchun xizmat qiladi. Oliy ta'lim jarayonida oliy ma'lumot olinadi. «Oliy ma'lumot» tushunchasi muayyan ixtisoslikdan nazariy va amaliy vazifalarni hal etish imkoniyatini beradigan bilim va malakalar majmuyini ifodalaydi. Oliy ta'lim haqidagi hozirgi tushunchalar birinchi marta G'arb mamlakatlarida XV–XVII asrlarda dunyoviy oliy maktablar, keyinroq universitetlar paydo bo'lishi bilan vujudga keldi.

**Oliy ta'limning DTS** – ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja.

**Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo'nalishlari bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim muddati kamida 4 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

**Magistratura** – aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 2 yil davom etadigan oliy ta'limdir.

### **5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.**

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga, shaxsning ijodiy ta'lim kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilgan.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni oliy o'quv yurtlarida va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, adyunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik yo'nalishlarida) olish mumkin. Oliy o'quv yurtidagi keyingi ta'lim bosqichlarida (aspirantura, doktorantura) dissertatsiya himoyasi bilan yakunlanadi.

**Aspirantura** – oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichi bo'lib, magistrlik negizida uch yil (sirtqisi to'rt yil) davom etadi. Aspirantura UTTning tarkibiy qismi, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar (fan nomzodlari) tayyorlash shakli. Bu darajaning maqsadi muayyan mutaxassislik bo'yicha oliy toifali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat. Dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qilganlarga «Fan nomzodi» ilmiy darajasi beriladi.

**Doktorantura** – yagona UTTning oliy malakali va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga yo'naltiradigan aspiranturadan keyingi tarkibiy qismidir.

**Doktorantura** – fan nomzodi ilmiy darajasi negizida 3 yil davom etadigan, dissertatsiya himoya qilish bilan yakunlanadigan uzluksiz ta'lim tizimining bosqichlaridan biri. U oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar (fan doktorlari) tayorlash shakli. Yakuniga ko'ra tanlangan mutaxassislik bo'yicha «Fan doktori» ilmiy darajasi beriladi. O'zRda UTTning tarkibiy qismi va oliy bosqichi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi natijalariga ko'ra tegishli ravishda fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajasi berilib, davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar topshiriladi.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari muvofiq oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish;

- kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy-pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;

- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash uchun sharoitlar yaratib berish;

- fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

## **6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mutaxassislarning kasb bilimlari va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishga qaratilgan kadrlar tayyorlash malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi o'qish natijalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi guvoohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatiga yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;

- yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining bu sohada raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyadan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- iqtisodiyotning davlat va madaniyat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-eh-tiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;

- professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab, fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jaryonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

### **7. Maktabdan tashqari ta'lim.**

Bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-eh-tiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat tashkilotlari, shuningdek, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy, estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etadilar.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, uning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;

- **milliy pedagogik qadriyatlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;**

- **o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizimining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllantirishni tiklash hamda amaliyotga joriy etish.**

#### 15.4. Ta'lim paradigmalari

**Paradigma** – (yunoncha *paradigma* – *namuna, o'rnak* ma'no-larini anglatadi) – ilmiy muammolarni hal etish namunasi sifatida qabul qilingan nazariya. Masalan, tug'ilish nazariyasiga tegishli muammolarni aksariyat hollarda differensial tenglamalar nazariyasi yutuqlari orqali hal qilinadi yoki talaba-yoshlarni mustaqillik ruhida tarbiyalash milliy g'oyalar asosida hal etiladi va hokazo.

Pozitivist-tadqiqotchi R.Berkman ilmiy metodologiyadagi me'yorni tavsiflash uchun birinchi bo'lib paradigma tushunchasini qo'lladi. Lekin amerikalik fan tarixchisi G.Kun o'zining «Ilmiy revolutsiyalar strukturasi» asarini e'lon qilganidan so'ng, paradigma tushunchasi yangicha mazmun va ahamiyat kasb etdi. G.Kun ilmiy revolutsiya nazariyasini ishlab chiqish jarayonida qator tushunchalarni iste'mol uchun taklif etdi. «Paradigma» deyilganda, ma'lum davr ichida ilmiy jamoatchilik ilmiy muammoni qo'yish va hal etish namunasi bo'lib xizmat qiladigan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ilmiy nazariyani tushunadi.

G.Kunning fikricha, paradigmalarning almashinuvi ilmiy revolutsiyaga olib keladi va u ilmiy jamoatchilik birligini ta'minlaydi. Shu sababli ham ilmiy jamoat ma'lum paradigmani e'tirof etgan olimlardan tashkil topadi. Paradigma u yoki bu fan sohasining asosiy muammosini tashkil etib, **darsliklar va olimlarning mumtoz (klassik) asarlarida o'z ifodasini topadi.** G. Kun bunga misol qilib Arastu dialektikasini, Ptolemey astronomiyasi va Nyuton mexanikasini qayd etadi.

Demak, A.Navoiyning komil inson haqidagi ta'limoti, Abu Nasr

Forobiyning fozil odamlar shahri haqidagi ta'limoti, al-Xorazmiyning sonlar nazariyasida buyuk inqilob («0» – nol sonini arab raqamlariga (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9) qo'shib, pozitsion sanoq sistemasi ni kashf qilganligi) yasaganligi, ayniqsa, «algoritm» terminining fan-ga iste'molga kiritilishi, V.Q. Qobilovning algoritm lash nazariyasi va shu kabi ta'limotlar ham paradig maga misol bo'la olar ekan.

Fan ilmiy namunani universal qonunlar orqali konkret hodisalar-ga tadb iq etish asosida rivojlanadi. Masalan, kibernetika, informatika, sinergetika, globalistika, sun'iy tafakkur, ijtimoiy psixologiya fanla-rini olib qaraylik.

**Paradigma** guruhli talabalar ning o'quv faoliyati doirasida o'z-o'zini anglash, talabalar ning ilk vaqtlarini samarali o'tkazish, qay-ta aloqa sifati va sonini orttirish, didaktik materiallar sifati ni yaxshi-lash, talabalar ning o'z-o'zini boshqarish tizimini kengaytirish, rivoj-langan ta'lim tizimini joriy etish, yangi kurslarni loyihalash, o'quv rejas i mazmunini takomillashtirish, talabalar ning o'quv imkoniyatla-ri va muvaffaqiyatlarini orttirish, talabalar ni baholashda qulay imko-niyatlarga erishishga xizmat qilgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan **paradigma** to'liq interaktiv ta'lim jarayonidan iborat.

Demak, paradigma – ilmiy faoliyatning muayyan bir bosqichida aniq ilmiy-tadqiqotni olib borishda foydalanish uchun nazariy meto-dologik asosdan iboratdir.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Zamonaviy didaktikaga ta'rif bering va uning yo'nalishlarini aniqlang hamda ularni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab bering.*
- 2. Uzlüksiz ta'lim tizimining har bir tarkibiy qismidagi mos didak-tikalarni integratsiyalashni amalga oshirish haqidagi muloha-zalaringizni yozib chiqing.*
- 3. Ta'lim rivojlanishida paradigmalarning ahamiyati bor deb o'ylaysizmi? Agar bor bo'lsa, ulardan amaliyotda foydala-nishni qanday tasavvur qilasiz?*



4. *Texnologik paradigmalarning ta'limni texnologiyalashtirishdagi ahamiyati to'g'risidagi fikrlaringiz bo'yicha referat tayyorlang.*
5. *Birorta muayyan mavzuni o'rganishga didaktik ma'lumotlar va materiallar tayyorlang.*
6. *Didaktika nima uchun o'qitish nazariyasi deb ataladi?*
7. *Didaktikaning maqsadi va asosiy vazifalari nima?*
8. *Zamonaviy didaktikaning asosiy yo'nalishlari qaysilar?*
9. *Ta'lim sifati deganda nimani tushunasiz va bunda monitoringning ahamiyati qanday?*
10. *Ta'lim paradigmalari haqida nimalarni bilasiz va ularning didaktika rivojidagi ahamiyatini qanday tushunasiz?*

### Test topshiriqlari

1. **Didaktika deb nimaga aytiladi?**
  - A) Didaktika – bu shaxsning rivojlantirilishi
  - B) Didaktika – bu o'qitish nazariyasi
  - D) Didaktika – bu bola shaxsini shakllantirish
  - E) Didaktika – tarbiyalovchi o'qitish
2. **Ta'lim nazariyasi ...**
  - A) Ta'lim jarayonining mohiyatini o'z ichiga oladi
  - B) Ta'lim jarayonini, ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini o'z ichiga oladi
  - D) Ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini o'z ichiga oladi
  - E) Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarini o'z ichiga oladi
3. **Didaktikaning asosiy tushuncha (kategoriya)lari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**
  - A) Tarbiya, ma'lumot, ta'lim
  - B) Irsiyat, muhit, tarbiya
  - D) Ma'lumot, ta'lim (o'qitish) jarayoni, ta'lim prinsiplari, ta'lim mazmuni, metodlari
  - E) Idrok qilish, fahmlab (anglab) olish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalar

4. «Buyuk didaktika» asarining muallifi kim?  
 A) Ushinskiy B) Suxomlinskiy  
 D) Komenskiy E) Makarenko
5. O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilardan aysilarini o'z ichiga oladi?  
 A) Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini  
 B) Ilmiy pedagogik muassasalarni  
 D) Ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni  
 E) Yuqoridagilarning barchasini
6. O'quvchilarga bilimni tartibli bayon qilish jarayoni pedagogika fanida qanday nomlanadi?  
 A) Faoliyat B) Bilish, anglash  
 D) Ma'lumot E) Ta'lim
7. «Ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi» ishunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?  
 A) Ta'lim natijasi B) Ta'lim vositalari  
 D) Ta'lim metodlari E) Ta'lim funksiyasi
8. Ta'limning asosiy shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rtigan?  
 A) An'anviy ta'lim, noan'anviy ta'lim, yakka tartibdagi ta'lim  
 B) Maxsus ta'lim, yakka ta'lim, jamoa ta'limi  
 D) Noan'anviy ta'lim, an'anviy ta'lim, aralash ta'lim  
 E) Hamma javoblar to'g'ri
9. Sinf-dars tizimini birinchi bo'lib kim yaratgan?  
 A) Yan Amos Komenskiy B) Abdulla Avloniy  
 D) Fitrat E) K.D.Ushinskiy
10. Quyidagilardan qaysi biri pedagogikaning asosiy tushun-  
 ta (kategoriya)lari hisoblanadi?  
 A) Bilim, ko'nikma, malaka  
 B) Tarbiya, ta'lim, ma'lumot  
 D) Irsiyat, muhit, tarbiya  
 E) Yetuklik, rivojlanish, tarbiya

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poy-mol bo'ladi.

*Mahmudho'ja Behbudiy*

## 16-MAVZU: TA'LIM JARAYONI MOHIYATI, TA'LIM JARAYONI – YAGONA TIZIM SIFATIDA

### Reja:

1. Ta'lim jarayonining mazmun-mohiyati.
2. Ta'lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida.
3. Ta'lim -- borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida.
4. O'qitish va o'qitish jarayonlari tasniflari va ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqadorligi.
5. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim sohasidagi gnoseologik g'oyalari.
6. Ta'lim jarayoni va ta'lim oluvchilar ruhiyatidagi o'zaro aloqadorlik.
7. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining uyg'unligi.
8. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari.

**Mavzuning maqsadi:** talim jarayonining mazmun-mohiyati, uning yagona dinamik tizim ekanligi hamda ularning qonuniyatlari va tamoyillarining mazmun-mohiyatini haqida tushuncha berish.

### Mavzuning vazifalari:

1. Ta'lim jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishini va u asosidagi ta'lim jarayonini yagona dinamik tizim ekanligini asoslash.
2. Borliqni bilish va undagi o'qitish jarayonlarining o'rni va rolini bayon qilish.
3. Ta'lim sohasidagi tarixiy didaktik asoslar va ularning zamona-viy ta'limdagi ahamiyatini yoritish.

4. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ruhiyati, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarini e'tiborga olishning muhim jihatlari asoslash.

5. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining o'zaro vobastoligi hamda ta'lim jarayonida ularga amal qilish yo'llari.

**Tayanch ibora va atamalar:** ta'lim jarayoni; mazmun-mohiyat; dinamik tizim; bosqichni bilish; o'qitish algoritmi; intellektual asr; sezish va idrok qilish; tasavvur; tafakkur; bilim, ko'nikma va malakalar; o'qitish tushunchasi; o'qitish jarayoni; pedagogik ta'lim; o'quv maqsadi; o'quv vazifalari; ta'lim maqsadi; ta'lim mazmuni; ta'limning o'quv vositalari; ta'limning usullari; ta'limda baholash; tashkiliy-tuzilmaviy sxema; pedagogik jarayonlar samaradorligi; dars; mustaqil ta'lim; tarbiyaviy munosabatlar; tadbirlar; pedagogik amaliyot; pedagogik tajriba-sinov.

## 16. 1. Ta'lim jarayonining mazmun-mohiyati

Ta'lim berish g'oyatda murakkab va mas'uliyatli ish. Buning dalili sifatida shuni aytish mumkinki, pedagogning ta'lim jarayonidagi rahbarlik rolini ta'minlashga urinishi va harakatlarini saqlashga intilishi o'rtasidagi ta'limga xos dialektik ziddiyat aslida yuksalishning manbayidir.

Ta'lim maqsad, mazmun, o'qituvchining shaxsi, talabalardagi dastlabki bilimlarning xarakteri, o'qitishning moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar bilan belgilanadi. Bunda o'qituvchi talabalar ishinin borishini kuzatish va ular erishgan natijalarni baholash asosida o'zining ko'rsatmalari, yo'naltiruvchi savollari, tegishli tushuntirishlari va hokazolar bilan ularning o'quv faoliyati jarayoniga tuzatishlar kiritadi. Shunga ko'ra ta'lim birinchidan, o'qitish, ikkinchidan, o'qish, shu bilan birga uni nazorat qilish hamda tuzatish tadbirlarini o'z ichiga oladi.

«Ta'lim ma'lum qonuniyatlarga bo'ysinadi va umumfalsafiy metodologiyaga muvofiq, bu qonunlar ta'lim jarayoni bilan ancha kengroq ijtimoiy jarayonlar o'rtasidagi umumiy, muhim, zarur, barqaror aloqalardan. shuningdek, ta'limning alohida komponentlari, ya'ni


uning maqsadi, mazmuni, shakli, usullari va uslublari o'rtasidagi ichki bog'lanishlardan iborat. Aniqlangan didaktik qonuniyatlardan qator asosiy talablar kelib chiqadi, ularga rioya qilish o'qituvchining sifatli va samarali amalga oshiruvini ta'minlaydi».

## 16.2. Ta'lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida

Ta'lim jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchi (ko'rsatkich)larning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida tuzilgan yagona dinamik tizimni tashkil etadi. «Dinamik tizim» deyishiga sabab, ta'limni va ta'lim jarayonining tashkil etuvchilari jamiyat taraqqiyotiga mos holda muntazam rivojlanishda bo'lib, takomillashtirilib boriladi.

Bunda tashkil etuvchilar quyidagilardir: maqsad; mazmun; shakl, usul; uslub; o'qituvchi shaxsi; talabalardagi dastlabki bilim; o'qitishning moddiy-texnik bazasi va shu kabilar. Bu ta'lim jarayonlarini bir butunlikda, ya'ni yagona-yaxlit dinamik tizim sifatida qarash lozimligini taqozo etadi va bunday qarash ta'lim jarayonini boshqarish va boshqarishning optimal variantini topishga ham imkoniyat yaratadi.

Qayd etilgan ta'lim jarayonini tizim ko'rinishida quyidagicha ifodalash mumkin (1-shakl).



1-shakl. Ta'lim jarayonining tashkil etuvchilari va ularning dinamikasi.

Shaklda ifodalangan ketma-ketlik o'qitish jarayonining algoritmini ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

O'qitish algoritmini ishlab chiqish orqali olib boriladigan ta'lim jarayonining uzviyligini va uzliksizligini ta'minlovchi qat'iy ketma-ketlik yaratiladi, shuningdek, ta'lim didaktikasini joriy etishning aniq mexanizmlarini yaratish borasidagi ta'lim-tarbiyaviy va pedagogik tadqiqotlar sohalaridagi ishlar yanada rivoj topadi.

O'qitish algoritmi intellektual asr ta'lim-tarbiya sida asosiy pedagogik terminlardan biri bo'ladi. chunki zamonaviy o'qitish texnologiyalari shu kabi terminlar asosida ta'limda yangicha sifat bosqichiga ko'tariladi.

### 16.3. Ta'lim – borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida

Ta'lim – inson bilish faoliyatining eng murakkab turlaridan biri bo'lib, individual psixik rivojlanishni va bilimlarni o'zlashtirishni ancha tezlashtiradi. O'qituvchi ta'lim jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, bu jarayonda u ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa bilim olishni yanada faollashtiradi, natijada ta'lim oluvchi ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Inson tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati jarayonini tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini o'zlashtirib oladi.

Narsalar, buyumlar bilan amaliy muomalada bo'lish natijasida buyumlar sezgi organlariga ta'sir qiladi, sezgilar idrokni keltirib chiqaradi. Amaliyotda insonning faol fikrlash faoliyati yuzaga keladi. Fikrlash yordamida u real voqealikni chuqur tushunadi.

Bilim manbai sanalgan amaliyotning ahamiyati xususida so'z yuritganda bilish jarayonining mohiyatini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Bilish – murakkab dialektik jarayon bo'lib, jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga, so'ngra amaliyotga o'tish yo'lidir. Bilish shaxs uchun muhim ham o'zlashtirilmagan narsa, voqea va hodisalar mohi-

yatini ong yordamida anglash jarayonidir. Obyektiv borliqni bilish uni sezishdan boshlanadi. **Sezish** ongning tashqi olam bilan bo'ladigan chinakam aloqasidir. Sezish tevarak-atrofdagi voqealik, narsa va hodisalarning sezgi organlari (bizga ma'lumki, ular beshta)ga ta'sir etuvchi ayrim sifat, belgilarning ongda aks etishidir. Bunda har bir organ, har bir analizator I.P.Pavlov ta'kidlab o'tganidek, narsalarning ayrim eng muhim sifatlarini his ettiradi. Sezish muayyan narsa, voqea-hodisalar mazmunini ongda idrok etilishiga olib keladi.


**Idrok** – sezish a'zolari orqali ongga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning unda (ongda) yaxlitligicha aks etish jarayonidir.

Sezish va idrok qilish yordamida bilish jarayonida tasavvur ro'y beradi. Tasavvur inson ongida uzoq muddat saqlanib qoladigan sezishlar va idrokning izidir. Yoki boshqacha aytganda, tasavvur – sezgi a'zolariga qachonlardir ta'sir etgan hamda idrok qilingan narsa va voqea-hodisalarning ongdagi yaqqol hissiy obrazidir. Tajriba vositasida odamda tasavvur zaxirasi boyib, ko'payib boradi. Tasavvur fikrlashda, tushunchalarning tarkib topishida muhim rol o'ynaydi. Tasavvur muayyan umumlashmalarning mavjudligi bilan bog'liq. Sezish, idrok va tasavvur bilishning muhim tarkibiy qismlari bo'lsa-da, ular ham haqiqiy voqealikni bilish muammosini to'la hal etmaydi. Bilish jarayonining eng yuqori bosqichida tafakkur yuzaga keladi.

Jonli mushohada va tafakkur doimo odamning amaliy faoliyatiga asoslanishi kerak. Odam tabiat va ijtimoiy jamiyat qonuniyatlarini ochib, o'z faoliyatida ulardan foydalanishga intiladi. Har qanday nazariy bilimning qiymati uning amaliyotga qanchalik xizmat qilishi bilan belgilanadi. Nazariya amaliy faoliyat mohiyatidan kelib chiqib asoslanadi hamda amaliy faoliyatning yaxshiroq yo'lga qo'yilishiga xizmat qiladi. Biroq, amaliyot ayni vaqtda bilimning to'g'riligini tekshirish vositasi hamdir. Nazariy g'oya, fikr amaliyotda tekshirilgan va u orqali tasdiqlangandagina u inson bilimlarining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Demak, bizga bilim amaliyotdan sezgi idrok, tasavvur va tafakkur asosida hosil bo'lishi va yana amaliyotga qaytib borishida namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bilim amaliyotga o'zining ilga-

rigi ko'rinishida emas, balki ancha boyigan ko'rinishida, ancha yuqori darajada qaytib boradi. Biz bu holni quyidagi holatda ko'rishimiz mumkin (2-shakl).



2-shakl. Bilimning amaliyot davomidagi yuksalishi.

Bilish jarayonida bilim hosil bo'ladi. Bilim – odamlarning ijtimoiy tarixiy amaliyot jarayonida to'plagan umumlashgan tajribasidir. Bilim obyektiv borliqni to'g'ri aks ettiradi. Eng to'g'ri va mukammal bilimlar ham o'z navbatida doimiy emas, balki ijtimoiy taraqqiyot jarayonida o'zgarib boradi.

Bilimlar asosida ta'lim oluvchilarning kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira singari bilish qobiliyatlari rivojlanadi, ularda e'tiqod hosil bo'ladi, ilmiy dunyoqarshni shakllantiruvchi g'oyalar tizimi tarkib topadi.

Yuqorida aytib o'tilgandek, bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim jarayonida tarkib topadi. Ta'lim – dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib, unda ikki tomon – ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi ishtirok etadi. Ta'lim berish ta'lim oluvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

#### 16.4. O'qitish, o'qitish jarayonlari tasniffari va ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqadorligi


*O'qitish tushunchasi* – insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

U ijtimoiy xulq-atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida



ta'lim oluvchilar bilan rejali va tizimli tarzda tashkil etiladigan turli harakatlar, tashkiliy va amaliy ishlarga undovchi faoliyatdir. O'qitish ta'lim oluvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning barcha bosqichlarida samarali vosita sanaladi.

Pedagogik ta'lim mazmun-mohiyatini baholash va uning sifati hamda samaradorligini oshirish ta'lim jarayoniga tegishli bo'lgan har bir komponent (jihati, omil, ko'rsatkich)larga uzviy ravishda bog'liq bo'ladi va shu sababli ham pedagogik ta'lim tizimini yagona dinamik tizim deb qaraladi. Shu ma'noda o'quv jarayonining tashkil etuvchilarini quyidagicha ifodalash mumkin (3-shaklga qarang):



3-shakl. O'quv jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy sxemasi.

Ta'lim jarayonini olib borishning sifati va samaradorligi ko'p jihatdan ularni tashkil etuvchilarning o'zaro nechog'lik aloqador-

likda faoliyat yuritishiga bog'liq. Bunda, albatta, ta'limning sifat nazoratini ilmiy asosda to'g'ri tashkil etish mexanizmlarini ishlab chiqish lozim bo'ladi va ta'lim sifatini belgilovchi omillarni hamda ulardan foydalanishning mantiqiy ketma-ketligini algoritmik tarzda asoslashni taqozo qiladi. Ta'lim sifatini belgilovchi omillarga 3-shakldagi ta'lim tizimi komponentlari bilan quyidagilarni ham kiritish mumkin:

- ta'lim beruvchilar;
- DTS, o'quv reja va o'quv dasturlar;
- darslik, o'quv qo'llanma va shu kabilar;
- o'qitish vositalari;
- fanlar bo'yicha nazariy materiallar;
- fanlar bo'yicha amaliy materiallar;
- fanlar bo'yicha didaktik materiallar;
- laboratoriya va ustaxonalar jihozlari;
- amaliyotlar;
- axborot-kommunikatsion texnologiya vositalari.

Ta'lim jarayoniga bunday yondashuv kadrlar tayyorlashning me'yoriy, tashkiliy, o'quv-uslubiy, axborot va moddiy-texnik sharoitlar tizimining bajarilishini ta'minlashdan iboratdir. Bunda fanlarni o'qitishga e'tibor yanada kuchaytirilgan bo'ladi.

**Fanlarni o'qitish** – bu o'qitish xususiyatlarini tarbiyalash va takomillashtirish jarayoni bo'lib, u ta'lim beruvchida ilmiy munosabatni va quyidagi xususiyatlarni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi:

• **qiziqish** (bilish xohishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi);

• **skeptitsizm** (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko'rib chiqish xohishi);

• **dalillar** (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalaridan foydalanish mahoratlari);


• **xabardorlik** (uning yordamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi);

• **strategiyalar** (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishlari);

• *mo'yillik* (yangi bilimlarni olish natijasida ta'lim beruvchi o'zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta qura boshlashi uchun boshqalarining fikr va tushunchalarini qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi).

Demak, fanlarni o'qitish jarayoni butun bir pedagogik jarayonda samarali faoliyat ko'rsatishning didaktik asosidan iborat ekan.

«Quyidagi shaklda taklif etilayotgan loyiha pedagogik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlash orqali ta'lim-tarbiya jarayonlari natijaviyligi hisoblangan pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi».



4-shakl. Pedagogik jarayonlar samaradorligini ta'minlash ketma-ketligi.

## 16.5. Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim sohasidagi gnoseologik g'oyalari

Umuman olganda ta'lim nazariyasi bo'yicha donishmand allomalarimiz va mutaxassis-olimlar ko'plab shug'ullanganlar.

«Antik pedagogikada tabiatga, atrof-muhitga o'zaro insoniy munosabatlar majmuasi bo'lgan donishmandlik pedagogikasi shakllangan.

Bu vaqtlarda ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi ham yoshlarda donishmandlik sifatlarini shakllantirish bo'lgan.

Donishmandlik pedagogikasida yoshlarda mehnatsevarlik, ma'naviy-axloqiy sifatlar bilan uyg'un rivojlantirilishi maqsadga muvofiq ekanligi ilgari surilgan. Bu pedagogik qarashlar mashhur «Avesto» (er. av. VII asr) asarida va qadimgi Xitoyning Dao maktabi (er. av. III asr) tajribalarida aks etgan edi. Eramizdan avvalgi II asrlarga kelib O'rta Osiyo, qadimgi Hindiston pedagogikasida saxiylik, sofdillik, inson qalbi kabi tushunchalar ilgari suriladi.

610-yillarga kelib, islom dinining muqaddas manbalari Qur'oni Karim, Hadisi sharifda inson mohiyati to'la ochib berilib, komil inson tarbiyasi bosh maqsad qilib qo'yilgan edi.

Qur'oni Karimdagi ta'lim-tarbiyaga oid ulug' xazina talqinlari al-Buxoriy hazratlari to'plagan hadislarda beriladi. Ta'lim-tarbiya, insoniy munosabatlarning falsafiy asoslari tasavvuf ilmida ham ochib berila boshladi. Antik falsafada ham zohiriy va botiniy ilmlar bir-biriga uyg'un ravishda qaralgan. Demokrit, Aflotun, Arastu asarlarida insonparvarlik g'oyalari ilgari surilgan edi.

Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino asarlarida ong va fan o'zviyiligi ilgari surildi. Al-Xorazmiy, Umar Xayyom, Ahmad Farg'oniy ta'limotlarida amaliy faoliyat ustuvorligi g'oyalari ilgari surildi. XIII–XIV asrlarda Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband hazratlarining ulug' tariqatlarida mehnatsevarlik insonparvarlik, poklik, soflikning asosi ekanligini nazariy va amaliy isbotlangan. Masalan: Bahouddin Naqshband hazratlari:

*«Diling – Olohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin»* – degan shiorni ilgari surdilar va unga o'zlari hayotlarida ibratona amal qilib yashadilar.

Mirzo Ulug'bek ta'limda tadqiqot, kuzatish, umumlashtirish g'oyasini ishlab chiqdi, bu g'oyani amalda tadbiiq qilib maktablar ochdi, darsliklar yozdi, observatoriya (rasadxona)lar tashkil qildi.

XV–XVI asrlarda Alisher Navoiy asos solgan ta'limot mutafakkirlari insonparvarlik g'oyasi nazariyasi va amaliyoti bo'yicha ulug' ishlar qildilar.

Ma'lumki, ta'limda asosiy rol ta'lim beruvchiga yuklatiladi va uzluksiz ravishda ta'lim oluvchiga bilim beriladi. Ta'lim oluvchilar faoliyati esa ta'lim beruvchidan chuqur va ongli ravishda bilim olishdan iboratdir. Bu borada G'arb mutaffakkirlaridan Gelvetsiy, Didro, R.Ouenlar tarbiyaning ustuvorligi g'oyasini ilgari surishdi. K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy ta'lim va tarbiyani uyg'unligi g'oyasini targ'ib qildilar. S.G.Shatskiy, L.V.Zankov, Suxomlinskiylar ta'limda amaliyotni tadbqiqiy, ongli o'zlashtirish ahamiyatiga ega ekanligini ishlab chiqishdi. Ayniqsa, nemis faylasufi, pedagog va psixologi Iogann Fridrix Gerbart (1776–1841)ning bu sohadagi xizmatlari katta bo'lib, u ta'lim oluvchilarning aqliy rivojlanishi va ularning intellektual ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ta'lim nazariyasini ishlab chiqishga harakat qildi. U ta'lim oluvchilarga berilayotgan bilim ularning sezgi va irodasini rivojlantirishi va ta'limning tarbiyaviy xarakteriga ta'siriga alohida e'tibor berdi.

Ta'lim nazariyasiga katta hissa qo'shgan mutaxassis-olimlardan biri Yan Amos Komenskiy (1592–1670)dir. U ta'lim nazariyasi bo'yicha birinchi fundamental asar yozgan olimdir. Uning asarining nomi «Buyuk didaktika» deb atalib, asar ilk bor 1657-yilda nashr qilingan.

Amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Jon Dyui (1859–1952) ta'lim oluvchi faoliyatini faollashtiruvchi soha tarafdori sifatida maktablarni keskin yangilashda qatnashdi. Bosh maqsad bilimni yetkazib bermasdan, balki ta'limni shaxsiy tajriba asosida, ya'ni bolalarning tug'ma qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida u maktab tizimini isloh qilishni taklif etdi.

An'anaviy ta'lim tizimiga qarshi Dyui va uning hamkorlari yaratgan konsepsiya (qarashlar tizimi) «ilg'or» deb ataldi. Ilg'orlar didaktikasi ko'pincha erkin tarbiya g'oyasiga tayangan. Erkin tarbiyani fransuz faylasuf-ma'rifatparvari J.J. Russo (1712–1778), nemis pedagogi F.A.Disterverg va o'sha davrdagi ma'rifatparvar pedagoglardan, rus yozuvchisi, mutafakkir va pedagog L.N.Tolstoy (1828–1910) Yasnopolyanadagi maktabda bolalarni erkin tarbiyalash g'oyasini namoyon etgan.

## 16.6. Ta'lim jarayoni va ta'lim oluvchilar ruhiyatidagi o'zaro aloqadorlik

*Ta'lim jarayoni* – ta'lim jarayonining komponentlarini o'z ichiga olib, unda o'qitish va foydalaniladigan vositalar, muayyan maqsad-vazifalarni hal qilish uchun ta'limning usullari, mazkur jarayonda mustaqil ishlaydigan ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi hamda ko'rgazmali va texnik vositalar ishtiroki ta'minlanadi.

*Ta'lim jarayoni* – bu ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan pedagogik faoliyat bo'lib, insonning aqliy faoliyatini rivojlantirish jarayonidir. Ta'lim jarayoni ta'lim oluvchilarning o'qish – o'qitish jarayonining mazmun-mohiyatini ongli ravishda anglab yetishlari orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonini amalga oshirishning samarali yo'llari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi uzviy aloqa orqali qo'lga kiritiladi. Shu sababli ham ta'lim jarayonida va uni boshqarishda teskari (qaytma) aloqa (ta'lim jarayonining borishini nazorat qilishdagi joriy va oraliq natijalarni aniqlash vositasi) ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materialini anglab yetishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu yerda teskari aloqa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi rejalashtirilgan maqsad sari to'g'ri borayotganligini aniqlab va kerakli hollarda jarayon kechishini rostlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Uning yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishishning optimal variantini tanlash kafolatlanadi. Bu orqali ta'lim oluvchilar o'quv materialini mohiyatini anglab yetadilar, optimal yechimlarni izlab topadilar, pedagogik amaliyotda ma'lum bo'lgan g'oyalar va qonuniyatlarni, shuningdek, ta'lim oluvchilar o'zlarining intellektual salohiyatlarini takomillashtiradilar.

Demak, ta'lim jarayoni, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida uzviylik hamda uzluksizlik, ya'ni aloqadorlik pedagogik jarayonning muhim komponentlari ekan. Bunda o'qish jarayonining quyidagi g'oyalarga doimo ahamiyat berishga to'g'ri keladi:

- o'qish – bevosita bajariladigan jarayon bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilar butun hayotlari davomida yangi axborotlar oladi;
- bolalarni o'qitishga o'rgatishning o'zi kamlik qiladi, ularni chu-

qur o'ylanib o'qishga o'rgatish kerak va bular natijasida ta'lim oluvchilarda yangi fikr paydo bo'lib, ularning ilmiy ijodga kirib kelishi ta'minlanadi;

- o'qish – oddiy o'rganish fani emas, balki fikrlash va dunyoni bilish qurolidir;

- o'qish va o'qiganda javoban ta'sirlanish tanqidiy tahlilning asosiy yo'lidir;

- har xil fanlarni o'rganish, odatda ta'lim oluvchidan juda ko'p mustaqil o'qishni talab qiladi, shuning uchun o'qish jarayonini tushunish aniq fan bo'yicha o'qilganni o'zlashtirishni va tahlil qilishni yaxshilash mumkin.

Demak, ta'lim jarayonidagi ta'lim oluvchi holati ham ushbu sohada faoliyatni optimal variantlarini qo'lga kiritishda mustahkam didaktik asos bo'lar ekan. Bu borada ta'lim oluvchining intellektual salohiyatini, ruhiy va fiziologik salomatligi hamda ulardagi quvonch hissi ta'lim jarayonida o'ta muhimdir.

*«Ta'lim oluvchining quvonch hissi* – bu ularning dars jarayonida o'quv topshiriqlarini bajarishga muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishdagi ma'naviy muhim hosilasidir.

Bu ta'lim jarayonidagi asosiy jihatlardan biri bo'lib, unda o'qishga havasni rag'batlantirishning ta'sirchan usullaridan biri amalga oshiriladi va ularda quvonch hissini ro'yobga chiqariladi.

Ma'lumki, ta'lim oluvchi muvaffaqiyat quvonchlarini boshidan kechirmas ekan, keyingi muvaffaqiyatlarga to'la ishona olmaydi. Shuning uchun tajribali o'qituvchilar ta'lim oluvchilar uchun topshiriqlarni shunday tanlaydilarki, ular tegishli bosqichda yechilishi oson topshiriqlarga aylanadi. Bunda ikki turdagi topshiriqlardan foydalaniladi, ulardan birini ta'lim oluvchi bemalol bajaradi va nisbatan murakkabroq boshqa topshiriqni yechish uchun unda intilish bazasi yaratiladi. Muvaffaqiyat bazasi bir xil murakkablikdagi topshiriqlarni tabaqalashtirish yo'li bilan yaratiladi. Muvaffaqiyat vaziyatini yaratishda o'quv topshiriqlarini bajarish uchun qulay ma'naviy muhitni tanlash muhim rol o'ynaydi. Qulay mikro – ijtimoiy muhit o'qish vaqtida o'zaro ishonchsizlik, cho'chish yoki qo'rqish, iymanish tuyg'ulariga

barham beradi. Bunda ikkilanish holati ishonch holati bilan almashinadi».

Ta'lim jarayoni va uning qatnashchilari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashda o'quv-o'yin faoliyati texnologiyasining ahamiyati ham katta. Bunday texnologiya tabaqalashgan o'qitish texnologiyasiga o'xshashroq bo'lib, unda o'quv-o'yin ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'zaro faol bo'lganda mazmunli bo'ladi. Buning uchun o'quv-o'yin loyihasi oldindan ishlab chiqiladi va rejalashtirilgan natijalarning baholanishi oldindan aniqlanadi, shuningdek, o'quv vazifalari aniq belgilangan, murakkab vaziyatdan chiqib ketishning metodik usullari, imkoniyatlari aniqlangan bo'lishi kerak.

### **16.7. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining uyg'unligi**

Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo, ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, bilim berish orqali uch maqsadni hal qilishi lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatini birlashtiradi.

**Ta'limiy maqsad** – o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiiq qila olish.

**Tarbiyaviy maqsad** – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, iymon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

**Rivojlantiruvchi maqsad** – ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida ta'lim oluvchida mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi, o'ylashga o'rganadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishida ta'limdagi zamonaviylik, ta'limda intellektual sohani rivojlantirish, ta'limda innovatsion sohani rivojlantirish, ta'limda emotsional sohani rivojlantirish va



shu kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ular to'g'risida qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz

**Ta'limda zamonaviylik** – ta'lim amaliyotiga ilmiy asoslangan va tajribada sinalgan didaktikaga oid yangiliklar, faol metodlar va shakllar, tartib-qoidalarni joriy etishning majburiyligi milliy dastur g'oyasidir. Ta'limning taraqqiyot darajasi uning mazmuniga kiritilayotgan fan-texnika yangiliklari bilan tavsiflanadi.

**Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish** – ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini) xotirasini, diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, egiluvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil va h.k.), bilish (ta'lim oluvchilarni qaramaqarshilik va muammolarni ko'rish, savollar qo'yish, farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishni bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni.

**Ta'limda irodani rivojlantirish** – ta'lim oluvchida maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni bo'lib, unda asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish (qanday faoliyat ko'rsatish), faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar muhim hisoblanadi.

**Ta'limda motivatsion sohani rivojlantirish** – ta'lim oluvchining intellektual bilimlarga, tabiatni anglashga, jamiyatga, insonga fikrlash va bilish qonuniyatlariga bo'lgan ehtiyojlarini shakllantirish jarayoni.

**Ta'limda emotsional sohani rivojlantirish** – ta'lim oluvchida o'z hissiyoti va ruhiy holatlarini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, unda ortiqcha xavotirni engish va o'zini xolisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

Umuman, ta'lim jarayoni 4 ta asosiy bosqichdan tashkil topadi:

1. O'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish.
2. Uni tanlab olish tushunchalarining hosil bo'lishi.
3. Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish uchun ko'nikma va malakalarni hosil qilish.
4. Hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash.

Har bir bosqich uchun ta'lim oluvchilarning muayyan tavsifidagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat ta'lim beruvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi.

Ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida o'zlashtiradigan bilimlar mohiyati analiz va sintez metodlari yordamida anglanadi.

**Analiz (bo'laklarga ajratish)** – narsa, voqea va hodisalarni tarkibiy qismlarga, bo'laklarga ajratishdir. Masalan, anorni qattiq po'st, qat-qat parda va donachalarga ajratish, kabi.

**Sintez (birikish, qo'shilish)** – analizga qarama-qarshi bo'lgan fikrlash jarayoni. Unda o'rganilayotgan narsa, voqea va hodisalarning alohida qismlarini, bo'laklarini bir butun qilib birlashtirish.

Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyati taqqoslashlarda ham namoyon bo'ladi.

**Taqqoslash** – narsa va hodisalardagi tafovut hamda o'xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo'naltirilgan fikrlash operatsiyasi demak.

Induktiv va deduktiv tafakkur o'quv materialini tushunib olishda muhim ahamiyatga ega.

**Induktiv tafakkur (keltirib chiqarish)** – juz'iy yoki yakka holardan – umumiyga, ayrim dalillardan – umumlashmalarga qarab boradigan, xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakllaridan biri.

**Deduktiv xulosa (ikkiga ajratish, keltirib chiqarish)**, umumiy hukmlardan – xususiy hukmlarga qarab borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat metod, tafakkur shakllaridan biri.

Analiz, sintez, taqqoslash, induktiv tafakkur va deduktiv xulosa metodlaridan foydalanish asosida ta'lim oluvchilarda tushunchalar hosil bo'ladi.

## 16.8. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari

Ta'limning quyidagi qonuniyatlari mavjud: tarbiyalovchining tarbiya qonuni; har qanday ta'lim faqat o'qitilayotgan, o'qiyotgan va o'rganayotgan obyektning ma'lum bir maqsadga o'zaro ta'siri yordamida amalga oshiriladi; ta'lim faqatgina ta'lim beruvchining faoliya-

tiga va o'y-fikrlariga muvofiq ravishda ta'lim oluvchilarning faol faoliyatlari davomida yuz beradi; o'quv jarayoni ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchining maqsadlariga muvofiq kelgan holda yuz beradi; alohida bir shaxsni u yoki bu faoliyati o'rganishga yo'llash uni ushbu faoliyatga jalb etish orqali erishiladi; ta'limning maqsadi, bilim olishning mazmuni va ta'lim metodlari orasida doimiy bog'liqlik mavjud bo'ladi: ta'limning maqsadi ta'lim mazmunini va metodini belgilab beradi.

Ta'lim jarayoni bilan ijtimoiy tizimlar va shart-sharoitlar orasidagi qonuniy aloqalarni o'rganish imkoniyatini beradigan tizimli-tarkibiy tuzilish bizga ta'lim qonuniyatlarini o'rganish uchun yetakchi metodologik manba, asos deb hisoblaymiz. Keyin esa ta'lim tarkibiga kiradigan o'qitish va o'rganish jarayonlari orasidagi aloqalar, eng oxirida esa o'quv jarayonining vazifalari, mazmuni qaraladi.

Ta'lim qonuniyatlari tarkibiy qism sifatida ta'lim jarayoniga kiradigan, uning qonuniyatlaridan kelib chiqadigan yaxlit pedagogik jarayon bilan keng ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning o'zaro aloqalarini tahlil etishdan kelib chiqadi.

#### *Ta'lim qonunlari quyidagilar:*

- **O'zaro bog'liqlik qonuni** – ta'lim-tarbiya jarayonida ikki-ta ruhiy harakatning o'zaro bog'liqligidagi rivojlanish qonuni. Bu qonun bo'yicha ta'lim-tarbiya jarayoni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi ruhining bir yo'nalishdagi harakatini taqozo etadi. Bu qonunga binoan, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi ikki shaxsdan birining harakati ikkinchisniki bilan mos kelmasa, ta'lim-tarbiya jarayoni sodir bo'lmaydi. Bunda darsni samarali tashkil qilish va uni sifatli, mazmunli amalga oshirish uchun pedagog sinfda yoki auditoriyada bir xildagi holatni, ya'ni, bilim berish va bilim olish holatini shakllantirish kerak;

- **Mashq qonuni** – qonun bo'yicha, egallangan bilimni ko'nikma, so'ng malakaga aylantirishda, mashqni iloji boricha tez amalga oshirishni taqozo etadi;

- **Intensivlik qonuni** – bu qonun bo'yicha, mashqlar javobi qanchalik intensiv ravishda bo'lsa, shunchalik tez o'zlashtiriladi;

• **Assimilyatsiya qonuni** bo'yicha, har bir yangi «turtki» qaytar reaksiyani vujudga keltiradi, deyiladi. Shuning uchun egallagan bilimni qaytarish yo'li bilimni «turtib» turish kerak, deyiladi;

• **Natijaviy qonunda** – reaksiya ijobiy bo'lsa, bilim mustahkamlanadi, agar salbiy bo'lsa, xotira uni o'chirib tashlaydi, deyiladi.

**Ta'lim tamoyillari** – ta'lim beruvchining faoliyatini va ta'lim oluvchining bilish faoliyati xususiyatini belgilovchi asosiy boshlanmalardir. Ta'lim tamoyillari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli formada, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Shuning uchun ta'lim tamoyillari ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Olimlarning ta'lim tamoyillarining soni va nomi to'g'risidagi fikrlari bir-biridan farq qilsa ham, ammo, ularning mazmuni va o'qitish qonuniyatlarini tushunish an'anasi asosan bir xildir. Binobarin, quyidagi ta'lim tamoyillari tizimini taklif qilish mumkin: ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar, o'qitish, bilim berish, ya'ni ta'lim jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogika ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari alohida o'rganiladi.

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir-biri bilan mustahkam bog'liq holda bir tizimni tashkil etadi, har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechtasi ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shadi. Ta'lim tizimi isloh qilina-yotgan hozirgi jarayonda ta'lim oluvchilarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarining mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi, fan-texnikaning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim.

Shunday ekan, ta'lim oluvchi ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim, chunki o'quv fanlari ham ilm-fan asosida yaratiladi. O'qitishning ilmiy tamoyillari ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarni hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti darajasidagi oliy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, ta'lim oluvchilarni ilmiy-tadqiqot usullari bilan tanishtirib borishga qaratilgan.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqador-dir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlardan foydalanmoq lozim.

Ta'limdagi ongillik va faollik ta'lim oluvchilardagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi.

O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, ta'lim oluvchilarning fikr yuritishi ham shunchalik aniq va ravshan bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil sur'atda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday sharoitda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishiga e'tibor bermog'i lozim. Yoshlarning o'qish istagi ta'lim jarayonining zaruriy va mantiqiy qismidir. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilarning o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishiga bog'liqdir. Buning uchun ta'lim beruvchi, ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim – shaxs shakllanishining asosiy manbayidir.

Umuman, bilimlar – voqealikdagi haqiqat in'ikosidir. Ammo, voqealikning har qanday tarzda to'g'ri aks ettirilishi ilmiy bilim bo'la olmaydi. Masalan, maktab yoshiga yetmagan bola tevarak-atrofidagi dunyoni to'g'ri biladi, lekin undagi in'ikos yetarlicha chuqurmas, shu-

ning uchun uning bilimlarini ilmiy bilim deb bo'lmaydi.

Tevarak-atrofni o'rab olgan dunyoning qonuniyatlarini, narsa va hodisalarning ichki muhim xossalarini va o'zaro aloqalarini aks ettiruvchi bilimlargina ilmiy hisoblanadi. Bu bilimlar aqliy jihatdan o'qishga hal qiluvchi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki ular hozirgi zamon fani, texnikasini ishlab chiqarish, madaniyat va san'atni o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ta'limning ilmiyligi ta'lim oluvchining o'quv materialidagi qonuniyatlarini aks ettirishi, tushunishi va o'zlashtirishi uchun to'g'ri sharoit yaratish maqsadida zarurdir.

O'qitish, tarbiya berish deganda biz ta'lim va tarbiyaning bir-biridan ajralmasligini tushunamiz. Shunday ekan, maktab obro'si, o'qituvchi obro'si, avvalo, darsda shakllanadi. Til va adabiyot darsimi, matematika darsimi, har doim ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini ko'ra bilish, tarbiya usullaridan foydalanish lozim.

Ta'lim oluvchilar ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi ham, irodasi va axloqiy sifatleri, iymon-e'tiqodi va qobiliyati ham o'sib rivojlanib boradi.

Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanishda ta'lim beruvchi avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashga va bilim olishga qiziqтира olishga bog'liqdir. Shu bilan birga, ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar oldidagi obro'-e'tibori ham muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

O'qitish jarayonini ko'rgazmali tashkil qilish zarur. Ham eshitish, ham ko'rsatish orqali o'quv materiallarini idrok qilish, ularni ongli va puxta o'zlashtirish, bilimlarning turmushdagi zaruriyatini anglab yetishlariga asos soladi, diqqatni barqarorlashtiradi. Shuning uchun ko'rgazmali materiallar o'rganilayotgan mavzuning mazmuniga mos kelishi, ta'lim oluvchining yoshi va bilim darajasiga muvofiqlashgan bo'lishi hamda ulardan foydalanishning samarali yo'l va vositalar ishlab chiqilgan bo'lishi lozim.

#### *Ta'lim tamoyillari:*

• **Ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish tamoyili** – ta'lim mazmunini unifikatsiyalash va tabaqalashtirish, birin-

chidan, ma'lum bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis tayyorlanayotganda uni bir necha tur modifikatsiyani (xillarini) tayyorlash imkonini beruvchi unifikatsiyalashgan o'quv rejalarining tizimi ko'zda tutilsa, **ikkinchidan**, umumtexnik va umumpedagogik hamda maxsus predmetlar mazmunini tabaqalashtirish, ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlaniishi an'analarini hisobga oladi;

• **Ta'lim-tarbiya tizimi va uzviylik tamoyili** – bu ta'lim-tarbiyada qat'iy mantiqiy izchillikka rioya qilish kerak bo'lgan jarayondan iborat bo'lib, bunda o'rganilgan bilimlar va shakllangan tasavvurlar oldingi o'rganilganlardan kelib chiqadi, ularni mustahkamlaydi, chuqurlashtiradi va keyingi ta'lim-tarbiyaviy jarayonga zamin hozirlanadi. Mazkur tamoyil o'qish jarayonida didaktikaning umumiylikdan xususiylikka (deduksiya) va aksincha xususiylikdan umumiylikka (induksiya) qoidasini va o'quv fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lishini ta'minlaydi;

• **Ta'lim-tarbiyaning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili** – bu ta'lim mazmunining amalda o'z ifodasini topish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, unda tarbiyani hayot bilan uzviylikda olib borish jarayoni qaraladi. Ushbu tamoyil didaktikaning asosiy qoidalaridan biri bo'lib, ruhiy hodisalar bilan yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etadi;

• **Ta'lim va tarbiyaning birligi tamoyili** – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, unda egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotda qo'llay olishga o'rgatiladi hayotda ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi. Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida ikki o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni, bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish hamda shakllangan ta'limiy-tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, obyektiv borliqdagi qonuniyatlarni o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi. Shu sababli, ta'lim oluvchilarga bilim berishda egallagan bilimni amalda ishlatishga o'rgatish, ya'ni, tarbiyalash jarayoni ham uyg'unlikda olib borilmog'i lozim bo'ladi;

• **Ta'lim-tarbiyaning muntazamiylik va davomiyligi tamoyili** –

bu ta'lim-tarbiyadagi zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, u bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha tuzilgan o'quv reja va dasturlarda dasturiy va uslubiy tavsiyanomalarni yaratishda tadbiiq etiladi. Amaliyotchi o'qituvchi o'quv reja va dasturlaridan chetga chiqmasligi lozim. Bu qonuniyat tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi, ularning **tadrijid**an kelib chiqqan aloqadorliklar qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Bu qonuniyat o'qish faoliyatini tashkil etishning asosi hisoblanadi. Unga amal qilmaslik ta'lim oluvchilar tafakkurida o'zaro bog'liq bo'lmagan uzuq-yuluq bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Bunday bilimlardan kishining ijtimoiy mohiyatiga naf bo'lmaydi, ular tafakkurni charchatadi xolos;

• **Ta'lim-tarbiyada onglilik va faollik tamoyili** – ta'lim oluvchilar o'layotgan bilimni hayotda qo'llay bilishlari uchun ta'lim berish jarayonini faol fikrlashga aylantirish kerak. Bunda o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, ta'lim oluvchilar bilimlarini mashg'ulotlarda ongli va faol qatnashib, egallab olishsin. Shunda talabalarda ong o'sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta'lim-tarbiyaning onglilik tamoyili ta'lim oluvchilarda ta'rif, tushuncha va qoidalarni yodlash va esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni hayotiy hodisalar, jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini tushuntirishlarini talab etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish ta'lim oluvchilarda bilimlarga nisbatan ma'lum munosabat hosil qilishni, hissiy kechinmalar uyg'otishini o'z ichiga oladi. Bu tamoyil tafakkurini shakllantiruvchi qoida bo'lganligi uchun, muammoni mustaqil hal qilish maqsadida darsda ta'lim oluvchilarga muammoli vaziyatlar tavsiya etiladi.

• **Ta'limda o'quv faoliyatini yaxlit shakllantirish tamoyili** – ta'lim oluvchilarning diqqatini boshqarish, ularga bajariladigan ishlarni tushuntirish, zaruriy ehtiyoj – motivatsion holatlarni faollashtirish, faoliyatga yordam berish, tuzatish kiritish jarayoni va ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatining natijasini baholash jarayoni;



• **Ta'limni ilmiy asosda tashkil etish tamoyili** – ta'lim oluvchilardagi o'qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o'stiradigan, ularni mustaqil bilim olishga yo'naltiradigan usullarga o'rgatadi hamda pedagogik, texnik atamalardan to'g'ri foydalanishga odatlantiradi;

• **Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili** – bu o'rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu tamoyil o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalardan to'g'ri foydalanish talabalarning pedagogika, psixologiya, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'qitish uslubiyati va texnikaga oid fanlarni puxta o'zlashtirib olishga, ularda malaka hosil bo'lishiga yordam beradi. Agar ko'rgazmali qurol biror fikrni bildirish uchun yordamchi vosita bo'lsa, nutq – asosiy qurol hisoblanadi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *Ta'lim jarayonini yagona dinamik tizim deb atashga asos bo'ladigan jarayonni misol keltiring va uni nima uchun «dinamik tizim» deb atashimizni asoslang.*
2. *Nima uchun ta'limni borliqni bilishning asosi deymiz. Bunda sezish va idrokning ahamiyatini qanday baholaysiz?*
3. *«O'qitish jarayonida bilimning o'rnini baholash» deganda nimani tushunasiz. Aniq dalillar asosida tushuntirib bering.*
4. *Sharq va G'arb mutafakkirlarining ta'lim sohasidagi g'oyalarining zamonaviy pedagogika rivojiga ta'sirini qanday baholaysiz? Aniq dalillar usosida asoslab bering.*
5. *Ta'lim, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchini ta'lim jarayonidagi uyg'un faoliyatni qanday tushunasiz?*
6. *O'qitishga nima uchun ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalar qo'yiladi?*
7. *Ta'lim qonuniyatlarining muayyan fanlarni o'qitishdagi ahamiyatini izohlab bering.*
8. *Ta'lim tamoyillari o'qitish jarayonida qanday vazifalarni bajaradi? Aniq bir mavzuni o'rganish jarayonida izohlab bering.*

9. Ta'lim va ta'lim jarayonidagi umumiylik va xususiylik qanday bo'ladi?
10. «Yagona dinamik tizim» nima? Aynan «dinamik-pedagogik tizim» deganda nimani tushunasiz?
11. Nima uchun ta'lim – borliqni bilishning asosi deb yuritiladi?
12. «Ta'lim tizimining tashkil etuvchilari va ularning o'zaro bog'liqliklari haqida xulosaviy fikrlar» deganda nimani tushunasiz?
13. Mutafakkirlarning ta'lim to'g'risidagi g'oyalari hozirgi ta'lim tizimi uchun didaktik asos bo'la oladimi?
14. Ta'lim qonuniyatlari bilan ta'lim tamoyillari orasida bog'liqlik bormi? Agar bo'lsa ular qanday ko'rinishlarda uchraydi?
15. O'qitish vazifalari (ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi)ga doimo e'tibor berish kerak deb o'ylaysizmi?
16. «Ta'lim, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkorligi – samarali ta'lim jarayonining asosi sifatida» deganda nimani tushunasiz?

### Test topshiriqlari

1. Ta'lim-tarbiyaga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim kim?
  - A) Al-Xorazmiy
  - B) Ibn Sino
  - D) Forobiy
  - E) Beruniy
2. «O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida»gi hujjat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
  - A) O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda chiqqan qonuni
  - B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-maydagi 203-qarori
  - D) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qarori
  - E) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. «Ta'lim beruvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi» tushunchalari didaktikaning qaysi jihatini yoritadi?
  - A) Ta'lim natijasi

- B) Ta'lim vositalari
- D) Ta'lim metodlari
- E) Ta'lim funksiyalari

**4. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining faoiyat olib borishi qay tarzda ta'minlanadi?**

- A) Davlat ta'lim standartlari va davlat talablari asosida
- B) Umumiy o'rta ta'lim standartlari asosida
- D) Ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida
- E) Kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirish jarayonida

**5. O'quvchi faoliyatining asosiy turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- A) O'qish, mehnat
- B) Mehnat, o'yin
- D) O'yin, o'qish
- E) Muomala, mehnat

**6. Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nechanchi yilda yozilgan?**

- A) 1630-yil
- B) 1631-yil
- D) 1700-yil
- E) 1632-yil

**7. Yangi usul maktablari uchun birinchi bo'lib «Ustodi avval» alifbosini kim yaratgan?**

- A) Said Rasul Said Azizov
- B) Behbudiy
- D) Hamza
- E) Shakuriy

**8. Malaka bu ...**

- A) Bilimlarni amalda bir necha bor qo'llanilishi orqali sodir bo'ladi
- B) Mehnat qilish jarayonida hosil bo'lgan ko'nikmalar natijasi hisoblanadi
- D) Ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan, behato bajariladigan harakati
- E) Insonning uzoq yillar davomida o'zlashtira olgan bilimlar majmuasi

**9. Ta'lim nazariyasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?**

- A) Ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, ta'lim tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalari
- B) Bilim, ko'nikma, malaka, iroda, faoliyat turlari
- D) Ta'lim mazmuni, dars janri
- E) Ta'lim-tarbiya mazmunini ifodalovchi barcha qonun qoidalar

**10. Dastlabki yangi usul maktabi Turkistonning qaysi shahrida ochilgan edi?**

- A) Andijonda
- B) Marg'ilonida
- D) Toshkentda
- E) Chimkentda

Bilim – barcha kulfatlarga qalqon.

*Rudakiy*

## 17-MAVZU. TA'LIM MAZMUNI. O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MAZMUNI

### Reja:

1. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti va uning mazmun-mohiyati.
2. Ta'lim mazmunida «Fan→ta'lim→amaliyot» integratsiyasi-ning zarurligi.
3. Zamonaviy ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'ladigan me'yoriy va qonuniy asoslar.
4. DTSning tasnifi va uni shakllantirishga qo'yilgan asosiy talablar.
5. Ta'lim mazmuni shakllantirish tamoyillari.
6. Ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishning mazmun-mohiyati.
7. Ta'lim mazmunini tabaqalashtirish. Ta'lim mazmunida milliy jahon tajribalarini muvofiqlashtirish.
8. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va va maxsus fanlar-ning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalarida bir-biriga bog'liqligini samaradorligiga erishish. Majburiy va ixtiyoriy o'quv fanlari.
9. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quv rejalarini. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar tavsiflari va ularni yaratish-ga yangicha yondashuv
10. Elektron o'quv adabiyotlari va ularni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar.

11. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo'llash

12. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quv fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish

**Mavzuning maqsadi:** ta'lim mazmuni va unga qo'yilgan zamonaviy talablar hamda O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi (O'MKHT)da ularga e'tibor, shuningdek. O'MKHT tizimining me'yoriy va metodologik asoslarini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

**Mavzuning vazifalari:**

1. Ixtisoslashgan ilmiy tashkilotlar va yangi nomdagi fanlarning paydo bo'lishi hamda ular mazmuniga qo'yilgan talablarni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

2. Ta'lim oluvchilarga kompyuterning ikki muhim xususiyati to'g'risida ma'lumot berish.

3. Nazariya va amaliyot integratsiyasida ta'lim mazmunining roli va o'rmini yoritish.

4. Zamonaviy ta'lim mazmunining me'yoriy va huquqiy asoslari haqida ta'lim oluvchilarga ma'lumot berish.

5. Ta'lim mazmuni tamoyillari va ulardan amaliyo faoliyatda foydalanish mexanizmini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

6. Ta'limni insonparvarlashtirishda «o'z-o'zingni angla» tamoyiliga amal qilinishining mazmun-mohiyatini yoritish.

7. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishda o'quv rejadagi fanlar bloklari aloqadorligining ahamiyati.

8. O'quv rejalari va dasturlari hamda o'quv adabiyotlarni yaratishga yangicha yondashuv qilish ahamiyati.

9. Elektron o'quv adabiyotlar avlodini yaratish texnologiyasini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

10. O'quv-me'yoriy hujjatlar va o'quv adabiyotlaridan ijodiy foydalanishga yo'llanma berish.

11. Zamonaviy darsliklarning asosiy funksiyalari ta'lim oluvchilar ongiga singirish.

### **Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:**

Ilmiy-texnika, ta'lim mazmuni, ixtisoslashgan ilmiy kengashlar, kibernetika, informatika, geofizika, bionetika, matematik mingvisti-ka, ehtimollar nazariyasi, ergonomika, texnik estetika, kompyuterlashtirish, kompyuterli tizimlar, «Fan→ta'lim→amaliyot», «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», DTS, Kasb-hunar ta'limi, kasb-hunar kollejlari, ta'lim mazmuni tamoyillari, ta'limni insonparvarlashtirish, ijtimoiy tajribalar, umumta'lim fanlari, ijtimoiy fanlar, mutaxassislik fanlari, o'quv fanlari bloki, ixtisoslik (mutaxassislik) fanlari bloki, o'quv amaliyoti bloki, kollej ixtiyoridagi soatlar bloki, o'quv reja, o'quv fani dasturi, darslik, o'quv qo'llanma, elektron kitoblar, darslikning asosiy funksiyalari, xalqaro standart tasniflash, ta'limning tarmoq standarti.

### **17.1. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti va uning mazmun-mohiyati**

XX asrning o'rtalariga kelib fanning ijtimoiy hayotdagi roli mislsiz darajada oshdi. Fanlar taraqqiyotidagi inqiloblarning xarakteri o'zgaradi, ya'ni ilm sohasidagi inqiloblar texnika sohasidagi axborotlar bilan uyg'unlashib ketdi va ilmiy-texnika inqilobi yuzaga keldi. XX asrning 40-yillarining oxirlaridagi ilmiy-texnika inqilobi fanning bevosita ishlab chiqarish kuchlariga aylanishi natijasida fanning o'zida, texnikada va ishlab chiqarishda katta sifat o'zgarishlari vujudga keldi. Natijada har 10–15 yilda ilmiy faoliyat hajmi ikki marta oshib kela boshladi. Shu narsani mamnuniyat bilan qayd etish mumkinki, XX asrning 70-yillaridagi olim va ilmiy xodimlar soni butun fan taraqqiyoti davrlarida yashagan olimlar sonining 90%idan ko'prog'ini tashkil etadi, degan xulosalarga ham kelindi. Umuman olganda shuni qayd etish mumkinki, jahon miqyosida ilmiy xodimlarning o'sish foizi aholining o'sish foiziga qaraganda bir necha marta ortiq, ya'ni fan va ta'lim ijtimoiy salohiyatning muhim omiliga aylandi.

Natijada XX asrda ixtisoslashgan ilmiy tashkilot (muassasa)lar soni keskin ravishda oshdi. Fan sohalari bo'yicha ilmiy muassasalar tashkil bo'la boshladi hamda yangi nomdagi fan yo'nalishlari va ular-

ga xos ta'lim mazmuni yuzaga kela boshladi. Jumladan, kibernetika (iqtisodiy kibernetika, bio-medkibernetika, texnika kibernetikasi va h.k.), matematik lingvistika, geofizika, biotexnika, ehtimollar nazariyasi, ergonomika, informatika, texnik estetika va shu kabilar yangi nom olgan fan yo'nalishlaridir.

Keyingi chorak asr davomida ilmiy-texnik taraqqiyotga nazar tashlasak, bu davr ichida ko'pincha, ayniqsa, fizika, matematika, mexanika, ximiya, biologiya kabi aniq fanlar va shu bilan birga texnikada tamomila yangicha sifat va tamoyillarga ega bo'lgan qonunlar, nazariyalar va gipotezalarning vujudga kelganligini shohidi bo'lamiz. Fanlarning o'zaro hamkorligi tezlashib, fanning yangi sohalari paydo bo'la boshladi. Bular ta'lim mazmuniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi va bular o'z navbatida texnika-texnologiya taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, hozirgi kunda xalq xo'jaligini boshqarishni avtomatlashtirish keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Bu borada fan-texnika yutuqlarini o'z navbatida yoshlarga yetkazib borish, hozirgi zamon darslarga qo'yilgan talablardan biridir.

### **17.2. Ta'lim mazmunida «Fan→ta'lim→amaliyot» integratsiyasining zarurligi**

Fan va texnikaning ishlab chiqarish bilan yaqindan integratsiyalashib borishi bu davr taqozosidir. Shuning uchun ham bugungi yoshlar maktablarni bitirgunlarigacha hozirgi zamon texnikasining asoslari haqida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi yuksalayotgan fan va texnikamiz bizga jamiyat qonunlari va tabiatdagi hodisalar mohiyatini, bizni o'rab turgan muhitni rivojlantirishni tushunib yetishga yordam beradi. Ilg'or fan va texnika-texnologiyalar tufayli inson atrof-muhit bilan faol hamkorlikda bo'ladi, uning yashash sharoitlari yaxshilanadi. XIX asrning oxiri XXI asrning boshlarida fan va texnika misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Bu davrda sanoat, transport va boshqa sohalarni avtomatlashtirishga kirishildi. Avtomatik boshqarish nazariyasiga asoslangan «Kibernetika» nomli yangi fan vujudga kelishiga asos bo'ldi.



Kompyuterlardan fizika, matematika, astronomiya, ximiya, geofizika, texnika va boshqa bir talay fan sohalariga oid turli xil murakkab matematik masalalarni yechishda muvaffaqiyatli foydalanilmoqda. Ayniqsa, atom energiyasi, qurilish, kosmik fazoni zabt etish va boshqa ko'pgina sohalarning beqiyos rivojlanishini ularga hisoblash texnikasini keng ko'lamda qo'llanilayotganligining natijasi deb qarash mumkin. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, fizika, matematika, elektronika kabi fanlarning eng ulkan yutuqlarini mujassamlashtirgan kompyuterlar shu paytgacha yaratilgan har qanday hisoblash mashinalaridan ham ustunlik qiladi. Hozirgi kunda kompyuterlar qo'llanilmayotgan biron sohani topish qiyin. Ular dastgoh, sex, zavodlarni boshqarishda ham insonga yaqindan ko'maklashmoqda. Kompyuterlarning ikki muhim xususiyati: hisoblashni tez bajarishi va xotirasida katta hajmdagi axborotni ishlab chiqishi bilan juda ko'p imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Bunday sharoitda barkamol avlodni shakllantirishni quyidagicha amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- xalqimizning boy ma'naviy va intellektual salohiyati hamda umumbashariy qadriyatlarga suyangan holda ta'lim-tarbiyani rivojlantirishning jahon talablarini hisobga olib, DTSni takomillashtirish;

- shakllanishi lozim bo'lgan barkamol avlodning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida boy milliy, madaniy-tarixiy an'analari, xalq urf-odatları va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy va pedagogik shakllar hamda manbalarni ishlab chiqish va joriy qilish;

- uzluksiz ta'lim tizimida o'quv-axborot muhitini yaratish;

- uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari va kompyuter tarmoqlari bazasida ta'lim jarayonining axborotli ta'minotini rivojlantirish;

- uzluksiz ta'lim tizimida kompyuter-kommunikatsiyasi tarmoqlari (kompyuterlar, kompyuterli tizimlar, kasbiy kompyuterli o'yinlar, elektron telekonferensiyalar va h.k.)dan keng foydalanishga erishish;

- uzluksiz ta'lim tizimidagi yutuqlarni keng joriy etishda omma-viy axborot vositalaridan muntazam foydalanib borish mexanizmlarini asoslash;

- yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;
- uzluksiz ta'lim tizimida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining salmog'ini kengaytirish. «Fan → ta'lim → amaliyot» integratsiyasining uzluksiz ta'lim tizimiga samarasini aniqlab borish;
- uzluksiz ta'lim tizimiga ilg'or rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda mutaxassislar tayyorlashga erishish. hamkorliklarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va hokazo.

### 17.3. Zamonaviy ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'ladigan me'yoriy va qonuniy asoslar

«Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'limning mazmuni, har bir o'sib kelayotgan yosh avlod vakilini barkamol qilib tarbiyalash lozimligi ta'kidlanilgan.

Ushbu qonun va milliy dastur fuqarolarga ta'lim-tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash va har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan.

Ta'limning asosiy mazmuni uning vazifalarida oydinlashtirilgan. Asosiy vazifalarga aqliy tarbiya bilan bog'liq bo'lgan vazifalar kiradi. Bu vazifalar ichida ilmiy va texnikaviy bilimlar hamda ular bilan bog'liq bo'lgan malaka va ko'nikmalar bilan qurollashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan tarixiy va madaniy qadriyatlar hamda ular hayotining ma'nosi, jamiyatda insonning tutgan o'rni, ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi haqida hikmatli fikrlar borki, ular bugungi ta'lim taraqqiyoti uchun ham milliy maktab yaratishdagi yoshlarimizda insonparvarlik, poklik, iymon-e'tiqod, muruvvat, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, millatlararo do'stlik munosabatlari, qahramonlik, mardlik singari tuyg'ularni tarbiyalashda o'ta muhimdir.

Shu bilan birga ta'lim-tarbiya muassasalari uchun alohida vazifalar qo'yilgan bo'lib, ularning mazmuni ham «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun bilan mushtarakdir.

#### **17.4. DTSning tasnifi va uni shakllantirishga qo'yilgan asosiy talablar**

Davlat ta'lim standarti (DTD) umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim uchun alohida-alohida ishlab chiqariladi.

Umumiy o'rta ta'limning DTS o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligi saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab berdi. O'z navbatida, kasb-hunar ta'limining DTS o'quvchilar kasb-hunar tayyorligiga, saviyasiga qo'yilgan (oliy ta'lim DTS talablar mutaxassislik tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan) majburiy minimal darajani belgilaydi.

DTS ta'lim mazmuni shakllari, vositalari, usullari va ularning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunini o'zagi hisoblangan standart vositasida, mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli ta'lim muassasalarida (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, nizomlar, o'quv rejasi va boshqa me'yoriy hujjatlarini yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning DTS quyidagi tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- DTSning davlat va jamiyat talablari va shaxs ehtiyojiga mosligi;
- o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan-texnik rivojlanishi bilan bog'liqligi;
- umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlardagi birligi va yaxlitligi;
- umumiy o'rta (kasb-hunar va oliy) ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion (ilg'or) texnologiya yutuqlariga tayanish;
- pedagogik tafakkurda qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

• ilg'or demokratik xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorini belgilash tajribalaridan milliy hususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanish.

### 17.5. Ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari

Ma'lumki, ta'lim mazmuni insonni o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi hamda xarakteri bilan belgilanadi. Shu sababli ham ta'lim mazmuni rejalashtirilgan maqsadga muvofiq holdagi yo'nalish va hajm bo'yicha **shakllantiriladi**. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, o'quv dasturlari shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

**Ta'lim mazmuni tamoyillari** ta'lim berishning ma'lum obyektiv qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Shuningdek, u ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining muhim ichki tomonlarini aks ettiradi hamda turli shaklda, turli mazmunda va har xil yo'sinda tashkil etiladigan ta'limning samaradorligini belgilaydi. Quyida ta'lim mazmuni tamoyillari to'g'risida to'xtalamiz:

**1. Ta'lim mazmunining uzviyligi tamoyili** – bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchiga yetkaziladigan ma'lumotlarning qat'iy mantiqiy izchillikka rioya qilinishi.

**2. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi tamoyili** – bu ta'lim mazmunining amalda o'z ifodasini topish jarayoni bilan uzviy bog'liq bo'lib, u ta'limni «Fan → ta'lim → amaliyot» kabi uzviylikda olib borish jarayonidir.

Ushbu tamoyil didaktikaning asosiy qoidalaridan biri bo'lib, ruhiy hodisalar bilan yaxlit ta'limi jarayonini tashkil etadi.

**3. Ta'lim va tarbiya mazmunining uyg'unligi tamoyili** – bu kishilarga bilim va tarbiya berish jarayonidan iborat bo'lib, bunda egallangan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishga o'rgatiladi, hayotda ta'lim oluvchilarning ham intellektual, ham ma'naviy jihatdan uyg'unlikda rivojlanishi ta'minlanadi.

Yaxlit ta'lim-tarbiya jarayonida ikkala o'zaro bog'liq juftlik, ya'ni bilim berish va tarbiyaviy ko'nikmalarni shakllantirish ham-

da shakllangan ta'limiy-tarbiyaviy bilimlar va ko'nikmalar bo'yicha faoliyat ko'rsatishga o'rgatish, obyektiv borliqdagi qonuniyatlarni o'rganish va uning amaliy munosabatlarini tarkib toptirishda namoyon bo'ladi.

**4. O'quv materialini to'g'ri tanlash.** Bunda ta'lim mazmuniga oid quyidagi jihatlariga e'tibor beriladi: o'quv materialini tanlashda mashg'ulotning maqsadi, ta'lim oluvchilarning oldingi mashg'ulotlarda olgan bilim va malakalariga; fan asoslariga oid bilimlarga; ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanganligiga va shu kabilariga. O'quv materialini mazmuni ta'lim oluvchilarning oldingi tajribalari va fan asoslari bo'yicha olgan bilimlariga hamda mashg'ulotning maqsadiga muvofiq holda tanlanadi.

**5. Ta'lim mazmunining ko'rgazmalilik tamoyili** – bu ta'lim vositalaridan foydalanishning didaktik tamoyili. Shu sababli o'rganilayotgan tushunchalarning mazmunini ochib berishga oid manba (pedagogik hodisa va jarayon)lar ajratib olinib o'rganiladi va o'rgatiladi. Ajratib olingan manbalarning ko'rgazmaliligini kuchaytirish uchun turli kodlash usullari (rangli, raqamli, harfli va shu kabilar) qo'llaniladi.

**Ta'limning ko'rgazmalilik tamoyili.** O'rganilayotgan hodisa va voqealarni jonli idrok etish asosida o'zlashtirishni ko'zda tutadi. Bu o'quv materialini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishni ta'minlaydi. Ta'limning bu tamoyili, ta'lim jarayonidagi sifatni oshirishga, ta'lim oluvchilarning bilim olishlarini osonlashtirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, unda ta'lim oluvchilardagi o'rganilayotgan jarayonlarni (narsa va hodisalarni) bevosita hissiy-amaliy jihatdan idrok qilish asosida bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish jarayoniga asosdir.

**6. Ta'limda uzviylik va uzluksizlik tamoyili** – bu ta'limda zarur fiziologik-psixologik qonuniyat hisoblanib, bilimni mantiqiy bog'liqlikda o'rganishni ta'minlab beradi. Bu tamoyil har bir fan bo'yicha dasturiy va uslubiy tavsiyanomalar yaratishda joriy qilinadi va ular tushunchalar, dalillar va boshqa fikrlar orasidagi aloqadorliklardan kelib chiqqan qonun va qoidalar bilan amaliy ishlarni bajarish o'rtasidagi mantiqiy bog'liqliklarni o'rganish orqali amalga oshi-

riladi. Bu qonuniyat ta'limni tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bunga amal qilmaslik ta'lim mazmuniga salbiy ta'sirni keltirib chiqaradi, ya'ni ta'lim oluvchilar tafakkurida o'zaro bog'liq bo'lmagan uzuq-yuluq bilimlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

**7. Ta'limda ongllilik va faollik tamoyili.** Bunda ta'lim oluvchilar bilimini hayotda qo'llay bilishlari uchun ta'lim mazmuni va unga mos ta'lim berish jarayonini faol fikrlash faoliyatiga aylantirishga to'g'ri keladi, ya'ni o'qitishni shunday tashkil etish kerakki, bunda ta'lim oluvchilar bilimlarini dars mashg'ulotlarida ongli va faol qatnashib egallab olsinlar. Shunda ta'lim oluvchilarda ong o'sib, ijtimoiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik tarkib topadi.

Ta'limning ongllilik tamoyili ta'lim oluvchilarda ta'rif, tushuncha va qoidalarni yodlash, esda saqlash bilan ularni egallash emas, balki bu bilimlarni hayotiy hodisalar va jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan mazmunini tushunishlaridadir. Bu tamoyil tafakkurni shakllantiruvchi qoida bo'lganligi uchun ham ta'lim oluvchilarni muammoni mustaqil hal qilishga o'rgatadi.

**8. Ta'lim mazmunini ilmiy asosda tashkil etish tamoyili.** Bu ta'lim oluvchilarni o'qitish ishlarini faollashtiradigan, ongini o'stiradigan, ilmiy dunyoqarashini kengaytiradigan, ularni mustaqil ta'lim olishga yo'naltiradigan usullarga o'rgatadi hamda pedagogik, texnik atamalardan to'g'ri foydalanishga odatlantiradi.

## **17.6. Ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishning mazmun-mohiyati**

**Demokratiya** (yunoncha «demos – xalq va kratos – hokimiyat, xalq hokimiyati ma'nosini anglatadi). Har qanday davrning, har qanday jamiyatning va har qanday xalqning o'ziga xos demokratiyasi bo'ladi. Ya'ni, demokratik tamoyillarni belgilashda, jamiyatning obyektiv va subyektiv shart-sharoitlari asosida shakllangan xalqning, millatning ijtimoiy ongi va psixologiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Demak, demokratiya xalqning madaniyati, ma'naviyati, ijtimoiy ongi, mentaliteti, idroki, bilim doirasi, ishbilarmonlik qobiliyati, uning jamiyatda erkin yashashi va mehnat qilish ko'nikmasi

bilan birgalikda shakllanib, rivojlanib boradigan tabiiy tarixiy jarayondir.

Demokratlashtirish – oliy o‘quv yurtini boshqarishdan tortib, uning butun ichki tuzilishi va faoliyatini o‘z ichiga qamrab oladi. U har qanday buyruqbozlikdan, ayrim shaxs va jamiyat a‘zolarining shaxsiy fikrlaridan xalos etadi, o‘zaro bir-birini to‘g‘ri tushunish, ishonch va do‘stona xamkorlik asosida milliy, ma‘naviy, ijodiy erkinlik berish, o‘quv-tarbiya ishining shakllari, uslublarini yaxshilash uning mohiyatini tashkil etadi.

Pedagog o‘z faoliyatini talabalar faolligini oshirishga, ularning o‘quv-tarbiya ishlarini hal qilishga qaratadi, ya‘ni guruh jamoasiga tayanib ish ko‘radi. Umuman olganda, darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni demokratik usulda tashkil etish o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, har bir ishda faol ishtirok etish hamda tashabbus ko‘rsatishga, guruh jamoasi ishiga astoydil yondashishga o‘rgatib, ta‘lim-tarbiya ishining samaradorligini oshiradi.

**Ta‘limni insonparvarlashtirish** – bu insonga ta‘lim berishda ularga nafaqat bilim berish, kasb-hunarni egallashni o‘rgatish, balki yaxshilikni sevishni, insoniylik amaliyotini ham o‘rgatish, ya‘ni insoniylik sifatlarini namoyon etish qobiliyatlarini hosil qilishga ko‘maklashish jarayoni.

Qadimgi donishmandlarning «O‘z-o‘zingni angla!» – degan o‘limas hikmati bizgacha yetib kelgan. Bu ajoyib durdona fikrda qanchadan qancha ma‘no bor. Ayni paytda, u barcha narsalarning o‘lchovi va tabiati haqidagi fan kaliti (ochqichi)dir. Demak, inson o‘z-o‘zini o‘rganmasdan va anglamasdan turib insoniylasha olmaydi. O‘z-o‘zini anglash insonning o‘zida insoniy sifatlarni barqarorlashtirishga yordam beradi. Ziyolilik ham, ijodkorlik ham insoniylik o‘lchovi emas. Ammo insoniylashishni ham ijodiy, ham amaliy faoliyat tarzida qaramoq kerak.

**Ta‘limni insonparvarlashtirishda quyidagilarga e‘tibor berish lozim:**

- ta‘lim berishda ta‘lim oluvchi o‘z huquqlarini bilishini baholash va lozim topilganda ularni ta‘kidlab qo‘yish;

- ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining bilim olish imkoniyatlarini va qobiliyatlarini e'tiborga olish;

- ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining aqliy, jismoniy hamda ma'naviy dunyoqarashini namoyon etishga imkoniyat yaratish va ular ta'lim jarayonida sog'lom muhit yaratishga muntazam ravishda qayg'urish;

- ta'lim jarayonida ta'limning faol usullari to'g'risida keng qamrovli tushuntirish ishlari olib borish hamda ta'lim jarayonida o'qituvchi va ta'lim oluvchining teng munosabatda bo'lish jarayonlarini ta'minlash;

- ozod va obod Vatan. erkin va farovon hayot qurishdek buyuk vazifani bajarishda faol qatnashuvchi barkamol avlodni tarbiyalashni erkinlashtirishning barcha tamoyillariga amal qilish va ilg'or metodlardan samarali foydalanish, shuningdek, ilm-fan va texnika-texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari, asosida yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish va boshqalar.

### **17.7. Ta'lim mazmunini tabaqalashtirish.**

#### **Ta'lim mazmunida milliy va jahon tajribalarini muvofiqlashtirish**

Ta'lim mazmunini tabaqalashtirish o'ziga xos ijodiy jarayon bo'lib, u ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlari va intellektual salohiyatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi hamda shular asosida ta'lim oluvchilar guruhlarga ajratiladi. Bunda o'rganilayotgan manba (mavzu, bob, fan, kurs, soha va shu kabi)larning mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan bir-biridan farqlanadigan turli darajadagi o'quv dasturlari va rejalari, didaktik va innovatsion kommunikativ, didaktik materiallar hamda ularni bajarish va ulardan foydalanish metodologiyasi tayyorlanadi.

Ta'lim mazmunining hajmi kishilik jamiyat tajribalari, madaniyati, ma'rifati qo'lamiga, xarakteri esa uning darajasi, yo'nalishi va eng avvalo, ehtiyojlari, orzu-umidlariga binoan ta'lim mazmuni, uning tarkibi va yo'nalishi kelib chiqadi.



Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar ta'lim (o'quv material) mazmunini o'zlashtiradilar. Bu mazmun qancha kam va tushunarli bo'lsa, ta'lim jarayoni ham unga mos holda qisqa bo'ladi. Ammo, bu jarayon samaradorligi aniq boshlang'ich va so'nggi holatiga ko'ra baholanadi.

Umuman olganda, pedagogikada ta'lim mazmuni deganda, jamiyat taraqqiyoti davomida ularga mos, o'z tasdig'ini topgan va to'plangan tajribalar tushuniladi va ular bir paytning o'zida ta'lim maqsadlari, o'zlashtirish obyekti, ta'lim natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

**Ta'lim mazmunini tanlab olishga umumiy yondashuvlar:**

I. Ta'limda uzviylik o'quv predmetining tashkiliy qismlarining to'g'ri nisbati va zaruriy bog'liqligini ta'min etadi.

Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni qonuniyatlari omili ilmiy bilimlarni to'g'ridan to'g'ri o'quv predmeti mazmuni sifatida talqin etishiga yo'l qo'ymaydi, unga didaktik ishlov berishni talab etadi. Shunday qilib, uzviylik faqatgina to'g'ri chiziqli emas, balki o'quv materialining konsentrik joylashuvida ham amalga oshiriladi.

Uzviylik alohida o'quv predmetlarinigina emas, balki turli o'quv predmetlarining o'zaro munosabatlarini ham qamrab olish zarur. Buning uchun turli o'quv predmetlarini o'rganishda obyektiv aloqadorlik asosiy hisoblanadi.

II. Ta'lim mazmuni avval DTS, so'ngra o'quv reja va dasturi shaklida loyihalashtiriladi.

Ta'lim mazmuni ta'lim jarayonining asosiy elementi (tashkil etuvchi komponent)ni o'zlashtirish natijasida ijtimoiy maqsadlarga erishiladi. O'zlashtirish zarur bo'lgan ijtimoiy-madaniy tajribaning tavsifi va hajmi aniq shart-sharoit, imkon, zamon, shuningdek, ta'lim muassasasining turi va darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim mazmuni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

a) samarali amaliy faoliyat tajribasi, ya'ni mehnat, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy va boshqa sohalardagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish;

b) bilish tajribasi, atrof-olam rivojlanishi qonuniyatlarini anglash metodlari va natijalari;

d) umumiy maqsadlarga erishish jarayonidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirlar tajribasi;

e) axloqiy-etik tajriba;

f) ma'naviy-madaniy tajriba va shu kabilar.

Aniq kasb bo'yicha ta'lim mazminini integrativ yondashuv asosida tanlab olishda, uning qaysi soha bo'yicha ishlab chiqarishga mansubligi hisobga olinadi.

Integrativ yondashuv asosida kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olishda, me'yoriy asos – tasniflagich va DTS, TTS hisoblanadi.

Demak, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olishda dastlabki asos kasb-hunar turi hisoblanadi. Ajratib olingan ta'lim mazmuni yuqoridan pastga tomon tahlil etiladi. Yuqoridagi qatlam sohaga va alohida ishlab chiqarish faoliyat ko'rinishlariga mos bo'ladi. O'rta qatlam tutish kasblarga to'g'ri keladi. Tahlil borishida, eng avvalo, umumiy ta'lim mazmuni, keyin xususiy mazmun, ya'ni kasb-hunarning o'ziga tegishli mazmuni tanlab olinadi. Bunday didaktiv tahlil mazmunining unifakatsiyalashgan qismlarini ajratib olib, kasbiy ta'lim mazmunini ilmiy asosda ma'lum tizim yoki tuzilmaga keltirish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quv dasturini ishlab chiqish (tuzish) imkonini beradi.

**17.8. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va maxsus fanlarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalarida bir-biriga bog'liqligining samaradorligiga erishish.**  
**Majburiy va ixtiyoriy o'quv fanlari**

Ma'lumki, zamonaviy kasb-hunar kollejlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda «Milliy model» negizida har tomonlama kamol topgan, ma'naviy va kasbiy yetuk, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shuvchi ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik va boshqa tarzdagi pedagogik-tashkiliy sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldidagi o'z javobgarliklarini his etadigan bo'lajak mutaxassislarni tarbiyalashga e'tibor qaratilishi lozim.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi o'quv rejaga kiritilgan 23 ta fan kasb-hunar kollejlarning «Umumta'lim fanlari» bloki-ning asosini tashkil etadi. Bulardagi matematika, informatika, fizika, huquqshunoslik, ma'naviyat asoslari, axborot texnologiyalari, estetika, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, iqtisodiyot asoslari kabi fanlar bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda umumkasbiy fanlar va mutaxassislik fanlari bloklari bilan uzviy bog'liq holda olib borilishi bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyati va kasbiy yetuk qilib tarbiyalashning g'oyaviy-didaktik asosini tashkil etadi.

Umumta'lim fanlari blokidagi **ijtimoiy fanlar** bo'lajak mutaxassislarning aynan jamiyat qonuniyatlarini va iqtisodiy aloqalar ta'moyillarini, mehnat bozorining funksional vazifalari va unda shaxs (lozim topilganda jamoa, ya'ni firma, o'quv muassasa va shu kabi) larning o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni beradi. Ayniqsa, kasb-hunar kollejining o'quv rejasidagi «Ma'naviyat asoslari» bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar mazmunini qamrab oladi va aynan mazkur fan mazmuni ham ma'naviy jihatdan, ham iqtisodiy jihatdan, ham fundamental fanlarning asosiy jihatlari bilan muntazam ravishda boyitilib, rivojlantirilib borilmog'i lozim bo'ladi.

**Mutaxassislik fanlari bloki.** Kasb-hunar ta'limidagi bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, maxsus (mutaxassislik) fanlarining o'ziga xos salmoqli hissasi bor. Ular egallanishi lozim bo'lgan ixtisoslikni o'rganishning asosini tashkil etadi va turli ko'nikma hamda malakalarni o'z ichiga oladi.

Mutaxassislik fanlari blokining asosiy vazifalaridan biri aniq bir kasb bo'yicha texnikalar yoki texnologik jarayonlar bo'yicha o'quvchilarda kasbiy jihatdan shakllanishi kerak bo'lgan ko'nikma va asosini tashkil etuvchi bilimlar majmuasini hosil qilishdan iborat. Mazkur fan blokining asosiy maqsadi tayyorlanadigan mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning yadrosini tashkil etib, ular bo'lajak mutaxassislarning amaliy faoliyatga bimalol kirib borishiga sharoit yaratishdan iboratdir. Bunda ushbu blokka kiruvchi fanlar mazmuni, o'qitish maqsadi va vazifalari, metodlari, shakllari, vositalari, tashkil-

lashtirilishi, o'tkazilish joyi, jihozlanishi, ajratilgan vaqti bilan boshqa fanlar bloklaridan va umumta'lim fanlaridan farq bo'ladi, chunki bu blok bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhimdir. Shu sababli bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda doimo ushbu sohaga tegishli moddiy-texnik baza, o'quv-axborotli ta'minot va kasbiy-yetuk o'qituvchilar bilan ta'minlash kasb-hunar ta'limida ustuvor vazifadir.

Demak, kasb-hunar ta'limida amaliy bilimlar, ko'nikmalar va malakalar nazariy bilimlardan kam emas va albatta ulardan ko'zlangan maqsad bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali yo'llarini yaratish va joriy etishdan iboratdir.

**O'quv fanlari bloki** – bu ta'lim dasturining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qism.

Bu bloklarning har birining bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'z o'rnini va roli hamda vazifasi bor. Bu yerda ularga tegishli quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

**Umumta'lim fanlari bloki** bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ularning yordamida bilishning usullari, axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rnini va ahamiyatini jihatidan tasavvurlarni shakllantirish; tabiiy fanlarning o'zaro fundamental bo'lishi; zamonaviy tabiiy fanlarning tadqiq etish konsepsiyasi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur etkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari, koinotning tabiiy obyekt ekanligi va uning evolyutsiyasi haqidagi ilmiy tasavvurlarini shakllantirish; muayyan bilim sohasi uchun zarur bo'lgan fundamental fanlarni chuqur o'rganishning nazariy asoslarini o'rgatishlar amalga oshiriladi.

**Umumkasbiy fanlar bloki** bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida umumta'lim fanlar bloki bilan mutaxassislik fanlari blokining nazariy bog'liqliklarini ta'minlaydi.

**Ixtisos (mutaxassis)lik fanlari bloki** ham bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatiga bevosita tegishli bo'lgan maxsus bilimlarni, kasbiy faoliyat bo'yicha ko'nikmalarni va usullarni shakllantirishni ta'minlaydi.

**O'quv amaliyoti bloki** bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, uning yordamida olgan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatdagi o'z aksini topishning vositalari, omillari, shakllari va uslublarining hayotiyligini, shuningdek, «**Fan → ta'lim → amaliyot**» uzviylikini amaliy jihatdan asoslashi ta'minlanadi.

**Ishlab chiqarish amaliyoti bloki** bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim dasturining majburiy fanlar blokiga kirib, ular yordamida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini kasbiy malakaga aylantirishga tayyorlanadi va bo'lajak mutaxassislarning o'zini «Mehnat bozori»ga, ya'ni kasbiy faoliyatga tayyorlaydigan va shuning bilan birga yakuniy davlat attestatsiyasiga qatnashishga ham imkoniyat yaratilishi ta'minlanadi.

**Kollej ixtiyoridagi blok** bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi ta'lim dasturining ta'lim sifatiga qo'yiladigan talabalar va «Mehnat bozori» konyukturasi tez o'zgarayotgan sharoitda ta'lim dasturining safarbarligi va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

**Yakuniy davlat attestatsiyasini blokida** umumiy natijalar baholarini aniqlash jarayoni kechadi. Bu bosqich bo'lajak mutaxassisning o'z kasbiga oid fanlarni nechog'lik puxta o'zlashtirilganligini va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajalarini baholash imkoniyatini beradi. Bu orqali o'tkazilgan ta'lim-tarbiya jarayoniga xulosa yasashga ham imkoniyat yaratiladi va ular asosida kasb-hunar kollejarini bitiruvchisiga tavsiyalar berilishi mumkin bo'ladi. Yakuniy Davlat attestatsiyasi nazoratlari natijalari to'g'risidagi qarorni jamoaviy qabul qilinadi.

Hozirgi kundagi ta'lim tizimi nafaqat shu o'quv rejadagi fanlarni bilishni, balki uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rta umumta'lim muassasalari (kasb-hunar ta'limigacha bo'lgan davrdagi ta'lim)dagi

o'rganiladigan mavzuga mos ma'lumotlarni oqilona o'rganib, ulardan «Fan → ta'lim → amaliyot» tizimida samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shundagina bo'lajak mutaxassislardagi kasbiy faoliyatlar DTSdagi bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarga to'la javob bera oladi va bo'lajak mutaxassislarni raqobatbardosh qilib tayyorlashga erishiladi hamda ularga ishonch bilan kasbiy faoliyatini amalga oshirishga yo'llanma bera olamiz.

### **17.9. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quv rejalari. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar tavsiflari va ularni yaratishga yangicha yondashuv**

**O'quv reja** – har bir mutaxassislik bo'yicha malaka va DTSda keltirilgan talablarni ta'minlovchi muayyan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni kurs va semestr davomida o'rganishning izchilligi va soatlaridagi qatnashishini belgilaydigan hujjat.

O'quv rejasiga kirgan fanlar mazmunini o'quv dasturlari va mavzular rejasini tashkil etadi.

O'quv rejasi o'quv shakllarini, o'quv predmetlarining ro'yxatini va hajmini, ularning o'quv haftalari, yarim yilliklari bo'yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo'lajak mutaxassislarni o'quv predmetlari, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi me'yoriy hujjat.

**O'quv rejasining moduli** – uzluksiz ta'lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini aks ettiruvchi o'quv rejasini taqdim etish shakli.

Ta'lim muassasalari uchun mo'ljallangan o'quv rejasi ishlab chiqiladi va tegishli vazirlik (Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari) tomonidan tasdiqlanadi

O'quv rejasi ta'lim muassasasi ma'muriyatiga yuboriladi hamda mazkur reja asosida o'quv jadvali tuziladi.

O'quv jadvalida hafta davomida o'qitiladigan o'quv fanlarining nomi va ularga ajratilgan soatlar miqdori ko'rsatiladi.

**O'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'rganish uchun fan, texnika,

san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi.

O'quv fani dasturi ham xuddi o'quv rejasi kabi muhim davlat hujjati bo'lib, unda muayyan o'quv predmeti mazmuni ochib beriladi va o'quv yili davomida ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi ko'rsatiladi.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, uning ta'lim oluvchilar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

O'quv fani dasturlari tegishli ta'lim (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar yoki oliy ta'lim) turidagi barcha ta'lim muassasalari uchun yagona, uning talablari to'la ravishda bajarilishi majburiydir.

Dastur tushuntirish xati, bo'lim va mavzular bo'yicha ajratilgan soatlar hajmi, dastur materiali mazmuni hamda tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Tushuntirish xatida o'quv predmetining ahamiyati, uning fanlar tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi aloqadorlik, materialni o'rganish jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan ayrim bo'lim va mavzularni o'rganish xususiyatlari o'rganiladi. O'qitish (ta'lim) metodlari va vositalarini qo'llashga doir tavsiyalar beriladi. Soatlar hisobini asosli o'rinlarda o'zlashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

O'quv dasturidagi material ta'lim va tarbiya maqsadlari, didaktik tamoyillar uzviylik va izchillikka muvofiq ravishda tanlanadi va taqsimlanadi.

O'quv dasturlari quyidagi tamoyillar asosida tuziladi:

1. Dastur mazmunining ilmiy xususiyatiga egaligi.
2. Dastur mazmunining ijtimoiy-g'oyaviy xususiyatga egaligi.
3. Nazariy g'oyalarning amaliyot bilan birligi.
4. Dastur mazmunining ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egaligi va aniq g'oyaga asoslanganligi.
5. Dastur mazmunining muayyan tizimga ega bo'lishi.
6. O'quv predmetlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'lanishlarning mavjudligi.
7. O'quv dasturini tayyorlashdagi ta'lim oluvchilarning psixologik va ruhiy xususiyatlarini e'tiborga olish.

Demak, o'quv rejasi va dasturi ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim oluvchilar jamoalarining so'zsiz amal qilishlari lozim bo'lgan davlat hujjatlaridir. Ta'lim jarayonini samarali olib borish uchun bularga mos darsliklar tayyorlanadi. Har bir o'quv predmetining mazmunini DTS va o'quv rejasida ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob (darslik) yoziladi.

**Darslik** – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy mafkura g'oyalari singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan asoslarini mukammal o'zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Darslikni bu pedagogik tizimning axborotli modeli deb atash mumkin. Bunga sabab har bir o'qituvchi darslikda ta'lim oluvchilar bajarilishi kerak bo'lgan o'quv jarayonining ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, ta'lim oluvchilar uchun mavzularni o'qib, undagi topshiriqlarni ma'lum harakatlar ko'rinishida bajarishadi: tekshiradi, yechadi, javob beradi va hokazo. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Demak, darslik bu – muayyan o'quv predmeti mazmunini o'quv dasturida ko'satilgan hajmda, didaktik talablarga muvofiq ravishda batafsil bayon qilingan kitob bo'lib, uning **xarakterli xususiyati** darslik mazmunining o'quv dasturi mazmuniga mos kelishidir.

Darslikdagi material bo'limlar bo'yicha taqsimlanadi. Har bir mavzu, muayyan bob, uning tarkibida bo'lgan bandlar asosida ochib beriladi.

**Darslikning kirish qismida** fanning jamiyat va tabiatdagi o'rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi, bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqidagi ma'lumotlar, fanga tegishgi soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti hamda talabning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yoritilishi talab qilinadi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

**Darslikning asosiy matni** – bu ta'lim oluvchi tomonidan o'rganilishi va o'zlashtirishi majburiy bo'lgan o'quv axborotining asosiy



manbaya vazifasini bajaradi. Matnning mohiyatini asosiy tushunchalar, qonunlar, qoidalar, nazariyalar, mezonlar, tamoyillar va faoliyat usullari haqidagi bilimlar tashkil etadi.

**Darslikdagi qo'shimcha materiallar.** Bu matnlar – asosiy matnda bayon qilingan holatlarni mustahkamlab va chuqurlashtirishga, kasbiy qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi o'quv materiallarini o'z ichiga oladi. Qo'shimcha matnlarga belgilashlar, hujjatlar (xrestomatik) materiallar, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan mashqlar, xulosalar, tavsiyalar, ma'lumotlar kiradi. Qo'shimcha matnlar o'quv materialini o'zlashtirishga yordam berish bilan birga ijodkorlikka undovchi va tarbiyaviy funksiyalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

**Darslikning tushuntirish matni** – o'quv materialini tushunishga va chuqurroq o'zlashtirishga mo'ljallangan xususiy yozma tuzilma. Bu matnlar ta'lim oluvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega. Tushuntiruvchi matnlarga izohlar, ilovalar, tayanch iboralar, tushuntirishlar, lug'atlar, ramzlar va ko'rsatkichlar kiradi. Bu matnlar tushunarli, qisqa va ma'lum tushunchani aniq shakllantiradigan bo'lishi kerak.

**Darslikning tajribaviy-amaliy matnlarida** – fan o'quv materialini o'zlashtirishda va mustaqil tarzda bilim olishda bilim oluvchi bajaradigan amaliy faoliyat usullari, aniq ma'lumotlar olish uchun nazariy bilimlarni qo'llash tamoyili va qoidalari, asosiy tadqiqot usullari tavsiflanishi; masalalar, mashqlar, tajriba va eksperiment usullari bayon qilinishi lozim.

**Darslikdagi mustaqil ishlash uchun savollar va topshiriqlar matniga** quyidagi talablar qo'yiladi:

- ta'lim oluvchilar tomonidan o'tilgan mavzularning mustahkam o'zlashtirilishini ta'minlash;
- ta'lim oluvchilarni bilim olishga qiziqitirishni rivolantirish;
- fikrlash faoliyatini rivojlantirish, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarning amaliy topshiriqlarni bajara olish imkoniyatlarini inobatga olish;
- tasdiqlarning aniqligi va tushunarligi, yagona namunaga mos kelishi.

**Darslikdagi bilim va ko'nikmalarni nazorat qilish materiallari matnidagi** nazorat savollari ta'lim oluvchilarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, sintez va tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

**Darslikdagi informatsion-uslubiy ta'minot** – bu ushbu fanga oid asosiy va qo'shimcha o'quv manbalari, elektron ta'lim resurslari hamda uslubiy qo'llanmalarni o'z ichiga oladi.

**Darslikdagi qo'shimcha ma'lumotlar matniga** mazkur darslikdan foydalanish tartibi, o'quv materialini o'rganishga tegishli elektron vosita (multimedia, virtual stend, animatsiya va h.k.)lar va ulardan foydalanish tartiblari kiradi.

**O'quv qo'llanma** – bu darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishni ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

#### **17.10. Elektron o'quv adabiyotlari va ularni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar**

Keyingi paytlarda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishga yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Bu borada elektron o'quv adabiyotlarini yaratish o'zining ijobiy pedagogik samaralarini bermoqda. Bunda elektron kitob (multimedia kitob, yarim media kitob, gipremedia kitob, intellektual kitob, telemidia kitob, kibernetik kitob)lar, elektron nashr, elektron ta'lim resurslari, elektron uslubiy qo'llanma, elektron forumlar, elektron shakldagi o'quv-uslubiy materiallar, elektron o'quv nashri va shu kabilarning ahamiyati beqiyos. Quyida ular tavsiflarini keltiramiz.

**Elektron darslik** – bu an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud **dasturlarshirilgan** darsliklar. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga ham-

da fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirilishiga mo'ljallangan adabiyot. Shuningdek, u muayyan fanning o'quv hajmini to'liq qamragan va masofaviy o'qitish hamda mustaqil o'rganish uchun kompyuter texnologiyalariga asoslangan bo'lib, unda materiallar (o'quv va ilmiy materiallar faqat virtual (matn) shaklida, o'quv materiallari esa virtual (matn) va ikki o'lchamli grafik shaklida) multimedia elementlari, ya'ni ma'lumot ikki-uch o'lchamli grafik ko'rinishida, video, animatsiya va qisman virtual (matn) shaklida, obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini ifodalaydigan shaklda yaratiladi.

**Elektron kitoblarni yaratish** ta'lim tizimiga CD-ROM va multimedia texnologiyalarining keng joriy qilinishi, elektron o'quv adabiyotlarining ishlab chiqilishiga va ularning ta'lim-tarbiyada samarali qo'llanishiga katta imkoniyatlar yaratish jarayonidan iborat bo'ladi.

Elektron kitoblar to'rtta yo'nalishdan iborat bo'ladi. Ular: qomusiy; ma'lumot beruvchi; o'qituvchi; imtihon oluvchi.

Elektron kitoblar axborot turlari va ularni foydalanuvchiga yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Bunda **multimediali kitoblar** – bu axborotlarni bitta axborot tashuvchi vositasiga jamlagan bo'lib, u matnli, ovozli, statik, dinamik va videotasvirli ma'lumotlardan tashkil topgan bo'ladi.

**Yarimmedia kitoblar** – bu multimedia kitoblardan farqli ravishda ma'lumotlarni yetkazib berishda turli vositalarning kombinatsiyasidan foydalanuvchi kitoblar.

**Gipermedia kitoblar** – bu multimediali kitoblarning takomillashgan shakli bo'lib, bunda foydalanuvchi asosiy matndan tashqari turli qo'shimcha manbalarga ham (sharhlarga, atamalarning izohlariga, tuzatishlariga) murojaat qilishi mumkin.

**Intellektual kitoblar** – bu imtihon oluvchi kitoblarga o'xshash bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarning qobiliyatlari, bilim darajalari maxsus testlar yordamida ularning kompyuter bilan muloqot jarayonida aniqlanadi va baholanadi.

**Telemedia kitoblar** – bu telekommunikatsiya vositalari yordamida masofadan o'qitishga xizmat qiluvchi kitobdir.

**Kibernetik kitoblar** – bu matematik modellashtirish vositala-

ri yordamida hodisalarni va obyektlarni har tomonlama o'rganish va tadqiq qilishga yordam beruvchi kitobdir.

**Elektron ta'lim resurslari** – bu muayyan fan bo'yicha yaratilgan elektron o'quv qo'llanma, elektron ko'rsatmalar, elektron ma'lumotnomalar, lug'atlar, virtual stendlar, multimediali vositalar va boshqa elektron nashrlar majmuasidir.

**Elektron nashr** – bu grafikli, matnli, raqamli, nutqli, mustaqil, video-foto va boshqa axborot obyektlari majmuasidan iborat bo'lib, ular elektron axborot tashuv vositalari yoki kompyuter tarmog'i orqali taqdim etishga mo'ljallangan.

**Elektron o'quv nashri** – bu ta'lim oluvchilar tomonidan egallashi lozim bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni ijodiy va faol ravishda o'zlashtirishiga ko'maklashuvchi nashr bo'lib, u ilmiy-amaliy bilim sohasiga mos ravishdagi tizimlashtirilgan o'quv materialini o'z ichiga oladi.

**Elektron uslubiy qo'llanma** – bu ta'lim-tarbiya jarayonidagi pedagogik tajriba (amaliyot)ni umumlashtirish va uzatish hamda ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning yangi modellarini shakllantirish va tarqatishga mo'ljallangan nashr.

**Elektron o'quv qo'llanma** – bu muayyan fanning o'quv rejasi-dagi vaqt va o'quv dasturidagi ma'lumot hajmini qisman yoki to'liq qamragan va fanni o'rganishga tegishli ma'lumotni to'liq adaptatsiya qila olgan masofaviy o'qitish va mustaqil o'rganish uchun mo'ljallab tayyorlangan nashr.

### **Elektron o'quv qo'llanmalar**

Multimediali elektron o'quv qo'llanmalar yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan kompleks foydalanishning quyidagi jihatlari asosiy e'tibor qaratiladi:

1. Ichma-ich joylashgan turli bo'g'inlar va rangli bezaklarda giper-murojaatlardan foydalanish.
2. Ma'lumotlarni tasvirlashda turli xil rangli bezaklardan foydalanish.
3. Audio va video effektlar va ularni boshqarishning samarali metodlaridan foydalanish.

Multimedia muhitida elektron o'quv qo'llanmalar ishlab chiqish

uzoq muddatli va katta mablag'larni talab qiluvchi jarayondir. Shuning uchun ham multimedia muhitida elektron o'quv qo'llanmalarni yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichida qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi bosqichlarni bajarish zarur bo'ladi:

- **tanlash** bosqichida multimedia muhitida ko'rsatilishi kerak bo'lgan o'quv fani tanlanadi;

- **tayyorgarlik** bosqichida kurs matnini yozish, ko'rgazmali va ma'lumotli materiallarni tayyorlash, interfeys eskizlarini va o'quv dasturining ssenariylarini yaratish mo'ljallanadi;

- **asosiy** bosqichda elektron o'quv qo'llanmani bevosita yaratish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi;

- **yakunlovchi** bosqichda elektron o'quv qo'llanmani testdan o'tkazish va maqomiga yetkazish ishlari amalga oshiriladi. Bu bosqichda o'quv materialining qurilmasi yoki tuzilmasi ishlab chiqiladi. shuningdek, foydalanuvchi bilan o'zaro aloqa mexanizmi loyihalashtiriladi. Asosiy va qo'shimcha elementlar ajratiladi. axborotli bloklarining ierarxik tuzilmasi yaratiladi. Foydalanuvchi interfeysi, alohida bloklar va ekranlar o'rtasidagi asosiy aloqalar ishlab chiqiladi.

Multimediali materiallarni tayyorlashda odatda ikki o'lchamli grafikadan va «**Macromedia Flash**» dasturiga joylashtirilgan interaktiv tizim Web-sahifalar yaratish uchun ham qulay vosita hisoblanadi.

Multimediali elektron o'quv qo'llanmani yaratishda giperment, giperko'rsatgich va ularga tasvir, kod nomi elementlarini kiritish hamda ularni o'zaro bog'lash maqsadida **HTML** – giperment tahrirlagichdan foydalaniladi.

**Multimediali elektron-o'quv qo'llanma quyidagi afzalliklarga ega:**

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada o'quv materialining multimedia, giperment, ovoz, elektron doska shakllaridan foydalanган holda taqdim etilishi, o'quvchilarga berilayotgan o'quv materialini chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish, dars mavzusi bo'yicha to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada berilayotgan ma'lumot-

larning harakati, rang, tovush va jonli tasvirlar bilan uyg'unligi mavzuni o'rganishda monoton (bir xil)likka chek qo'yadi;

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida interaktiv tizim vujudga kelib, bevosita aloqa o'rnatilishi natijasida o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning faolligiga qarab ularni baholash imkoniyatiga ega bo'ladi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmada o'qish darajasi va sur'atini o'rganuvchining o'zi tanlash imkoniyati o'qitishni individuallashtirish imkonini beradi;

- multimediali elektron-o'quv qo'llanmaga kiritilgan test topshiriqlari va o'z-o'zini tekshirish uchun savollar o'quvchini o'z-o'zini tez va samarali baholashga va zaruriyatga qarab, tuzatishlar kiritishga imkon beradi;

- olingan bilimlar o'quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib, kerak bo'lganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi.

**Elektron pochta** -- bu axborot almashish xizmatini ko'rsatish vositasidir. Undan foydalanuvchi har qanday o'quv muassasasi va hatto-ki o'z uyida terminal orqali kerakli manzilni ko'rsatgan holda axborot jo'natish mumkin yoki qabul qilib olish mumkin. Buning uchun axborot kompyuterda yuboriladi, u yerda esa tegishli manzilning elektron qutisiga fayl jo'natiladi.

Elektron pochta orqali bosma materiallar, fotografiya, jadval, grafik ish qog'ozlari va jurnallar kerakli manzilga jo'natiladi. Bunda asosan axborotlar (xat-xabarlar)ni uzatish va qayta ishlashning elektron usulidan foydalaniladi.

Axborot uzatishning ushbu imkoniyatidan ta'lim oluvchilar, maso-faviy ta'lim bilan shug'ullanuvchilar samarali foydalanishi mumkin.

**Elektron forumlar** bu Internet tarmog'i va elektron pochta-lardan foydalanib o'tkaziladigan seminarlardir. Seminarining moderiza-tori ishtirokchilarga materiallarni beradi. Uning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, so'ng savol beradi yoki mavzu mazmunini muhokama etadi. Seminar ishtirokchilarini material bilan tanishtiradi, savollarga javob beradi, o'z xulosalarini chiqaradi. Har bir ishtirokchi muhoka-mada ishtirok etadi. Muhokama natijalari asosida xulosalar chiqari-ladi. Xulosalar asosida seminar qatnashchisi to'g'ri, yakuniy javobni oladi. Bu esa olgan bilimlarni mustahkamlashga ta'sir etadi.

**Elektron shaklidagi o'quv-uslubiy materiallar** – bular elektron darslik, elektron o'quv qo'llanmalari, elektron kutubxonalar, mos (CD, Flash va h.k.) sig'imdagi audiovizual materiallar, interaktiv o'quv kurslari, kompyuterda hisoblash tajribasini o'tkazish uchun laboratoriya vazifalari, test sinovlarini o'tkazish bo'yicha tizimlar.

### **17.11. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo'llash**

**O'qituvchi** – bu ta'lim oluvchilarni hayotga, ongli mehnatga tayyorlash uchun xalq oldida, davlat oldida, jamiyat oldida javob bera oladigan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish uchun maxsus tay-yorgarlikka ega bo'lgan va pedagogik faoliyat bilan kasbiy jihatdan shug'ullanuvchi shaxsdir.

**O'qituvchi va o'quvchining dasturli faoliyati** – bu o'quv jarayonida ahamiyatsiz harakatlarni yo'qotish, samarali o'zaro aloqani ta'minlash va rejalashtirilgan natijalarga o'z vaqtida erishish jarayonidan iboratdir. Bunda o'qituvchi texnolog-nazoratchi sifatida qatnashadi. Ushbu jarayonda ta'lim maqsadini aniq ifodalab olish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchilar o'z kasbiy faoliyatini olib borishdagi o'quv dasturlari va darsliklardan foydalanishda doimo ularda quyidagi savollarga javoblar bo'lishi kerak:

1. Ta'lim oluvchilar qanday konsepsiya (qarash)ni talqin qilishi va unga amal qilishi kerak?
2. Konsepsiya bilan tanishish uchun ta'lim oluvchilar qanday faoliyatni amalga oshirishi kerak?
3. Ta'lim oluvchilar nimalarni kuzatishlari va yozib borishlari kerak?
4. Ta'lim oluvchilarga qanday ko'rsatmalar berish kerak?
5. Ta'lim oluvchilar axborot yoki kashfiyotlarning qanday turlari to'g'risida fikr yuritishlari kerak?
6. Ularning «kashfiyotlari»ni umumlashtirish uchun Men ta'lim oluvchilarga qanday yordam bera olaman?
7. Men ta'lim oluvchilarni qanday boshqarishim va hatto, ularning tushunishlari yetarlicha bo'lmasa-da, ular aniqlashi mumkin bo'lgan

narsalarni ularga yetkazishdan o'zimni to'xtatib turishim mumkin. Ular konsepsiyani to'g'ri shakllantirish (ifodalash)lari uchun ulardagi mavjud axborotdan foydalanishda Men ularga qanday yordam bera olaman?

8. Agar ta'lim oluvchilar «nima uchun ana shu konsepsiya muhim bo'lib hisoblanadi?» deb mendan so'rashsa, men ta'lim oluvchilarga qanday javoblarni keltirishim mumkin?

9. Ta'lim oluvchilar ushbu konsepsiyaga daxldor bo'lgan avvalgi tajribalarga egadir! Men ushbu konsepsiyani ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyati va tajribasi bilan qanday bog'lay olaman?

10. Ushbu konsepsiya ta'lim oluvchilarga muayyan fandan o'zlari uchun foydani ko'rishda yordam berishiga qanday misollar bor? Fan, texnika-texnologiya va jamiyatning o'zaro munosabatlarini tushunishda yordam berishiga-chi? Fan tarixi va mohiyatiga oid axborot olish uchun ularga yordam berishiga-chi?

Zamonaviy darslikka muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiruvchi savollar, masalalar va topshiriqlarni kiritish orqali talabalarda zaruriy bilimni mustaqil izlash va topishga ehtiyoj hamda qiziqish uyg'otish lozim.

Zamonaviy darslik quyidagi asosiy funksiyalarni bajarishi kerak:

1. **Axborotni uzatish funksiyasi.** Bu funksiya talaba muayyan fan bo'yicha egallashi majburiy bo'lgan bilim va ko'nikmalar mazmunini qamrab olinishini ta'minlaydi.

2. **Muvofiqlashtiruvchi funksiya.** Darslikning bu funksiyasi o'quv materialini loyihalash jarayonida boshqa o'quv manbalarida keltirilgan materiallarni o'rganish, ular orasidagi uzviylikni ta'minlash, talabalarga axborot oqimini tez o'zlashtirish va olgan bilimlarni chuqurlashtirish hamda amaliy faoliyat jarayonida qo'llash yo'llarini topishni qamrab oladi.

3. **Tizimlovchi funksiya.** O'quv fani mazmunini tizimlangan shaklda qat'iy ketma-ketlikda oddiydan murakkabga qarab bayon qilinishini ta'minlaydi. Darslikning ushbu funksiyasi, **birinchidan**, o'quv materialini kasbiy faoliyatga bog'liq bo'lgan asosiy nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zida qamrab olishi; **ikkinchidan**, darslikda biron-bir faoliyatni bajarish ketma-ketligining ta'minlanishi;



**uchinchidan**, darslikda alohida harakatlar va jarayonlarni bajarishga talabalarning individual ehtiyojlariga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar berilishi: **to'rtinchidan**, o'quv materiallari o'zida reproduktiv faoliyat usullarini va unga mos holda produktiv jihatlarni o'zida qamrob olishi: **beshinchidan**, tushunchalar va terminlar aniq bir tartibda saqlanishini ta'minlashi kerak.

**4. Mutaxassislikka yo'naltirilganlik funksiyasi.** Darslikning mazmuni talabani mutaxassislik bo'yicha ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari, obyektlari, texnika va texnologiyalari to'g'risidagi asosiy fundamental tushuncha va bilimga ega bo'lishini ta'minlashi hamda kelajakda ularga tayanib yangi ma'lumotlarni mustaqil tahlil qilish va o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi kerak.


**5. Didaktik funksiyasi.** Talabalarning qobiliyati va ehtiyojiga mos ravishda o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirishga hamda asosiy mazmunini ajratish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

**6. O'zlashtirgan bilimlarni mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish funksiyasi.** Talabani o'qituvchi rahbarligida yoki mustaqil tarzda darslikdagi nazorat savollari, test materiallaridan foydalanib, o'z bilimini tekshirishi hamda ularga tayangan holda amaliy mashg'ulotlarni bajara olish kabi faoliyatlarga ko'maklashishdan iborat.

**7. Mustaqil bilim olishga qiziqtirish va ijodkorlikka undovchi funksiyasi.** Ushbu funksiya talabalarga mustaqil tarzda ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoq, ehtiyoj va zaruriyatni uyg'otishi, qiziqtirishi, yetishmaydigan bilimlarni mustaqil tarzda to'ldirishga yordam berishga yo'naltirilgan.

**8. Rivojlantiruvchi – tarbiyalovchi funksiya.** Ushbu funksiya o'quv materiallari asosida shaxsning vatani va xalqiga e'tiqodi, ma'naviy-insoniy xislatlar: vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi ijobiy xislatlarning faol shakllanishiga ko'mak berishdan iborat.

1-shakldagi zamonaviy darslik modeliga muvofiq darslik ikki qismdan iborat bo'ladi va quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi.



1-shakl. Zamonaviy darslik modeli.

Birinchi qismida bosma shakli kitob ko‘rinishida nashr etiladi va uning oxiriga ikki qismga tegishli komponentlar elektron shaklda disketada biriktiriladi.

### **1. Bosma shaklda**

**Kirish.** Darslikning kirish qismida fanning jamiyat va tabiatdagi o‘rni, roli va metodologik asosi, maqsadi, vazifalari va yechimini kutayotgan muammolari, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatidagi ahamiyati haqida ma‘lumotlar, fanga tegishli soha yoki ishlab chiqarishning zamonaviy taraqqiyoti yoritilishi talab qilinadi. Kirishning oxirida fan bo‘yicha umumiy o‘quv maqsadlari keltirilishi kerak. O‘quv maqsadlari oldindan ko‘zlangan yakuniy ta‘lim natijalari tavsifidir. Umumiy maqsadlarda ta‘lim oluvchi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malakalar haqida umumiy tasavvur beriladi. Kirish tushunarli va qisqa bayon etilishi lozim.

Darslikning ikkinchi qismi quyidagi afzalliklar va imkoniyatlariga ega:

- darslikning ikkinchi qismi ochiq tizim bo‘lib, o‘qituvchi istalgan paytda yangi o‘quv materialini va so‘nggi yutuqlar haqida yangiliklarni kiritish imkoniyatiga ega;

- ta‘lim oluvchining mustaqil bilim olish, izlanish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini baholashga imkoniyat yaratiladi;

- murakkab obyektlar, jarayonlar va hodisalar haqida animatsiyalar orqali real tasavvur hosil qildiradi;

- elektron topshiriqlar va testlarining ko‘p variantlilik, ko‘p darajalilik va xilma-xilligini ta‘minlaydi;

- o‘rganilayotgan materialni ko‘rish, eshitish va emotsional xotiralarga ta‘sir qilish yo‘llari tushunishni yengillashtiradi;

Kompyuterli qo‘llab-quvvatlashlardan foydalanib, o‘quv predmetining mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko‘p sondagi ma‘lumotlarni va topshiriqlarni qarab chiqish va ko‘proq amaliy masalalar yechishga va topshiriqlarni bajarishga imkon yaratadi.

Darsliklar yangi avlodning yaratilishi, o‘quv jarayoniga joriy eti-

lishi – talaba va o‘qituvchi faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi model sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

Oliy ta‘lim darsliklarining yangi avlodi yuqoridagi talablarga javob berishi, o‘qitish maqsadlariga erishishda barcha funksiyalarni bajarishi, talaba yetarli bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari uchun umumiy topshiriqlar tizimiga ega bo‘lishi, rivojlantiruvchi va o‘z-o‘zini nazorat qilish komponentini qamrab olishi; mazmuniy tuzilmasi talabalarning mustaqil bilim olish faoliyatlarini boshqarishga yo‘nalitirilgan bo‘lishi kerak.

### **17.12. O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o‘quv fanlari bo‘yicha Davlat ta‘lim standartlarini ishlab chiqish va hayotga uni tadbiiq etish**

Kasb-hunar ta‘limi pedagogikasi ijtimoiy hayotning ma‘lum sohasida faolyat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan bilim, amaliy ish-harakat usullari va shaxsiy fazatlarni shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmun haqidagi pedagogikaning muhim tarmog‘idir.

Ta‘lim – ilm berish va tarbiyalashni o‘ziga qamrab olib, respublikaning aql-zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o‘z mas‘uliyatini anglaydigan, har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi va shuning uchun ham u ustuvor soha hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim tizimi, shu jumladan kasb-hunar ta‘lim tizimi pedagogikasining metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».

Shuningdek, buyuk mutafakkirlar va olimlarning ta‘lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari, hukumat qarorlari, farmon va farmoyishlar kabilar.

Mustaqil O'zbekistonning «Ta'lim to'g'risida»gi ilk Qonuni 1992-yil 2-iyuldan amalga joriy etilgan bo'lib, u VII bo'lim 44-moddadan iborat edi.

Amaldagi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan bo'lib, u 34 ta moddadan iborat. Bu qonunga binon respublikamizda shu paytgacha hech bir mamlakatda avval ishlab chiqilmagan va amalga joriy etilmagan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida 1997-yil 29-avgust kuni qabul qilindi.

Amaldagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumiy davlat tasniflagichi (2006-y.) O'zbekiston Respublikasida texnikaviy, iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlashtirish bo'yicha yagona tuzilma tarkibiga kiradi va Vazirlar mahkamasining «Uzluksiz ta'lim tizimi uchun Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida»gi 1998-yil 5-yanvardagi 5-sonli Qarori asosida ishlab chiqilgan.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidagi tayyorlov yo'nalishlari kasblar va ixtisosliklar umumdavlat tasniflagichini joriy etish Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi standartlari bilan birga tasniflagichlarni ishlab chiqish va yuritish tartibiga «O'zDSt. 6.01.02.95.»ga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Tasniflagich o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv yurtlari bitiruvchilarini ish bilan ta'minlovchilar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida Davlat ta'lim standartlari o'quv rejaları, dasturlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqaruvchilar, ta'lim muassasalari rahbarlari, respublika va mahalliy boshqaruv tashkilotlarining mutaxassislari, vazirliklar, muassasalar va boshqa respublikamiz xo'jaliklarini rivojlantirishda faoliyat ko'rsatayotgan subyektlar uchun mo'ljallangandir. Tasniflagich kasb-hunar kollejlari va boshqa tashkilot hamda muassasalarning qaysi vazirlikka qarashliligidan va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aynan qo'llanilishi shart.

Tasniflagichda quyidagi ta'riflar qo'llanilgan: tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat tasniflagichi

(TYKIUT), O'rta maxsus. kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tayyorlov yo'nalishlari. Kasblar va mutaxassisliklarning tizimlashtirilgan ro'yxati.

Mutaxassisning malakasini belgilovchi ko'rsatgich bo'lib, u haqidagi toifa yoki diplomning mavjudligi hisoblanadi.

Kichik mutaxassis – bu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga, o'rta maxsus. kasb-hunar ta'limi (O'MKHT) muassasalari bitiruvchilariga beriladigan malaka darajasidir.

#### **Kichik mutaxassis:**

- nazariy va amaliy bilimlar majmuasiga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarga;

- mazkur jamiyatda o'zining muvaffaqiyatli hayot darajasini ta'minlaydigan umumiy va kasbiy madaniyat, ijtimoiy ahamiyatli xususiyatlar va shaxsiy fazilatlariga ega bo'ladi.

Kasbiy faoliyat sohasi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarning qo'llanish doirasidir, uning nomlanishi iqtisodiy sohalar nomlari bilan moslashtirilgan.

Kasb-hunar ta'lim davlat standartlari yaqin kelajakda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi majmuaviy belgilab beruvchi yechim sifatida xizmat qiladi. Pedagogik manbalarda kasb-hunar ta'limi davlat standarti quyidagicha talqin etiladi: bo'lajak kichik mutaxassislar egallashi zarur va yetarli bo'lgan mazmun darajasi va ko'lam; o'quvchilarning maksimal o'quv yuklamasi hajmi, bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablar va hokazo.

Kasb-hunar ta'lim davlat standartlarining mohiyati uning ichki va tashqi aloqalari tahlil etilsagina to'liq ochilishi mumkin. Standartlarning tashqi aloqalari, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy munasabatlarda o'z ifodasini topadi. Bundan uning standart ijtimoiy buyurtmani talablar shaklida o'zida ifodalovchi me'yoriy hujjat ekanligi kelib chiqadi. Kasb-hunar ta'limi standartining ichki aloqadorligi esa uni o'zaro aloqador va ta'siridagi elementlardan tashkil topgan mustaqil tizim sifatida qaralganda namoyon bo'ladi. **Standartni tashkil etuvchi** elementlarning xususiyatlari, o'zaro aloqadorligi uning

mohiyatini ochib berishga imkon beradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimda standartning rolini tushunish uchun uning funksiyalarini bilish muhimdir. Lo'nda qilib aytganda, standart nima uchun va kimga kerak? **Birinchidan**, o'qituvchilar va o'quvchilar uchun o'zlarining hamkorlikdagi faoliyatlarini tashkil etish uchun, **ikkinchidan**, kasb-hunar ta'limi tizimi rahbarlari uchun nazorat qilish mexanizmini shakllantirish uchun; **uchinchidan**, bandlik idoralari xodimlari uchun, ishga joylashtirish va va qayta tayyorlash ishlarini rivojlantirish maqsadida; **to'rtinchidan**, ijtimoiy hamkorlik uchun, ya'ni ish beruvchilar, kasaba uyushmalari va barcha mehnat munosabatlari bilan shug'ullanuvchilar uchun; **beshinchidan**, yaqin va uzoq chet el hamkorlarimiz uchun xalqaro mehnat bozorlarida inson huquqlarining o'zaro erkin ta'sirini ta'minlash uchun zarur. Shunday qilib, kasb-hunar ta'limi davlat standarti o'ziga xos kasbiy ta'lim sifatini boshqarish mexanizmi bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun u kasbiy ta'lim sifati bilan bog'liq ko'plab komponentlarini qamrab olishi kerak. Keng ma'noda kasb-hunar ta'limining sifati jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalariga qanchalik mos kelishi bilan aniqlanadi. Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq holda kasb-hunar ta'limi o'quv-me'yoriy hujjatlari tez o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega. Malaka darajasi aniq shaxsning kasbiy mahoratini xarakterlaydi. Malaka darajasi shaxsning o'qib o'rganganligiga bog'liq, demak, uni obyektiv ravishda baholash mumkin bo'lgan o'lchamlar: hajmi, sifat daraja ko'rsatkichlariga ega bilim, ish-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini bo'lishi mumkin. Kasb qanchalik murakkab bo'lsa, unga mos holda kasb-hunar sirlarini o'zlashtirish uchun shuncha ko'p vaqt talab etadi. Mehnatning intellektual darajasi aqliy va jismoniy faoliyatning o'zaro munosabatini ko'rsatadi. **Ilmiylik** darajasi esa mehnat faoliyatini texnik-texnologik jihatlari bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Ko'p funksiyalilik mehnatning murakkabligi turli xildagi vazifalarni bajarishi bilan xarakterlanadi. Mehnat faoliyati algoritmining murakkabligi faqat turlichagina emas, balki bir paytning o'zida parallel ravishda aqliy va jismoniy ish-harakat usullarining bajarilishi bilan xarakterlanadi. Stereotip kasb-hunar darajasida mahsulli va mahsul-siz faoliyatlarning o'zaro nisbatida namoyon bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, davlat ta'lim (tarmoq) standarti mutaxassisliklarning yozma modeli bo'lib, kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talablarni hamda shaxsiy talablarni o'ziga qamrab oladi.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *Zamonaviy fanlarning paydo bo'lishiga asoslar nimalardan iborat bo'ladi? Hech bo'lmaganda bitta fanning paydo bo'lishi misolida tushuntirib bering.*
2. *«Fan → ta'lim → amaliyot» integratsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta'lim tizimining qaysi bo'g'iniga ko'proq bog'liq? Buni aniq misollar asosida tushuntirib bering.*
3. *Ta'lim mazmuniga oid tamoyillardan ko'zlangan maqsad nimalardan iborat bo'lgan. Ularning ta'lim mazmunini belgilashdagi ahamiyati qanday?*
4. *O'quv adabiyotlarga qo'yilgan talablar haqidagi fikringiz qanday? Bu talablar shartmi? Shart bo'lsa, uni pedagogika darsligi misolida tushuntirib bering.*
5. *Elektron o'quv adabiyotlarning zarurligini asoslang va uning an'anaviy o'quv adabiyotlaridan farqini tushuntiring.*
6. *DTS zarurmi? Agar zarur bo'lsa, nima uchunligini muayyan bir fan bo'yicha-chi? DTS misolida asoslang.*
7. *Ta'limni insonparvarlashtirishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat? Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni uslubiy jihatdan asoslang.*
8. *«Fun-texnika taraqqiyoti» deganda nimani tushunasiz va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri qanday bo'ladi?*
9. *Ta'lim mazmunini tavsiflovchi asoslar nimalardan iborat?*
10. *Uzluksiz ta'lim mazmunini belgilashda integratsiya jarayonlarining ahamiyati bormi?*
11. *DTS qanday shakllantiriladi?*
12. *Tamoyilning vazifasi nimadan iborat va uning ta'lim mazmunini belgilashdagi ahamiyati qanday?*



13. Fanlar bloklari va ularning funksional vazifalari nimalardan iborat?
14. O'quv me'yoriy hujjatlar nimalar?
15. Elektron o'quv adabiyotlarining turlarini aytib bering.
16. Zamonaviy o'quv adabiyotlarini ishlab chiqishga qanday talablar qo'yiladi?
17. Ta'limni insonparvarlashtirish nima uchun kerak?
18. O'MKHT tizimida ijtimoiy hamkorlik qanday amalga oshiriladi?
19. O'MKHT tizimida boshqarish qanday amalga oshiriladi?

### Test topshiriqlari

#### 1. O'quv dasturida nimalar ko'rsatilgan?

- A) O'quv yilining strukturasi
- B) O'quv predmetiga (fanga) ajratilgan haftalik soatlar (darslar) miqdori
- D) O'quv shaxsini tarbiyalash maqsadi va vazifalari
- E) Har bir o'quv predmetining (fanning) mazmuni, o'quv yillari bo'yicha programma materiallarining (fanning) mazmuni va mavzularining taxminiy soatlari

#### 2. DTSning vazifalari:

- A) Ta'lim mazmuniga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilash
- B) Ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli darajasini belgilash
- D) Ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilash
- E) Javoblarning barchasi to'g'ri

#### 3. Qanday ta'lim turlari uchun DTS joriy etiladi?

- A) Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim
- B) Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim
- D) Umumiy o'rta, maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'lim
- E) Ta'lim turlarining barchasi uchun

**4. DTSni tayyorlash qanday ta'lim muassasalari uchun majburiy?**

- A) Davlat ta'lim muassasalari uchun
- B) Nodavlat ta'lim muassasalari uchun
- D) O'zbekiston Respublikasidagi barcha ta'lim muassasalari uchun
- E) Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi ta'lim muassasalari uchun

**5. Majburiy standartli tekshiruv ishlari qaysi nazorat tarkibi-  
ga kiradi?**

- A) Oraliq nazorat
- B) Maxsus nazorat
- D) Joriy nazorat
- E) Bosqichli nazorat

**6. Ta'limning qanday turlari uchun Davlat talablari (DT) joriy  
tiladi?**

- A) Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtidan keyingi, malaka oshirish va qayta tayyorlash
- B) Ta'lim turlarining barchasi uchun
- D) Maktabgacha, malaka oshirish va qayta tayyorlash
- E) Faqat malaka oshirish va qayta tayyorlash

**7. Maktabgacha, umumiy o'rta, uch yillik (akademik-litsey,  
asb-hunar), oliy ta'lim tizimining asosiy me'yoriy-huquqiy huj-  
itiga nimalar kiradi?**

- A) Davlat ta'lim standartlari
- B) Davlat talablari
- D) O'quv rejalari
- E) Namunaviy o'quv reja

**8. O'quvchining iste'dod va qobiliyatining rivojlanishi nima-  
ga bog'liq?**

- A) O'qitish va tarbiyalash metodlariga bog'liq
- B) Tarbiyaviy tug'ma nishonlarga bog'liq
- D) O'zlashtirgan bilimlarning miqdori va hajmiga bog'liq
- E) Faoliyatning turlariga, aloqa va muloqotga, ta'lim-tarbiyaning metodik jihatdan muvofiqligiga

**9. Maktabgacha, umumiy o'rta, uch yillik (Akademik – litsey, kasb-hunar) ta'lim qanday ta'lim?**

- A) Budget asosidagi
- B) Tanlov asosidagi
- D) Ixtiyoriy
- E) To'lov asosidagi

**10. Islom Karimovning: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak», – degan iborasi qayd etilgan asarni aniqlang.**

- A) «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori»
- B) «Barkamol avlod orzusi»
- D) «Buyuk maqsad yo'lida og'ishmaylik»
- E) «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat»

Fan yo'lida qilinadigan xizmatlarning eng buyugi – unga yangi g'oyalarni kiritishdir.

*J.Tomson*

## 18-MAVZU. TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

### **Reja:**

1. Ta'lim metodlari va usullari haqida ma'lumot.
2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar.
3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi.
4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari.
5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va ularning turlari.
6. O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.

### **Mavzuning maqsadi:**

ta'lim oluvchilarni ta'lim metodlarining mazmun-mohiyati, ularning turlari va ularga turlicha yondashuvlar hamda ularni takomillashtirish yo'llari, shuningdek, ta'limning uskunaviy didaktik asoslari bilan tanishtirish.

### **Mavzuning vazifalari:**

1. Ta'lim metodlari va ularning turlari hamda ularni o'zlashtirishga bo'lgan turlicha yondashuvlarni bayon qilish.
2. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning o'qitish metodlari haqidagi qarashlarini yoritish.
3. Ta'lim metodlarini joriy qilishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish tamoyillarini bayon qilish.

4. Ta'lim metodlarini takomillashtirishga bo'lgan zamonaviy yondashuvlar haqidagi ma'lumotlar berish.

5. Mustaqil ta'lim va uning vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llari haqidagi ma'lumotlarni bayon qilish.

6. O'qituvchining pedagogik mahoratini ta'lim samaradorligi bilan integratsiyasini ta'minlashni yoritish.

7. Ta'lim oluvchilarning o'z bilimini oshirish yo'llarini asostlash va bunda ularning intellektual mulkining ahamiyatini bayon qilish.

8. Ta'lim jarayonini axborotlashtirish asosida axborot-kommunikatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishning didaktik asoslari haqidagi ma'lumotlarni ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar;** ta'lim metodlari, usullar, bilish faoliyati usullari, ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi, ilm-fan, texnika-texnologiya, o'quv material, didaktik xarakter, pedagogik nazariya, samarali, zamonaviy, pedagogik qarashlar, irodaviy sifatlari, ilmiy dalillar, sezgi organlari, bilimlarni o'zlashtirish, so'z orqali ko'rgazmali uzatish, amaliy mehnat, ta'lim metodlari, mashq qildirish metodi, topshiriq berish, didaktik asos, laboratoriya metodi, ta'lim vositalari, o'qitishning asosiy va qo'shimcha vositalari, o'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari, Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, al-Beruniy, ibn Sino, Forobiy ta'lim metodlarini faollashtirish haqida, mustaqil ta'lim, faol ta'lim, o'zaro bog'liqlik qonuni, mashq qonuni, intensivlik qonuni, assimilyatsiya qonuni, ta'limni axborotlashtirish qonuni, pedagogik mahorat.

### **18.1. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha**

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga bog'liq bo'lib, u ta'lim nazariyasida asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

«Metod» – yunoncha «**metodos**» – «yo'l» degan so'zdan paydo bo'lib, u, tadqiq qilish ma'nosini anglatadi. Ta'lim metodi ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsadga erishishiga qaratilgan birgalikdagi faoliyatdir.

**Ta'lim metodlari** – o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadla-

riga erishish usullarini hamda o'quv materialini nazariy va amaliy yo'naltirish yo'llarini anglatadi.

**O'qitish metodlari** ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda ta'lim oluvchilar qanday ish-harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi. Shuningdek, ta'lim metodi o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning o'qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo'lidir.

Ta'lim jarayoni va uning natijalari ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi **ish usullariga bog'liq**. Shu sababli doimo pedagogikada ta'lim metodlariga ta'lim beruvchining ish usullari va ta'lim oluvchilarning **bilish faoliyati usullari** deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o'quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

Ta'lim metodlari ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi. Ular ta'limning maqsad-vazifalariga bog'liq bo'ladi.

## **18.2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar**

Ta'lim metodlari tevarak-atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonuniyatlarini tushunishga bog'liqdir, ya'ni ular falsafiy metodologik asosga ega va ta'lim jarayonidagi qarama-qarshiliklarni, ta'lim jarayonining mohiyatini va tamoyillarini to'g'ri anglash natijasidir.

Ta'lim materiali ta'lim mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liq. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib, takomillashib ilmiy tus olib bormoqda. shuning uchun ta'lim metodlari ilmiy bilishning mantig'i va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, ta'limning amaliy yo'nalganligi ta'lim metodlarining eng muhim talablaridan biridir va u doimo zamon talabidagi dolzarb yo'nalishdir.

Demak, ta'lim metodlarida pedagogik nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligini ta'minlashga qaratilgan yondashuv har doim zarur va kerak. Nazariya qancha chuqur va ilmiy bo'lsa, ta'lim metodlari o'shancha samarali bo'ladi. **Pedagogik qarashlarda** nazariya qancha kam ifodalangan bo'lsa, ta'lim metodlari bu nazariyaga shuncha kam bog'liq bo'ladi.

Pedagogika fani maktablar va ta'lim beruvchilarning ilg'or ish tajribalarini umumlashtiradi, an'anaviy ta'limning ilmiy asoslarini ko'rsatib beradi, o'qitishning **zamonaviy, samarali metodlarini** ijodiy ravishda izlab topishga yordam beradi. Shu sababli ham ta'lim metodlari oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganish yo'li fikr yuritishning didaktik-materialistik usullarini, milliy mafkuraga hamda milliy qadriyatlarga asoslangan axloq, xulq-atvorning irodaviy sifatlarini shakllantirishga olib kelishi kerak.

2. Ta'lim metodi ilmiy dalillar bilan ravshan va aniq asoslangan bo'lishi lozim.

3. Ta'lim metodlarining tizimlilikligi ularning samaradorlik darajasini belgilaydi.

4. Ta'lim metodlari oldiga muqarrar sur'atda qo'yiladigan yana bir talab – ularning tushunarli bo'lishi.

5. Bolani sezgi organlari orqali bilishga o'rgatish va o'quv jarayonida ko'rsatmali qurollardan iloji boricha ko'proq foydalanish.


6. Ta'lim metodlari oldiga qo'yiladigan talablardan yana biri – bu bilimlarning asosli va puxta bo'lishi. Ta'lim metodlari yaxshi natija beradigan bo'lishi lozim. Ta'lim beruvchining tushuntirish va ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish usuli rejalashtirilgan yoki mo'ljallangan natijani berishi kerak.

### **18.3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi**

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi. O'quv-biluv faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonining o'zi esa axborot uzatish, qabul qilish, ang-

lash va o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak, **birinchi guruh** metodlariga so'z orqali axborotni uzatish va eshitish orqali qabul qilish metodlari og'zaki metodlar; hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar; **ikkinchi guruh** metodlariga o'quv axborotlarini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari – ko'rgazmali metodlar: tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; **uchunchi guruh** metodlariga o'quv axborotini **amaliy mehnat** harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Demak, amaliyotda keng qo'llanilib kelayotgan ta'lim metodlarini quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin (1-shakl).



**1-shakl.** Ta'lim metodlari.

O'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi bayon qilinayotgan ma'lumotlarning to'g'ridan to'g'ri ta'lim beruvchining jonli nuqti orqali idrok qilinishi bilan tavsiflanadi va ana shu xususiyatiga ko'ra ta'limning boshqa metodlaridan farq qiladi.

Ta'limning ko'rgazmalilik metodidan amaliy faoliyatda foydalanishda namoyish etish, tasvirlash va ekskursiya metodi bilan ish ko'rishda ta'lim oluvchilarni turli mavzularda tasviriy materiallar bilan ishlashga jalb etish muhim didaktik ahamiyatga ega.




**Amaliy mashg'ulotlar metodi**, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi. Odatda mashq qildirish deganda ilmiy bilim va ma'lum bir ish-harakatni o'zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali ravishda tashkil etilgan takrorlash tushuniladi.

**Mashq qildirish metodi** o'quv predmetlarining mazmuni va tavsifiga qarab turlicha olib borilishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirgan ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashq qildirish lozim.

**Laboratoriya metodi.** Bu ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarga atrofni o'rab turgan obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar, ularning shakli, hajmi, tarkibi, tuzilishi, o'zgarishi va rivojlanishi qobiliyatlari haqida yangi-yangi bilimlar berish, o'zlashtirayotgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash hamda tegishli ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishda muhim ahamiyatga ega.

Demak, bu shunday ta'lim metodiki, unda ta'lim oluvchi ta'lim beruvchi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o'tkazadi yoki amaliy vaziflarni bajaradi va shu jarayondagi bilimni yangilaydi va tushunib yetadi. Shu sababli ham ular qat'iy reja asosida ish olib boradilar. Reja – ta'lim mazmunini ta'lim oluvchilar tomonidan tajribalar va amaliy ishlarni bajarish hamda o'rganishning ko'rsatmalarini ifodalovchi ta'lim beruvchining hujjati hisoblanadi. Unda mashg'ulot mavzusi, ishning maqsadi, unga ajratilgan vaqt, mashg'ulot mavzusining mazmuni, mashg'ulot bo'yicha adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topadi.

Laboratoriya metodi, deyarli barcha fanlar bo'yicha ta'lim berishda uchraydi. Laboratoriya metodi o'z xususiyatiga ko'ra quyidagicha turlarga va shakllarga bo'linadi (1-shakl):



1-shakl. Laboratoriya mashg'ulotlarining turlari va shakllari.

**Ta'lim vositalari.** Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

**O'qitishning asosiy vositalari** – bu asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari.

**O'qitishning qo'shimcha vositalari** – bu ta'lim oluvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalar.

**O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari** – bu mutaxassislar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini takomillashtirishga imkon beruvchi intellektuallashtirilgan dasturlar va uni amaliyotga joriy etishga sharoit yaratuvchi dasturiy-texnik vositalar.

#### 18.4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari

Sharq mutafakkirlarining didaktik qarashlarida ham ta'lim metodlari masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Buni al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning turli ta'lim metodlari haqidagi fikrlari, qarashlari, amal qilgan ta'lim yo'nalishlarida yaqqol sezish mumkin.

**Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy** o'zigacha bo'lgan ta'lim metodlarini sintezlashtirishga harakat qilgan. Barcha mutafakkirlar kabi u ham ko'rgazma-tajriba metodlari, savol-javob metodlari, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalanilgan.

Al-Xorazmiy matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara oldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri – «0» (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir.

**Abu Nasr Forobiy** ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb o'qtiradi. Bular tarbiyachilar va murabbiylar tomonidan turli metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish g'oyalarini ham ilgari surgan.

U matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan, turli tillarni o'rgangan. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

**Abu Rayhon Beruniyning** ilmiy bilimlarni egallash yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham dolzarbdir. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik;

• bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik kerak – bu dars jadvaliga qo'yilgan talablardan biri:

- uzviylik va izchillik;
- tahlil qilish va taqqoslash;
- takrorlash;
- materialni ko'rgazmali bayon etish va shu kabilar.

Abu Ali ibn Sino ta'lim oluvchilarni jamoa qilib o'qitishni ta'kidlaydi. U ta'lim oluvchilarni o'qitishda ularni birdaniga kitob bilan band qilib qo'yimaslik kerak, deb o'qtiradi. Shuningdek, olimning fikricha, olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu orqali ta'lim oluvchilaridagi zerikishning oldi olinadi.

Ibn Sino ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinishdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi; baribir, ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarni amaliyotga tadbiiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo'lgan.

### **18.5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va uning turlari**

**Ta'lim metodi psixologik asosga ega.** Bolaning o'quv materialini o'zlashtirishdagi yosh imkoniyatlari va uning yetuklik darajasi o'qitish va o'qish usullariga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim oluvchilarning fikrlash faoliyatini va shaxsiy xususiyatlarini yaxshi bilish o'qitishning samaraliroq usullarini topish imkoniyatini beradi.

Mutaxassislar tayyorlashning shaxsiy faoliyati konsepsiyasi bo'yicha ta'lim jarayonida individual ta'lim jarayonini individual-ijodiy shaxsni shakllantirish jarayoni sifatida qarashga, shuningdek, o'qitishni nafaqat o'qitiladigan fan mantiqiga, balki shaxsning rivojlanishi mantiqiga muvofiq holda tashkil etishga imkon beradi, deb qaraladi.

Ta'lim oluvchining yaratuvchilik (ijodiy potension) qobiliyati. uning muloqot qila olish qobiliyatini, ta'lim olish madaniyatini, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida samaradorlik va sifatni oshirishda axborotlashgan jamiyat qurish orqali ijtimoiy jamiyat buyurtmasini bajarish (axborot texnologiyalari sohasi. axborot ta'lim hujjatlari. foydalanuvchilar)ini va shu kabi jarayonlarni rivojlantirishdagi optimal variantlarni tanlashda istiqbolli natijalarni qo'lga kiritishni kafolatlaydi. Bunda faol ta'lim jarayonini amalga oshiriladi.

**Faol ta'lim** – bu ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining ongli va faol ishtiroki. mustaqilligi hamda ijodiy qobiliyatlarini ta'minlovchi tizimli pedagogik jarayondan iborat.

Faol ta'lim sharoitida o'zlashtirilgan bilim va harakat usullari mazmunan mukammal tizimli, mantiqan tugal va turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo'llanishga yaroqli bo'ladi. Bunda asosan quyidagi ta'lim metodlaridan foydalaniladi: bahs-munozara; fikrlashga jalb qilish; doskada mustahkamlash; turli ta'limiy-kasbiy o'yinlarni amaliyotga joriy etish va hokazo.

Ta'lim metodlarini faollashtirish quyidagi ta'lim qonunlariga e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi.

• **Ta'limda intellektual sohani rivojlantirish qonuni.** Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchining fikrlashini (bilishini, ijodini), xotirasini. diqqatini, aql sifatlarini (teranlik, qayishuvchanlik, tejamkorlik, mustaqillik), fikrlash ko'nikmalarini (ajratish, qo'shish, tahlil qilish va h.k.), bilishini (ta'lim oluvchilarni qarama-qarshilik muammolarni qurish, savollar qo'ygan farazlarni ilgari surish va h.k.), o'rganishini bilishini rivojlantirish, predmetga oid bilim, o'quv va ko'nikmalarni shakllantirishning istiqbolli usullari ishlab chiqiladi va ulardan amaliyotda foydalanish shakllari yaratiladi;

• **Ta'limda iroda sohasini rivojlantirish qonuni.** Bu qonun bo'yicha ta'lim oluvchidagi maqsadga intilishni shakllantirish jarayoni e'tiborga olinadi. Unda, asosan, asab va muskullarning zo'riqishini yenga olish, tashabbuskorlik, o'z kuchiga ishonish, o'zini boshqara olishni rivojlantirish, bilimlarni o'qitish, faoliyatni rivojlantirish, uni qanday amalga oshirish va nazoratni tashqi ko'nikmasiz olib borish kabi qobiliyatlar hisobga olinadi;

• **Ta'limda ematsion sohani rivojlantirish qonuni.** Bu qonun ta'lim oluvchiga o'z hissiyotini va ruhiy holatini boshqarish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish jarayonidan iborat bo'lib, unda ortiqcha havotirni yengish va o'zini holisona baholash ko'nikmasiga ega bo'lishni tarbiyalash muhim hisoblanadi;

• **Ta'limni axborotlashtirish qonuni.** Bu qonun bo'yicha axborotlashtirilgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchilarning jamoatchilik va kasbiy faoliyatida to'laqonliroq samarali qatnashishiga tayyorlash maqsadida ta'lim tizimining barcha komponentlari kompyuterli va axborotli texnologiyalar yordamida yaxshilanadi.

Ta'limni axborotlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

• o'quv-uslubiy ishlarni qayta tashkil etish;

• ta'lim beruvchi va uning rolini o'zgartirishga qo'yilgan talablar o'rtiriladi;

• ta'lim oluvchi shaxsning va uni individuallashtirish xususiyati rolining ortishi;

• ta'lim muassasasi rolining zamonaviylashuvi, o'zgarishi va uning ta'lim oluvchilar tarkibi joylashgan joylarga ta'sirini e'tiborga olish;

• axborot resurslarining mumkin bo'lgan hajmining to'satdan ortishini hisobga olish;

• zamonaviy axborot xizmati ko'rsatishga bo'lgan talabning mun-tazam ravishda ortib borishi asosidagi axborotlashtirishning ahami-yati o'sishi, ayniqsa, bashoratti, ta'limiy va ilmiy xarakterdagi yo'nalishning rivojlanishini hisobga olish;

• beshta muhim masalalarni hal qilishni kafolatlash. Ular: ta'lim sifatini oshirish; ta'lim jarayonini qulay holga keltirish aso-sida ta'lim olishni engillashtirish; aholi savodxonligi oshishini ta'minlash: mamlakatning iqtisodiy imkoniyati (quvvati) o'sishini ta'minlash; milliy ta'limning jahon ta'limi tizimiga integratsiyalas-huvini ta'minlash;

• **Ta'limda mustaqillik qonuni.** Bu qonun bo'yicha ta'lim oluv-chilarning bilimlarini hayotga qo'llay olish uchun ta'lim berish jara-yonini faol fikrlash jarayoniga aylantirish asosida ularda ijodiy tashabbuskorlik va mustaqil tafakkur, nutq, madaniyati va ilmiy

dunyoqarash, e'tiqodni tarkib toptirishning optimal variantlarini ishlab chiqiladi.

Professorlar R.X. Jo'rayev va S.T. Turg'unovlarning qayd etishicha **mustaqil ta'lim** – bu insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajdodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlar jarayoni. Bunda insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari, **mustaqil fikrlash** qobiliyati asosiy rol o'ynaydi.

**Mustaqil fikrlashga o'rgatish.** Har qanday o'quv fani bo'yicha darsliklarning asosiy didaktik ashyosi matnlar, savol-topshiriqlar, mashqlar yoki misol-masalalar hisoblanadi.

Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishda darslik, o'quv qo'llanmalar va ta'lim beruvchining alohida-alohida ahamiyatini ta'kidlash shart emas, balki uni mavzudagi ilg'or fikrlar, ilmiy xulosalar, amaliy haqiqatlar, voqea-hodisa yoki inson shaxsiga o'z munosabatini bildirishga yo'naltirish kerak bo'ladi.

Muayyan fanlar bo'yicha ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishga darsliklardan o'rin olgan, ilm ahliga, darslik muallifi va ta'lim beruvchiga avval ma'lum bo'lgan ilmiy va hayotiy haqiqatlarini har bir ta'lim oluvchi o'zining imkoniyati doirasida o'z yo'li bilan anglatadi. Darslik yoki o'quv qo'llanmalardagi yoki ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan savol-topshiriqlar ta'lim oluvchini matn mazmunini hikoya qilishga (ayrim hollarda yodlab olishga) majburlamasligi kerak.

Demak, **mustaqil ta'lim** – bu olingan bilim ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materiallarni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

### **18.6. O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari**

**Pedagogik mahorat** – ta'lim beruvchining ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida

undagi kasbiy ta'lim, tushuncha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahoratdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u ta'lim beruvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda ta'lim beruvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichida kimga nimadir tushunarsiz bo'lganligini tezda (o'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik mahoratga ega o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;

- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;

- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'liq ochib bera olishi kerak va zarur bo'lganda ularga bu mavzuning o'z kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida tushuncha bera olishi kerak;

- dars davomida befarq holda qatnashayotgan ta'lim oluvchini tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olishi kerak;

- o'qituvchining darsni yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab berish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;

- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

O'qituvchining pedagogik mahorati tajribasida va uning natijasida ta'lim metodlari samaradorligi oshishi yo'llari asosiy e'tiborda bo'ladi va ular ta'lim jarayoniga nisbatan turli usul, tamoyil, yondashuv va qarorlar hamda pedagogik qobiliyatlari yordamida amalga oshiriladi. Quyida ular to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlarni keltiramiz:

- **Ta'limning muammoni qidiruv usuli** – ta'lim oluvchilarning bilimini mustaqil ravishda izlab topishga yo'naltirilgan ta'limiy faoliyat yo'li.

Ushbu usulda o'qituvchilarning pedagogik mahoratining asosiy mazmunini ta'lim oluvchilarga berishni so'z orqali ifodalash,



ko'rgazmali va amaliy usullar yordamida amalga oshirishlar tashkil etadi.

- **Ta'limning namoyish qilish usullari** – bu ta'limning dars mashg'ulotlari jarayonida o'quv va ko'rgazmali vositalardan foydalanish yo'llaridan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi – dars samaradorligini oshirishdan iboratdir.

Mazkur usul bo'yicha ta'lim berishdagi o'qituvchi pedagogik mahoratining **natijaviyligini** ta'minlashdan og'zaki va ko'rgazmali usullari aloqadorligining xilma-xil shakllari mavjudligi va kerakli joylarda ularning har biridan samarali foydalanishi e'tiborga olinadi. Bunga sabab ta'limda mavzuning mazmuni, mavjud ko'rgazmali vositalarning xarakteri va ta'lim oluvchilar tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib, har bir ta'lim jarayonning holatiga mos ular uyg'unligidan oqilona foydalanish dars samaradorligini ta'minlashga imkoniyat yaratadi:

- **Ta'lim tamoyillari.** Bu o'qish va o'qitish jarayonida obyektiv mavjud bo'lgan va uni bir butun qilib turgan qismlari orasidagi zaruriy bog'liqlikdan kelib chiqib, odamlar tomonidan ishlab chiqilgan va ta'lim jarayonida amal qilishga tavsiya etilgan harakatlar tarkibidir.

- **Pedagogik yondashuv** bu ta'lim-tarbiyadagi o'zaro bog'liqlik. Tarkibiy va tashkiliy jihatdan bir butun bo'lgan jarayon va hodisalarni o'rganuvchi pedagogik faoliyatdir.

Pedagogik yondashuvlar turlari ular qo'llanilayotgan manbaga mos holda turlicha bo'ladi. Ular ichidan pedagogik texnologiyalarning ta'lim-tarbiyada keng qo'llanilishi bilan texnologik yondashuvga e'tibor kuchaymoqda.

**Texnologik yondashuv** – bu ta'limning aniq kutilgan natijalariga ega bo'lgan uzluksiz jarayondir. Uning komponentlari quyidagilardan iborat: tizimli yondashuv asosida o'quv jarayonini loyihalash; o'quv maqsadini mumkin qadar aniqlashtirish; ta'lim oluvchilarni ularning xatti-harakatlari asosida o'qitish; teskari (qaytma) aloqa; bilim, ko'nikma va malakalarning to'la o'zlashtirilishi rejalashtirilgan maqsadlarga erishishini kafolatlash; o'qitishning samaradorligiga erishish.

- **Ta'limning mulohazalarga asoslangan qarori** – bu mazkur

qarorni amalga oshirishdagi o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi vazifalarni belgilash va taklif-mulohazalarni hisobga olish hamda amaliyotda foydalanishga tavsiyalash ishlab chiqish natijasi.

• **Pedagogik qobiliyat** – bu o'qituvchining pedagogik faoliyatga xos bo'lgan zaruriy xususiyatlari majmuasidan iborat bo'lib, unda shu xususiyatlar negizida pedagogik faoliyat bilan mohirona shug'ullana olish layoqatining shakllanganligini ko'rsatuvchi muayyan darajadir.

### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Ta'lim metodlarini va usullarini zamonaviylashtirish haqidagi fikrlaringiz bo'yicha referat tayyorlang.*
- 2. «Didaktika»ni zamonaviy ta'lim texnologiyalari negizida takomillashtirish qanday hal etiladi?*
- 3. Zamonaviy ta'lim vositalaridan samarali foydalanishdagi ta'limiy afzalliklarni sanab bering.*
- 4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlarining qaysilaridan hozirda ham samarali foydalanilganligini asoslab berishga harakat qiling.*
- 5. Ta'lim berishda ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga nima uchun e'tibor beramiz va bu ularning intellektual salohiyatini yuksalib borishidagi ahamiyati bormi? Agar bo'lsa, aniq dalillar asosida bayon qilib bering.*
- 6. Ta'lim metodlarini faollashtirish deganda nimani tushunasiz va u ta'lim samaradorligiga qanday ta'sir qiladi. Samaradorlikni baholash mezonlari haqida ma'lumot bering.*
- 7. Mustaqil ta'limning muammoli ta'lim bilan uyg'unligi haqidagi fikringiz va ularning faol ta'limdagi ahamiyati haqida referat tayyorlang.*
- 8. Pedagogik mahorat va kasbiy bilimdonlik uyg'unligi hamda ular asosida ta'lim samaradorligiga qanday erishiladi? Aniq mavzular bo'yicha asoslab bering.*
- 9. Zamonaviy ta'lim vositalari va universal didaktik vositalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati bo'yicha referat yozing.*

10. *Teleanjumanlarni o'tkazishda audiovizual vositalarning o'rni va ular orqali masofaviy ta'lim hamda mustaqil ta'limni uyushtirish bo'yicha axborot tayyorlang.*
11. *Ta'lim metodlari nimalarni anglatadi va uning ta'lim jarayonidagi o'rni qanday?*
12. *Zamonaviy didaktika va xususiy metodikalar orasidagi umumiylik va xususiylik qanday baholanadi?*
13. *Pedagogik qarashlarning ta'lim metodlarining shakllanishidagi o'rni qanday?*
14. *Ta'lim metodlari va vositalari o'rtasidagi uyg'unlik nimalardan namoyon bo'ladi?*
15. *Ta'lim metodlarining ko'rinishlari va ularning tavsiflarini qanday ifodalash mumkin?*
16. *Mashq qildirish metodining asosiy maqsadi nimalardan iborat?*
17. *Laboratoriya metodi asosan qanday fanlarni o'rganishda ko'proq qo'llaniladi?*
18. *Sharq mutafakkirlarining fikrlari ta'lim metodlarini shakllantirishda qanday ahamiyat kasb etadi?*
19. *Ta'lim metodlarini joriy etishda ta'lim oluvchilar yosh xususiyatlari qanday hisobga olinadi?*
20. *Ta'lim metodlarini faollashtirishda asosan qanday jarayonlarga e'tibor beriladi?*
21. *Mustaqil ish, mustaqil ta'lim va masofaviy ta'limlardagi alohidalik va umumiylik qanday aniqlanadi?*
22. *Faol ta'lim deb qanday ta'lim jarayoniga aytiladi?*
23. *Ta'limni axborotlashtirish deganda nimani tushunasiz?*
24. *Ta'lim oluvchini mustaqil fikrlashga o'rgatish qanday amalga oshiriladi?*
25. *Pedagogik mahorat va undan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?*

## Test topshiriqlari

- 1. Metod – bu ...**
  - A) Metod – bu grekcha soʻzdan olinib, uslub demakdir
  - B) Metod – bu lotincha soʻzdan olinib, usul axborotini uzatish demakdir
  - D) Metod – bu yunoncha «yoʻl, yoʻriq», usul orqali maqsadga erishish, degan maʼnoni bildiradi
  - E) Hamma javoblar toʻgʻri
- 2. Taʼlim metodlari nechta?**
  - A) 2 ta
  - B) 5 ta
  - D) 3 ta
  - E) 4 ta
- 3. Pedagogik olamiga savol-javob, «evristik suhbat» metodini olib kelgan faylasuf olim kim?**
  - A) Aflotun
  - B) Suqrot
  - D) Arastu
  - E) Demokrit
- 4. Oʻqituvchining suhbat taʼlimning qaysi metodiga kiritiladi?**
  - A) Amaliy
  - B) Ogʻzaki
  - D) Koʻrgazmali
  - E) Mashq qilish
- 5. Taʼlimning ogʻzaki metodlariga nimalar kirishini koʻr-sating.**
  - A) Ilyustratsiya, namoyish qilib koʻrsatish (demonstratsiya)
  - B) Mashq qilish, laboratoriya va amaliy ishlar
  - D) Hikoya, tushuntirish, suhbat, maʼruza
  - E) Test algoritmlash, qisman izlanish, induksiya
- 6. Taʼlimning quyidagi metodlaridan qaysi biri koʻrsatmalilik metodining asosiy tarkibini tashkil etadi?**
  - A) Mashq qilish, laboratoriya va grafik ishlash
  - B) Namoyish etish, tasvirlash ekskursiya

D) Kuzatish, namoyish qilib ko'rsatish (demonstratsiya) va illyustratsiya. darslik va kitob bilan ishash

E) Sxema va chizmalar tayyorlash, tablitsalar, grafiklar va diagrammalar tuzish

**7. Ta'limning amaliy metodlariga nimalar kirishini ko'rsating.**

A) Ilyustratsiya, namoyish qilib ko'rsatish (demonstratsiya)

B) Mashq qilish, laboratoriya va amaliy ishlar

D) Hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza

E) Test, algoritmlash, qisman izlanish, induksiya

**8. «Takrorlash – bilimning asosidir». Ushbu ibora qaysi pedagogga oid?**

A) Shakuriy

B) Hamza

D) Komenskiy

E) Ushinskiy

**9. Ko'nikma va malakalarni shakllantirishda asosiy sanaluvchi metod, bu ...**

A) Mashq

B) Namoyish

D) Muammoli

E) Didaktik o'yin

**10. Ta'limning amaliy ishlar metodlariga nimalar kirishini ko'rsating.**

A) Hikoya, ma'ruza, suhbat

B) Mashq, laboratoriya, amaliy ishlar

D) Laboratoriya, suhbat, ma'ruza

E) Anketa, test, ma'ruza

Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi.

*Islom Karimov*

## 19-MAVZU. TA'LIMNI TASHKIL ETISH TURLARI VA SHAKLLARI. DARS – TA'LIM TIZIMINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY SHAKLI SIFATIDA<sup>2</sup>

### **Reja:**

1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan).
2. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari.
3. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi.
4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari.

### **Mavzuning maqsadi:**

ta'lim oluvchilarga ta'limni tashkil etishning mazmun-mohiyatini, turlari va shakllari haqida bilim va ko'nikmalar berish.

### **Mavzuning vazifalari:**

1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) ning mazmun-mohiyatini bayon qilish.
2. Ta'limni tashkil etishning xilma-xil turlarini va ulardagi umumiylik va xususiylik haqida bilim berish.
3. Hozirgi zamon darslari va ularga mos ta'limni modernizatsiya qilish asoslarini talabalar ongiga singdirish.
4. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy va zamonaviy shakllari haqida bilimlar majmuyini hosil qilish.

---

<sup>2</sup> Mazkur mavzu J. Hasanboyev., H. Soriboyev., G.Niyozov, O.Hasanboyev, M.Usmonboyevalarning «Pedagogika» o'quv qo'llanmasi asosida tayyorlandi.

5. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar hamda ularning mazmun-mohiyatini ta'lim oluvchilar ongida shakllantirish.

6. Darsdan tashqari mashg'ulotlar va ularning mazmun-mohiyatini yoritish.

7. Turli o'quv ishlarida o'qituvchi faoliyatini yoritish.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:** Ta'lim turi, illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim, pedagogik tizim, arxaik, qadimgi, avestit, yunon, o'rta asr, yangi, dogmatik, sxolastik, internet, «Avesto», Suqrotona suhbat, yordamchi savollar, dogmatik o'qitish, pedagogik konsepsiya, haqiqiy g'oyalar va bilimlar, dasturlashtirilgan ta'lim, kompyuterli o'qitish, muammoli o'qitish, dastur, innovation ta'lim, masofaviy ta'lim, ta'limni modernizatsiya qilish, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, uy vazifalar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, individual dars, individual-guruhli dars, sinf-dars, ma'ruza-seminar, auditoriyadan va sinfdan hamda maktabdan tashqari dars, dolton-reja, loyihali ta'lim.

### 19.1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi

Didaktik g'oyalar jamiyat taraqqiyoti jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib, takomillashib boraveradi va ular o'ziga xos tizimlar ko'rinishida shakllanadi. Shu sababli ham ta'lim turlari o'quv jarayonini tashkil etish va uni amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvlar asosida shakllantiriladi.

*✓ Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:*

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda – eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestit (Baqtiriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avvalgi VII–VI asrlar);
- yunon (ellins, rim-yunon, Rim – eramizdan avvalgi V–I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V–XVI asrlar);
- ta'limning yangi turlari tushuntirish, tushuntirishli-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish, muammoli-dasturlashtirilgan.

kompyuterlashtirilgan innovatsion, INTERNET tarmog'idan foydalalanib o'qitish va shu kabilar):

«Avesto» g'oyalari ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo hududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganida tashkil topdi. «Avesto» zardushtiylikning muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining qomusiy asari hisoblanadi. Uning g'oyalari binoan yoshlarni o'qitish va tarbiyalash quyidagi tamoyillarga asoslangan:

- yoshlarni diniy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash;
- jismoniy jihatdan tarbiyalash;
- yoshlarni o'qish va yozishga o'rgatish orqali ularning savodxonligini shakllantirish.

¶ Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Suqrot (eramizdan avvalgi 469–399 yillar) va ularning o'quvchilari tomonidan keng qo'llanilgan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi.

**Dogmatik o'qitish** – bu jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, u o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Yevropada ularning ilk ko'rinishlari iste'molda bo'lib, unda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili yetakchi o'rin tutgan. Bu borada **musulmon pedagogik konsepsiyasi** sezilarli darajadagi ma'naviyatlilik va intellektuallik xususiyatlariga hamda mazmun-mohiyatga ega bo'lgan. Ularning g'oyalari bo'yicha o'z faoliyatlarida bilimlardan faol va ijodiy foydalana oladigan odamgina komillikka erishish mumkin, degan hukmiy fikr shakllangan.

«**Haqiqiy g'oyalar**» deb nom olgan pedagogik tizimning asosiy tayanch nuqtasi **haqiqiy bilimlarni** o'zlashtirishdan iborat bo'lgan. Abu Ali ibn Sinoning «Donishnoma» va «Bilimlar kitobi» nomli asarlarida ham mazkur muammo yechimiga alohida e'tibor qaratilgan.

Musulmon mamlakatlarida yoshlarni o'qitish va tarbiyalashda ular tomondan arab tilida nozil bo'lgan Qur'on Karim va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom Hadislarining yod olinishi – bilim egallashning asosiy sharti hisoblangan. Bulardan tashqari, o'sha paytda bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Yoshlar asosiy ta'limni boshlang'ich maktabda olganlar. Ilohiy va muqaddas kitoblarini



o'qish, yodlash va talqin qilish mashg'ulotlari, shuningdek, boshqa manbalar bo'yicha ham o'qish, yozish va hisoblash, tafakkurni shakllantirish faoliyatlari amalga oshirilgan.

Yoshlarning oliy ma'lumot olishi o'sha davrlardagi nufuzli madrasalarda amalga oshirilgan. Movarounnahrda eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Ko'hna Urganch, Xiva va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarning rivojlanishi XV–XVII asrlarga to'g'ri keldi. Madrasalarda o'qitish fors tilida ham olib borilgan. Ularda ta'lim oluvchilar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar.

**A**hozirgi vaqtda, respublikamizda faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:

- **tushuntiruvchi – namoyish etuvchi ta'lim.** Bu an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim deb ataladi;

- **muammoli o'qitish;**

- **dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish.**

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.

**Muammoli o'qitishda** o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Bunday ta'lim texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi. Ta'lim oluvchilarni faol ishtirok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak. Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi, chunki mazkur jarayonda fikrlash jarayonida qiyinchilik his qilinadi.

**Muammoli o'qitishning afzalliklari:** shaxsiy ijodiy faoliyatni tashkil etish asosida bilimlarni mustahkam egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalariga erishish.

**Kamchiliklari:** ta'lim oluvchilarning idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil hal qilish

imkoniyatini har bir ta'lim oluvchiga taqdim etishning qiyinchiligi bilan belgilanadi.

**Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan ta'lim)** harakat (operatsiya) lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish oldindan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi «dastur» terminidan kelib chiqadi.

**Dastur** – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi bo'lib, uning yordamida ta'lim oluvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirilishida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarini o'zlashtirish bo'yicha bilimlarning muayyan miqdorlari (bo'laklari) va fikrlash ( mantiqiy) amallari-dan iborat bo'lgan ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lishi;
- har bir bosqichning nazorat bilan yakunlanishi;
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajargan ta'lim oluvchining yangi materialni o'zlashtirish uchun olish imkoniyati va navbatdagi bosqichni bajarishga kirisha olish:
- to'g'ri javobni topishda ta'lim oluvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir ta'lim oluvchining mustaqil ishlashi, intellektual salohiyati yetarli bo'lgan mavzular bo'yicha o'quv materiallarini o'zlashtirishi;
- natijalar monitoringi, ya'ni barcha nazorat topshiriqlarining bajarilish natijalarining qayd etilishi;
- ta'lim jarayonida ta'lim beruvchining ta'lim tashkilotchisi va lozim topilganda mazkur jarayonda maslahatchi (boshqaruvchi) sifatida ishtirok etishi va individual yondashuvni amalga oshirishi;
- ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarning keng qo'llanilishi (kompyuterli o'rgatuvchi dasturlar, intellektualashtirilgan dasturlar, kasbiy kompyuterli o'yinlar, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari va shu kabilar).

**Kompyuterli ta'lim.**

Ma'lumki, o'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi natijasida shaxsiy EHM rivojlanishi negizida kompyuterlashtirilgan ta'lim vujudga keldi.

**Kompyuter** – (ing. «computer» – hisoblayman) – oldindan berilgan dastur bo'yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Ta'lim-tarbiya jarayonlarini kompyuterlashtirishda zamonaviy kompyuterlar universal didaktik vositalar (qurilma) bo'lib hisoblanadi va ularning ta'lim-tarbiya jarayonlarining optimal variantlarini topishdagi roli beqiyos. Shuningdek, kompyuter ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishda yangi dasturiy-texnik universal vositasi bo'lib, ularning amaliy tafakkurini kengaytirish va chuqurlashtirib, ulardagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni yuqori darajaga ko'taradi.

Rivojlangan mamlakatlarda kompyuterlardan keng foydalanishning rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon beradi:

- alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, geografiya, chizmachilik va shu kabi fanlar) bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;

- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlar, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Kompyuterlashtirishning asosiy **maqsadi**, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va uzatish ishlarini avtomatlashtirishdan iborat bo'lsa, uning asosiy **vazifalari** intellektual salohiyatni ko'tarish, aqliy mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiyada optimal variantlarni kafolatlashlardan iboratdir.

Kompyuterlar yordamida ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarga, yangi axborot texnologiyalarini joriy etishga keng imkoniyatlar yaratiladi hamda yangi ko'rgazmalilik ta'minlanadi. Shuningdek, ulardan ta'lim-tarbiyada universal didaktik vosita sifatida foydalaniladi. Bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi va natijada ta'lim jarayonidagi samaradorlik qo'lga kiritiladi.

Kompyuterli ta'lim dasturlari, odatda **ikki xil**, ya'ni axborot-ma'lumotli va nazorat-ta'limiy tartibda o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan turlarga bo'linadi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

- o'qitish dasturlarining mukammalligi;
- hisoblash texnikasining mukammalligi va o'qitish jarayonida foydalanishdagi qulayligi.

«Kompyuterli o'qitish tizimi – bu quyidagi vazifalarni bajarishga imkon beruvchi o'quv-metodik va dasturiy-texnik vositalar majmuasi bo'lib hisoblanadi:

- bilimning aniq predmet sohasini o'rganish;
- o'quv kurslarida ishlanmalarni qo'llash;
- o'quv jarayonini boshqarish va shu kabilar.

Bugungi kunda o'quv jarayonini tashkil etishda qo'llanilayotgan kompyuterli o'qitish tizimini quyidagidek sinflarga ajratish mumkin:

A) ma'ruzani imitatsiyalovchi va o'rganuvchi materialni bayon etishda aniq rejaga ega bo'lgan ma'ruzachi tipidagi tizimlar;

B) seminar, laboratoriya mashg'ulotlarini imitatsiyalovchi assistent tipidagi tizimlar;

B) o'rganilayotgan va yondash fanlar bo'yicha foydalanishga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini tashkil qiluvchi maslahatchi tipidagi tizimlar;

G) bilimlarning boshlang'ich darajasini va o'quvchining psixologik holatlarini tekshirishga imkon beruvchi repetitor tipidagi tizimlar».

## 19.2. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari

Dunyoda shunday ta'lim tizimi yuzaga kelganki, uning xilma-xil turlari mavjud bo'lib, ularni ko'pchilik «qo'llab turuvchi, ta'minlovchi, yordamechi o'qitish» deb ataydilar. U qanchalik xilma-xil bo'lmasin, uning asosiy maqsadi odamni kundalik muammolarini hal etishga tayyorlashga asoslangan bo'lib, shaxsning faoliyati va hayot tarzini qo'llab turish uchun mo'ljallangan.

Ayni vaqtda «Innovatsion» (yangilik kiritish) ta'limini tashkil etishga alohida e'tibor berilmoqda.

**Innovatsion ta'lim** – bu bo'lajak mutaxassislarni joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat. Unda ta'lim-tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijodkorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim-tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.

Innovatsion ta'lim zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanadi hamda o'ziga xos quyidagi ijobiy xususiyatlarga egadir:

- kadrlar tayyorlash tizimiga ilm-fanning uzviy ravishda kirib borishini ta'minlaydi;

- ilg'or pedagogik texnologiyalar va yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun o'rta umumta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida eksperimental maydonchalar tashkil etish orqali ilmiy-tadqiqot natijalarini o'quv-tarbiya jarayoniga o'z vaqtida joriy etish mexanizmlarini ro'yobga chiqarishga erishiladi;

- ta'lim jarayonining istiqbolini oldindan ko'ra bilish, ya'ni ta'lim beruvchining avvalgi va hozirgi tajribasi asosida o'qitish emas, balki ta'lim oluvchini uzoq kelajakni mo'ljallashga (istiqbolli reja tuzishga) o'rgatishdan iborat bo'lib, unda ta'lim oluvchi ijtimoiy hayot va kasbiy faoliyatda tashxislash, bashoratlash, modellashtirish va loyihashtirishni amalga oshira olishi zarur;

- ta'lim oluvchining hamkorlikda ta'lim olish va optimal qarorlarni qabul qilish (lokal va xususiyan tortib dunyoni, madaniyat, sivilizatsiya rivojlanishini hisobga olishdan global muammolarni hal etish) da faol ishtirok etishni ta'minlash.

Keyingi yillarda **masofaviy ta'lim** (lotincha **distantia** – masofa) uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda.

**Masofaviy ta'lim** – bu masofadan turib o'qitishning usullariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim texnologiyasidir. U o'quv adabiyotlarining almashinish vositalari (Yer sun'iy yo'ldoshi, televideniye, radio, kompyuter aloqa

va boshqalar)ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlari majmuyidan iborat.

Masofaviy ta'limning asosiy vazifasi quyidagicha:

- masofaviy ta'lim o'qishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi;
- pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berish imkoniyati bor;
- metodologik, nazariy, uslubiy bilimlarni egallashga imkon yaratadi;
- bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi;
- ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkonini beradi;
- zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatini amalga oshirish borasida samarali qo'llaniladi;
- axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda, axborot olish va undan foydalanish samaralarini hosil qilish borasidagi ishlanmalarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

### 19.3. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi

Jahon pedagogika fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari bor. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratilib ko'rsatiladi:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;
- ma'ruza-seminarli;
- sinfdan tashqari;
- auditoriyadan tashqari;
- maktab va maktabdan tashqari.

Ulardan ta'lim oluvchilarni qamrab olishi, ta'lim oluvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatla-

ri. mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi asosiy turi iste'molda foydalanib kelinmoqda:

- individual;
- individual-guruhli;
- sinf-dars;
- ma'ruza-seminarli.

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan o'qitishning eng qadimgi shakli **individual** ta'lim hisoblanadi.

Individual ta'lim bir qator **afzalliklarga** ega. Shuning uchun bu usulni bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning ustunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishdan iborat. Individual ta'lim beruvchining yuqori pedagogik malakaga ega bo'lishini talab etadi.

Individual ta'limning **kamchiliklari**: vaqtning tejamli emasligi; ta'lim beruvchi ta'sirining cheklanganligi (bunda ta'lim beruvchining vazifasi ta'lim beruvchiga topshiriq berish va uni tekshirishdan iborat bo'ladi); boshqa ta'lim oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyati cheklanganligi (bu ta'lim oluvchining yoki ta'limning ijtimoiylashishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi); jamoada ishlash tajribasini shakllanmasligi va shu kabilardan iboratdir.

Qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish natijasida XVI asrdan boshlab ta'limning **individual-guruhli** shakli paydo bo'ldi. Bu ta'lim turidan XVI asrga kelib Yevropada keng foydalana boshlandi. Markaziy Osiyo davlatlarida bu ta'lim turidan qadim davrlarda ham foydalanilganlar. Bunga Avesto davri misol bo'la oladi. Avesto davri jamiyatidagi maktablarda individual o'qitish jamoaviy o'qitish bilan birga olib borilar edi.

XI asrdayoq **Abu Ali ibn Sino** o'zining «Tadbiri manzil» nomli ilmiy asarining maxsus «Amuzish va parvarishi modrasas farzand» («Bolalarni maktabda o'qitish va tarbiyalash») bo'limida ta'lim oluvchilarga jamoaviy o'qitish haqida o'z fikrini bayon etgan.

Burhoniddin Zarnuji (XII asr) «**Bilim olish yo'lida o'quvchiga maslahatlar**» nomli o'zining ilmiy asarida dars olib borish bo'yicha tavsiyalar beradi. Mazkur ilmiy asar uning ko'p yillik dars o'tish tajribalari asosida yaratilgan va XX asrgacha o'ziga xos pedagogika darsligi sifatida Markaziy Osiyo madrasalarida foydalanib kelingan. Asarda maktabda dars taxminan bir soatlar davom etishi kerakligi yoziladi. Ta'lim beruvchi maktabda darsga tushunish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan o'quv materiallarini tanlab olishi, darsda o'rganiladigan materiallarni tushuntirib berish kerak. O'quv materialini shunday tanlash kerakki, u ikki marotaba takrorlanganda o'zlashtirilsin. Shuning uchun u katta matnlarni qismlarga bo'lish va boshqa darslarda uni albatta takrorlashni taklif etadi.

XV asrda jamoaviy o'qitishni tashkil etish g'oyasini Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek davom ettiradi. U o'zining madrasalarida individual mashg'ulotlar tizimini bekor qiladi va jamoaviy sinfdars tizimiga yaqin bo'lgan shaklni joriy qiladi. Umumiy ma'ruzani 50–70 nafar kishidan iborat katta guruhga odatda, o'z sohasida mashhur bo'lgan olim mudarris (o'qituvchi-professor) o'qiydi, amaliy mashg'ulotlarni esa 10–15 kishidan iborat kichik guruhga kichik mudarris (o'qituvchi) olib boradi.

XV–XVI asrlar davomida Yevropada ishlab chiqarishning rivojlanishi kuzatildi va uning natijasida ta'lim berishning **ommiy shakli** yuzaga keldi. Ulardan biri ta'lim oluvchilarni o'qitishning **guruhli (jamoaviy)** turi deb ataladi. Ular G'arbiy Rossiya (hozirgi Belarus va Ukrainaning g'arbiy qismlari)dagi birodarlik maktablari ilk bor qo'llanilgan va undagi o'qish sinfdars shaklining asosi bo'lgan. Bu tizimlar XVII asrda Yan Amos Komenskiy tomonidan «Buyuk didaktika» asarida nazariy jihatdan asoslab berildi va ommalashtirildi. Olim pedagogikaga **o'quv yili, o'quv kuni, dars mashg'ulotlari orasidagi tanaffus, o'quv ta'tillari** kabi tushunchalarini kiritgan.

**Sinf-dars** tizimi garchi 350 yil avval asoslangan bo'lsa-da, bugungi kunda ham keng ko'lamda iste'molda foydalanib kelinmoqda. Uning asosiy mazmuni o'quv ishlarini tashkil etishning o'ziga xos shakli sifatida quyidagilardan iborat bo'ladi:



• bir xil yoshdagi va taxminan bir xildagi tayyorgarlik darajasiga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar (o'quvchilar) **sinfni** tashkil etadi. Bu sinf maktabda o'qishning umumiy davriga asosan doimiy tartibini saqlab qoladi;

• sinf faoliyati yagona yillik reja va dastur asosida doimiy dars jadvali bo'yicha tashkil etiladi, buning natijasida bolalar maktabga yilning bir vaqti va oldindan belgilangan kun soatlarida kelishlari kerak bo'ladi;

• mashg'ulotlarning asosiy birligi dars hisoblanadi;

• dars odatda bir fan yoki mavzuga bog'ishlangan bo'ladi. shu bois, ta'lim oluvchilar sinfda bitta material ustida ishlaydilar;

• darsda ta'lim oluvchilarning ishiga (faoliyatiga) ta'lim beruvchi rahbarlik qiladi, u o'z fani bo'yicha o'qish natijalarini, har bir ta'lim oluvchining alohida bilimini baholaydi. O'quv yili oxirida pedagogik jamoa, ya'ni ta'lim beruvchilar xulosalari bo'yicha ta'lim oluvchini keyingi sinfga o'tishi haqida qaror qabul qilinadi.

**Sinf** – dars tizimi atoqli olim K.D.Ushinskiy tomonidan yanada rivojlantirildi. U bu shaklning hamma ustunliklarini ilmiy asoslab berdi. Dars, ayniqsa, uning tashkiliy qurilishi (tuzilishi) va tipologiyasining ixcham nazariyasini yaratdi.

K.D.Ushinskiy har bir darsning bir-biri bilan ketma-ket bog'langan quyidagi uchta qismini ajratib ko'rsatdi:

1. Ilgari o'rganilgan bilimlar asosida yangi bilimlarni anglashni amalga oshirish va ta'lim oluvchilarda materialni jadal qabul qilishga maqsadli ko'rsatmani yaratishga qaratilgan qism. K.D.Ushinskiyning fikricha, darsning bu qismi darsga go'yoki «eshik» hisoblanadi.

2. Asosiy masalani hal etishga yo'naltirilgan qism. Bu qism darsning muhim markaziy qismi hisoblanadi.

3. Amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasash va bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilgan qism. Bu qism darsning xulosalash va umumlashtirish qismi bo'lib hisoblanadi.

Darsni tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga yana bir ulug' olim A.Disterveg ham katta hissa qo'shdi. U ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning faoliyatiga taalluqli o'qitish tamoyillari va qoi-

dalari tizimini ishlab chiqdi hamda ta'lim oluvchilarning yosh imkoniyatlarini hisobga olishni zarurligini asoslab beradi.

Alohida o'quv fanlarini o'qitish metodikasi va didaktikasiga oid asarlarda ta'limning **sinf-dars** tizimining afzalliklari va kamchiliklari ko'rsatilib beriladi. Quyida ular to'g'risida to'xtalamiz.

### **I. Afzalliklari:**

- yaxlit o'quv-tarbiyaviy jarayonning tartibli (tizimli) ketishini ta'minlovchi aniq tashkiliy tizim;
- jarayonlarning oddiy boshqarilishi;
- muammoning jamoa bo'lib muhokama qilinishi, masalaning yechimini birgalikda izlash jarayonida ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro munosabatlarning shakllanish imkoniyati;
- ta'lim beruvchining ta'lim oluvchilar va ularning tarbiyasiga doimiy emotsional ta'sir ko'rsatishi;
- ta'limning emotsionalligi (zero. ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarning katta guruhi bilan ish olib boradi), o'quv faoliyatiga musobaqalashish elementlarini kiritish uchun sharoitning yaratilishi, bilimsizlikdan bilimlarni o'zlashtirish sari harakatlarning muntazamligi va izchilligi.

### **II. Kamchiliklari:**

- tizimning bilimlarni asosan o'rta darajada o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallanganligi, bo'sh o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilar uchun qiyinchiliklarning yuzaga kelishi va kuchli o'zlashtiruvchi ta'lim oluvchilarning qobiliyatlarining rivojlanish sur'atining ortga surilishi;
- ta'lim beruvchi uchun o'qitish mazmuni va o'qitish sur'atlari hamda metodlari bo'yicha individual ishlarni tashkil etish, shuningdek, ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi;
- katta va kichik yoshli ta'lim oluvchilar o'rtasidagi munosabatarning qaror topmasligi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida aqliy rivojlanishda farq bo'lgan a'lim oluvchilarni o'qitishda individuallashtirishga e'tibor qaratish nasalasi ayniqsa, dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shunga mos ravishda

ta'limning **tanlab o'qitish** shakli yuzaga keldi. Bu AQShda Batov va Yevropada Manncheyms tizimlarida yaqqol seziladi.

XX asr boshida Yevropa va AQShda ta'lim oluvchilarning individual, faol, mustaqil o'quv ishlarini ta'minlashga qaratilgan ko'plab ta'lim tizimlarining samaradorligi sinab ko'rilgan. Ular orasida 1905-yili Massachusetts shtatining Dalton shahrida o'qituvchi Yelena Park Xerst tomonidan birinchi bor qo'llanilgan **ta'limning individuallashtirilgan tizimi** e'tirof etilgan. Bu tizim **dalton-reja** nomi bilan pedagogikaga va maktab tarixiga kirdi. Bu ba'zan **laboratoriya yoki ustaxonalar tizimi** deb ham ataladi. Bu tizimning mazmun-mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'quv faoliyatining muvoffaqiyati maktabda ishlash sur'atining har bir ta'lim oluvchining imkoniyatlari, ularning qobiliyatlariga moslashtirilishiga bog'liq;

- ta'lim faoliyati uchun ustun turadigan o'qishni an'anaviy tashkil etish ta'lim oluvchining mustaqil o'quv faoliyatining markazi hisoblanishi;

- ta'lim beruvchi o'z vazifasini odob bilan bajarishi;

- sinf laboratoriyalarining ustaxonalar bilan almashtirilishi, o'qituvchining yangi materialni tushuntirmasligi, balki uni ta'lim oluvchining o'zi laboratoriya yoki ustaxonalarda ta'lim beruvchidan olingan topshiriq asosida mustaqil shug'ullanishlari va zarur bo'lgan paytlarda ta'lim beruvchidan yordam so'rashlari asosida o'zlashtirishi va shu kabilar.

XX asrning 20-yillarida maktab ishlari ilmiy-tadqiqot instituti **ta'limning loyihalı tizimini** targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kelpatrik ishlab chiqqan. Ta'limning bu tizimining mazmuni ta'lim oluvchilarning o'zlari loyiha ishlari mazmunini tanlab olishlaridan iborat. U mavjud haqiqiy hayot bilan bog'langan bo'lishi va o'quv guruhi iqtisoslashlariga qarab (yo'nalishlari) ijtimoiy-siyosiy, xo'jalik ishlab chiqarish yoki madaniy turmush tomonlarini aks ettirishi kerak bo'lgan.

XX asrning 60-yillarida **Trank rejasi** juda mashhur bo'lib ketdi. Uni amerikalik professor pedagog Lyuyd Trank ishlab chiqqan.


O'qitishning tashkil etishning bu shakli katta auditoriyalarda (100–150 odam) umumiy mashg'ulotlarni, 10–15 kishilik guruhlarda esa amaliy mashg'ulotlarni va ta'lim oluvchilarning individual ishlarini ham birgalikda olib borishni taklif etadi. Bunda turli xildagi texnik vositalardan foydalanib, umumiy ma'ruzalarni olib borishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi. Shuningdek, kichik guruhlardagi mashg'ulotlarga (amaliy mashg'ulotlar) esa o'quv vaqtining 20 foizini va kabinet yoki laboratoriyalarda individual mustaqil ishlarni bajarishga o'quv vaqtining 40 foizi ajratiladi.

XX asning 70-yillarida o'qishni tashkil etishning noan'anaviy shakllarini izlash davom ettirildi. Tajriba va sinov maktablarini izlash birinchi navbatda **sinf-dars** tizimini modernizatsiyalashtirish fikri bilan bog'liq bo'lgan. Izlanishlarning asosiy masalasi – o'qishni individuallashtirishdan iborat edi.

Birinchi universitetlar paydo bo'lishi bilan **ta'limning ma'ruza-seminar shakli yuzaga** kela boshlaydi. U yaratilgan paytdan beri mazkur tizim deyarli o'zgarmagan. Ma'ruza, seminar va laboratoriya ishlari, konsultatsiya va tanlagan kasbi bo'yicha amaliyot hozirgacha ma'ruza-seminar tizimi sifatida o'qishning asosiy shakllaridan biri bo'lib kelmoqda. Ma'ruza-seminar tizimi o'zining sof ko'rinishida oliy va oliy maktabdan keyingi ta'lim amaliyotida qo'llaniladi.

O'zbekistonda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tadbiq etilishi bilan ma'ruza-seminar tizimidan akademik litsey va kasb-hunar kollejarida ham ulardan foydalana boshlandi. Oxirgi paytlarda ma'ruza-seminar tizimi elementlaridan o'rta maktablarning katta sinflarida ham qo'llanila boshlandi.

Demak, qadim zamonlardan oq jamiyatning yetuk kishilari o'qitish ishini tashkil qilishning ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradigan shakllarini topishga uringanlar. Hozirgi vaqtda respublika ta'lim muassasalarida o'qitishning I-shakldagidek ko'rinishlaridan foydalanilmoqda.



1-shakl. Ta'limni tashkil etish shakllari.

Bugungi kunda darslarni tashkil etishga nisbatan quyidagi didaktik talablar qo'yilmoqda:

1. Darsning maqsadi va vazifalarining aniqligi hamda pedagogik jihatdan to'g'riligi.

2. Darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchanlik vazifalarining birligi va uzviyligi.

3. O'qitishning yaxlit dars va uning ma'lum qismlari, vazifalari hamda mazmuniga muvofiq keladigan ta'lim oluvchilarning bilish faolliklari va mustaqil faoliyatlarini ta'minlashga xizmat qiluvchi maqbul metodlarni tanlash.

4. Mashg'ulotlarning turli shakllari: jamoa, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini maqbul ravishda qo'shib olib borish.

5. Ta'lim beruvchining rahbarlik vazifasi bilan ta'lim oluvchining faol bilish faoliyatini birga olib borish.

6. Darslarning o'zaro uzviy va dialektik xususiyatga ega bo'lishiga erishish.

7. Ta'lim oluvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish.

8. Darsda ta'lim oluvchilarni o'qitish va tarbiyalash uchun qulay shart-sharoit yaratish.

9. Darslarni demokratik tamoyillar asosida tashkil etish.

10. Darsda ta'lim oluvchilar erkinligini ta'minlash.

#### **19.4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari (konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar)**

Darsda bilimlarning o'zlashtirilishi, malaka va ko'nikmalarning hosil qilinishi murakkab dinamik jarayondir. O'quv materialini o'rganishning turli vazifalari, yo'llari, usullari va vositalari vujudga keladi. Buning natijasida darsning juda ko'p turlari, uning har xil variantlari paydo bo'ladi.

Ayni vaqtda ta'lim tizimida eng ko'p qo'llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

2. O'tilgan materialni mustahkamlash darsi.

3. Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish darsi;

4. Takroriy-umumlashtiruvchi dars.

5. Aralash dars.

Muayyan dars turi asosida olib boriladigan mashg'ulotlarda ikkinchi, uchinchi bir dars turining qismlari bo'lishi mumkin. Misol uchun ta'lim muassasalarida eng qo'llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsida quyidagi holatlar amalga oshirishi mumkin:

- yangi bilimlarni bayon qilish;

- yangi bilimlarni mustahkamlash;

- yangi bilimlar ustida mashq o'tkazish;

- yangi bilimfarga bog'liq holda uyga vazifalarini topshirish va hokazo.

Demak, dars umumiy jarayon davomida bir dars turi asosida tashkil etilmaydi. Shunga qaramay darsning maqsadi ta'lim oluvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar ana

shunga bo'ysundiriladi. Shu sababli ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.


Muayyan dars turi bilan ish ko'rilayotganda boshqa bir dars turi unsurlarining asosiy dars tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Darsning tarkibiy tuzilishi u yoki bu dars turining umumiy holati, uning qismlari mohiyatini anglatadi.

Dars jarayonida qo'llanilayotgan har qanday didaktik usul dars tuzilishini ifodalashga har doim ham xizmat qilavermaydi. Didaktik usullar ta'lim metodi bilan baholangandagina dars tuzilishining o'zgarishiga, ta'lim metodlarining o'zgarishi ham dars tuzilishining o'zgarishiga olib keladi. Dars jarayonining muayyan qismida dars shakli hamda metodlarining o'zgarishi darsning yangi bosqichini boshlaganligini anglatadi.

Demak, dars tuzilishining biridan ikkinchisiga o'tishi va shu orqali darsning shakl va metodlarining o'zgarishi dars bosqichi deb yuritiladi.

Bu borada xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, turli darsning shakl va metodlari hamda ular negizidagi dars tuzilishlariga bevosita bog'liqdir. Quyida aralash dars turining tuzilishi haqidagi ko'rinishni keltiramiz (1.1-shakl).

**Umumlashtiruvchi dars** – bu o'quv dasturining ma'lum bir qismi (bob, bo'lim yoki ayrim mavzu) o'tib bo'lganidan keyin o'tiladigan dars mashg'uloti.



1-shakl. Aralash dars turining tarkibiy-tashkiliy tuzilishi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ba'zi o'quv materiallarining ma'lum qismi yoki yirik mavzuni boshlashdan avval kirish dars ham olib boriladi. Bunday darslar, odatda, ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tkaziladi.

Hozirda yakka tartibda ta'lim olishning asosiy ko'rinishlaridan biri sifatida repetitorlik ta'limi keng tarqalmoqda.

**Ma'ruza.** Bugungi kunda zamonaviy o'quv muassasalari faoliyatida o'qitish shakllaridan biri bo'lish ma'ruzadan foydalanish keng tarqalgan.

Maktab amaliyotida ma'ruzaning quyidagi turlaridan keng foydalanilmoqda:

- ma'ruza-hikoya;
- ma'ruza-suhbat;
- ma'ruza-munozara;
- ommaviy ma'ruza.

**Fakultativ mashg'ulotlar** – bu ta'lim oluvchining qiziqish va xohishlariga ko'ra muayyan fan, predmet yuzasidan beriladigan ilmiy-nazariy bilimlarni chuqurlashtirish, ularda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lim shaklidir. Fakultativ mashg'ulotlar ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini oshirishga va ijtimoiy faoliyatini faollashtirishga, aqliy qobiliyatlarini takomillashtirishga xizmat qiladigan maxsus dastur asosida o'tkaziladi.

**Seminar mashg'ulotlari.** Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi predmetlar bo'yicha seminar mashg'ulotlarini tashkil qilish keng qo'llaniladi. Seminar mashg'ulotlarini tashkil etishdan asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini yanada rivojlantirish, ayrim mavzular yuzasidan keng va chuqur ma'lumot bera oladigan manbalar ustida ishlay olishlari hamda shu asosda kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida zarur adabiyotlardan foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega qilishdan iboratdir.

Seminar mashg'uloti ta'lim beruvchi rahbarligida o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi ta'lim oluvchilar faoliyatini mashg'ulot maqsadiga yo'naltirib turadi, mavzuga oid savollar yuzasidan tashkil etilgan



muhokamani xulosalaydi. Zarur qo'shimcha mulohazalar bildiradi, materialni muayyan tizimga soladi. Seminar darsida faol qatnashgan ta'lim oluvchilar baholanib boriladi.


**Ekskursiyalar.** Noan'anaviy dars shakllaridan biri hisoblangan ekskursiyalar sinf-dars tizimi, shuningdek, amaliy mashg'ulotlardan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ta'lim oluvchi rejalashtirilgan va o'tkaziladigan barcha ekskursiyalarga rahbarlik qilsa ham, u ekskursiya obyektlarining barcha detal-larini yaxshi bilmasligi mumkin, bunday hollarda maxsus tayyorgar-likka ega bo'lgan ekskursovod ish olib boradi;

- ekskurtsiya muddati turlicha bo'lib, unda doimiy o'quv jadvali talablariga amal qilish mas'uliyati mavjud;


- ta'lim beruvchi yoki ekskursovodning rahbarlik usuli va ta'lim oluvchilar faoliyati turlicha bo'lishi mumkin.

Ekskursiyalar quyidagidek to'rt yo'nalishda uyushtiriladi (2-shakl).



2-shakl. Ekskursiyani uyushtirish yo'nalishlari.

Ekskursiya jarayonlari quyidagi tarkibiy tuzilishlarga ega (3-shakl).



3-shakl. Ekskursiyaning tarkibiy tuzilishi.

Ekskursiya davomida ta'lim oluvchilardan intizomga qat'iy rioya qilish talab etiladi.

Ta'limning noan'anaviy shakli sifatida tashkil etiladigan bahsmunozara, davra suhbat, matbuot konferensiyasi, telekonferensiyalar muayyan predmet (yo'nalish)ning muhim mavzulari yuzasidan tashkil etilib, ular ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini ilgari surish, uni asoslash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bu kabi darslarning tashkil etilishida maqsadning aniqligi, shuningdek, ta'lim oluvchining faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

«Viktorina», «Mo'jizalar maydoni», «Zakovat» va shu kabi shaklda o'tkazilayotgan darslar bellashuv xususiyatiga ega bo'lib, ular ta'lim oluvchilarni faollikka undaydi.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalarga asoslanib quyidagi xulosani keltirish mumkin:

- ta'limning shakli muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan faoliyatning tashqi ifodasi bo'lib, ta'lim jarayonida yetakchi o'rin tutadi;

- ta'lim jarayonini samarasini ta'minlash uchun ta'lim metodlaridan o'rinli va unumli foydalanishga bog'liq;

- ta'lim metodi ta'lim jarayonida ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning aniq maqsadga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyatlarining usullari hisoblanadi;

- ta'lim vositalari ta'lim metodlarining ta'limiy ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

## **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. *Ilyustrativ ta'lim turining mazmun-mohiyati qanday didaktik asoslarga tayanadi?*
2. *Muammoli ta'limning asosiy maqsadi nimalardan iborat?*
3. *Dasturlashtirilgan ta'limning asoschisi kim?*
4. *Ta'lim qaysi asoslarga tayanib tashkil etiladi?*
5. *Ma'ruzadan ko'zlangan maqsad nima?*
6. *Seminarning maqsadi nimani ko'zlaydi?*
7. *Ekskursiya yo'nalishlari qaysi asoslarga tayanib belgilanadi?*
8. *Praktikumlar turlarini sanab bering.*
9. *Suqrotona suhbatning mazmunini gapirib bering.*
10. *Kompyuterli o'qitish deganda nimani tushunasiz?*
11. *Dars jarayonida ta'lim turlariga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Bu orqali ta'limiy afzalliklar qo'lga kiritiladi, aks holda samarasiz ta'lim jarayoni yuzaga kelib qoladi.*
12. *Ta'limni tashkil etishda ta'lim metodi, vositalari va ularga mos tegishli didaktik materiallarni oldindan rejalashtirib, tayyorlab olish zarur. Bu orqali ta'lim berishning optimal variantlaridan biri qo'lga kiritiladi.*
13. *Dars-ta'lim tizimini mazmunini doimiy modernizatsiya qilib borishga e'tibor berish kerak. Bu innovatsion ta'lim texnologiyasini yaratishning asosini tashkil etadi.*
14. *Kompyuterli o'qitish texnologiyasiga ahamiyat berish kerak. U orqali ta'lim oluvchilarga xohlaganicha hajmdagi ma'lumot berish mumkin va xotirada ham saqlashga keng imkoniyatlar yaratiladi.*

## **Test topshiriqlari**

### **1. Noan'anaviy ta'lim shakliga nimalar kiradi?**

A) Kirish darslari, bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish darslar

B) Yangi bilimlarni bayon qilish darsi va takrorlash darslari

D) Ma'ruza, fakultativ, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, ekskursiya, bahs-munozara, davra stoli, viktorina va hokazo

E) Hamma javoblar to'g'ri

2. «Sinf-dars tizimi»ning asoschisi kim?

A) Avloniy

B) Hamza

D) Komenskiy

E) Shakuriy

3. Ta'limni tashkil etish shakllari qaysi variant javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) An'anaviy ta'lim, noan'anaviy ta'lim, yakka tartibdagi ta'lim

B) Yakka tartibdagi ta'lim, repetitorlik ta'lim, fakultativ ta'lim

D) Ekskursiya, ma'ruza, viktorina

E) Hamma javoblar to'g'ri

4. «Darsning boshlanishini tashkil etish uy vazifasini tekshirish, darsning maqsadi va vazifalarini bayon qilish, yangi materiallarni tushuntirish, mustahkamlash, darsga yakun yasash va uyga vazifa berish» tuzilishidagi darsning tipini ko'rsating?

A) Kombinatsion (aralash) dars

B) Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash darsi

D) Yangi bilimlarni o'rganish darsi

E) Umumiyashtirish darsi

5. Sinf-dars tizimining tashkiliy shakllari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

A) O'quvchilarning yoshi, iqtidorini hisobga olish

B) O'qituvchi rahbarligi, vaqtning chegaralanganligini hisobga olish

D) Qat'iy jadvalning mavjudligi

E) Hammasi to'g'ri

6. Ta'lim funksiyalari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) Bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish

B) O'quv fanlari mazmunini o'zlashtirib olish

D) Bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish

E) Tevarak-atrofdagi voqealarni tushuntirish

**7. Pedagogik tajriba tashkil etilish sharoitiga ko'ra qaysi guruhlarga bo'linadi?**

- A) Matematik-statistik, evristik, innovatsion tajriba
- B) Tabiiy tajriba, laboratoriya tajribasi, tajriba ishi
- D) Bolalarni ijodini o'rganish, statistika va boshqalar
- E) Laboratoriya tajribasi, amaliy tajribasi, anketa-sinov tajribasi

**8. Pedagogika fani oldida turgan vazifalardan biri ...**

- A) Hamkorlik pedagogikasi asoslarini yaratish
- B) Avtoritar pedagogika asoslarini yaratish
- D) Milliy pedagogika asoslarini yaratish
- E) Hamkorlik pedagogikasi va milliy pedagogika asoslarini yaratish

**9. Didaktikaning asosiy kategoriyalari ...**

- A) Ta'lim berish, tarbiyalash, rivojlantirish
- B) Dars o'tish, bilim berish, o'qitish, malaka, ko'nikma, shakl, metod, vosita, natijalar
- D) Bilim, ko'nikma, malaka
- E) Rivojlantirish, mustahkamlash, takrorlash

**10. Ta'lim nazariyasining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?**

- A) Ta'lim jarayonining mohiyati, ta'lim mazmuni, ta'lim tamoyillari, metodlari, shakllari va vositalari
- B) Bilim, ko'nikma, malaka, iroda, faoliyat turlari
- D) Ta'lim mazmuni, dars janri
- E) Ta'lim-tarbiya mazmunini ifodalovchi barcha qonun-qoidalar

Barkamollikka erishgan odam barcha jonzotlardan yuqori turadi, ammo agar u qonunlar va adolatga bo'y-sunmay yashasa, hammasidan tubandir.

*Arastu*

**20-MAVZU. O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRGAN  
BILIMLARI, BILIM NATIJALARINI TEKSHIRISH VA  
TASHXIS QILISH – DIDAKTIK TUSHUNCHA SIFATIDA,  
UNING VAZIFALARI<sup>3</sup>**

**Reja:**

1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga qo'yilgan talablar.
2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi.
3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli.
4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar.

**Mavzuning maqsadi:**

ta'lim oluvchilarni o'z bilimlarini tashxis qilish orqali o'z intellektual salohiyatlarini bashorat qilish va o'z-o'zini boshqarishga o'rgatish.

**Mavzuning vazifalari:**

1. Ta'limni o'zlashtirish natijasi nima uchun kerakligini asoslash va u orqali ta'limda rejalashtirishning zaruriyligini bayon qilish.
2. Baholash mezonlari va ulardan amaliyotda foydalanishning ahamiyatini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
3. Ta'lim natijalarini rasmiylashtirish jarayonidagi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining uyg'unligini yoritish.

<sup>3</sup> Mazkur mavzuni tayyorlashda J.Hasanboyev., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. «Pedagogika» o'quv qo'llanmadan foydalanildi. –Toshkent: «Fan», 2006. 282-b.

4. Ta'lim natijalarini hisobga olishda reyting tizimining joriy etilishini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.

5. Ta'lim natijalarini baholash mezonlari va ularning amaliy ahamiyatlarini baholashni ta'lim oluvchilarga o'rgatish.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:** bilim, o'zlashtirilgan bilimlar, baholash, mezon, test, boshqarish, ta'lim natijalari.

### **20.1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga quyilgan talablar**

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim oluvchilarning bilimlarini nazorat qilish o'ta muhimdir. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida egallanishi lozim bo'lgan nazariy materiallar bo'yicha olinayotgan bilimlarni yanada mukammallashtirish va eng asosiysi ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatlarini yuksaltirish uchun turli vositalarni tanlash imkoni vujudga keladi.

**Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari** – o'rganilayotgan fan (mavzu) bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasi (bilimlar banki)dan ta'lim beruvchi tomonidan tayyorlangan (tuzilgan) topshiriqlar, savollar, test-savollar va shu kabilar va ulardan foydalanish vositalaridir. Bunday jarayonlarda natijalarni o'zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natijalarni o'zlashtirish** – bu olingan natijalarni amaliy o'zlashtirishga tayyorlash jarayonidan, ya'ni iste'mol uchun tayyorlashdan iboratdir. Bunda ta'lim beruvchi ishtiroki muhim rol o'ynaydi, chunki kerak bo'lganda ayrim zaruriy tuzatishlar kiritish har kimning ham qo'lidan kelavermaydi.

Umuman olganda ta'lim-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat quyidagi funksiyalarga ega:

1) Nazoratning diagnostik funksiyasi. Nazorat natijasi orqali bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

2) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini o'stirish funksiyasi.

3) Nazorat jarayonida ta'lim oluvchilarning shaxsiy jihatlari shakllantiriladi va eng asosiysi, rivojlantiriladi.

4) Ta'lim funksiyasi.

5) Nazoratning tarbiyaviy funksiyasi.

6) Nazoratning baholash funksiyasi.

7) Nazoratning ta'lim oluvchilardagi bilimga qiziqishni uyg'otish, jonli fikrlashga o'rgatuvchilik funksiyasi.

Ma'lumki, nazorat asosan uch turga bo'linadi, ular: joriy nazorat, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlardir. Bulardan tashqari so'nggi nazorat turi ham bor.

Nazorat testlar, yozma ishlar va og'zaki savol-javoblar orqali amalga oshiriladi. Pedagog olimlar I.Tursunov va U.Nishonaliyevlarning ma'lumotlariga qaraganda testlar orqali quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarining darajasini obyektiv sharoitda aniqlash;

- bir vaqtning o'zida bir guruh yoki ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish;

- hamma ta'lim oluvchilarda bir xil sharoit yaratish;

- test natijalarini ta'lim beruvchi tomonidan tezkorlik bilan (operativ) tekshirish;

- turli guruhdagi ta'lim oluvchilar bilimini solishtirish;

- ta'lim jarayonida uchraydigan kamchiliklarni aniqlash va boshqalar.

Ta'lim natijalarini baholashda reyting tizimining test usuli keyingi paytlarda iste'molda keng foydalanilmoqda.

**Test** – biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqdir. Test to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi.

Umuman olganda, **test** so'zi inglizchadan olingan bo'lib, u sinov, tekshirish, tadqiqot ma'nolarini bildiradi, ya'ni «sinalayotgan shaxsning psixo-xususiyatlarini, shuningdek, intellektual rivoji, qobiliyati va malakasini tekshirishda qo'llaniladigan standart mashqlar».



demakdir. Pedagogik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish natijasida didaktik testlar quyidagi ikki guruhga ajratiladi:

- nazariy bilimlarni nazorat qiluvchi, malaka va qobiliyatlarni tekshiruvchi o'zlashtirish testlari:

- real o'quv imkoniyatlari bo'yicha (Yu.Babanskiy) diagnostika testlari hamda umumiy va maxsus (masalan, mikro yoki makro iqtisodiyot fani va boshqa fanlar bo'yicha) o'qitish testlari.

### **1. Testlarning fanlararo qo'llanish sohasi.**

a) oraliq nazorat testlarida mavzular, boblar bo'yicha bilim va o'zlashtirish elementlarini tekshirish;

b) ko'p mavzular bo'yicha fanlarning bir-biriga bog'liqligini hisobga olgan holda bilim va o'zlashtirishning chegaraviy nazoratini hisobga olish;

g) butun kurs bo'yicha bilimlarni nazorat qilish (test asosida fanlararo turkum testlarni ham yaratish mumkin).

Bu holatlarning har birida fan topshiriqlarining quyidagi savollari har xil qo'yiladi: marketing-moliya; menejment; soliqlar kabi integrativ bilimlar va hokazo.

**2. Me'yoriy test tuzishning umumiy yo'nalishi bo'yicha maqsadli yoki kriterial (mezonli) xarakterdagi testlarda yig'ilgan ballar hisob natijalariga ko'ra, bir guruhni boshqa guruh bilan, guruh ichidagilarni esa bir-biri bilan solishtirish mumkin.**

**Mezonli testlarda** esa har bir ta'lim oluvchining qandaydir o'quv yoki mutaxassislikka oid topshiriqlarini yechish uchun zarur bo'ladigan bilim va o'zlashtirish qobiliyatlari ochib beriladi, ya'ni mezonli testlar va unga mos topshiriqlar ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalari aniq fan sohalari bo'yicha o'qitish maqsadining minimal talablariga qay darajada erishgani yoki erishmaganligi haqidagi savollarga javob beradi.

**Me'yoriy testlarda**, asosan topshiriqni «yechdi» yoki «yechmadi» deb belgilansa, mezonli testlarda esa topshiriqni qaysidir yo'l bilan yechgan ta'lim oluvchilarni murakkab ishlarga qo'yish mumkinligi, ularning murakkab dasturlar bo'yicha ishni davom ettira olishligi hisobga olinishi kerak.

### **Me'yoriy testlar quyidagi afzalliklarga ega:**

- test savollari ko'pgina qobiliyatlarni tekshirishni ko'zda tutadi;
- ta'lim oluvchilarning katta miqdordagi murakkab materialni turli yo'llar bilan o'rganganlarida erishgan umumiy darajasini aniqlashda foydali;
- eng iqtidorli ta'lim oluvchilarni tanlab olish imkoniyatini beradi.

Me'yoriy testlarning kamchiligi ta'lim oluvchi keyingi bosqichga o'tishga qay darajada tayyor ekanligini belgilab bermasligida ko'zga tashlanadi.

Mezonlarga ko'ra testdan o'tkazishda natijalar o'zgarmas, *doimiy standartlar* bilan solishtiriladi. Masalan, haydovchilik guvohnomasini berish uchun talabgorning bilimi mavjud standart bilan solishtirilishi kerak. Uni boshqa soha xodimining qobiliyatlari bilan solishtirib bo'lmaydi.

Standartlashtirilgan testlar ma'lum standart ta'blari qo'yilgan dastur asosida tuzilib, ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakasini aniqlashga mo'ljallanadi. Ularning erishilgan darajani, qobiliyatlarni (qiziqishlarni ham) aniqlovchi hamda tashxislovchi turlari mavjud.

Erishilgan darajani aniqlovchi testlar ta'lim oluvchi ma'lum sohada o'zlashtirgan bilimlar miqdorini o'lchaydigan standartlashtirilgan testlardir. Bu kabi testlarni butun guruhga yoki individual ravishda ishlatish, natijalarni hisoblashda turlicha ball tizimi qo'llanilishi mumkin.

Tashxislovchi testlar ta'limdagi muammolarni belgilab olish uchun individual ravishda qo'llaniladi.

3) Testlarning didaktik-psixologik yo'nalishi qanday test ishlab chiqarayotganligi yoki adaptatsiyasidan o'tayotgan testni uning muallifi qanday xarakterlashni aniqlaydi:

- a) nazariy bilimlarni nazorat qilish uchun o'zlashtirish testlari;
- b) berilgan fan (o'quv va mutaxassislik) bo'yicha bilim va malakalarni nazorat qilish testlari;
- d) o'qitish testlari (ma'lum fan yoki uning sikli bo'yicha o'quv imkoniyatlarning diagnostikasi).

#### **4) Nazorat bosqichlari bo'yicha yo'nalish:**

a) kirish nazorati (oliy o'quv yurtiga kirishdagi yoki kursni, fan bo'limini va o'qitish bosqichining boshlanishidagi nazorat);

b) kundalik (joriy) nazorat – bu har kuni amalga oshiriladigan yoki o'quv jarayoni mavzulari bo'yicha o'tkaziladigan nazorat;

d) oraliq nazorat – bu muayyan fanning alohida bo'lishi tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat;

e) yakuniy nazorat – bu ma'lum kurs (fan)ning tugashi munosabati bilan o'tkaziladigan nazorat.

#### **5) Testlashtirishning diagnostik (tashxislanganlik) darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad:**

a) **simptomatik diagnostikaga**, ya'ni bilim va o'zlashtirishning «yuqori qatlamlariga» qaratilishi (ya'ni, ma'lum qonuniyat yoki formulalarni bilish, bilmasligi yoki tanish-notanishligi va boshqalar);

b) **etilogiya diagnostikaga**, tekshiruv-aloqa sababi (nima uchun aynan o'sha bilimlarni bilmasligi va buning qay darajada boshqa bilimlarni bilishga bog'liqligi)ga qaratilishi;

d) **tipologiya diagnostikada** esa ta'lim oluvchining o'tilayotgan dars va bilimlarni bilishga, o'zlashtirish va uddalay olishida qanday g'oyalarni kuchaytirish kerakligiga qaratilgan bo'ladi.

**6) Sinaluvchining testni bajarish faolligini oshirishga esa** yozma va og'zaki testlarga mos ravishda yozma va og'zaki javoblarni qo'llash. Masalan, harakat testlarida, ayniqsa, kompyuter tugmachalarini bosishdan tortib, dasturlar yoki qism dasturlarni chiqarishgacha hamda hisoblash ishlarini o'tkazish va grafiklarni chizish, loyihashtirish kabilarda. Harakat testlari o'qish yoki ishlash qurilmalarida mashq (trenajerlarda) testlarini mutaxassislik bo'yicha o'qitish tizimlariga kiritish mumkin.

**7) Testning gomogenlik darajasi** (bir jinslik) testni tuzuvchi muallif tomonidan rejalashtirilgan bo'ladi. Shu jumladan:

a) ko'zlangan maqsadga qarab testning nimani tekshirish kerakligi, ayniqsa, integrativ xarakterdagi asosiy elementlar ichidan (masalan, ma'lum amallarning talab qilingan darajada yoki shu amallarni bajarishda sifat, miqdor, tezlik, ketma-ketlik, javobgarlik kabi bir qancha) asosiy omillarni hisobga olish;

b) shakllantirilgan testda topshiriqlar tuzilishi shaklining bir jinsligi (gomogenligi) yoki turli shaklda bo'lishligi.

8) **Vaqt omili – testning tezkor bo'lishi**, topshiriqlarning funksional ravishda ma'lum belgilangan vaqtda bajarish zarurligi: qaysi yo'l bilan, nimaga asoslanib vaqtni, baholash vaqtining sarflanish chegarasi belgilangan bo'lishi.

9) **Testlashtirishni tashkil etish usullariga esa umumiy, individual yoki juda kam qo'llaniladigan, lekin juda samarali hisoblangan alohida usuli ham tekshiriluvchilarning tashxischi bilan yuzma-yuz, xolis (testlashtirishning EHM vositalaridagi individual dasturning zamonaviy varianti) turishi kabilar kiradi.**

## **20.2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'rsida»gi Nizomda shunday deb ta'kidlanadi: «Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarining fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

- talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

- fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalarida samarali foydalanishni tashkil etish;

- talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;
- talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorligini ta'minlash;
- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish».

**Nazorat** (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

**Tekshirish** – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didaktik vazifasi ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlash, ta'lim beruvchi tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida obyektiv axborot olinishi hamda bilimlardagi kamchilik va nuqsionlarni o'z vaqtida aniqlashdir.

Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish quyida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib boriladi: ta'lim oluvchilarning bilim darajasini **oldindan aniqlash**; mavzuni o'zlashtirishni **joriy tekshirish**; bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligining **takroriy tekshirish**; yaxlit bo'lib yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha **davriy tekshirish**; ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini **yakuniy tekshirish va hisobga olish**.

### 20.3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli

**Ta'lim olganlikni tashxis etishning mohiyati**<sup>4</sup>. Tashxis – bu didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilash demakdir. Tashxissiz didaktik jarayonni samarali boshqarish, mavjud sharoit uchun optimal natijalarga erishish mumkin emas. Bunga sabab ta'lim olganlikni tashxislash orqali erishilgan natijalar va ta'lim olganlik ajratib olinadi.

<sup>4</sup> Ushbu mavzu mohiyatini ochib berishda I.P.Podlasiy qarashlaridan foydalanildi (Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. 1. Москва, Владос, 2001).

Tashxislash, nazorat, tekshirish, baholash, statistik ma'lumotlar to'plash, ularni tahlil qilish, dinamika, tendensiyalarni (an'analarni) aniqlash, voqealarning keyingi rivojini taxminlashni o'z ichiga oladi.

Olimlarning ta'kidlashicha, demokratlashgan ta'lim tizimida yuzaki (formal) nazorat bo'lmasligi lozim. Didaktik nazorat o'qitishning o'ziga xos metodi sifatida aniq ifodalangan ta'lim beruvchi, rivojlan-tiruvchi yo'nalganlikka ega bo'lishi, o'z-o'zi bilan nazorat qilish bilan birlashishi, eng avvalo, ta'lim oluvchining o'zi uchun zarur va foyda-li bo'lishi lozim.

### **Ta'lim olganlikni nazorat qilish va tashxislash tamoyillari**

Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilish tamoyillarining tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan eng muhimlari xolis (obyektiv)lik, tizimli (sistemali)lik, ko'rgazmali (oshkora)lik sanaladi. *Xolis (obyektiv)lik* tashxis test (topshiriq, savol)-lari, tashxis jarayoni mazmunining ilmiy asoslanganligi, pedagogning barcha ta'lim oluvchilarga do'stona munosabati hamda bilim, malakalarni baholashning aniq ko'rinishda belgilangan mezonlaridan iborat.

*Tizimli (sistemali)lik* tamoyilining talabi shundan iboratki, tash-xislash nazoratini ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida – bilimlar-ni boshlang'ich idrok etishdan to amalda qo'llashgacha bo'lgan bos-qichlarida olib borish kerak.

*Ko'rgazmali (oshkora)lik* tamoyili avvalo barcha ta'lim oluv-chilarni aynan bir xil mezonlar bo'yicha ochiq sinovdan o'tka-zishni anglatadi. Tashxis jarayonida belgilanadigan har bir ta'lim oluvchi reytingi ko'rgazmali, qiyosiy xarakterga ega. Oshkoralik tamoyili, shuningdek, baholarni e'lon qilish va motivatsiyalash-ni talab etadi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foy-dalanilmoqda. Reyting deganda baholash, tartibga keltirish, klassifi-katsiyalash (tizimlashtirish, sinflash), bironta hodisani oldindan belgi-langani shkala bo'yicha baholash tushuniladi. Reyting nazorati ta'lim oluvchining ma'lum bir fandan reytingini aniqlaydi.

**Shkalalash** – aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida model-lashtirish.

Reyting nazoratida ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatini nazorat qilishning yuqorida keltirilgan metodlari bilan birga test usulidan ham samarali foydalanilmoqda.

Pedagogik amaliyotda testning bir qator afzalliklari ko'zga tashlanadi. Ular quyidagilardir:

- nazorat uchun vaqtning kam sarflanishi;
- nazariy va amaliy bilim darajasini obyektiv sharoitda aniqlash imkonining mavjudligi;
- bir vaqtning o'zida ko'p sonli ta'lim oluvchilar bilan nazoratni tashkil etish mumkinligi;
- bilim natijalarining ta'lim beruvchi tomonidan qisqa muddatda tekshirilishi;
- barcha ta'lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi sayollar berilib, ular uchun bir xil sharoitning yaratilishi.

#### 20.4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifatida) va baho (natija sifatida)ni ham oladi. **Baholash** deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'lichagich)lar bilan solishtirishni ayta-miz. **Baho** deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchanishiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari, xotiralash belgilari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi. Har bir baholovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmastik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholash harflarda (A, B, C, D va hokazo) ifodalanadi.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'riflash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi

$$B = \frac{A}{T} \cdot 100 \%$$

nisbat asosida hisoblanadi.

Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100 % – axborotni to'liq o'zlashtirish va 0 % – uning umuman mavjud emasligi o'rtasida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funksiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy motivatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vositasi. Aynan xolis (obyektiv) baholash ta'sirida, ta'lim oluvchilarda adekvat o'z-o'zini baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. Shu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi ta'lim oluvchilar o'quv faoliyatlarining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

To'g'ri tashkil etilgan hisobga olish natijasida ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini takomillashtirishga intilishini yuzaga keltiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi.

Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish natijalarini hisobga olishda quyidagilarga e'tiborini qaratishi lozim:

- o'quv dasturi asosida mavzu va bo'limni o'rganishda ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini har tomonlama nazorat qilish;



- har bir yakunlangan mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilarning faoliyati to'g'risida to'liq xulosa chiqarish;

- o'rtacha arifmetik ma'lumotlarga tayanibgina ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasini baholamaslik;

- ta'lim oluvchilarning mavjud bilimlariga aniq, batafsil ma'lumot (tavsif) berish uchun ularning bir necha o'quv yilidagi statistik o'zlashtirish ma'lumotlarga asoslanib tahlil etish.

Demak, o'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olish nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi.

**Nazorat qilish** vazifasi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalar darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi hamda ta'lim beruvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi.

**O'qitish vazifasi** ta'lim oluvchilarning bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda ta'lim oluvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki, guruhdagi boshqa ta'lim oluvchilar javob berayotgan ta'lim oluvchining fikrini diqqat bilan tinglashadi va avval egallagan bilimlarini mustahkamlab, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning **tarbiyaviy vazifasi** shundan iboratki, ta'lim oluvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axloqiy sifatlarni tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning **rivojlantiruvchi vazifasi** sanaladi.

**Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini baho-**

**lash turlari va mezonlari.** Ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari hamma vaqt bahstalab mavzu bo'lib kelgan. Chunki u turli adabiyotlarda turlicha yoritilgan. Biroq mavjud qarashlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsad va vazifalariga, shuningdek, guruhdagi ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda belgilanadi.

Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2010-yil 25-avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom»iga oid nazorat turlari quyidagicha:

- Joriy nazorat (JN);
- Oraliq nazorat (ON);
- Yakuniy nazorat (YaN).

Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek, joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugullanganidan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p o'tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha naza-

riy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat, asosan, tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan «Yozma ish» (tibbiy oliy ta'lim muassasalari uchun «Yozma ish» yoki OTKS (obyektiv tizimlashtirilgan klinik sinov) shaklida o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko'pi bilan 40 % fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og'zaki, test, himoya va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

Talabaning fan bo'yicha mustaqil ishi JN, ON hamda YaN turlarida baholanadi.

Talabalarning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

Har bir fan bo'yicha talabaning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda butun sonlar bilan baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YaN – 30 ball; JN va ON – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlariga taqsimlanadi).

Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar tavsiya etiladi:

86–100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- xulosa va qaror qabul qilish;
- ijodiy fikrlay olish;
- mustaqil mushohada yurita olish;
- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

71–85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mustaqil mushohada yurita olish;
- olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

55–70 ball uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- mohiyatini tushunish;
- bilish, aytib berish;
- tasavvurga ega bo'lish.

Quyidagi hollarda talabning bilim darajasi (qoniqarsiz) 0–54 ball bilan baholanishi mumkin:

- aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
- bilmaslik.

Shuningdek, 86–100 ball – «a'lo», 71–85 ball – «yaxshi», 55–70 ball – «qoniqarli», 0–54 ball – «qoniqarsiz» baho deb baholanadi.

Talabning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi:

$$R_f = \frac{V \cdot O}{100}$$

bu yerda:

$V$  – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlar-da);

$O$  – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi, aksincha, 55 va undan yuqori ballni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi.

Biz barcha uchun umumiy bo'lgan quyidagi amallarni talabalar bilan bajarishni tavsiya etamiz:

- fan o'qituvchisi semestr davomida o'qitiladigan fanni soatlar taqsimotini aniq bilish lozim;
- talabalarga birinchi mashg'ulotdayoq baholash turlariga daxldor ballar miqdorini berishi shart;
- JN har bir juftligiga beriladigan ball miqdori talabning quyida-

gi harakatlari uchun beriladi: mashg'ulotga qatnashish va faol ishtiroki; topshirilgan topshiriqni bajarilganlik darajasi; daftar tutishi va imloviy xatolarga e'tibor qaratilishi, olingan natijalarni ilmiy va izchil asoslay olishi, hozirjavobligi, topqirligi va ijodiy fikrlar bilan qatnashishi;

- Oraliq nazoratga ajratilgan ball miqdorini talaba darsga doimiy faol qatnashishi hamda bosqichlarda bajaradigan ishlarning natijasiga ko'ra to'playdi. ONda bajariladigan ishlar: savolnomalarga yozma javob berish, test savollarini yechish, alohida bob yoki mavzularni mustaqil ish tarzida test savollari, boshqotirmalari yoki rebuslar tuzish, ayrim mavzulardan referatlar yozish yoki mavzulardan og'zaki savol-javob qilish kabilardir.

- YaNga Nizom bo'yicha ajratilgan 30 ballga moslab, semestr oxirida mustaqil ish topshiradi hamda tayanch tushunchalarga asoslangan variantlar tuzilib, talaba o'z variantiga javob tarzida «yozma ish» yozadi. YaNdagi ballar miqdori yozma ishning quyidagi holatlari uchun beriladi: variant savollariga yozilgan javobning mukammalligi, talabaning savodli va ilmiy tilda bayon etishdagi e'tibori, fikr-mulohazalarining asosli va mantiqli ekanligi, daftarni tutish va jihozlash tartibiga rioya qilinganligi, xulosalar va foydalanilgan adabiyotlarni keltirilishi kabilardir.

Umuman, reyting tizimi quyidagicha vazifalarni bajarishga qaratilganligini unutmashimiz lozim:

- fanning talaba tomonidan tizimli tarzda belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil qilish;
- talaba o'zlashtirishini muntazam baholab borish;
- talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot manbalardan samarali foydalanishni tashkil etish;
- talabaning bilimni adolatli va aniq baholash;
- baholash natijalarini muntazam ma'lum qilish va tahlil qilish;
- professor-o'qituvchilarning har bir darsga va baholash jarayoniga mas'uliyatini oshirish;
- o'quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

Yuqorida keltirganlirimizdan ko'rinadiki, bilimga baho qo'yish bitta mashg'ulotning barcha qismlariga singib ketishi bilan birga, butun fanning mazmunidan ham xabardor bo'lishni taqozo etadi. Bu esa ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi doimiy ijodiy munosabatni amalga oshirishni talab etadi. Ular o'tilgan materiallarni qaytarish, yangi materiallarni tushunish uchun zamin ekanligini tushunib yetadilar. barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishga faollik ko'rsata boshlaydilar. Talabalarni JN, ON va YaNlar bilan baholar ekanmiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz lozim. Chunki, fan ta'lim beruvchisi talabalarning semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq hisobga olib bormasa va natijaviy balini chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, ulardr qo'yilgan bahoning to'g'riligiga shubha tug'ilishi mumkin.

#### **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

- 1. Ta'lim jarayonlarini tekshirishning baholash jarayonlariga ta'siri haqidagi amaliy-ta'limiy faoliyatlardan misollar keltirib va ular orasidagi uyg'unlikka e'tibor berishning ta'limiy afzalliklaridan sanab bering.*
- 2. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha referat tayyorlang.*
- 3. Nazorat funksiyalarini sanab bering va ulardan amaliyotda foydalanish bo'yicha tavsiyanomalar tayyorlang.*
- 4. Didaktik testlarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida referat tayyorlang.*
- 5. Me'yoriy va mezonli testlarning qo'llanilish sohalari to'g'risida referat tayyorlang.*
- 6. Standartlashtirilgan testlarning mazmun-mohiyati bo'yicha referat tayyorlang.*
- 7. Testlashtirishning diagnostik darajasi bo'yicha berilgan testdan ko'zlangan maqsad haqida referat tayyorlang.*

8. Testlashtirishni tashkil etish usullari haqidagi ma'lumotlarni to'plab, tahlil qilib ko'ring.
9. Nazorat va tekshirishdagi umumiylik va xususiylik haqida referat tayyorlang.
10. Baholash mezonlari va tamoyillarining ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdagi ahamiyati haqida referat yozing.
11. O'zlashtirish natijalarini bilish nima uchun kerak?
12. Ta'lim natijalarini nazorat qilish vositalari nimalardan iborat?
13. Nazorat qilishning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalarini nimalardan iborat.
14. Didaktik testlarning vazifalari qanday?
15. Me'yoriy test bilan mezonli testning farqini aytib bering.
16. Standartlashtirilgan testning asosiy funksiyasi nimalardan iborat?
17. Testlashtirishdan tashxislashda qanday foydalaniladi?
18. Testlashtirishning ta'limiy ahamiyati nimalardan iborat?
19. Tekshirish turlarini sanab bering?
20. Baholash mezonlaridan ta'lim natijalarini aniqlashda qanday foydalaniladi.
21. Testlashtirishning ijobiy tomonlarini sanab bering?
22. Testlashtirishning salbiy tomonlarini sanab bering?

### Test topshiriqlari

1. O'quvchi faoliyatining asosiy turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
  - A) O'qish-mehnat
  - B) Mehnat-o'yin
  - D) O'yin-o'qish
  - E) Muomala-mehnat
2. Ta'lim oluvchilarning bilim va malakalarini tekshirish qanday ketma-ketlikda olib boriladi?

- A) joriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish
- B) joriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish
- D) joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; yakuniy tekshirish va hisobga olish
- E) joriy tekshirish; takroriy tekshirish; davriy tekshirish; oraliq tekshirish, yakuniy tekshirish va hisobga olish

**3. Pedagogikada ta'lim oluvchilarning ta'lim olganligini tashxislash va nazorat qilishning qanday tamoyillari mavjud?**

- A) xolislik, tizimlilik, ko'rgazmalilik
- B) obyektivlik, tizimlilik, sistemalilik
- D) sistemalilik, ko'rgazmalilik, oshkoralik
- E) xolislik, obyektivlik, sistemalilik

**4. Baholash nima?**

- A) o'quvchining bilimiga baho qo'yish
- B) o'quvchining o'zlashtirishini aniqlash usuli
- D) bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rsatkich, qolip, o'Ichagich)lar bilan solishtirish
- E) o'quvchilarning fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni aniqlash

**5. O'zlashtirishni nazorat qilish va hisobga olishning qanday vazifalari mavjud?**

- A) nazorat, o'qitish, tarbiyalash vazifalari;
- B) nazorat, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari;
- D) o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalari;
- E) ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish vazifalari.

**6. «Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi muvaqqat Nizom»ga muvofiq nazoratning qanday turlari mavjud?**

- A) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YaN)
- B) joriy nazorat (JN), yakuniy nazorat (YaN)
- D) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), yakuniy nazorat (YaN), umumiy nazorat (UN)
- E) joriy nazorat (JN), oraliq nazorat (ON), umumiy nazorat (UN)



**7. Talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob bersa, talabaga necha ball qo'yish mumkin: xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.**

- A) 55–70 ball oralig'ida
- B) 71–85 ball oralig'ida
- D) 85–100 ball oralig'ida
- E) 0–54 gacha bo'lgan ball oralig'ida

**8. Testga qanday talablar qo'yiladi?**

- A) moslik (adekvatlilik), oddiylik, aniqlik
- B) oddiylik, aniqlik va muayyanlik
- D) adekvatlilik, oddiylik, aniqlik va muayyanlik
- E) moslik (adekvatlilik), oddiylik, aniqlik va muayyanlik

Kimning ishi bo'lsa aqlga payvand,  
Taqdır yulduzidan nolimas harchand.

*Abulqosim Firdavsiy*

## 21-MAVZU: KORREKSION PEDAGOGIKA

### Reja:

1. Defektologiya fani, uning predmeti va dolzarb masalalari.
2. Sensor nuqsonli bolalar va ularning tarbiyasi.
3. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari.
4. Aqli zaif o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va o'rganishning o'ziga xosligi.

**Mavzuning maqsadi:** ta'lim oluvchilarda defektologiya fanining maqsad va vazifalarini, shuningdek, defektologiya fanining tarmoqlari, hozirda mustaqil fan sifatida surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya fanlarining mazmun-mohiyatini ochish.

### Mavzuning vazifalari:

1. Defektologiya fanining mazmun-mohiyatini bayon qilish.
2. Sensor nuqsonli bolalar va ularni bartaraf etish yo'llari to'g'risida tushuncha berish.
3. Eshitishida nuqsonli bolalarning ta'lim-tarbiyasining mazmunini ta'lim oluvchilar ongiga singdirish.
4. Ko'rishida nuqsonli bolalarning ta'lim-tarbiyasi va ularni bartaraf etish yo'llari haqida tushuncha berish.
5. Aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasini, mazmun-mohiyatini bayon qilish.
6. Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalarning ta'lim-tarbiyasini o'rganish va uning oldini olish yo'llarini talabalar ongiga singdirish.

7. Ruhan sust rivojlangan bolalarning ta'lim-tarbiyasi haqida talabalarga tushuncha berish.

8. Oligofrenopedagogikaning hozirgi paytdagi vazifalarini talabalarning ongiga singdirish.

9. Nuqsoni bor bolalarni o'rganish, olidni olish, bartaraf etish yo'llari va usullari.

**Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:** maxsus pedagogik defektologiya, anomil bolalar, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika va logopediya, eshitishida nuqsoni bor bolalar, tug'ma nuqsonlar, ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, kar-soqov bolalar, og'iz nutq nuqsonli bolalar, ruhan sust rivojlangan bolalar, aqli zaif bolalar, yordamchi maktab, oligofren bolalar, ruhiy ortopediya, sensomotor madaniyat, pedagogik xususiyat.

### 21.1. Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari

Defektologiya fani – bu jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan. Defektologiya so'zi lotin tilida *defektus* – «nuqson, kamchilik», *logos* – «ta'limot, o'rganish» degan ma'nolarni anglatadi. Jismoniy va ruhiy rivojlanishda nuqsonlari bor bolalar anomal bolalar deyiladi (yunoncha «anomal» – «odatdan tashqari», «noraso» degan ma'nolarni bildiruvchi so'z). Hozirgi kunda chet davlatlarda bunday bolalar «maxsus yordamga muhtoj bolalar» deb ham yuritiladi. Defektologiya fanining mavzui bahsi – anomal bolalardir. Defektologiya fanining vazifasi – anomaliyalarning kelib chiqish sabablari, turlari, anomal bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganish, shular asosida differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanishdir. Defektologiya fanining maqsadi – anomal bolalar bilan differensial va integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish, ulardagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, kompensatsiyalash, iloji boricha korreksiyalash, ko'zga

ko'rinmaydigan darajagacha kamaytirish yo'llari, usullarini belgilash va o'qituvchilarga ko'rsatib berishdir.

Defektologiya nisbatan yosh fan. Bu sohaning rivojlanishida atoqli psixolog L.V.Zankov, L.S.Vigotskiylarning xizmati katta. Ular anomal bolalalar bilan rivojlantiruvchi ta'limni olib borish kerakligini, korreksiya, kompensatsiya usullari va ularni amalga oshirish yo'llarini fanga kiritdilar. L.S.Vigotskiy «Defektologiyaning asosiy muammolari» kitobida anomal bolalarning nafaqat «salbiy», balki «ijobiy» tomonlarini ham o'rganib, aniqlab, shularga tayangan holda va ularning potensial imkoniyatlarni inobatga olib turib, ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish zarurligiga diqqatni jalb etdi.

O'zbekistonda defektologiya fani 1967-yildan rivojlana boshladi. Shu yili Nizomiy nomidagi TVDPning pedagogika va psixologiya fakultetida oligofrenopedagogika bo'limi tashkil etildi. 1972-yilda oligofrenopedagogika kafedrasida o'z faoliyatini boshladi. 1983-yilda surdopedagogika bo'limi qo'shildi. 1984-yilda esa mustaqil kunduzgi va sirtqi defektologiya fakultetlarida oligofrenopedagog, surdopedagog, tiflopedagog, logoped mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarni tayyorlash ishlari boshlab yuborildi. Hozirgi kunda oligofrenopedagogika va logopediya, defektologiya fanining klinik asoslari va surdopedagogika kafedralari qo'shilib, maxsus pedagogika va metodika kafedrasiga aylantirildi, u o'z faoliyatini pedagogika va defektologiya fakultetida amalga oshirmoqda.

Defektologiya fanining rivojlanishi natijasida undan quyidagi tarmoqlar mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi: *surdopedagogika* (lotincha, surdus – «kar, gung» so'zidan olingan), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *tiflopedagogika* (yunoncha tiflos – «ko'r, so'qir» so'zidan olingan), ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *oligofrenopedagogika* (yunoncha – oligos – kam, fren – aql so'zlaridan olingan) – aqliy tomondan zaif bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan; *logopediya* (yunoncha logos – «so'z», padeo – «tarbiyalash» so'zlaridan olingan) – bolalarda og'ir nutqiy nuqson-

larni o'rganish, uning oldini olish, bartaraf etish yo'llari, usullarini o'rganadigan fan.

## 21.2. Sensor nuqsonli bolalar

### 1. Eshitish va nuqsonlari bor bolalar

Nutq – murakkab ruhiy faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yo'li bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizator bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Eshituv analizatorining rivojlanishi esa ko'p jihatdan talaffuzga bog'liq. Bola nutqning o'sib borishi tovushlar talaffuzi, fiziologik va fonematik eshitishning kamol topib borish darajasi bilangina xarakterlanib qolmay, balki, eng muhimi, o'z nutqi va atrofdagilar nutqidagi so'zlarning tuzilishi, tovush tarkibini farqlay bilish qobiliyati bilan ham xarakterlanadi. So'z tarkibini anglab olishdan iborat bu qobiliyat grammatik va leksik komponentlarning rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega.

Ikkala signal sistemasi, shuningdek, idrok va so'zning o'zaro aloqada bo'lishi aqliy rivojlanishning negizini tashkil etadi.

### 2. Ko'rish nuqsonlari bor bolalar

Tiflopedagogikada ko'zi ojiz bolalar ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar guruhlariga bo'linadi. Ko'r bolalarning ko'rish qobiliyati keskin kamaygan (total ko'rlik) yoki korreksiya qo'llanilganda (ko'zoynak tutilganda) ham ko'rish o'tkirligi 0,04 gacha pasaygan (ya'ni, bunday bolalar amalda ko'r) bo'ladi. Zaif ko'ruvchi bolalarda ko'rish o'tkirligi 0,05 dan to 0,04 gacha bo'lishi mumkin. Ushbu guruhdagi bolalar tevarak-atrofni ko'rish analizatori orqali idrok etadi.

Ortirilgan ko'rish anomiyalari traxoma, chechak, so'zak, ko'z sili, qizamiq, skarlatina va boshqa kasalliklar oqibatida paydo bo'lishi

mumkin. Aholiga davolash-profilaktika, oftalmologiya yordamining yaxshilanishi hamda tibbiyot sohasidagi katta yutuqlar qo'lga kiritilganligi munosabati bilan zaif ko'ruvchi bolalarning ko'z kasalliklari ham ancha kamaydi.

Ko'zi ojiz bolalar ko'r tug'ilgan va ko'r bo'lib qolgan bolalar deb ikki guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga tug'ilgandan va tug'ilgandan so'ng to uch yoshgacha bo'lgan davr ichida ko'rish qobiliyati zaif bolalar kiritilsa, ikkinchisiga keyinchalik ko'zi ojiz bo'lib qolgan bolalar kiritiladi.

Ko'zi ojiz bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari, maktab-internatlar mavjud. Bu joylarda ishlar kompensatsiya, korrektsiya yo'nalishida amalga oshiriladi.

### **3. Og'ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar**

Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalarga og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar ham kiritiladi. Nutq nuqsoni logopediya fanida «muayyan tilning me'yoridan chetga chiqish» deb ta'riflanadi. Nutq nuqsoni o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi. Nutq nuqsoni gapiruvchining yoshiga mos kelmaydi. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladi. Og'ir nutq nuqsoni kishining nafaqat nutqiga, balki, umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda nutq nuqsonlarining turli klassifikatsiyalari mavjud. Nutq nuqsonlari asosan 3 ta katta guruhga ajratiladi. Fonetika – fonetik xarakterli nuqsonlar, sistemali nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari. Fonetika – fonematik nuqsonlarga tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, ovoz nuqsonlari, nutq sur'ati, tempi, ritmi va ravonligidagi kamchiliklar. nutqni idrok etishning buzilish oqibatida sodir bo'lgan nuqsonlar kiritiladi.

Sistemali nutq buzilishlarida kishining butun nutq sistemasi shakllanmaganligi natijasida u gapirmaydi. Bunday nuqsonli kishilarda qulog'i yaxshi eshitadi, oligofreniya yo'q. Sistemali nutq buzilishida nutqning umumiy rivojlanmaganligi kuzatiladi.

#### **4. Ruhan sust rivojlangan bolalar**

Ulgurmovchi o'quvchilar orasida ruhan sust rivojlangan bolalar ham uchrab turadi. Ularning bilish faoliyati markaziy nerv sistemasi-dagi modda almashinuvi buzilishidan kelib chiqqan. Yengil patologik o'zgarishlar vaqtinchalik buzilgan bo'ladi.

Ruhan sust rivojlangan bolalar aqliy darajasi jihatidan ikki guruh-ga bo'linadi.

1. Yengil nuqsoni bor bolalar bular maxsus sharoitda 1–3 yil ta'lim-tarbiya olganlaridan so'ng o'qishni umumta'lim maktabining tegishli sinfida davom ettirishlari mumkin.

2. Ruhiy jihatdan rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar, bular o'rta maktabni bitirgunga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

So'nggi yillarda olimlar ruhiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etmoqdalar:

1. Konstitutsional;
2. Somatogen;
3. Psixogen;
4. Serebral shaklli.

Ruhan sust rivojlangan bolalar maxsus yordamga muhtoj, ular maxsus muassasalarda yoki differensial ta'limga jalb etilishi kerak.

### **21.3. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari**

Oligofrenopedagogika – aqli zaif bolalarni tarbiyalash va o'qitish haqidagi fan bo'lib, defektologiyaning bir qismini tashkil qiladi. Pedagogikaning umumpedagogik va didaktik prinsiplarini qo'llash shakli zaif bolalar tarbiyasida o'ziga xos xususiyatlar kasb etadi. Ta'limiy materiallarni tanlash, mehnat tayyorgarligini aniqlash, aqli zaif bolalarni mehnat faoliyatiga jismoniy rivojlantirish ishlarining mazmunini tuzatishga yo'naltirilishi kerak. Korreksiyalash deganda, aqli zaif bolalarning jismoniy va ruhiy nuqsonlarini to'g'rilash, yumshatish, hayotga moslashtirish tushuniladi. Tuzatish ishlarida nuqsonli bolaning rivojlanish imkoniyatlariga asoslanadi.

Bosh miyaning organik buzilishi natijasida bilish faoliyatlarining turg'un pasayishi kelib chiqadi. Aqli zaif bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ularni o'rganishning nazariy masalalari qator hozirgi zamon fan yutuqlariga asoslanadi.

Oligofrenopedagogika maorif xodimlarini, ota-onalarni, defekto-logiya fakulteti talabalarini yordamchi maktablardagi ta'lim-tarbiya ishining o'ziga xos tomonlari, aqli zaif bolalarning bilim egallash xususiyatlari haqidagi tegishli ma'lumotlar bilan qurollantiradi. Har bir fanda bo'lganidek, oligofrenopedagogika ham o'ziga xos rivojlanish, shakllanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasi masalalari bilan shug'ullanish ishlariga ikki yuz yildan oshgan bo'lsada, bir tizimda atroflicha bir butun, tugallangan ishlar XX asr boshlariga to'g'ri keladi.

Oligofrenopedagogika fanining dastlabki boshlang'ich davri aqli zaiflikni o'rganish asosan 1926-yillarga to'g'ri keladi. L.S.Vigotskiy oligofrenopedagogika fanining asoschisi hisoblanadi. U o'z maslakdoshlari bilan hamkorlikda aqliy nuqsonga ega bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni nazariy hamda amaliy tomondan asoslab bergan.

**Aqli zaif o'quvchilar faoliyati natijalari va yordamchi maktab muassasa-hujjatlarini o'rganish.** O'quvchilarning yozma va boshqa ishlarini tahlil qilish natijasida o'quvchilar faoliyatining sabablari va uslublari haqida ko'p qirrali material olinadi, ularning o'rganilayotgan pedagogik hodisaga nisbatan munosabatini aniqlash imkoni tug'iladi. Aqli zaif o'quvchilarning shaxsiy varaqalari, tibbiyot kartalari, majlislar va kengashlar protokollari, sinf daftarlari va hisobot materiallari bilan tanishuv tadqiqotchini foydali ma'lumotlar bilan qurollantiradi.

Pedagogik tajriba, agar u maxsus uyushtirilgan va qat'iy hisobga olib borilsa, ta'lim va tarbiyaning u yoki bu metodi, usulini tajriba tariqasida qo'llash va sinab ko'rish demakdir. Pedagogik tajribaning asosiy funksiyasi pedagogik ta'sir o'tkazishning ayrim elementlari va ularning natijalari o'rtasidagi sabab-oqibatli aloqalarni aniqlashdan iborat.



Aqli zaif o'quvchilarning turli yoshdagi psixologik xususiyatlarini, bilimlarini, malakalarini o'zlashtirishning psixologik qonuniyatlarini, ularni mehnatga, mehnat faoliyatiga tayyorlashni, ular shaxsining kamol topib borish qonuniyatlarini o'rgatadi.

Oligofenopedagogika – aqli zaif bolalar ishtirok etadigan pedagogik jarayon bilan bog'liqdir. Bu holat bolaning yoshligidagi anatomik, fiziologik, ruhiy ma'lumotlarning zarurligini taqozo etadi.

### **Oligofrenopedagogikaning hozirgi paytdagi vazifalari**

Aqli zaif o'quvchilarda shaxs ma'naviy va irodaviy fazilatlarini shakllantirish, mehnatsevarlikni, o'qish istagini tarbiyalash, bilish faolligini va mustaqilligini shakllantirish, shaxsni takomillashtirish, o'qitishning tarbiyaviy ta'siri, o'quv materialining izchilligi, sistemaliligi – didaktikani rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridir.

Oligofrenopedagogikaning vazifalaridan biri aqli zaif o'quvchilarning umumiy rivojlanishini faollashtirishdan, rivojlanishning umumiy ta'lim darajasini oshirish uchun maxsus shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir. Bu o'rinda tabiat, hodisalarini bevosita kuzatish, bolalarning shaxsiy tajribasiga tayanish, o'quv materialini tanlash va bayon etishning izchil mantiqqa egaligi katta ahamiyat kasb etadi. Boshqa bir vazifa aqli zaif o'quvchilarda abstrakt tafakkur hosil qilish imkoniyatlarini qidirishdan iboratdir.

Ba'zi pedagog va psixologlar o'quv materialini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun aqliy xarakterlarni bosqichma-bosqich egallash nazariyasi (P.Ya.Galperin, N.F.Talizina va boshqalar) qo'llashni tavsiya etishadi. Eng avvalo, aqli zaif o'quvchilar fikrlash vazifasini aniq va ravshan anglab olishlari kerak. So'nggi predmetli harakat bosqichi, ya'ni fikrlash faoliyati asosan maxsus tanlangan predmetlar yoki ularning o'rnini bosadigan rasmlar, sxemalar, chizmalar va shu kabilar (masalan bola sanash bilan bir vaqtda kubiklarni ham ko'radigan bo'lsa) yordamida keladigan bosqichdir.

Bundan keyingi bosqichda yordamchi maktab o'quvchilarining aqliy harakatlari nazariy tarzda, ammo, muqarrar tarzda tashqi vaziyatga tayangan holda yuz beradi. masalan, aqli o'quvchi materialni o'qiyotib, o'z fikrini bildirishda o'zicha so'zlab yoki ovoz chiqa-

rib turadi. U. shuningdek, nazariy jihatdan mulohaza qilarkan, ko'rgazmali qurollarga, tekstlarga va boshqa moddiy o'quv obyektlariga murojaat qilishi mumkin.

#### **21.4. Aqli zaif o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va o'rganishning o'ziga xosligi**

Aqli zaiflikni keltirib chiqaradigan sabab-oqibat xususiyatlarini endogen xususiyatlarga ega. Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bilan bog'liq bo'lib, bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, aqli zaiflikning moddiy sifati deb kasallangan bosh miya e'tirof etiladi. Bu kasallik sabab-oqibati natijasida bolaning bilish faoliyatlari keng ma'noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradorligi pasayadi. Bosh miya kasalliklarining kelib chiqishiga ko'ra ularni endogen va ekzogen sabablarga bo'lishimiz mumkin. Aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar turli ilmiy, uslubiy, psixologo-pedagogik va tibbiy adabiyotlarda turlicha bayon etiladi. Bu sabablarni qisqacha quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

– Homila davrida turli ta'sir etuvchi infeksiya, intoksikatsiya va turli jarohatlar;

– Tug'ilish vaqtidagi jarohat asfikasiya;

– Chaqaloqning ilk yoshida salbiy ta'sir etuvchi yuqumli intoksikatsiya, ovqatlanishning buzilishi, tashqi ta'sir (ekologiya) va boshqalar;

– Turli irsiy yo'l bilan avloddan avlodga o'tadigan gen, xromosoma kasalliklari.

Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar shartsiz reflekslarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida ham o'z aksini topadi.

Aqli zaif bola faoliyatida tashabbuskorlik, mustaqillikka intilish kabi shaxsiy xususiyatlar bo'lmaydi. O'zlarining mustaqil ishlarini

aqliy jihatdan tushuntirib bera olmaydilar. Shu bois ular doim yordamga muhtojdirlar.

Oligofreniyaning eng og'ir darajasi – «idiot»lik bo'lib, ularda qo'pol, rivojlanmagan idrok bo'ladi. Atrof-muhitga bo'lgan munosabati risoladagiday emas. O'z shaxsini aniq bilmaydi. Ularning tafakkuri deyarli yo'q. Ular o'zlariga qarab gapirilgan gapdan ko'ra mimika va yuz harakatlarini nisbatan ilg'ab oladilar. «Idiot»lar nutqi ma'nosiz tovushlardan, ba'zan alohida so'zlar yig'indisidan iborat bo'lishi mumkin.

O'zlarining xursandchiligini harakat, qichqirish, mimika harakatlari bilan namoyon etsalar, xafagarchiliklarini esa qaysarlik, o'z tana organlarini jarohatlash bilan ko'rsatishlari mumkin.

Xulqlari, asosan, ularning o'z talablarini qondirish bilan bog'liq. Ba'zilar bir xildagi steriotip harakatlar qiladilar. Ritmik ravishda tana harakati, bir xildagi bosh, bo'g'inlar harakatini kuzatish mumkin. Idi-ot darajadagi aqliy nuqsonlikda turli tutqanoqlar kuzatilishi, ba'zan jismoniy rivojlanishda qo'pol nuqsonlar uchrashi – teri nuqsonlari, ichki organ kamchiliklari, endokrin va modda almashinuvining buzilishini ko'rish mumkin.

1. Ommaviy maktab o'quvchilari orasida oligofren bolalar uchrab turadi. Ularning aqliy jihatdan o'smaganligiga ona qornida bo'lgan davrida muayyan miya sistemalarining yoki hayotining ilk davrida tashqi zararli ta'sirlar sabab bo'lgan. Patologik irsiyat ham muayyan rol o'ynagan bo'lishi mumkin. Bu narsani aytib o'tish shuning uchun ham muhimki, bolaning kamol topib borishining ancha keyingi davrlarida vujudga kelgan aqliy zaiflik oligofreniya uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan farq qiladigan boshqa xususiyatlarga egadir.

Oligofreniya keltirib chiqaradigan sabablar xilma-xildir. Ularga onaning homiladorlik paytida yuqumli kasalliklarga yo'liqishi (og'ir virusli gripp, tif, qizilcha, ona organizmidagi turli parazitlarning homilaga yuqishi, toksiplazmoz, sifilis vaqtidagi spiroxeta), xomilaning shikastlanishi, ota-onaning spirtli ichimliklar iste'mol qilishi va boshqalar.

**2. Aqli zaif bolalarni o'rganish, bilim berish, korreksion rivojlantirish.** Oligofrenopedagogika fanining mavzu bahsi aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasi, ulardagi nuqsonni tuzatish defektolog miya fanining alohida e'tibor berib kelgan sohasidir. Aqli zaiflikning yengil darajalarida bu nuqson tashqaridan qaraganda uncha ko'zga tashlanmaydi. Bunday bolalarni odatdagi nuqsonsiz tengqurlaridan ajratish ko'pincha qiyin.

Bosh miya kasalliklari kelib chiqishiga ko'ra ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) sabablarga bo'linadi.

Hozirgi vaqtda yordamchi maktabda, asosan aqli zaiflikning yengil darajasi – «debil» bolalar ta'lim oladilar. Bular bir toifaga kirmaydigan bolalardir. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniyani uch darajaga ajratiladi: **debil, imbetsil va idiot.** Debil – birmuncha yengil darajada bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan darajasidir. Yordamchi maktabga, asosan shu guruh bolalari saralanadi.

Imbetsillik – debil darajadan birmuncha og'ir darajada.

Aqli zaif o'quvchilarga ijtimoiy ta'lim-tarbiya berish ishlari respublikamizda keyingi 25 yil ichida birmuncha takomillashdi. Xalq maorifi qonunida ta'kidlanishicha, o'zlarining jismoniy va ruhiy nuqsonlari asosida umumta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya olishga qodir bo'lmagan bolalar uchun maxsus umumta'lim maktablari va maktab-internatlari tashkil etilgan. Bu muassasalarda nuqsonli bolalar ta'lim-tarbiya olish va davolanish bilan birga ijtimoiy-foydali mehnatda qatnashadilar.

Hozirgi zamon defektologiyasi korreksion ta'lim-tarbiya ta'siri ostida ayrim nuqsonlar to'g'rilansa, ayrimini yumshatish, ayrimlarini esa kompensatsiya qilishga erishishga muvaffaq bo'lmoqda. Bu borada mamlakatimizda bir qancha ilmiy metodik ishlar mavjud bo'lib, ular amaliyotda tasdiqlangan. Ishonchli g'oyalar nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berishning mohiyatini belgilovchi nazariy ishning metodologik asosini belgilaydi. Buning hammasiga ko'pincha aqli zaif bolaning xulq-atvor normasi buzilishiga, axloqiy nojo'ya qiliqlarga olib keladi.

Bu qiyinchiliklar bartaraf qilinmaydi deb o'ylash noto'g'ri. Albatta, ular aqli zaif bola yordamchi maktabni tugatgandan keyin ham qisman qoladi. Biroq, ta'lim jarayonida aqli zaif bolaning tafakkuri, nutqi, qiziqishlari va bilish qobiliyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq holda u axloqiy ham rivojlanib boradi. Yordamchi maktabda o'qishni tugatish arafasida bola hayotda o'z o'rmini tushunib etadi, kollektivda asosiy xulq-atvor normasini o'zlashtiradi. Shu vaqtda mehnatga to'g'ri munosabat ham vujudga keladi.

Aqli zaif bolalar xarakteri – bu hayotiy ta'sir va tarbiyalar ostida to'plangan va mustahkamlangan kishilar xulq-odati va aniq munosabati uslubidir. Kishining individual xarakter xususiyatlari ijtimoiy sharoit ta'siri ostida uning hayoti va tarbiyasida vujudga keladi. U yoki bu kishi xarakterining asosiy sifati qanday bo'lishini sharoitning o'zi belgilab beradi. Yordamchi maktabda o'quvchi xarakterining tashkil topishi buning uchun maksimal qulay sharoitni yaratishni talab qiladi. Maktabni hayot bilan bog'lash, xilma-xil faoliyat turlarini tashkil qilish, bolalar tashkilotining ishi aqli zaif bola xarakterini tashkil topishi uchun juda muhimdir. Bunday sharoitda bola ijtimoiy faoliyatdan boy taassurot oladi, kollektiv oldida turgan masalalarni yechishda faol qatnashadi, uni hayoti to'liqqan va unda maqsadga intiluvchi, jamiyat qiziqishlari bilan yashovchi kishi xarakteri vujudga keladi.

Aqli zaif bolada dinamika stereotipi (harakatlar, fikrlarning o'zgarmasdan takrorlanishi, bir marta o'zlashtirib olingan fikrdan boshqa fikrga o'tishning qiyinligi) hosil qilish va o'zgartirish qiyin, bu hol miya qobig'idagi nerv jarayonlarining yetarli darajada harakatchan emasligidan dalolat beradi. Aqli zaif bolani stereotip xulq-atvorini yo'qotish bilan bog'liq qiyinchiliklar, ular ko'pincha muayyan vaziyatga mos kelmaydi, shu bilan tushuntiriladi. Maktabning yordamisiz bola muhitning salbiy ta'sirini bosib o'ta olmaydi, ko'pincha buning o'rniga unga moslashadi. Shuning uchun maktab ta'limi, estetik tarbiya vositalari, bolaning maktab jamoat tashkilotlaridagi ishi va hokazolardan foydalanib, yordamchi maktab o'quvchisi xarakterini vujudga keltirishga katta ahamiyat berilishi kerak.

## **Mavzularni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:**

1. Defektologiya fanining vazifalari nimadan iborat?
2. Defektologiya fani qanday sohulardan tarkib topgan?
3. Maxsus yordamga muhtoj bolalar deb kimlarni aytamiz?
4. Eshituv nuqsonlarining qanday turlarini bilasiz?
5. Eshitishda nuqsoni bor bolalar qayerda tarbiyalanadi?
6. Ko'zi ojiz bolalar uchun qanday muassasalar tashkil etilgan?
7. Oligofreniyaning kelib chiqish sabablari nimada?
8. Aqlan zaif bolalar qanday bolalar guruhiga kiritiladi?
9. Ruhiiy rivojlanishi sust bolalarning qanday guruhlari mavjud?
10. Ruhiiy rivojlanishdagi sustlik qanday kelib chiqadi?
11. Logopediya fani nimadan bahs etadi?
12. Nutq organlarida qanday nuqsonlar kuzatiladi?
13. Defektologiya fanining ta'rifini tushuntiring.
14. Maxsus yordamga muhtoj anomal bolalar toifalarini izohlab bering.
15. Logopediya fanining vazifalarini tushuntiring.
16. Oligofreniyaning rivojlanish xususiyatlarini aytib bering.
17. Ruhiiy rivojlanishi sust bolalarning aqlan zaif bolalardan farq qilishini tushuntirib bering.
18. «Nutq nuqsonlari» tushunchasini izohlab bering.
19. Ko'rish qobiliyati zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlarni tushuntirib bering.

## **Test topshiriqlari**

**1. Defektologiya fanining ta'ri fi qaysi javobda to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?**

- A) Defektologiya fani bolalar bilan differensial va integratsiyalashgan ta'limni o'rganadi
- B) Bu jismoniy va ruhiiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

D) Defektologiya fani nuqsoni bor bolalarning shart-sharoitlarini o'rganadigan fan

E) Ko'rishda nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

**2. O'zbekistonda defektologiya fani qachondan boshlab (tashkil etildi) rivojlandi?**

A) 1956-yildan

B) 1967-yildan

D) 1972-yildan

E) 1977-yildan

**3. Defektologiya fanning rivojlanishi tufayli mustaqil fan bo'lib ajralib chiqqan fanlarning to'liq qatori qaysi javobda berilgan?**

A) surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika

B) oligofrenopedagogika, ko'rishda kamchiligi bor bolalar, logopediya

D) logopediya, tiflopedagogika, surdopedagogika

E) surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenopedagogika, logopediya

**4. Tiflopedagogikaning ta'rifi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

A) Ko'zi ojiz bolalar, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

B) Kar va soqov bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

D) Nutqi va eshitishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

E) Ko'rishda va aqlida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan

**5. Nutq nuqsonlarining klassifikatsiyasi qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

A) Fonetik xarakterli nuqsonlar, tizimli nutq buzilishlari

B) Fonetik xarakterli nuqsonlar, tizimli nutq buzilishlari va yozma nutq nuqsonlari

D) Ovoz nuqsonlari, nutq ritmi, nutqni to'g'ri idrok etish

E) Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar, nutqida nuqsonli bolalar, ovoz nuqsonlari

6. Ruhiiy sust rivojlangan bolalarni klinik-psixologik jihatdan bo'linishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.

- A) Konstitutsional, somatogen, serebral shakli
- B) Somatogen, psixogen, serebral shakli, allergit holati
- D) Konstitutsional, somatogen, psixogen, serebral shakli
- E) Konstitutsional, psixogen, somatogen, asteniya

7. Oligofrenopedagogika fanining asoschisi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) N.F. Kuzmina
- B) N.F. Talizina
- D) L.S. Vigatskiy
- E) F.M. Novik, N.F. Talizina.

8. Logopedif fanining ta'rifi qaysi javobda to'g'ri va to'liq berilgan?

- A) Ko'rishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan
- B) Eshitishida va ko'rishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan
- D) Aqlida va nutqida nuqsoni bor, uni bartaraf etish yo'llari va usullarini o'rganadigan fan
- E) Og'ir nutqiy nuqsoni bor bolalarni o'rganish, oldini olish, bartaraf etish yo'llari va usullarini o'rganadigan fan

9. Tiflopedagogikaning guruhlarga bo'linishi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

- A) Ko'zi ojiz bolalar, ko'r bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar
- B) Ko'zi ojiz bolalar, ko'r bolalar
- D) Ko'r bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, kar bolalar
- E) Ko'zi ojiz bolalar, zaif ko'ruvchi bolalar, kar-soqov bolalar

10. Aqliy nuqsoni bor bolalarning darajalarga ajratilishi qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- A) debil, imbetsil, idiot
- B) idiot, debil, ekzogen
- D) debil, imbetsil, oligofreniya
- E) imbetsil, idiot, debil, endogen



## TEST SAVOLLARI

1. I.A.Karimovning O‘zbekiston Respubliasi IX sessiyasida (1997) so‘zlagan «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori» nutqida tarbiyaning maqsadi qanday ifodalangan?

- A) Tadbirkor shaxsni tarbiyalash
- B) Umuminsoniy va milliy tarbiya
- D) Barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash
- E) Mehnatsevarlik tarbiyasi

2. I.A.Karimovning: «Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta‘lim va tarbiyasini ko‘rgan shaxslar kerak» – degan iborasi qayd etilgan asarni aniqlang.

- A) «Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyoti poydevori»
- B) «Barkamol avlod orzusi»
- D) «Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik»
- E) «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat»

3. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qachon qabul qilingan?

- A) 1992-yil
- B) 1995-yil
- D) 1994-yil
- E) 1997-yil

4. I.A.Karimov qaysi asarida «Kadrlar tanlashda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘usi bugun juda katta ahamiyatga ega-dir» deb yozgan?

- A) «Buyuk maqsad yo‘lidan og‘ishmaylik»
- B) «Istiqlol va ma‘naviyat»
- D) «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda»
- E) «Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»

- 5. Inson tarbiyasi va rivojlanishi haqidagi fan bu ...**
- A) Psixologiya
  - B) Pedagogika
  - D) Tarixiy pedagogika
  - E) Falsafa
- 6. Pedagogik fanining ilmiy-tadqiqot usullari ...**
- A) Kuzatish usuli, suhbat usuli
  - B) Hikoya usuli, suhbat usuli, ia`ruza
  - D) Induktiv usul, deduktiv usul
  - E) Illyustrativ usul, demonstrativ usul
- 7. «Shaxsning rivojlanishi» deganda nimani tushunasiz?**
- A) Ijtimoiy tirik mavjudot sifatida insonning butun hayoti davomida bo`ladigan miqdor va sifat o`zgarishlari
  - B) Tarbiya va rivojlanish natijasida insonning ijtimoiylashuvchanligi
  - D) Organizmning miqdoriy o`zgarib borishi
  - E) Organizmning sifat jihatidan o`zgarishi
- 8. Ta`lim funksiyalari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?**
- A) Bilim, ko`nikma, malaka hosil qilish
  - B) O`quv fanlari mazmunini o`zlashtirib olish
  - D) Bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish
  - E) Tevarak-atrofdagi voqealarini tushuntirish
- 9. Oila tarbiyasining asosiy yo`nalishlari bu ...**
- A) Aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi hisoblanadi
  - B) Axloqiy fazilat, vatanparvarlik his-tuyg`ularini shakllantirish hisoblanadi
  - D) Bolalarni insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat
  - E) Aql-zakovat, insoniy fazilat
- 10. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifalari:**
- A) Tevarak-atrofdagi tabiiy muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo`lishga o`rgatish, tabiatga, insonga, hayvonlarga muhabbatni tarbiyalash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi asosiy tushunchalarni bilish

- B) Umuminsoniy madaniyat va milliy qadriyatlarga jalb qilish;
- D) Baxtli shaxsni tarbiyalash
- E) Huquqiy davlat qonunlari va huquqlari hurmat qilishni tarbiyalash, o'z mamlakatining ramzlarini hurmatlash

**11. Ta'limning og'zaki metodlariga nimalar kirishini aniqlang.**

- A) Ilyustratsiya, namoyish qilib ko'rsatilishi (demonstratsiya)
- B) mashq qilish, laboratoriya va amaliy ishlar
- D) Hikoya, tushuntirish, suhbat, ma'ruza
- E) Test algoritmlash, qisman izlanish, induksiya

**12. «Pedagogika» atamasi ma'nosi nimani anglatadi?**

- A) Bolani o'qitaman
- B) Bolani yetaklayman
- D) Bolani tarbiyalayman
- E) Bolani tarbiyalayman va o'qitaman

**13. Maktabgacha, umumiy o'rta, uch yillik (akademik litsey, kasb-hunar), ta'lim qanday ta'lim?**

- A) Budget asosidagi
- B) Tanlov asosidagi
- D) Ixtiyoriy
- E) To'lov asosida

**14. Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar nechta?**

- A) 2 ta
- B) 4 ta
- D) 5 ta
- E) 6 ta

**15. Bolalar dastlab «Vatan», «Xalq» tushunchalarining mohiyatini qayerda o'zlashtiradi?**

- A) Bolalar bog'chasida
- B) Oilada
- D) Maktabda
- E) Mahallada

**16. Ta'limning amaliy ishlari metodlariga nimalar kirishini ko'rsating.**

- A) Hikoya, ma'ruza, suhbat
- B) Mashq, laboratoriya, amaliy ishlar

D) Laboratoriya, suhbat, ma'ruza

E) Anketa, test, ma'ruza

**17. Didaktika bu ...**

A) Ta'lim nazariyasi

B) Rivojlantirish nazariyasi

D) Tarbiya nazariyasi

E) Ta'lim va tarbiya nazariyasi

**18. Quyidagilarning qaysi biri pedagogikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) hisoblanadi?**

A) Bilim, malaka, ko'nikma

B) Tarbiya, ta'lim, ma'lumot

D) Tarbiya nazariyasi

E) Yetuklik, rivojlanish, tarbiya

**19. Qaysi olimning asarida pedagogika alohida fan sifatida talqin etildi?**

A) Abu Ali Ibn Sinoning «Donishnoma» asarida

B) Abu Nasr Forobiyning «Baxt-saodatga erishuv» asarida

D) Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida

E) Yan Amos Komensiyning «Buyuk didaktika» asarida

**20. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni qo'rsating.**

A) Irsiyat, muhit, tarbiya

B) Tarbiya, ta'lim, ma'lumot

D) Bilim, ko'nikma, malaka

E) Yetuklik, rivojlanish, tarbiya

**21. Pedagogika fanlari tizimi qaysi variant javobda to'g'ri ko'ratilgan?**

A) Umumiy pedagogika, ijtimoiy pedagogika, kasb-ta'lim pedagogikasi

B) Maktabgacha ta'lim pedagogikasi metodikasi, pedagogika tarixi, ta'limni boshqarish va boshqalar

D) Umumiy pedagogika, Maktabgacha ta'lim pedagogikasi, korreksion (maxsus) pedagogika, surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofreno pedagogikasi va logopediya

E) Pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika, pedagogika tarixi

**22. Tarbiya turlari qaysi variantda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) Aqliy tarbiya, jismoniy, axloqiy, mehnat, nafasot, ekologik, etik, iqtisodiy, huquqiy
- B) Matematik tarbiya, ijtimoiy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi
- D) Oila tarbiyasi, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya va boshqalar
- E) Barcha javoblar to'g'ri

**23. Ta'limning amaliy metodlariga nimalar kirishini aniq-lang.**

- A) Illyustratsiya, namoyish qilib o'rsatilishi (demonstratsiya)
- B) Mashq qilish, laboratoriya va amaliy ishlar
- D) Hikoya, tushuntirish, suhbat mag'ruza
- E) Test algoritmlash, qisman izlanishish, induksiya

**24. Didaktikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) qaysi javovda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A) tarbiya, ma'lumot, ta'lim
- B) Irsiyat, muhit, tarbiya
- D) Ma'lumot, ta'lim (o'qitish), jarayon, ta'lim prinsiplari, ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari, bilimlar, ko'nikma, malakalar
- E) Idrok qilish, fahmlab (anglab) olish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi, amalda qo'llash

**25. Ta'limning quyidagi metodlaridan qaysi biri ko'rsatmalilik metodining asosiy tarkibini tashkil etadi?**

- A) Mashq qilish, laboratoriya va grafik ishlar
- B) Namoyish etish, tasvirlash, ekskursiya
- D) Kuzatish namoyish qilib ko'rsatilishi (demonstratsiya) va illyustratsiya, darslik va kitob bilan ishlash
- E) Sxema va chizmalar tayyorlash, tablitsalar, grafiklar va diagrammalar tuzish

**26. Quyidagilardan qaysi biri maktabda o'z-o'zini boshqarishning yuqori organi hisoblanadi?**

- A) Pedagogik kengash
- B) Maktab kengashi
- D) Metodik kengash
- E) Maktab jamoasining konfrensiyasi

**27. Sinf-dars tizimini birinchi bo'lib kim yaratgan?**

- A) Yan Amos Komenkiy
- B) Abdulla Avloniy
- D) Fitrat
- E) K.D.Ushinskiy

**27. Sinf-dars tizimining tashkiliy shakllari qaysi javobda to'g'ri berilgan?**

- A) O'quvchilarning yoshi, iqtidorini hisobga olish
- B) O'qituvchi rahbarligai, vaqtning chegaralanganligini hisobga olish
- D) Qa'iy jadvalning mavjudligi
- E) Hammasi to'g'ri

**28. Ta'limning qanday turlari uchun Davlat talablari (DT) joriy etiladi?**

- A) Maktabdan tashqari, oliy o'quv yurtlaridan keyingi, malaka oshirish va qayta tayyorlash
- B) Ta'lim turlarining barchasi uchun
- D) Maktabgacha, malaka oshirish va qayta tayyorlash
- E) Faqat malaka oshirish va qayta tayyorlash

**29. Jahon ilmida «Muallimi soniy» («Ikkinchi muallim») nomi-ga musharraf bo'lgan donishmand kim?**

- A) Abu Nasr Forobiy
- B) Konfutsiy
- D) Imom Al Buxoriy
- E) Kaykavus

**30. Pedagogika tarixi qanday fan?**

- A) Siyosiy
- B) Huquqiy
- D) Ijtimoiy
- E) Didaktik

**31. Prezident I.A.Karimovning o'zining qaysi asarida milliy istiqloq g'oyasi va milliy mafkurasining asosiy mafkurasini yoritib bergan?**

- A) «Barkamol avlod – O'zbekiston taaqqiyotining poydevori»

- B) «Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»
- D) «O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat»
- E) «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»

**32. Zardushtiylik axloqining asosi bu ...**

- A) Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal
- B) Ezgu niyat, ezgu kayfiyat, ezgu amal
- D) Falsafa, siyosat, e'tiqod
- E) Saodat, e'tiqod, tafakkur

**33. Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib ta'lim-tarbiyaga ta'rif bergan alloma kim?**

- A) Al-Xorazmiy
- B) Al-Forobiy
- D) Al-Farg'oniy
- E) Al-Beruniy

**34. Prezidentimiz «Ma'naviyat – insoniyat, xalqning jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir» deganida asosan nimalarin nazarda tutgan?**

- A) Ma'naviyat kuch-qudrat manbayi ekanligini
- B) Inson ham, xalq ham, davlat ham, jamiyat ham ma'naviyatga soslanishi lozimligini
- D) Yakka shaxs yoki muayyan xalqning ma'naviyati jamiyat va davlat ma'naviyati darajasiga ko'tarila olmasligi
- E) Shaxs ma'naviyati yuksakligini

**35. «Donishnoma» asarining muallifi ...**

- A) Al-Xorazmiy
- B) Ibn Sino
- D) Al-Moturudiy
- E) Al-Beruniy

**36. Movarounnahrda davlat arboblardan kim XV maktablar islohotini o'tkazdi?**

- A) Ulug'bek
- B) Bobur
- D) Navoiy
- E) Husayn Boyqaro

37. «Yer sur'ati», «Al-jabr va al-Juqobala» asarlarining muallifi ...

- A) Ulug'bek
- B) Bobur
- D) Al-Xorazmiy
- E) Umar Xayyom

38. Dastlabki yangi usul maktabi turkistonning qaysi shahrida ochilgan edi?

- A) Andijonda
- B) Marg'ilonda
- D) Toshkentda
- E) Chimkentda

39. O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilingandan so'ng «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun qachon qabul qilingan?

- A) 1991-yil
- B) 1993-yil
- D) 1994-yil
- E) 1992-yil

40. Ya.A.Komenskiyning «Buyuk didaktika» asari nechanchi yilda yozilgan?

- A) 1630-yil
- B) 1631-yil
- D) 1700-yil
- E) 1632-yil

41. O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimining faoliyat olib borishi qay tarzda ta'minlanadi?

- A) Davlat ta'lim standartlari va davlat talablari asosida
- B) Umumiy o'rta ta'limi standartlari asosida
- D) Ilg'or pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida
- E) Kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirish jarayonida

42. Kaykovusning «Qobusnoma» asari necha bobdan iborat?

- A) 41 bob
- B) 39 bob
- D) 44 bob
- E) 37 bob



**43. «Pedagogika, ya'ni bola tarbiyasining fani demakdir»  
Pedagogikaga bu ta'rif kim tomonidan berilgan?**

- A) Shakuriy
- B) Hamza
- D) Avloniy
- E) S. Ayniy

**44. Pedagogik olamiga savol-javob «Evristik» suhbat metodi-  
ni olib kirgan faylasuf kim?**

- A) Aflotun
- B) Suqrot
- D) Arastu
- E) Demokrit

**45. Qaysi javobda «Kadrlar tayyorlash milliy modeli» to'g'ri  
ko'rsatilgan?**

- A) Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan ishlab chiqarish
- B) Davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, madaniyat
- D) Oila, uzluksiz ta'lim, fan, madaniyat
- E) Madaniyat, shaxs, davlat va jamiyat ishlab chiqarish

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
3. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafoloti. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 1993.
4. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, O'zbekiston, 1994.
5. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqolol, iqtisod, siyosat mafkura. 1-tom. Toshkent, «O'zbekiston», 1996.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik konserni, 1997.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent, «O'zbekiston».
8. Karimov I.A. Ilm-ziyo salohiyati – yurt boyligi // Ma'rifat gazetasi, 1993-yil 21-iyun.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent, «Sharq», 1997.
10. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-tom. Toshkent, O'zbekiston, 1998.
11. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, «O'zbekiston». 1998.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 1999.
13. Karimov I.A. Sog'lom xalq, sog'lom millatgina buyuk ishlar-ga qodir bo'ladi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2004-yil, 8-dekabr.
14. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'l // «Xalq so'zi» gazetasi. Toshkent. (13.08.07-y.).

15. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001.

16. Muhammad Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, «Fan», 1983.

17. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar Sh.Qurbonov, H.Saidov, R.Ahliddinov. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik konserni Bosh tahririyati, 1999.

18. Pedagogika // O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. – Toshkent, «O'qituvchi», 1996.

19. Ochilov M., Ochilova M. «O'qituvchi» odobi. Toshkent, «O'qituvchi», 1998.

20. Ochilov M. Muallim qalb me'mori. Toshkent, «O'qituvchi», 2001.

21. Abu Ali ibn Sino. She'rlar va tibbiy doston. Toshkent, 1981.

22. Akmalov A. Dunyoviylik daxriylik emas // «Ma'rifat» gazetası. Toshkent (27.03.2004).

23. Jo'rayev N. «Agar ogoh sen...» Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik konserni Bosh tahririyati. 1998.

24. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo'yicha yordamchi uslubiy qo'llanma. Toshkent. Cho'lpon, 2003.

25. Ibrohim Haqqul. Ilmni kim vositai jahon etar... // «Tafakkur» jurnali. № 1. Toshkent, 2007.

26. Komilov N. Komil inson – millat kelajagi. Toshkent, «O'zbekiston», 2001.

27. Pedagogika. Darslik. R.Mavlonov tahriri ostida. Toshkent, «O'qituvchi», 2001.

28. Falsafa: qomusiy lug'at. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik konserni Bosh tahririyati, 2004.

29. Choriyev A. XXI asrda pedagogika fani // J. Xalq ta'limi. Toshkent. 2001. № 4.

30. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. Toshkent. «Movarounnahr». Yoqubov A. Sihat-salomatlik yili: mazmun va mohiyat. T.. 2005 yil.

31. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
32. Tolipov F. Terrorizm tahdidi va unga qarshi kurash. «O'zbekiston ovozi», 14.04.2005.
33. Uvatov U. O'zbekiston buyuk allomalar yurti. «Ma'rifat» gazetasi, 2005-yil, 1-oktabr.
34. Forobiy Abu Nasr. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. Toshkent, «Yozuvchi», 2002-yil, 14-bet.
35. Fitrat A. Najot yo'li. Toshkent, «Sharq», 2001.
36. Qayumov A., Hasanov S. Izlanuvchi olimlar // «Ma'rifat» gazetasi, 2006-yil, 15-noyabr.
36. To'raqulov X.A. Kamolot sari. Jizzax, 2007.
37. To'raqulov X.A. Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Toshkent. «Fan». 2006.
38. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Hoshimxonov M., Usmonov N., G'oziyev S. Nur sharqdandur. Toshkent. «Yangi asr avlodi», 2003
39. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev N. Vatan tuyg'usi. Toshkent. «O'zbekiston», 1996.
40. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild.
41. Quronov M. Otalar kitobi.
42. Hasanboyev J. va boshq. Pedagogika. Toshkent, «Fan», 2006.
43. Jabborov U. Sohibqiron davrida adolat // «Milliy tiklanish» gazetasi, 2007-yil, 11-aprel.
44. Bekmurodov M.. Toshkent, «Ma'rifat» gazetasi. 26.06.2002.
45. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. Toshkent, «Fan».
46. Yo'ldoshev J.F. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. Toshkent, «Sharq», 1996.
47. Mahkamov U. Axloq odob saboqlari. Toshkent. «Fan», 1998.
48. Soipnazarova F. Muqaddas qo'rg'on yoxud oila-milliy istiqlol g'oyasini singdirish omili // «Xalq ta'limi», 2001, №3.
49. To'raqulov X.A., Ibragimova G., Tog'ayeva Sh., Kushvaq-tov N.X. Barkamol avlod tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari // «O'MKXT mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammo-

lari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2001.

50. «Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori // «Umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standartlari va oʻquv dasturi (Boshlangʻich taʼlim)». Toshkent, «Sharq», 1999.

51. «UMKXTmi mazmunini shakllantirish va takomillashtirish muammolari» Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2001.

52. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori // Oʻzbekiston Respublikasi. Oliy taʼlimning meʼyoriy hujjatlari. Toshkent, 2001.

53. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. Toshkent, «Turon–Iqbol», 2006.

54. Muxamedov Gʻ.I., Toʻraqulov X.A. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari. Toshkent, «Fan», 2004.

55. Toʻraqulov X.A., Kamolova Sh.Oʻ. Talabalar ilmiy dunyoqarashini kengaytirishning uzluksizligi // «Yoshlar dunyoqarashi va ijtimoiy faolligini shakllantirish: muammo va echimlar» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qoʻqon, 2007.

56. Toʻraqulov X.A., Kamolova Sh.Oʻ. Talabalar ilmiy dunyoqarashini yuksaltirishning axborotli texnologiyasi // «Xalq taʼlimi» IMJ. № 6. Toshkent, 2007.

57. Oʻzbekiston milliy Ensiklopediyasi. 2-jild. Toshkent, OʻME Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.

58. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent, 1996.

59. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

60. Bozorov O., Shodiyev D. Oʻrta Osiyo tasavvufi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand, «Zarafshon», 1992.

61. Pedagogik atamalar lugʻati. Toshkent, «Fan», 2008.

62. Joʻrayev R.X. Jaholatga qarshi maʼrifat // «Xalq taʼlimi» jurnali. Toshkent, 2004. № 3.

63. Ma'naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar) // To'plovchi va mas'ul muharrir: M.M.Xayrullayev. To'ldirilgan qayta nashr. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

64. Farsaxonova D.R. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liq jihatlari // Xalq ta'limi. Toshkent, 2007.

65. Farsaxonova D.R. Talabalarga ma'naviy-axloqiy tarbiya berish texnologiyasi (o'quv-uslubiy qo'llanma). Toshkent. «Fan» va texnologiyalar. 2009.

66. Munavvarov A. K. Pedagogika. Toshkent, «Kamalak». 1991.

67. «Oila, mahalla va maktab hamkorligi» konsepsiyasi. Toshkent, 1993.

68. Abduqodirov A.A. Akademik litsey va KHK o'qituvchilarini malakasini oshirishda masofali o'qitish metodikasi // «Uzluksiz ta'lim». Toshkent, 2004. № 5.

69. Ismoilova Z.K. Pedagogikadan amaliy topshiriqlar: O'quv qo'llanma. Toshkent, «Fan», 2001.

70. Maxmutova G. Pedagogika fanlarini o'qitish jarayonida talabalarni – ma'naviy shakllantirish texnologiyasi // «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004. №1.

71. Mirzayev I. Ta'lim hamma uchun // «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2004. № 1.

72. Musayev U. Ta'lim jarayonini erkinlashtirish prinsiplari // «Xalq ta'limi» jurnali. Toshkent, 2005. № 4.

73. To'raqulov X.A. Ta'limni boshqarishda maqsadlar ketma-ketligiga erishish // O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 2001.

74. Zunnunov A., Mahkamov U. Didaktika. Toshkent, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2006.

75. Ismoilova Z. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent, «Istiqlob», 2003.

76. Turg'unov S.T., Maqsudova L.A. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari // Uzluksiz ta'lim. Toshkent. 2009. № 6.

77. To'raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta'lim muhitini yaratishning metodologik asoslari. Toshkent, 2010.

78. G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatqulov R. Pedagogika. Toshkent, 2005.

79. Abduqudusov O.A., Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent, O'MKHIITKMO va O'QTI, 2009.

80. Ismoilova Z.K. Pedagogika. Toshkent, MOLTUA, 2008.

81. Yo'ldoshev J.F., Shirinov M., Najmiddinova M. Ta'lim muasasalarida tarbiyaviy ishlar tizimiga innovatsion yondashuv // Tarbiya. Toshkent, 2010. № 2.

82. Hasanboyev J., Sariboyev H., Niyozov G., Hasanboyeva O., Usmonboyeva M. Pedagogika. Toshkent, «Fan», 2006.

83. Abduqodirov A.A. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. Toshkent, «O'qituvchi», 2002.

84. Rahimov S.R. Abu Ali ibn Sinoning psixologik-pedagogik qarashlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1987.

85. Tohirov M. Mirzo Ulug'bekning pedagogik qarashlari. Toshkent, «Fan». 1984.

86. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. T., UzinKomsentr. 2002.

87. Rahmonova V.S. Defektologiya va logopediya asoslari. T., 1991.

88. Mamedov K.K., Shoumarov B., Podobed V.P. Ruhiiy rivojlanihi sustlashgan bolalar haqida. Toshkent, 1999.

89. Mo'minova L.R., Qahramonova M.T. Logopediyadan terminlarning ruscha–o'zbekcha izohli lug'ati. T., «O'qituvchi», 1988.

90. Mo'minova L.R., Qahramonova M. Yu. va boshqalar. Logopediya. Toshkent, «O'qituvchi», 1993.

91. Shomahmudova R., Mo'minova L.R. Bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etish. Toshkent, 1981.

92. Alohida yordamga muhtoj bolalarni ma'naviy va estetik rivojlantirish. Toshkent, UzinKomsentr, 2002.

93. Shojiyeva K. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. Toshkent. «O'qituvchi», 1995.

94. Кандаков Н.И. Логический словарь–справочник. Москва, Наука, 1975.
95. Педагогическая энциклопедия. Москва. Советская энциклопедия. 1968.
96. Анталогия педагогической мысли Узбекистана. Москва, 1986.
97. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. Москва, Педагогика, 1989.
98. Подласый И.П. Педагогика. В 2-х кн. 1. Москва, Владос, 2001.
99. Рапацевич Е.С. Педагогика: Большая современная энциклопедия. Минск: Современ. Слова, 2005.



## Mundarija

<b>Kirish</b> .....	<b>3</b>
---------------------	----------

### 1-mavzu.

#### **Kadrlar tayyorlash milliy modeli.**

**Hozirgi jamiyatda pedagoglik kasbi va uning asosiy vazifalari**

1.1. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish .....	7
1.2. Kadrlar tayyorlash milliy modeli – pedagog kadrlarni tayyorlashning nazariy asosi .....	8
1.3. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar .....	16

### 2-mavzu.

#### **Pedagogika fan sifatida.**

##### **Pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari**

2.1. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning asosiy kategoriyalari va tushunchalari (tarbiya, o'qitish, ma'lumot) .....	22
2.2. Pedagogika fanining metodologik asoslari .....	25
2.3. Pedagogika fanining tarmoqlari. Fanlar tizimida pedagogikaning o'рни va ahamiyati .....	30
2.4. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari. Metod haqida tushuncha .....	38

### 3-mavzu.

#### **Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi**

3.1. Individ va shaxs haqida tushuncha. Shaxs – tarbiya obyekti va subyekti sifatida. Shaxsni shakllantiruvchi asosiy omillar .....	57
3.2. Shaxsni kamol toptirishda tarbiya va faoliyatning o'zaro bog'liqligi .....	63

3.3. Shaxs shakllanishining yosh davrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	66
3.4. Barkamol shaxs tarbiyasining ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Shaxs kamolotining yoshlar dunyoqarashidagi ahamiyati .....	76

#### 4-mavzu.

##### Tarbiyaning maqsad va vazifalari

4.1. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi .....	84
4.2. Hozirgi jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan shaxsni tarbiyalash – tarbiya maqsadi sifatida .....	86
4.3. Tarbiya vazifalari va mazmuni. Tarbiyaning aqliy, fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, iqtisodiy, ekologik, estetik yo'nalishlari haqida .....	92

#### 5-mavzu.

##### Tarbiya jarayoni mohiyati va mazmuni.

##### Tarbiya tamoyillari

5.1. Tarbiya jarayoni tushunchasi va tuzilishi .....	97
5.2. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, maqsad va vazifalari hamda o'ziga xos xususiyatlari .....	100
5.3. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari, qoidalari va tamoyillari .....	105

#### 6-mavzu.

##### O'quvchilar jamoasi – yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli

6.1. Jamoa haqida tushuncha, uning xususiyatlari va vazifalari .....	113
6.2. Jamoaning tarkib topishi va rivojlanish bosqichlari .....	117
6.3. O'quvchi-yoshlar jamoasiga pedagogik rahbarlik .....	123

#### 7-mavzu.

##### Tarbiyaning umumiy metodlari

7.1. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Ularning maqsadi, mazmuni va tasnifi .....	130
7.2. Tarbiyada ibrat-namuna ko'rsatishning tutgan o'rni .....	133
7.3. Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari .....	134

## 8-mavzu.

### Talaba-yoshlarni milliy mafkura ruhida tarbiyalash

8.1. G'oya va mafkura tushunchalari .....	139
8.2. Milliy istiqlof mafkurasining mazmun-mohiyati .....	140
8.3. Milliy mafkuramizning bosh g'oyasi va asosiy g'oyalari .....	142
8.4. G'oya va mafkuraning inson va jamiyat hayotidagi o'rni .....	144
8.5. Barkamol avlod tarbiya g'oyasini talabalar ongiga singdirishning zamonaviy axborot texnologiyalari .....	145
8.6. Milliy g'oyani o'rganish va targ'ib qilish barchaning ishi .....	153
8.7. «Milliy istiqlof g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o'qitish haqida uslubiy tavsiyalar .....	155

## 9-mavzu.

### Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va talaba-yoshlarning aqliy tarbiyasi

9.1. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quv tarbiya jarayonining maqsadi sifatida .....	161
9.2. Talabalarning dunyoqarashini yuksaltirish .....	166
9.3. Aqliy tarbiyaning vazifalari va mazmuni .....	168
9.4. Aqliy tarbiyani amalga oshirish yo'llari va shakllari .....	172

## 10-mavzu.

### Iqtisodiy tarbiya. Ekologik tarbiya

10.1. Iqtisodiy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsad-vazifalari .....	179
10.2. Iqtisodiy tarbiyada oila budjeti tushunchasi .....	180
10.3. Iqtisodiy tarbiyada ma'naviy qadriyatlar .....	181
10.4. Ekologik tarbiyaning mazmun-mohiyati .....	183
10.5. Ekologik tarbiyaning maqsad va vazifalari .....	186
10.6. Talaba-yoshlar ekologik tarbiyasida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish .....	188

## **11-mavzu.**

### **Fuqarolik tarbiyasi**

11.1. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni, maqsad va vazifalari .....	194
11.2. Davlat ramzlari va ularga nisbatan hurmat hissini shakllantirish .....	198
11.3. Talaba-yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash va fuqarolik tarbiyasini shakllantirish .....	203
11.4. Huquqiy ong va fuqarolik madaniyatining milliy mafkura bilan mushtarakligi .....	206

## **12-mavzu.**

### **Ma'naviy-axloqiy tarbiya va mehnat tarbiyasi**

12.1. Axloq va ma'naviy sifatlar .....	213
12.2. Shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	216
12.3. O'quvchilarning ma'naviy tarbiyasi va kamolotida e'tiqod tarbiyasining o'rni .....	218
12.4. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlari va vositalari .....	219
12.5. Axloqiy tarbiya berish yo'llari .....	224
12.6. Mehnat tarbiyasi va uning barkamol avlodni shakllantirishdagi ahamiyati .....	225
12.7. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari .....	226
12.8. O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari .....	228
12.9. O'quvchilar mehnat faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan pedagogik talablar .....	230

## **13-mavzu.**

### **Estetik va jismoniy tarbiya**

13.1. Estetik tarbiyaning mazmun-mohiyati .....	236
13.2. Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari .....	238
13.3. Estetik tarbiya berish vositalari .....	240
13.4. Jismoniy tarbiya mohiyati, maqsad va vazifalari .....	242
13.5. Jismoniy madaniyat .....	244
13.6. Jismoniy tarbiya ma'naviyati .....	246

13.7. Jismoniy tarbiyani tashkil etish yo'llari .....	247
Jismoniy tarbiya vositalari .....	249

#### 14-mavzu.

##### Oila tarbiyasi asoslari.

##### Tarbiyada oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilikning hamkorligi

14.1 Oilada bola tarbiyasini tashkil etish .....	256
14.2 Ta'lim muassasalarining ota-onalar bilan olib boradigan faoliyat turlari .....	258
14.3. O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla va o'quv muassasasining hamkorligi mazmuni .....	262

#### 15-mavzu.

##### Didaktika-pedagogik ta'lim nazariyasi sifatida

15.1. Didaktika – ta'lim va o'qitish nazariyasi ekanligi .....	267
15.2. Didaktikaning maqsad-vazifalari va asosiy tushunchalari .....	269
15.3. Hozirgi davrdagi didaktika rivojining asosiy yo'nalishlari .....	278
15.4. Ta'lim paradigmatlari .....	286

#### 16-mavzu.

##### Ta'lim jarayoni mohiyati, ta'lim jarayoni – yagona tizim sifatida

16. 1. Ta'lim jarayonining mazmun-mohiyati .....	291
16.2. Ta'lim jarayoni – yagona dinamik tizim sifatida .....	292
16.4. O'qitish, o'qitish jarayonlari tasniflari va ularning ta'lim jarayonidagi o'zaro aloqadorligi .....	295
16.5. Sharq va g'arb mutafakkirlarining ta'lim sohasidagi gnoseologik g'oyalari .....	298
16.6. Ta'lim jarayoni va ta'lim oluvchilar ruhiyatidagi o'zaro aloqadorlik .....	301
16.7. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining uyg'unligi .....	303
16.8. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari .....	305

## 17-mavzu.

### Ta'lim mazmuni. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni

17.1. Zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti va uning mazmun-mohiyati .....	318
17.2. Ta'lim mazmunida «Fan → ta'lim → amaliyot» integratsiyasining zarurligi .....	319
17.3. Zamonaviy ta'lim mazmunini belgilashga asos bo'ladigan me'yoriy va qonuniy asoslar .....	321
17.4. DTSning tasnifi va uni shakllantirishga qo'yilgan asosiy talablar .....	322
17.5. Ta'lim mazmunini shakllantirish tamoyillari .....	323
17.6. Ta'limni demokratlashtirish va insonparvarlashtirishning mazmun-mohiyati .....	325
17.7. Ta'lim mazmunini tabaqalashtirish. Ta'lim mazmunida milliy va jahon tajribalarini muvofiqlashtirish .....	327
17.8. Ijtimoiy-gumanitar, tabiiy-matematik va maxsus fanlarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv rejalarida bir-biriga bog'liqligining samaradorligiga erishish. Majburiy va ixtiyoriy o'quv fanlari .....	329
17.9. Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quv rejaları. O'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalar tavsiflari va ularni yaratishga yangicha yondashuv .....	333
17.10. Elektron o'quv adabiyotlari va ularni ishlab chiqishga qo'yilgan talablar .....	337
17.11. O'qituvchilarni o'quv dasturlari va darsliklardan ijodiy foydalanishga yo'llash .....	342
17.12. O'zbekiston respublikasining «ta'lim to'g'risida»gi Qonuni asosida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o'quv fanlari bo'yicha davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va hayotga uni tadbiq etish .....	347

## 18-mavzu.

### Ta'lim metodlari va vositalari

18.1. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha .....	356
18.2. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida .....	357

Ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar .....	357
18.3. Ta'lim metodlari va vositalarining tavsifi .....	358
18.4. Sharq mutafakkirlarining ta'lim metodlari haqidagi fikrlari .....	362
18.5. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari. Mustaqil ish va uning turlari .....	363
18.6. O'qituvchilarning pedagogik mahorat tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari .....	366

### 19-mavzu.

#### Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari.

##### Dars – ta'lim tizimini tashkil etishning asosiy shakli sifatida

19.1. Ta'lim turlari (illyustrativ, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim) va shakllarining tavsifi .....	374
19.2. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari .....	379
19.3. Ta'limni tashkil etish shakllari va ularning didaktikada rivojlanishi .....	381
19.4. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari (konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar) .....	389

### 20-mavzu.

#### O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari, bilim natijalarini tekshirish va tashxis qilish – didaktik tushuncha sifatida, uning vazifalari

20.1. Ta'lim natijalarini tekshirish va baholashga quyilgan talablar .....	398
20.2. O'qituvchi nazorati va ta'lim oluvchilar faoliyatini baholashning uyg'unligi .....	403
20.3. Bilimlarning natijalarini baholashda pedagogik testlarning roli .....	404
20.4. Baholash mezonlari va ulardagi xatoliklar .....	406

## **21-mavzu.**

### **Korreksion pedagogika**

21.1. Defektologiya fani va uning dolzarb masalalari .....	418
21.2. Sensor nuqsonli bolalar .....	420
21.3. Oligofrenopedagogika fanining bahsi va undan foydalanish uslublari .....	422
21.4. Aqli zaif o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish va o'rganishning o'ziga xosligi .....	425
<b>Test savollari .....</b>	<b>432</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....</b>	<b>441</b>



УДК: 371 (075)

ВВК 74.03я73

**J. Hasanboyev, X.A. To'raqulov,  
I.Sh. Alqarov, N.O'.Usmanov**

## **PEDAGOGIKA**

Oliy o'quv yurtlari uchun darslik

Toshkent — «Noshir» — 2011

Muharrir *M.Ahmedov*

Texnik muharrir *D.Mamadaliyeva*

Sahifalovchi *A.Tillaxo'jayev*

Musahhah *A.Boyxon*

Litsenziya AI №096 23.11.2007. Bosishga ruxsat etildi 5.08.2011.

Bichimi 60×84<sup>1/16</sup>. «Times New Roman» garniturasida. Ofset bosma qog'ozida. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma taboq 28,5.

Adadi 500 nusxa. 36-sonli buyurtma.

MChJ «NOSHIR» nashriyoti,  
Toshkent sh., Langar ko'chasi 78-uy.

«NOSHIR» O'zbekiston-Germaniya qo'shma  
korxonasi bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Langar ko'chasi 78-uy